

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RAYXON RASULOVA BAXRITDINOVNA

**ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTINING YETAKCHI
TAMOYILLARI
O‘quv qo‘llanma**

Toshkent – 2024

UO‘K:
KBK:

Rasulova R.B. /Istiqlol davri o‘zbek adabiyotining yetakchi tamoyillari/ o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Zebo Prints”, 2024. – 348 bet

Mazkur “Istiqlol davri o‘zbek adabiyotining yetakchi tamoyillari” nomli o‘quv qo‘llanma “O‘zbek tili va adabiyoti” ixtisosligi bo‘yicha ta’lim olayotgan – bakalavr va magistr yo‘nalishidagi talabalar uchun mo‘ljallangan. Unda o‘zbek milliy adabiyoti namunalarida poetik tafakkur yangilanishi evolyutsiyasini o‘rganish xalqimiz badiiy tafakkurining shakllanish tarixini yoritishga muayyan darajada xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan. Mustaqillikka erishilgandan keyin boshlangan ma’naviy tiklanish jarayoni o‘zbek mumtoz adabiyotiga oid qadimiy va zamonaviy manbalarga xos poetik xususiyatlarni chuqur tadqiq etish ehtiyojini yuzaga keltirib, bugungi kun adabiyotining ham yetakchi tamoyillarini belgilab berdi. Ushbu o‘quv qo‘llanma yangi vaziyatda yaratilayotgan badiiy asarlar tahliliga bag‘ishlangan hamda ular zahirida yotgan masala, muammolar: istiqloq mohiyati, milliy g‘oya va mafkura, modern yo‘nalishidagi asarlarning o‘zga xos xususiyatlari, shuningdek, milliylik ifodasi, milliy xarakter, fojiiylik mohiyati, inson tabiati, ma’naviyati, ruhiyati, yangi tamoyillar, tarix hamda tarixiy shaxslarga munosabat yuzasidan tadqiq qilingan.

Mas’ul muharrir:

Shukurullo Mardanov -pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

S.Matchon - Pedagogika fanlari doktori, professor

M. Tadjibayev - filologiya fanlari doktori

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil “29” Maydagi “194”-sonli buyrug‘iga asosan (guvohnoma raqami № 194 - 459) nashrga tavsiya etilgan

ISBN 978-9912-649-87-3

© Rasulova R.B., 2024

©“Zebo Prints”, 2024

SO‘Z BOSHI

Bugungi globallashuv jarayoni millatlarning o‘ziga xos jihatlarini yemirib borar ekan insonlar qiyofasini ham o‘zgartirib bormoqda. Bunday sharoitda har bir millat ahlini bugungi dunyo bilan integratsiyalashgan, ijtimoiy talablardan uzilmagan holatda o‘z qiyofasini saqlab qolishiga erishish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shaxs shakllanishida badiiy asar o‘qishning beqiyos o‘rni bor. Chunki bugungi odam kuchli o‘zgarishlar og‘ushida yashamoqda. Yaratilayotgan badiiy adabiyot millatning ma’naviy – axloqiy o‘zligini ta’minlashi ustuvor vazifaga aylanmoqda, bugungi jamiyat keskin ziddiyatlar ichida borar ekan badiiy adabiyotga yanada kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Jamiyat ma’naviyatining yuksalishida badiiy adabiyotning ulkan o‘rni bor. Hayot va jamiyatdagi barcha ezgu va insoniylik nuqtayi nazaridan bo‘ladigan o‘zgarishlarning asosi inson tafakkuri natijasidir. Tafakkur o‘zgarishi bilan bog‘liq ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarni yuksak cho‘qqiga qiyoslash mumkin. Bu ruhiyat bilan bog‘liq masaladir. Ma’naviyat, milliy axloq asosi bo‘lgan dinidan, o‘tmishda o‘zini kim bo‘lganligini namoyon qilish qudratiga ega bo‘lgan tarixi, milliy qadriyatlaridan mahrum bo‘lgan xalq istiqloldan keyin bunga muyassar bo‘ldi. O‘zidan, o‘z millatidan g‘ururlanish tuyg‘usi yuzaga keldi. Chunki u ruhsizlikdan qutuldi, ruhi ozod, hur bo‘ldi. Ruhi hur odamning yuragi botir bo‘ladi. U hamma narsani yorqin ko‘radi, mohiyatini to‘g‘ri anglaydi. Hayotda, jamiyatda ro‘y bergan o‘zgarish, albatta, adabiyotda o‘z aksini topadi. Kechagi adabiyot ko‘proq ijtimoiylashgan, voqealar zamirida ko‘proq hayot ziddiyatlarini ko‘rsatgan bo‘lsa, bugungi adabiyot esa o‘z nigohini

insonning botiniy dunyosiga qaratdi, uning ruhiy olamini, tuyg'ularini ochib berish borasida kishini o'zini o'ziga tanitdi. O'zligini tanigan, o'zining milliy qiyofasini yaratgan, aqliy – axloqiy yetuk shaxs globallashuv jarayonidagi tashqi ta'sirlardan o'z qiyofasini yo'qotib qo'ymaydi, aksincha, uning qiyofasi oldingidan ham kuchliroq iroda bilan shakllanadi. Hayot haqiqatidan ma'lumki, ijodkorning falsafiy tafakkuri, hayotiy mushohadasi erkin berilsa, davr ruhining, xalqning orzu-istaklarining, inson kechinmalarining ta'sirchan va yuqumli bo'lishiga imkon yaratiladi. Badiiy asardagi qahramonlarning holat - kayfiyatlari, iztirob-quvonchlarini tuyish orqali odamiylik xususiyatlari shakllanadi. Odam atrofdagilar bilan o'zini solishtira boshlaydi, ularning o'rniga o'zini qo'ya boshlaydi va yetuk ijtimoiy shaxsga aylana boradi. Bunday inson kelajakda o'z o'rnini topishga qiynalmaydi, o'ziga yoqqan narsalarni o'zgalarga ham ravo ko'ra boshlaydi, o'ziga yoqmaganlar boshqalarga ham yoqmasligini his eta oladi, odamiylik sifatleri paydo bo'la boradi. Globallashuv jarayoni odamning surati-yu siyratini o'zgartirib yubormoqda, endilikda hech kimni bir xil fikrlatib, bir xil qabul qildirib bo'lmay qoldi va bu to'g'ri ham. Har kim o'z haqiqatiga ega, har kim o'z javobiga ega zamonda yashayapmiz. Shunday ekan bugun o'zligini unutmasdan va o'zgalarga ham xalaqit bermasdan yashash davr talabidir. Bugungi adabiyotning yetakchi tamoyillari jamiyatdagi odamlarni boricha qabul qiladigan, ular erkiga zug'um o'tkazmaydigan qahramonlarni yaratishga yo'naltirilishi zarur. Bugungi odam dunyodan uzilib yashay olmaydi, shunday ekan badiiy adabiyot insonlarni ijtimoiylashuviga erishmog'i darkor. Bugungi o'zgarishlar va sharoitlar bilan hisoblashgan holda inson qalbini yaratishga erishilmasa

kutilgan natijani bermaydi. Inson qalbi iztiroblari kuylanar ekan zamon evrilishlari bilan qorishib ketmasa, soxta va qalbakilikka olib keladi, o'z o'quvchisini ham topa olmaydi. Chunki inson shu asarda yashashiga erishish kerak, uni kuzatuvchilikda qoldirish mutlaqo xatodir. Kitob odamga yolg'iz emasligini, barcha insonlar o'zi singari insonligini, ular bilan hisoblashish kerakligini ko'rsatib berishi zarur. Badiiy asarga o'tmishdagi singari faqat pand – nasihat, ibrat va namuna bo'lishdan tashqari, zavq- shavq berish, tuyg'ular olamini noziklashtirish omili deb qarash lozim. Bugunni bilish, ertaning yo'nalishlarini belgilashda o'tmishni yaxshilab o'zlashtirish zarur. Mazkur qo'llanmada ushbu bildirilgan fikrlar istiqloldan keyin yuzaga kelgan lirika, doston, hikoya, qissa, roman, drama, komediyalar tahlilida ochib berilgan va aniq misollarda asoslangan. Har bir mavzu bugungi adabiyotning dolzarb nazariy masalalariga bag'ishlangan va aniq asarlar misolida nazariy hamda estetik yo'nalishdagi tahlilda yoritilgan. Bunday asarlarda aks etgan umuminsoniy g'oyalar yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning ezgu an'analari ruhida tarbiyalashda, ma'naviy kamolot sari yetaklashda muhim badiiy-estetik hamda amaliy ahamiyatga ega. Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazishda bu o'ta muhimdir. Ushbu o'ta mas'uliyatli vazifani amalga oshrishda adabiyotimiz va ijod ahli uchun istiqlol sharofati ulkan imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Badiiy adabiyotning, ayniqsa, yosh avlod ma'naviy kamolotidagi beqiyos o'rnini belgilash adabiyotshunoslikning o'zak vazifalaridan biri sifatida adabiyotimiz o'ziga xosliklarini belgilash va ijodkorlar badiiy mahoratini baholashda

alohida ahamiyat kasb etishi esa o'quv qo'llanmaning dolzarbligini asoslaydi.

Ushbu muammolar qamrovini kengroq olishda H.Karimov, I.Sulton, Q.Yo'ldoshev. U. Normatov, Sh. Turdimov, N. Sharopova, I.Haqqul, Ya. Qosimov, B.Karimov, U.Hamdamiy, X.Umurov, U.Azim, H.Abdusamatov, Y.Solijonov, B.Jamilov, N.Rahimjonov, D.Quvvatova, N.O'roqova singari mualliflarning darslik, qo'llanma va tadqiqotlari hamda xorijiy manbalarga murojaat qilindi.

1-MAVZU: ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATINING TARAQQIYOT TAMOIYILLARI

Reja:

1. Bugungi she'riyat o'zgarishidagi yetakchi tamoyillar.
2. Adabiy jarayonga munosabat o'zgarishi.
3. Bugungi kun she'riyatining o'ziga xos xususiyati.
4. She'riyatda falsafiy g'oya ifodasi.

Istiqlol ma'naviy-madaniy qadriyatlarimizga, milliy ongushuurimizga, jumladan, adabiyotimizga nisbatan munosabatni tubdan o'zgartirdi. Endi nafaqat adabiyotimiz tarixiga, balki zamonaviy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha g'oyaviy-estetik mezon bilan yondashishni taqozo qildi. Zamonaviy o'zbek she'riyatining ma'naviy miqyosi, badiiy salohiyati sezilarli darajada o'sdi. Bugungi kun she'riyatining tabiati va uning zamiridagi falsafiy g'oyani ochib berish, uning yetakchi g'oyaviy-badiiy tamoyillarini aniqlash she'riyatining istiqboldagi taraqqiyotini ham oldindan belgilashga imkon beradi.

Ijtimoiy hayot evrilishlari doimo lirikada aks-sado beradi va uning tamoyillarini belgilaydi. Bugungi she'riyatda ana shu tamoyillar yetakchilik qiladi. O'zbekiston qahramoni Erkin Vohidov o'zining kechagi kun holatini "Vatan umidi" she'rida shunday bayon qiladi:

Garchi ismim Erkin, erki yo 'q,

Bandi kishan bo 'ldim,

Ko 'zim bog 'liq, dilim dog 'liq,

Tilim yo 'q, besuxan bo 'ldim.

“Muazzam Sayxunu, Jayxun labida tashnalab qoldim. Kiyintirdim jahonni jismi uryon, bekafan bo‘ldim”, — deb o‘tmishning erksizlik fojiasini yoritadi:

Chekibdur Bobur Furqat Vatan hajrida afg‘onlar,

Men ersam, vah, ne g‘urbatkim, Vatanda bevatan bo‘ldim.

Erksiz xalq qanchalik afgor bo‘lishini inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqat bilan asoslagach, mustaqillikdan shukronligini izhor qiladi:

Shukrkim, keldi istiqlol,

Umidim rost qil, Oллоhkim,

Ki shoyad beqafas bulbul

Kabi sohib chaman bo‘ldim.

“O‘zbekiston bog‘lariga qaytib keldi bulbullar” she’rida esa istiqlol mohiyatini ochadi:

Mana bu kun bog‘larimga qaytib keldi bulbullar,

Hur Vatanga hur qo‘shiq aytib keldi bulbullar.

Shoir o‘lkasining bulbullardan ayru zamonlarini ko‘rsatib beradi:

Tomigacha paxta ekan elda netar bulbullar,

Osmonidan zahar yoqqan yurtida netar bulbullar!

Chamanzorlar shudgor bo‘lsa, bulbul qandoq yayrasin,

Erk qushchasi erk yo‘q joyda qandoq qilib sayrasin, — deya bulbul timsolida istiqloldan mamnun.

Istiqlolning abadiy qolishini umid qiladi:

Chamanzorda sho‘x sayrasin, zavqqa to‘lsin bulbullar,

Qaytmas bo‘lib vatanimga kelgan bo‘lsin bulbullar.

Ulug‘ iste’dodning mohiyatni idrok etishi, taqdim etishi yuksak bo‘ladi. Abdulla Oripovning —istiqloldan keyin yozgan she’rlarida

faylasufona mushohada, donishmand nasihatidek kishiga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, hayotdagi o‘rnini belgilaydi, istiqlool bergan ne‘matlar juda go‘zal tarzda talqin etiladi:

Emikdoshim, ay, qardoshim, quloq tut menga,

Ushbu ko‘hna, kahkashonda mag‘rur tutgan bosh.

Sen zaminga loyiqdirsan, zamin ham senga,

Senikidir endi bu yer, seniki quyosh.

Qo‘lingda erk, boshda yalov, tilingda surud,

Vataning bor, bola-bog‘chang, or-nomusing bor.

O‘zbekiston deb atalgan muqaddas hudud,

O‘z Davlating, mamlakating, o‘z Qomusing bor. (“O‘zbek qomusi”).

A.Oripov kinoya ohangi bilan masalaning ikki tomoniga haqiqat ko‘zi bilan qaraydi va ongni mohiyatga yo‘naltiradi. Shu sababli mulohaza yuritishga da‘vat etadi.

Turkistonning bog‘larida bulbullari bor, holbuki,

Xor bo‘lsa ham, tog‘day baland ko‘ngillari bor, holbuki.

Mushohada qilinsa, “Holbuki” zimmasiga yuklangan shoir g‘oyasini anglash qiyin emas. Insoniy dardni kuylagan she‘riyat yuqimli va ta’sirchan bo‘ladi. Chunki qalb kulgidan emas, dard va iztirobdan poklanadi. A.Oripov lirik qahramonining dard va armonlari hamisha umumiylik kasb etadi, xalqning dard va armonlari kuylanadi. “Sharof Rashidov xotirasiga” she‘rida bir kishi xotirasidek tuyulsada mushohadaga bilan yondashilsa, xotira zaminida butun xalqning bosib o‘tgan yo‘li, dard va fojiasidan sado beradi:

*Erksevar ellarning orzusini yoqlab,
Xayol dengizida tunlar suzgansiz.
Istiqlol soʻzini yurakda saqlab,
Siz qafas ichida gullar tuzgansiz.*

Oʻzbekistonning mustaqil davlat maqomiga ega boʻlishi bilan milliy uygʻonish gʻoyalari balqib turgan sheʼrlarni barcha shoirlarning ijodida kuzatish mumkin. Jumladan, Sirojiddin Sayyid yurtiga muhabbatini quyidagicha ifodalaydi:

*Ochsang davronlarning kitoblarini,
Qancha karvonlarning ertagi bordir.
Tingla donolarning xitoblarini,
Egasi bor yurtning-ertasi bordir.*

Erk gʻoyalari, xalqning oʻtmishi, buguni va ertasini kuylagan shoirlarimizdan Muhammad Yusufning ijodi xalq poetik ijodiga hamohang jarangladi. Xalq poetik ijodini chuqur oʻrganib, ulardan oziqlangan shoir goh xalq qoʻshiqlari-yu laparlarni, goh xalq maqollari-yu iboralarini mahorat bilan sheʼrga singdirishi bilan yoshlarning milliy gʻururini oshirishda beqiyos oʻringa ega.. “Kechagina qishloqdagi qizlarning bari”, “Koʻnglimdagi yor”, “Onaizor”, “Samarqand”, “Kelinchak”, “Eslash”, “Sevgi sadosi”, “Madhiya”, “Iftixor”, “Vatanim”, “Chimildiq”, “Xalqona”, “Ajab”, “Qiyosi yoʻq aslo” kabi asarlari shunday asarlardandir. “Xalq boʻl, elim” sheʼri orqali esa xalq ongiga birdamlik, hamfikrlikni singdirishga, sobiq ittifoq davrida oʻzligini unutayozgan elini, xalq boʻlib yashashga chorlaydi va asli qanday yashaganlarini bir-bir eslatadi.

*Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim,
Ruhini shod etay desang – xalq bo‘l, elim”.*

O‘zbekiston qahramoni, adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov u haqida shunday yozadi: “Muhammadning she’rlari bir qarashda juda sodda, jo‘n yoziladiganga o‘xshab tuyuladi. Ammo unga o‘xshatib yozib ko‘ring-chi? Qo‘lingizdan kelmaydi! Uning oson yoziladiganga o‘xshab ko‘ringan misralari muxlislarini yig‘latdi, kuldirdi, o‘z og‘ushiga tortib oldi”. Shuningdek, Muhammad Yusufning she’rlari sof milliyligi, milliy ruhning mujassamligi bilan ajralib turadi. U chiranib yozmaydi, so‘zlarning o‘zi go‘yo tabiiy ravishda quyulib keladi. U miyani chatnatib masala, g‘oya qidirmaydi. Shoir ularni kashf qiladi, tasvirlarga ko‘milgan fikrlardan keltirib chiqaradi. Shundan uning she’rlari maftunkor va jozibali. Uning she’rlarining mazmunini og‘zaki gapirib, bayon qilib bo‘lmaydi. Chunki ularning asosini voqelik emas, tuyg‘ular, dardlar tashkil qiladi. Tuyg‘u va dardlarni esa gapirib bo‘lmaydi. U his qilinadi. Muhammad Yusufning she’rlari ham ana shunday, uni his qilish lozim. His qilingan narsa yurakka borib tegadi. Yurakka tekkan narsaning ta’siri katta bo‘ladi, bir holatdan ikkinchi holatga soladi. Uning elga mashhurligining siri ham shundadir.

Yangi muammolar, insonlar ichki dunyosi va intilishlariga bo‘ysundirilgan yangi obrazlar, tasvir vositalari, g‘oyalar Rauf Parfining “Tavba”, Sirojiddin Sayyidning “Qaldirg‘ochlarga ber ayvoningni”, “Ko‘ksimdagi zangorlarim”, “Vatanni o‘rganish,” Matnazar Abdulhakimning “Oydinlik”, Faxriyorning “Ayolg‘u”, Mahmud

Toirning “Haqni tanib“ nomli to‘plamlari, Tohir Qahhor, Qutlibeka Rahimboyeva, Minhojiddin Mirzo va Iqbol Mirzolarning qator yangi she’rlari orqali o‘z ifodasini topa boshladi.

Rauf Parfi “hayot jumboqlaridan hayratlanish”, lirik qahramon to‘lg‘onishlari bilan keyingi davr she’riyatini boyitdi, adabiyotimizda o‘chmas iz qoldirdi. Uning qalbi doimo bedor edi, Vatan qayg‘usi bilan yashadi va shu dard qalbini titratib turgan:

Qachon tong otadi mening yurtimda,

Qachon ado bo‘lar g‘amga botgan g‘am?!

Adabiyotshunos olim O.To‘laboev 2015-yil 18 – fevralda yozgan “Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlari” nomli maqolasida shoirning nafaqat ijodini, balki qalbini chizib bergandek tuyg‘u uyg‘otadi. “... *Rauf Parfi muhabbat qo‘ygan dunyo adabiyotining vakillaridan biri Vilyam Shekspirdir. R. Parfi sonetchilikda Shekspir yo‘lini tutdi, o‘sha yo‘lda o‘zbek sonetchiligini yangi bosqichga ko‘tardi... Rauf Parfiga kuchli zavq bergan va ruhlantirgan shoirlardan yana biri – Jorj Bayron. Ingliz romantik she’riyatining dahosi qalamiga mansub “Manfred” dramatik dostoni R. Parfi tomonidan tarjima qilingan. Adabiyotshunos N. Rahimjonov bir maqolasida shoir bilan bo‘lgan o‘zaro suhbatdan shunday parcha keltiradi: “Manfred” menga judayam yoqib qoldi. Hamma narsani bilasiz-u, aslida hech narsa yo‘q. Unda ruhiyat jadayam baland, o‘zgacha. Ruhimga yaqin. Unda shunday ozod fikrlar borki, rohatlanib qotib qolasiz. Manfred – dahshatli obraz. Manfred – ozod odam, hech narsaga bo‘ysunmaydi. Va hech qanday mute‘lik ko‘rinishini tan olmaydi...”(4)*

Rauf Parfining Bayron shaxsiyati va she'riyatiga ruhiy yaqinligi uning "Bayronning so'ngi safari"(5) she'rida ham ko'ringan. ...

1823 yilda Gretsiyada milliy-ozodlik harakati boshlanib ketgan edi. Qadimgi yunon madaniyatining ashaddiy muxlisi bo'lgan Bayron ushbu kurashda ishtirok etishni o'zining ham insoniy, ham shoirlik burchi deb bildi. 1824 yil 19 aprelda o'limi oldidan u shunday degan edi: "Men unga (Gretsiyaga – O.O.) vaqtimni, mol-mulkimni, sog'lig'imni berdim – bundan ortig'ini qilishim mumkinmi? Endi esa unga hayotimni beraman". Rauf Parfi qalbini o'ziga rom etgan tuyg'u – bu Bayronning milliy-ozodlik harakatiga ishtirok etishi edi.

Rauf Parfi murojaat qilgan dunyo adabiyoti vakillari uch jihatdan: yo Ozodlik tuyg'usi bilan, yo Vatan qayg'usi bilan, yoxud estetik tamoyillari bilan shoirga yaqin turadi. Ba'zan ularning uchalasi ham mujassam bo'lib kelgan. Chililik shoir Pablo Neruda Rauf Parfiga mana shunday rishtalarning har biri bilan bog'liq. Shuning uchun ham shoirimiz uning nafaqat she'riyati, balki shaxsiyatiga ham katta hurmat bilan qaragan edi. Uning "Pablo Neruda o'limiga" she'ri bunga dalil. She'rda R. Parfi uni "Chilining oppoq tongi", "Ozodlikning so'ngsiz osmoni", hatto, Ozodlik osmonining quyoshi degan so'zlar bilan ta'riflaydi...

... "Bas, mening uchta pirim bor, — deydi Rauf Parfi bir maqolasida, — Yassaviy pirim, Navoiy pirim, Thakur pirim".(9) Shoir jahon adabiyoti namoyandalaridan birortasini Robindranath Thakurchalik ulug'lamagan. Yassaviyu Navoiylar, shak-shubhasiz, milliy-ma'naviy yo'limizning o'zgarmas mayoqlari. Thakur esa istibdod iskanjasidan o'z millatini olib chiqish yo'llarini yoritgan daho ijodkor. U o'zining nafaqat

yurtu millatiga muhabbati, balki shu vatanning milliy ozodligi yo‘lidagi jasorati bilan ham Rauf Parfiga ustoz.

Robindranath Thakur she’rlaridan birida: Oh. Hindiston, onajon, qo‘shiqlarim sen uchun, Yuragimiz seniki – o‘zga bizda nima bor, — desa, Rauf Parfi:

Oh, ona Turkiston, kuylayman yonib,

Dunyo jur’atini berding qo‘limga.

Men endi angladim Turkiy Dunyoni,

Mana, men tayyorman endi o‘limga(10), —

deb yozgan edi. Ulug‘ hind shoiri: “Men she’rlarimda birorta ham yolg‘on aytganim yo‘q”, — degan bo‘lsa, o‘zbek shoiri: “Yolg‘on – iste’dodning kushandasi. Yolg‘on yozgan shoirning ruhi o‘ladi”, — degan edi. Demak, Thakur Rauf Parfiga vatanparvarlikdan tortib, to ijob tamoyillarigacha ustoz hisoblanadi”.(O.O.)

Bu haqda Q.Yo‘ldoshev shunday yozadi: “R.Parfi olamni biror kamchiliksiz ko‘rgisi keladi. Atrofdagi nohaqlik dunyoning bir dunyo kirlikka to‘laligi, qirg‘inlar, zo‘ravonlik, adolatsizlik, zulm shoirni norozi qiladi. Uning she’riyatidagi murosasizlik ildizi ayni shu yerda. Shoirning “Agar yurak yutib qilsam oshkor, So‘zlarim zulmga otilgan o‘qdir” tarzidagi iqrori ham shaxsiyatining, ham ijodining mohiyatini aks ettiradi. Uningcha, ijodkor uchun murosa, qoniqish o‘lim demakdir”¹. **Aynan shu nuqtada chinakam san’atkor million-million odamlardan farq qilib yashaydi va olamdan etagini siltab o‘tib ketadi. Eng avvalo shoirning, alohida olingan bir insonning ichki olamiga teran bir**

¹ Қ.Йўлдошев. Ёник сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2006, 370-бет.

yo'sinda nigoh, tashlashga, uni yanada siniq tasvirlashga intilganini kuchli bir mehr bilan ta'kidlaydi va yana yozadi: "R.Parfi- hayot haqiqatlarini ko'rsatishdan ko'ra, ko'ngil haqiqatlarini, ruhiyat chinliklarini ko'rsatishga moyil. Hech kim ko'rmagan holatni hech kimga o'xshamaydigan tarzda ko'rsatish uning qismati². Rauf Parfi she'rlaridagi tuyg'ulari yolg'ondan holi. Rauf Parfi 60-yilning o'rtalaridan kechagi tuzumning mohiyatini anglagan va istiqlolni orziqib kutgan va unga qattiq ishongan. Chunki tarixda mustaqil bo'lgan davlat, albatta, mustaqil bo'ladi, bo'lishi muqarrar! Bu fikrlarni Karim Bahriyevning "Evrilish" she'ri bilan davom ettirsak maqsadga muvofiq bo'ladi:

Turg'un davrga chizgi

Bugun Azon emas, uyg'otar Gimn,

Masjidga kirishga patta kerakdir.

Sovutlarni qo'ydik yo'lakka to'shab,

Kulliyotni qozon tagiga yoqdik.

Endi o't tulporlar yugurmas kishnab,

Otni so'yib yedik, shunaqa ishlar.

Janggohlarga paxta ekib tashladik,

Muzeylarga tushdi keskir qilichlar.

Kesilib qog'ozga aylandi izziz

Shoirilar «sarvqad» deb yozgan chinorlar –

Ularga bitildi dunyoqarashni

Shakllantiruvchi ilg'or shiorlar.

² Қ.Йўлдошев. Ёник сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2006, 371-бет.

*Demak, siz bekorga turibsiz hurkib,
Hech kim uyg‘onmadi biz aytgan so‘zdan.
Bugun o‘ltiribmiz chivinni qo‘rib,
Endi qo‘rqmasa ham bo‘ladi bizdan...*

Ushbu satrlar Istiqlol mohiyatini to‘la anglashimizga beminnat xizmat qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda Ibrohim G‘afurovning “Sharq yulduzi”jurnalining 2011-yil, 5-sonida e‘lon qilingan maqolasini keltirib o‘tishni lozim topdik.

“Keyingi yigirma yil ichida she‘riyatning mundarijasida Vatan, istiqlool, ma‘naviyat bosh o‘rinni egalladi. Turlicha talant, turlicha adabiy tajriba, turlicha yoshdagi ijodkorlar yangi ijtimoiy voqelik va mustaqillikning real amalga oshayotgan g‘oyalari ta’sirida yig‘ilgan yurtning inson hayotidagi ma‘no va mazmunini o‘zlari uchun qaytadan kashf qilish yo‘liga kirdilar. Mustaqillik va uning qadriyatlarini kashf etish, ozod inson sifatida o‘z-o‘zini kashf etish, o‘z o‘rnini belgilash bilan ajralmagan holda chambarchas bordi. She‘riyat an‘anaviy tarzda obrazli fikrlash, rang-barang hayajonli kechinmalarni bayon etish, dil yorish va ifodalashda davom etdi. Ammo, voqelikning mazmuni endi global ravishda o‘zgardiki, bu, tabiiy, shoirlarni mazkur tarixiy-ijtimoiy voqelik xarakteriga mos badiiy ifoda usullar, yangi shakllar, ta’sirchan vositalarni topishga undadi. Erkin fikrlash, erkin yozish shoir oldiga erkin mas‘uliyat egasi bo‘lish zarurligini ko‘ndalang qo‘ydi. Erkin odamning dunyo va jamiyat oldidagi erkin mas‘uliyati – Cho‘lpon va Qodiriy orzu qilgan haqiqiy ma‘nodagi mas‘uliyatlar mas‘uliyati ekanligini ong va yurak anglovi jarayoniga kiritdi. Bu erkin realizmga

olib kiruvchi sinergetik intilishlarni talab qildi va yuzaga chiqardi. She'riyat hech qachon davr talablaridan tashqarida yashagan emas.

Yigirma yillik tarixiy ulush mobaynida, she'riyatda ifoda usullarini yangilash yo'lida ijodiy izlanishlar diapozoni kengaydi. Bunga ushbu davrda chiqqan o'nlab she'riy kitoblar misol bo'la oladi.

Inson qalbiga faqat she'riyat kiradi. Odam yuragini faqat she'riyat larzaga soladi. She'riyat odamni ruhlantiradi. Odamni uyg'otadi. Insonni umidlantiradi. Bu idealistik gapga o'xshaydi, ammo, adabiyotning haqiqati bu. Abdulla Oripovning yetmish yilligi she'riyatimizning bayrami bo'ldi. Ko'p yuraklar uning she'riyatidan yangidan ilhomlanadi, ruhlanadi. Zamon quvonchi, qayg'ularining muqarnas mujassami bo'lgan bu she'rlar yangidan jaranglab insonparvarlik va insonga muhabbatning xushbaxt sadolari kabi eshitiladi. Tug'ma so'z o'lmasligiga biz hammamiz yana bir karra guvoh bo'ldik. She'riyat Abdulla Oripov siymosida:

Barcha mag'lubiyat mening do'stimdir,

Barcha yo'qotishlar menga qarindosh

– deb aytarkan, bu uning insonni sevishi o'z samimiyatida eng yuksakka ko'tarilganidan darak emasmi? She'riyatning insoniyatning dardlarini o'z zimmasiga olishi, dardkashligi, mahramligi, uning o'tmish she'riyatlardan farqi va tabiiy tug'ma xususiyati. U barcha jafolarni o'ziga olib odamzotga balogardon bo'ladi va hayotni davom ettirishga dalda beradi. Mahmud Toirning hikmatlarga boy, mardona va xalqona sodda she'rlarida shunday daldani ko'ramiz. Sirojiddin Sayyidning nozik zakovat va mahramlik tuyg'usi bilan yo'g'rilgan she'rlarida va matonatli publitsistik chiqishlarida insonni shunday suyash, unga esh va hamdam

bo'lishlikni kuzatamiz. Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyevalarning yangi saylanmalarida fikr bezovta dengiz to'lqinlaridek guvillab, zamonning og'riq nafaslarini atrofga taratayotganligini his qilib turamiz. Bularning she'rlarida xalqchilik, ijtimoiylik, inson dardlari bilan yashash baland pardalarga ko'tarilayotganiga guvoh bo'lamiz. Ularning she'rlaridagi ohanglar Betxoven simfoniyalariga yaqinlashib borayotganligini, ular tamomila musiqaga aylanayotganligini kuzatamiz. Bu she'rlar ruhlantiradi, chorlaydi, olg'a yetaklaydi, insonni kunjakda yotoqchilab qolishga qo'ymaydi.

She'riyatimizda ijodiy musobaqalar bo'layotganligini kuzatish mumkin. Go'zal mushoira she'riyatimizda o'zini sog'inib yangi an'anaga qadam tashlayotganligi sezilib turadi. Erkin Vohidov "Orzuli dunyo" kitobida insoniyatni halokat yoqasiga olib kelgan katta muammolarni dadil qalamga oldi. Uning she'riy so'zining butun qudratli kuchi dunyoni o'z hukmiga kiritishga urinayotgan fahsh, falsh va yolg'onga – u xoh milliy mentalitetda bo'lsin, xoh xalqaro miqyosda – kuchli aybnoma kabi jaranglamoqda. Uning she'riyatining markazida erkinlik g'oyasi jo'sh urmoqda. Bu g'oyani butun she'riyatimizning bosh g'oyasi, uning tomirlarida oqayotgan toza qon, uni yangidan tiriltirayotgan eng ulug', eng kuchli g'oya desak, yigirma yil ichida yaratilgan she'riyatimizning eng xarakterli xususiyatini aytgan, belgilagan bo'lamiz. Erkinlik g'oyasi yangi she'riy shakllarni, yangi boy mundarijalarni, yangi yo'nalishlarni vujudga keltirdi. Bu she'riyatni hech uyalmay dunyoga taqdim etish mumkin. U franso'zga ham, nemisga ham, yaponiga ham baravar ahamiyatli tuyulishiga ishonchimiz komil. Erkin Vohidov "Orzuli dunyo" kitobida ulkan ijtimoiy mavzularni

yoritib, mahalla, ayollar, hazrati xizr, yolg'on, yolg'onning turlicha milliy ko'rinishlari, o'g'rilik va uning necha turli tovlanishlari haqida qiziq-qiziq gaplarni topib yozadi. O'zbek mentalitetining bo'sh va kuchli tomonlariga erkinona kulgi va yumor shu'lalarini sochadi. Uning zariflik bilan to'la yumori kuldiradi, kuydiradi, kuldirib, kuydirib o'yga toldiradi. Bu kitobni 2010 yilning eng yaxshi kitobi deb atasak, kitobning bugungi va ertangi she'riyatdagi o'rni ham ahamiyatini belgilagan bo'lamiz.

Keyingi davr she'riyati manzaralariga diqqat bilan nazar solganda, she'riyat dargohida bu kitob bilan Iqbol Mirzoning "Agar jannat..." degan yaxlit she'r kitobi to'la haqiqiy mushoiraga kirishadi. Va, bu yangidan go'zal boshini uyqudan ko'targan mushoiraning eng yorqin namunasi. Cho'lpon bilan G'afur G'ulom, Usmon Nosir bilan Hamid Olimjon, Zulfiya bilan dunyo shoirlari mushoirasidan so'ng necha zamonlar o'tib, ilhom sarzaminiga kirib kelgan bu yangi mushoira. Erkin Vohidov va Iqbol Mirzo – ustoz va chin munosib shogirdning musobaqa, mushoirasi. Bu ikki shoirning she'rlari go'zal ohangdorlik va hayotiy insoniy yolqindorlikda bir-birlariga tutashib boradi. Iqbol Mirzoning kitobida ozodlikning shukuhlari to'la namoyon bo'lgan va orqaroqqa nazar tashlab aytsak, Cho'lpon orzu qilgan she'r kitobi. Xuddi shunday g'oyibona musobaqa va mushoirani Abdulla Sherning "Sevgi olmoshi", "Sarbast qo'shiqlar", "Sevilmagan mening sevgilim" deb nomlangan uchta she'riy kitobida ham kuzatish mumkin. Abdulla Sherning qat'iy she'r qonuniyatlarga zargarona rioya qilib yozilgan, nafosati yarqirab turgan fasih sonetlari, dunyo hodisalariga sergak va tiyran yondashgan sarbast she'rlari, o'tli sevgi doctoni bugungi she'riyatda mumtoz qoidalarining o'rni bo'lakchaligini ko'rsatdi. Abdulla Sher bu uchala

kitobiga kirgan doston va she'rlarida Mirtemirning "Surat" dostoni ohanglari, shakllari, olovli sellariga, Asqad Muxtorning o'z davrida mashhur "99 miniatyura"siga payrovona yozilgan, ongli suratda tanlangan yo'l, ustozlarga izdoshlik go'zal va shoirona ifodalanganiga ko'ra, buni 2010 yil she'riyatidagi va mustaqillikning yigirma yillik davridagi eng sara mushoira deb nomlagim keldi. Izdoshlik she'riyatda milliy hayotbaxsh an'analarni mustahkamlaydi, bunday an'analarning mavjudligi she'riyatda uning o'lmasligi va mangu qadriyat ekanligidan darak beradi. Abdulla Sherning Mirtemir va Asqad Muxtor haqidagi xotira maqolalari ham xuddi she'rday o'qiladi va ular unutilmas ustozlar sharafiga bog'langan poeziya gulchambarlaridir. Shukrullo, Husniddin Sharipov, Tursunboy Adashboyev, Omon Matjon, Abdulla Sher, Jamol Kamol, Qutlibeka Rahimboyeva, Miraziz A'zam, Tohir Qahhor singari shoirlarning saylanma va yangi turkumlaridan erkinlik va she'riyatni chin ma'noda muqaddas bilish, qadrlash, uning azal sarhadlarini poku farzona saqlashga intilish va insoniylik uchun har damda kurashish zarurligi g'oyasi eshitilib turadi. Bularning she'ri bokira desangiz bokira, kurashchan desangiz kurashchan va yuksak ma'nodagi axloqiylik bilan xarakterlanadi.

Kishilar ko'pincha o'ylagan mahol

Chinakam chiroyli bo'lib ketadi – deydi Husniddin Sharipov bir yangi turkumida va nima uchun shundayligini aniqlaydi:

Men shu go'zallikni sevaman mangu...

Kurashlarning peripetiyalarini sinchkov kuzatarkan, u yozadi:

Shuncha yil g'alvirlab dunyoni, nahot,

Ajrata olmaysiz asli va aksin?

Kim javob beradi:

O‘yinmi – hayot?

O‘yin hayotmi yo

Bilganlar aytsin?

She‘r fidokormi yo shoir? Buni ba‘zan ajratish qiyin. Ammo doim fidokorga va fidokorlikka yor. Halimaxon yozadi:

Yelkam xalqim yelkasiga tegib turmog‘i uchun,

Boshim xalqim ko‘lkasiga egib turmog‘im uchun,

Unga qarshi nima kelsa yengib turmog‘im uchun,

Mendan qay ish lozim bo‘lsa,

Barchasiga tayyorman!

Hayot har bir chinakam shoirda boshqacha. A‘mollar boshqacha. Yondashuvlar boshqacha. Va, she‘riyat hammavaqt o‘ziga boshqachalikni saylaydi. She‘riyatning ko‘ngli ham har damda boshqacha. She‘riyatda an‘anaviylik va novatorlik doim yonma-yon. Bir-birlaridan doim ulgi oladilar. She‘riyatning shakli va mundarijasi shunday jonli jarayonlarda boyib, o‘zgarib boradi. XX asrning boshida Cho‘lpon yangi milliy adabiyotga qanday shakllar tanlash ustida uzoq o‘ylanib turgan bo‘lsa, hozir ham XXI asrning o‘ninchi yillarida she‘riyat o‘z yangi asrining shakllari borasida o‘yga tolgan holda turadi. An‘anaviylik. Anvar Obidjondan satrlar:

Burch –

Yot odamga do‘nmadim,

Shoxdan – shoxga qo‘nmadim,

Poyloqchiman shu yurtga...

Faxriyor, Bahrom, Go‘zal Begim, Rauf Subhon, Ulug‘bek Hamdam, Jabbor Eshonqul, Aziz Said, Oydinniso, Nilufar Asad esa butunlay boshqacha she‘riyat yo‘lida yozadilar va izlanadilar. Faxriyor yozadi:

*Biror kimni suymay turib ham
biror kimga kuymay turib ham
yashash mumkin ekan bemalol
yashamaslik mumkin ekan undan ham...*

Diskurs, Konsept, Labirint, Yogos, Narrativ, Nomadologiya, Postmodern, Rizoma, Semiotika, Simvol, Simulyakr, Tekst, Transgressiya, Fantazm singari postmodernizm falsafasiga daxldor, hali biz uchun tamom yangilik bo‘lgan, lekin yaqin kelajakda adabiyotimiz falsafasiga kirib keladigan tushunchalar. Bizning geometrik modernistimiz ularni derazadan tashqariga uloqtirib qutulmoqchi. Lekin ular uning ongiga chuqur o‘rnashib bo‘lgan, ruhiyatini o‘z ta‘siriga olgan, ularni tushida voqelikka aylanayotganini ko‘radi. Zamon Anvar Obidjonni tanlaydimi yo Faxriyornimi? Mana, sizga Cho‘lponni o‘tgan asrning boshida o‘ylatgan, izlatgan va dunyoga chiqishga undagan savol. Faqat yoshlar tushunchalarni shaqildoqchalar va qo‘ng‘iroqchalar kabi she‘rlarning bo‘yniga osishlari shart emas. Ular faqat kontekstlardagina o‘z ma‘no doiralariga ega bo‘ladi. Postmodernistlar bu kabi yuzlab tushuncha-terminlarga biz xayol qilgan va lug‘atlarda keltirilgan muqobillardan tamomila boshqacha ma‘no vazifalarini yuklaydilar va nazarda tutadilar. Oydinnisoning she‘rlari kuzgi maysa ustiga yog‘ilgan shudringga o‘xshaydi. Hammasi bir xil va hammasi men bilan boshlanadi va hammasi kutish, ayriliqning tovlanishlari. Osmon shudringga qanday aloqador bo‘lsa, bular ham

she'rga shunday aloqador va ular to'g'risini aytganda, struktural talqin va tahlillarni kutadi. Yoki Ikrom Otamurodning she'rlari va yangi "Huviyat" dostoni teran talqin madaniyatini talab qiladi.

Hamon an'analar va novatorlik to'g'risida so'zlayapmiz. Ikki og'iz she'riyatimizda katta oqimni tashkil etadigan nekbinlik oqimi haqida ham to'xtab o'taylik. Chunki she'riyat mahsulotining katta qismi shu o'zbek nekbin-optimistik oqimiga tegishli.

Nekbinlik, nekbaxtlik va bulardan faxru iftixorlarga chulg'anib, kechinmalar bayonlarini shu asosga qurish, yashash san'atining juda to'g'ri va sodda formulalarini qidirish, topish, ifodalash va shular bilan she'riyatda o'z missiyasini o'tash. Azim Suyunning ma'rifatli fikrlarga boy "Muhabbat hayratlari" kitobi, Sa'dulla Hakim, Mirpo'lat Mirzoning yangi she'riy turkumlari, O'tkir Rahmatning "Xayol ifori" va "Xoksor maysa" kitoblari, Farida Afro'z, Enaxon Siddiqova, Tursun Ali, Xurshida, Toshpo'lat Ahmad, Oxunjon Hakim, To'lan Nizom, Ziyovuddin Mansur, Yo'ldosh Eshbek, Chorsham', Gulchehra Jo'rayevaning saylanmalari, qator-qator she'riy to'plamlari hayotga yaxshi ko'z bilan qarash, nekbinlik bilan o'z o'quvchilarini topgan va hurmat qozongan. El-yurtga tilakdoshlik, tarixni tanovar deb tushunish, obidalaridan iftixor, xalq taqdiriga esh bo'lib kuylash ular she'rlarining doimiy an'anaviy mavzulari doirasiga kiradi.

Bir necha to'plamlari chiqqan va ularga taqrizlar ham yozilgan Tursun Ali keyingi yillarda absurddamo she'r usullarida kuchini sinab ko'rmoqda. Uning lirikasidagi shaxs o'ta sodda. Bir she'rida lirik shaxs yomg'irdan uni hech qachon ko'rmagandek ajablanadi, xuddi osmondan endi tushgandek va yerni birinchi marta ko'rayotgandek:

Yana Dalv.

Bugun chillaning so‘nggi kuni.

Ajabo,

Yomg‘ir yog‘ayotir.

Mening bag‘rim

Dunyom shalabbo.

Voajab,

Erta yomg‘ir

Aylanar qorga...

Boshqa bir she‘rida shaxs ikkiqat xotinga oshiq bo‘ladi va o‘z kutubxonasidagi avtorlarini, ularning nomlarini bir-bir sanab chiqadi. Bunday hollar absurd she‘riyat usullarida uchraydi. Bunda hamma gap jo‘nlik bilan hayotiy odmilikni farqlashda. Zero, hayotning o‘zi aksaran hayratomuz hodisalardan ko‘proq odmi narsalar oqimlaridan tashkil topadi. Lekin odmilikni she‘rga yoki nasr, dramaga olib kirganda (misoli xuddi Ejen Ionesko kabi) odmilikning tagma‘nosini xayoldan qochirib qo‘ymaslikda, tagma‘no bo‘lmasa odmilik yo naturalizmga va yo o‘ta didsiz jo‘nlikka aylanadi. Rauf Parfi ham o‘z she‘rlarida Tagor, Asqad Muxtor nomlari va ularning satrlariga murojaat etadi. Va, bu bilan o‘z she‘rining fikri, ruhiyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, u o‘ziga yaqin, hamfikir shoirlar, so‘zlarga jo‘rovoz bo‘ladi. Ammo, absurddamo, hali absurdga aylanmagan she‘rlar boshqa shoirlarda va, ayniqsa, to‘plamlari xususiy nashriyotlarda chop etilayotgan qalamkashlarda ko‘plab uchraydi.

Bir necha rubobiy she‘riy kitoblari chiqib, adabiyotimizda tanilib borayotgan Behzod Fazliddin, Shodmonqul Salom, Salim Ashur, Ibodat

Rajabova, Halima Ahmedova, Rustam Musurmonning yolqinli turkumlari, Nodira Afoqovanning “Qoranavo”, Marhaboning “Onamni ko‘rgani boraman”, “Shukur, shukur, ming shukur”, Maqsuda Ergashevaning “Ko‘ngil kishilari”, Begoyim Xolbekovanning “Muhabbat muhri”, Xosiyat Rustamovanning bir necha kitoblari she‘riyatning nurafshon mulklarida chinakam topilmalar bo‘ldi“.

Tabiiyki, inson qalbi komillikka tashna. Komillikka esa pok qalblar yetishadi. Shoirning hayotga munosabati ham shunday. Ular uchun oliy orzu olamni ham, o‘zlarini ham nuqsonlardan holi ko‘rishdir. Ular ushun ijod shu tashnalikni qondirishga xizmat qiladi. Ustoz Abdulla Qahhor “Poeziya – yuksak san’at” maqolasida yozganidek, “She’rning mo‘jizalik sirlaridan voqif bo‘lish, bu sirlarni jilovlash har kimga ham muyassar bo‘lavermaydi. Bunga erishish uchun zehn, sabr va mehnatdan boshqa yana nimadir kerak”. O‘sha “kerak nimadir”, nazarimizda ilohiy ne‘mat – badiiy kashf etish salohiyatidir. Shoirlik bu g‘aybdan keladigan ne‘mat, pokiza qalb ilhomidan tug‘iladigan ko‘ngil kalomi. Samarqandning mashhur qozisi Abu Tohir Umar Hayyomga: “Ayt-chi, sen odamlar ta’riflagandek dahriymisan?” —deganda, u shunday javob bergan: “Men Alloh tomonidan insonga ato qilingan sog‘lom fikrni ta’qib qiluvchi taqvodorlardan emasman. Ular din va iymonni faqat yaratganga ibodat qilish deb tushunadilar. Men yaratganga qanday iymon keltiraman, bilasizmi? Masalan, men atirgulga yoki yulduzlarga qarab zavqlanaman. Yagona Allohning yaratuvchanligiga maftun bo‘laman, u bunyod qilgan dunyoning mukammalligidan, uning eng go‘zal mujdasi — odamlardan, ularning bilimga chanqoq miyasi borligidan, muhabbatga chanqoq qalblari, intiluvchan yoki qanotli hissiyotlari borligidan zavqlanib,

yaratganga iymon keltiraman”. Bu ibodatning mohiyatidir. Mustaqillikning ham asl mohiyati ochilganda, maqsadga erishish mumkin, shuurida uni anglash hissi, qalbida g‘ururlanish tuyg‘usi tug‘iladi. Aslida she’riyat inson ko‘nligiga yo‘l izlay boshladi. Bu mustaqillik davri o‘zbek she’riyatining muhim tamoyillaridan biridir. Endi shoir nigohini tashqaridan, atrofdagi voqea-hodisalardan uzib, o‘z ko‘nligiga qarata boshladi va undagi ziddiyatlarni, taloto‘plarni obrazli tasvirlashga kirishdi. Sh.Rahmon, X.Davron, A.Obidjon, M.Yusuf, I.Mirzo, S.Sayyid, Z.Mirzo, H.Ahmedova, X.Rustamova, I.Otamurodlar ijodi, avvalo, o‘z “men”i bilan ajralib turadi.

Ushbu fikrlarimiz isboti sifatida Ortega-y-Gassetning: ***“Odam tanasining og‘irligi tufayli xuddi teshilgan havo shari kabi ko‘tarilolmay, goh yerda sudralib, goh daraxtlarga ilashib, goh tomlarga urilib yotgan she’riyatni ortiqcha yukdan xalos etish kerak edi... Endilikda odamlar hayot bir narsa, poeziya esa tamomila boshqa bir narsa ekanini bilishyapti, bilishmasa-da, sezishyapti. Bu ikki narsani bir-biriga aralashtirmagan ma’qul. Aynan odam tugagan joydan shoir boshlanadi. Birining taqdiri – o‘zining “insoniy” yo‘lidan yurish, ikkinchisining missiyasi esa yo‘q narsani yaratishdir. Shoir dunyoni boyitadi, o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lgan real borliqqa, o‘zining yangi irreal qit’asini qo‘shib, olamni kengaytiradi”***³, – degan fikrlarini keltirish mumkin. Orteganing: ***“Aynan odam tugagan joydan shoir boshlanadi”***, – degan qarashi lirikaga hayotda uchraydigan

³ Ортега-й-Гассет. Дегуманизация искусства. – С. 16-17. – <http://www.webreading.ru>

muammolarni bartaraf etishga urinish vositasi deb emas, ruhiyat jilvalarini aks ettirish yo‘li deb qarash haqida gap boryapti.

Isomiddin Po‘latovning “She’ri butun shoir” maqolasida erk bo‘lmagan joyda ruh erkinligi ham bo‘lmasligini Karim Bahriyev ijodi orqali yorqin ifodalagan: *“Abdulkarim Bahriddinning she’rlarida «odam», «millat», «vatan» tushunchalari hamisha erk va ozodlik g‘oyalari bilan baqamti keladi. «Evrilish» she’rida sharoit bilan kelishishga mahkum shoir ko‘ngil holati «Bugun o‘ltiribmiz chivinni qo‘rib, Endi qo‘rqmasa ham bo‘ladi bizdan» tarzida nadomat bilan ifoda etiladi. 1983 yilda bitilgan «Sochimga oq tushdi» she’rida sochga tushgan oq tolalar original talqin etiladi. Shoir qora sochga tushgan uch oq tolani yurtga yashirinchalik kirgan uch ayg‘oqchiga o‘xshatadi. Sochning qoraligini, ya’nikim yurtning daxlsizligini saqlash uchun uyg‘onishni lozim bilgan yosh shoir qorako‘z yorga iltijo qiladi:*

Qorako‘z, silagin, taroq qil qo‘lni,

Uyg‘ot, qulog‘imga so‘zla uyg‘onch so‘z.

Bo‘lmasa, har kuni qorasoch elni

Bir-bir yo‘ldan urar bu uchta josus.

Bu she’rda uyg‘onch so‘zga mushtoq shoirning erkka talpingan ko‘ngli istaklari yorqin ifodasini topgan.

«Zamonaviy daho» she’rida shoir keyingi vaqtda yurtdan daholar chiqmayotgani sababini odamlar shaxsiyati sindirilgani bilan izohlaydi.

Qo‘rqitib yoki sotilib sindirilgan «daho» holati: «Unvonni ko‘tarmay bo‘yni egilgan, Bo‘yni egilganga berilgan unvon», – deb g‘oyat o‘ziga xos izohlangan.

«Amirqul Po'ltan» she'rida qahramon nomidan bitilgan: «Ermakka yozganim yo'q, kuyib-yonib yashadim» tarzidagi qanoat shoirning o'z bitiklariga ham tegishli. 1984 yilda yozilgan «Tilak» she'rida Abdulkarim: «Ozod Vatanim», – deb kuylaysan, Aytganing kelsin», – deb orzulanadi. Shoir nomsiz bir she'rida millatning uyg'onishi shunday yuz berishini tilaydi:

TO'SATDAN –

Tarsillab yorilar kurtak,

Qizarar uyatdan shaftoli guli,

Qarsillab yorilar momoguldurak,

Jarliklar xo'rsinar bexos qayg'uli...

She'rning keyingi uch bandida yuqoridagi holatga monand tarzda kutilmaganda sahrolarda epkinlar kezishi, asriy qorlardan suv kelishi, xumdagi jinlarning asoratdan qutulishi, devlarning g'orlardan chiqishi, ertaklar bag'ridan qanotli otlar chiqib kelishi, ayollar belanchakka sig'mas go'daklar tug'ishi, ko'r ko'zlarning ochilishi, gunglar tilga kirishi, muzeydagi qilichlar botirlarning qo'liga tushishi tasvir etiladi. Shoir atrof-javonibdagi buncha o'zgarish millat ruhiga-da ko'chishini istaydi:

Voh, oxir tugaydi ming yildan buyon

Nafasini yutgan yerning jimligi.

Kurtaklar yorilgan shu tong, nogohon,

Xalqimning yodiga tushar kimligi.

Abdulkarim Bahriddin vatanni erk bilan birgalikda idrok etadi. Vatan erkini vatandosh hurligida, vatandosh ozodligini vatan erkida ko'radi. Shu bois ham «Vatan» so'zi yuraklarga titroq solib, aytgan va

eshitgan shaxsda qutlug‘ sezimlar uyg‘otishini istaydi. «Cho‘lpon dardi» she‘rida: «Sen «Vatan» deb turib ovqat yutarsan, Men yutarman qon. Tamaki chekarsan «Elim» deb so‘zlab, Men chekdim afg‘on», – deydi. Shoirning vataniy she‘rlarida ezgu amallar pokiza tuyg‘ular uyg‘otishi samimiy kuylanadi. **“Ulg‘ayish hayratlari”** kitobidagi ko‘pchilik she‘rlarda olam va odam mohiyatini anglamoq istagan shaxs ruhiyati aks etgan. Shoir ulg‘ayib, olam va odam sir-asrorini ilg‘ay boshlagan sari hayratlari ortib boradi. U faqat ko‘ngil istagi va hayajon yetovida haqiqatga yetib bo‘lmasligini yaxshi anglaydi. Shuning uchun ham umrini to‘rt fasldan iborat deb bilgan shoir «uch fasl men qalbga buyurdim, buyog‘i kuz – buyurar yurak» degan to‘xtamga keladi va yuragi buyurganini bajarishga ahd qiladi. Tiriklik mohiyatini anglagan sari hayotning juda ko‘p holatlarida tanazzul alomatlarini ko‘rgani bois shoirda muazzam Oqsaroy qoldiqlari «Sokinman, nafasim yutaman ichga, qattiqroq yo‘talsang, devorda ko‘chki, Osmonga termulib o‘layotgan qushga yordam berolmaydi, nahotki, hech kim» tarzidagi yozg‘irish tuyg‘usini qo‘zg‘aydi”. [1]

Mustaqillikda shoirlarimiz nigohlarini tashqi muammolardan uzib, botinga qaratishi davr she‘riyatining tub tamoyiliga aylandi. Mustaqillik sharofati tufayli xohlaganicha ko‘ngil rozini to‘kib solishga, u bilan bahslashish, yaqindan suhbatlashish baxtiga muyassar bo‘ldik. She‘rlarda fuqaroni qandaydir buyuk ishlarga da‘vat etadigan otashin chaqiriqlar majburiyatidan xalos bo‘ldik. Endigi she‘rlar ko‘ngilimizdagi adoqsiz siru sinoat va iztiroblar bilan bizga yaqin va qadrdondir. Z.Mirzoning “Nur kukunlari”, H.Ahmedovaning “Umid soyasi”, R.Rahmonning “Xastalik daftari” lari hijron, dard, hayotni kuylaydi.

Qur'onda "Biror qavm o'z ahvolini (yaxshi tomonga) o'zgartirmaguncha, Xudo ham o'z ne'matini o'zgartirmay beradi" deyiladi. Yaxshi tomonga o'zgarilgan a'mollar esa ezgulik, ziyo nuri asosiga quriladi. Istiqlolga erishish xalqni ziyo nuri bilan yoritilgan hayotga erishtirishdir. Bunday hayotga istiqlolsiz, ruh erkinligisiz erishish ma'nisizlikdir. Shundan shoir istiqolga chanqoqlik bilan intiladi va bunga Alloh ham chorlashini ta'kidlaydi. Chunki payg'ambarimiz hadislarida "Qashshoqlik kufrga yaqindir... Xudodan qashshoqlik va muhtojlikka tushmaslik uchun panohtilang" deyiladi. Istiqlol asosi erkinlikdir:

*Yolg'iz Allohimiz, chorlar Istiqlol,
Muborak siymolar, botirlar chorlar,
Yolg'iz panohimiz, chorlar istiqol,
Jahonga, Insonga muhabbat porlar,
Yolg'iz Allohimiz, chorlar Istiqlol.*

- o'zbek she'riyatida islom asotirlari va g'oyalari bilan sug'orilgan she'rlar paydo bo'ldi. Professor Hakimjon Karimov "Bu she'rlar «Qur'on» surasidagi oyatlarda va hadislardagi kishini to'g'ri yo'lga solishga irshod qilingan fikrlar asosida yozilgani uchun kishi imonini mustahkamlashga juda qo'l kelyapti. Chunki imoni mustahkam odam har qanday yomonlikdan va insoniy illatlardan saqlanadi, hech kimga zulm qilmaydi"-deb ta'kidlaydi. Bugungi o'zbek she'riyatiga xos shakliy va uslubiy izlanishlar ayolga xos yoniq, bezovta ruhiyat manzaralarini she'riy yo'sinda ifoda etayotgan. Chorsha'm Ro'ziyev ruh iztiroblarini yengishda Olloh bilan yaqinlashishda deb biladi

*Bizga bahor begonadur borgan sari,
Ko 'nglimiz ham vayronadur borgan sari.
Shodon, erib yurar edik avvallari,
Endi umr g'amxonadur borgan sari.
Tolibdimi yashamoqdan jismi jonim,
Tan ichra dard pinhonadur borgan sari.
Shifo so 'rab, borsam manzil-makonlarga,
Topar joyim xilxonadur borgan sari.
Do 'sti-yor ham yiroqlashib sekin-sekin,
Adovatlar xufyonadur borgan sari.
Izlanaman, yig 'lanaman, ruhim qiyar,
Yolg 'iz xudo hamxonadur borgan sari.*

Istiqlol qalbi uyg'oq, fikri tiniq, o'zligini anglagan, hayotdagi o'rmini bilgan shaxslar faoliyatining natijasidir. Taniqli munaqqid va olim A.Rasulov esa so'nggi yillar o'zbek poeziyasining bugungi kun tamoyillari haqida so'z yuritib,- " Abdulla Oripovning «Bir qarasam» she'rida o'zini-o'zi anglash, ruhiy holat, ichki kurash aks etadiki, u asarning umriboqiyiligini ta'minlagan...Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor singari shoirlar asarlarida tarixiy nomlar, asarlar, diniy tariqatlarga ishoralar borki, ularni o'zlashtirish uchun ma'lum tayyorgarlik bosqichini o'tash joiz». Ayni fikrni bugungi o'zbek she'riyatining «modern» yo'nalishida ijod qilayotgan barcha shoirlar asarlariga tadbiq etish mumkin, deb o'ylaymiz. Hozirgi adabiyotshunoslikda shoirlarni ularning voqelikni anglash va tasvirlash tamoyillariga ko'ra shartli ravishda an'anaviy va zamonaviy (modernistik) yo'nalishga mansub, deb qarash kuchayib bormoqda.

Baxrom Ruzimuxammad modern yoʻnalishdagi shoir, Sirojiddin Sayyid anʼanaviy uslubdagi ijodkor sifatida eʼtirof etilmoqda, muhimi, ijodkor mahorati uning qaysi yoʻnalishga mansubligi bilan emas, asarlarining gʻoyaviy-badiiy yuksakligi va xalqchil pafosi bilan belgilanadi. Ikkala yoʻnalish vakillari ham metaforizmdan foydalanishadi, bu hol badiiy ijod tabiati bilan bogʻliqdir. Lekin asosiy farq shundaki, zamonaviylikka moyil shoirlar poetik maʼnoni chuqur hissiyot va ruhiy olamning tahlili asosida koʻpincha “men” orqali ifodallasalar, anʼanaviy yoʻnalishdagi shoirlar ijodida asosan poetik fikrga urgʻu beriladi va majoziy unsurlar uni boʻrttirish va taʼsirchanligini oshirishga qaratiladi. Bu xususiyat Sirojiddin Sayyid sheʼriyatiga ham xosdir. Shu maʼnoda uni falsafiy fikrlar shoiri deyishadi. Toʻgʻri, Sirojiddin Sayyidning hamma sheʼrlarida fikr va kechinma uygʻunligi bir xil emas. Bu tabiiy hol, chunki oʻz maqsadiga koʻra koʻpchilik sheʼrlarida falsafiy-maʼnaviy qarashlar ustuvor boʻlgani sababli ularda kechinma intellektual fikr ifodasiga koʻmaklashuvchi vosita vazifasini bajaradi. Falsafiy fikrni poetiklashtirishda majoziy obrazlilikka koʻproq murojaat etadi. Chunki bunday uslubdagi sheʼrlar kitobxondan sheʼrshunoslik ilmini va muayyan adabiy tayyorgarlikni talab etadi. Zotan, sheʼrni kitobxon oʻz koʻngli, his-tuygʻulari va tafakkur tarziga monand his qilib anglaydi. Lirika bevosita insonning tuygʻulariga, uning maʼnaviy olamiga murojaat qiladi. Shuning uchun poeziya ong va qalbga katta kuch bilan taʼsir qilish imkoniga ega. Lirik asarlarni oʻqiganda inson xarakterini, uning ruhiyatidagi sirli harakatlarni farqlashni, oʻz xatti-harakatlarini yuksak maʼnaviy mezonlar nuqtayi nazaridan baholashni oʻrganadi. Ayniqsa, yoshlar poeziya bilan muloqot qilish hamda uning taʼsirida boʻlishga

katta ehtiyoj sezishadi. Zero, ayni shu yoshda shaxslik, uning ma'naviy va estetik tasavvurlari faol tarzda shakllanadi.

Usmon Azim Vatanning butun fazilatini, inson hayotida o'ynagan, o'ynayajak rolini vatan so'zining o'zida, uning botinidagi mazmunda ko'radi. *"Vatanningni o'stir..." she'rida yozadi:*

Bir so'z bor — yuksak tug' — iftixorimda,

Tirigimda - nomus, o'lganimda - sha'n.

Bir so'z bor - jon uning ixtiyorida,

Xudoday ulug' bir so'z bordir - Vatan, —

Ba'zida boshingni ushlagim kelar,

Bo'ying bo'g'izlab tashlagim kelar.

Qadoq qo'llaringga termulsam lekin,

Qaro ko'zlaringga termulsam lekin,

O'zimni hayotga boshlagim kelar... — deydi.

So'ng xulosa yasaydi, uning vatanga mehri nihoyatda ulkan. Vatanning dardi o'zining dardiday, uning shikastligini o'zining jarohati kabi og'riq his qiladi.

Mumtoz adabiyotda ko'plab qasidalar yozilgani bilan, haqiqiy qasida sifatida Sakkokiyning Ulug'bekka bag'ishlab yozgan qasidasigina tan olinadi va o'zbek qasidachiligining asoschilardan hisoblanadi. Buning sababi voqelikka va Ulug'bekning insoniy fazilatlariga to'g'ri yondashganligi hamda haqiqiy ekanligiga nisbat berganligidir.

Sirojiddin Sayyid Vatanni bo'ston deb to'g'ri tashbeh ishlatadi. Chunki komil inson "o'zlikni jamlab", Vatan binosiga bir g'isht (G'.G'ulom) qo'yadi. Demak, yangilanishiga, yashnashiga hissa qo'shadi. Shunday bo'lgach, Vatanning manguligi tabiiydir. Shoir

“Vatan, sen mangu bo‘stonsan, bayotim — shabnamlar.

Salomat bo‘l, chekkan jabru g‘amu og‘riqlaring yetkay”, — deya yurtiga ezgu tilak bildiradi.

Tekshirish uchun savollar:

1. Ijtimoiy hayotda kechayotgan evrilishlar birinchi nimada aks sado beradi?
2. Mustaqillikning mohiyati nima?
3. E. Vohidov o‘z ahvolidagi nimani aks ettiradi?
4. Bulbul obrazi nimaning ifodasi?
5. Shoirilar Vatanni nimalarga o‘xshatadi?

Adabiyotlar:

1. Isomiddin Po‘latov/ “she’ri butun shoir” maqola, by Khurshid Davron on Scribd, 01.01.2017.
2. U. Normatov. Tafakkur yog‘dusi. - T., 2005.
3. Sh. Turdimov. Lirik kechinma va obrazlilik. O‘zbek tili va adabiyoti, 2000 yil, 5 - 6-sonlar.
4. N. Sharopova. Hozirgi o‘zbek she’riyatida janriy izlanishlar tamoyili. O‘zbek tili va adabiyoti, 1996 yil, 5-son.
5. Ibrohim G‘AFUROV, “Sharq yulduzi”, 2011–5 <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/ozgarayotgan-dunyoda-she-sozi/>
6. Olim Oltinbek (To‘laboyev). Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlari, by Khurshid Davron on Scribd, 18.02.2015.
7. <http://muzaffar.uz/tabriklar/3683-shoira-olima-adiba-gulandom-togayeva-siymosiga-chizgilar.html>

2-MAVZU: BUGUNGI O‘ZBEK SHE’RIYATINING O‘ZIGA XOS TAMOIYILLARI

Reja:

1. She’riyat taraqqiyotining bosh xususiyati.
2. Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil inson shakllanishida milliy g‘oya va milliy mafkuraning roli.
3. Bugungi lirika xususiyati.
4. Otashin she’riyat zamirida yotgan g‘oyalar.

Ilohiy ruh kirib kelgan hozirgi zamon she’riyatimizda keng ijodiy izlanishlar kayfiyati paydo bo‘ldi. She’riyat taraqqiyotining bosh xususiyat, unda olam va odam haqiqatining badiiy haqiqatga yo‘g‘rilgan holdagi tasvidir. Otashin she’riyat barcha davrlarda g‘aflatga qarshi kurashda yalovbardor bo‘lgan, vulqondek otilib chiqqan yoniq – misralar haqiqatga tashna qalblarni yoqdi. Moziyning yana bir sabog‘i shuki, tafakkur quroli – FIKR. Adabiyot – jamiyat qalbi. Qalb qancha sof va uyg‘oq bo‘lsa, xalq tafakkuri komillikka intiladi, xalq o‘zini, umr mazmunini anglab yetadi. Adabiyotning sofliğiga darz ketsa, jamiyat tanazzulga yuz buradi. Mustabid davr barcha davrlarda milliy tafakkurni uyg‘otishga chog‘langan adabiyotimizdan eng avvalo soflikni olib qo‘ydi. Adabiyotni mafkura quroliga aylantirdi.

Qalbida ezgulik urug‘ini saqlagan xalqimiz farzandlari vatan ravnaqini o‘yladi, kurashdi, baralla aytishga kuch topa oldi. Ularni xotirlash, fidoyiligini xalqqa yetkazish uchun ham jasorat talab etiladi. Abdulla Oripovning “Temur” nomli she’ri ana shunday jasorat mevasidir. Temurning jasoratidan sado beruvchi satrlar kitobxon qalbida o‘z ajdodidan g‘ururlanish tuyg‘usini yoqadi. Bunday tuyg‘u esa insonda

o‘z-o‘zidan qoniqmaslik hissini uyg‘otib, maqsad sari parvozga undaydi. Shoir jamiyatdagi adolatsizlikni “...yolg‘iz bir Zanjir Saroyning o‘chini o‘rdadan ola bilgan zot”ga, millatning jo‘mard farzandiga sobiq tuzumning qarashlarini ochib beradi. AmirTemurga fotih so‘zining salbiy ottenkasi qo‘llab kelingan. Shoir haqiqatni ko‘rsatib beradi:

Jahonni mo‘g‘illar iskanjasidan

Qutqarib qololgan barlosiy botir

Qocholmay taqdirning taqozosidan,

Fotih deb nom olmish o‘zi ham oxir.

Temur buyuk xalqni birlashtirib, yurtning tinchligini saqlagan.

Lirik asarlardagi asosiy narsa tuyg‘u va hissiyotga yo‘g‘rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Bu asarlarda voqealar tasviri, xarakter mantig‘i emas, ruhiy holat va hissiyot ifodasini berish, tuyg‘ular samimiyatini muhrlash muhim hisoblanadi. Chinakam lirik she‘r tinglovchi yo o‘qirmanga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsional tafakkuri va ma‘naviy-axloqiy quvvatini uyg‘otib, faoliyatga undaydi. Samimiy lirik so‘z, hatto, real voqelik hodisalariga qaraganda ham inson ruhiyatiga kuchliroq ta‘sir ko‘rsatishi psixologiya ilmi xulosalaridan ma‘lum.[1]

Bugungi insonni tarbiyalashda endilikda uning ma‘naviy ruhiy olamiga kengroq e‘tibor qaratish va adabiyot orqali insoniyatning o‘z-o‘zini anglashdek murakkab bir jarayonga diqqatni qaratish lozimligi oydinlashdi. Xalqining ma‘naviy dunyosini shakllantirishda g‘oyat kuchli va samarali ta‘sir ko‘rsatayotgan shaxs – Usmon Azimdir. Usmon Azim xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyatining mukammallik kasb etishida xizmatlari buyuk shaxs, milliy

adabiyotimizning g'ururi, shon-u sharafini tarannum etayotgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, u olam va odam, borliq haqidagi o'tkir falsafiy qarashlari bilan odamning tuyg'ulariga ta'sir etish, tarbiyalash bilan Hazrati Inson darajasiga ko'tarilishiga o'z hissasini qo'sha olgan mohir ijodkordir. Shoir she'rlari ko'pincha aqliy muhokamalar bilan qorishib ketgan. Bu esa jiddiylik hamda donishmandlik samarasi va alomati, she'rlari mazmundor va bugungi hayot ohangini aks ettirayotgan go'zal asarlardir. O'zbek adabiyotida folklor ta'sirida ko'plab asarlar, she'rlar yaratildi. Usmon Azim ham xalq og'zaki ijodidan ruhlangan holda o'zining "Baxshiyona" turkumi bilan xalq ijodining yetuk bilimdoni ekanligini namoyish etdi. Ushbu turkumdagi she'rlar asosi folklorga borib taqaladi. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz uning "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkum dostonlariga mehri bo'lakchaligiga guvoh bo'lamiz. Shoir ijodiga xos bo'lgan asosiy mavzu – Dunyoni va Insonni mukammal ko'rish orzusida yashagan shaxs armoni butun ko'lami, qarama-qarshiliklari, fojiayu quvonchi, hasratu umidlari bilan gavdalanadi. U Dunyoni samimiy yozadi. Shoir she'riga aylangan Dunyo kitobxon his qilib turgan dunyoning suratiga juda yaqin va shu bilan birga allaqanday nurlangan, ko'ngilga va ruhga madad berguvchidir.

Tong titraydi kech kuzakning quchog'ida,

Yulduzlarni o'chirmoqda gulgun shafaq.

Jonim, qalbim she'riyatning pichog'ida...

Zamin — tilsim, osmon — tilsim... she'r — beshafqat!

Men qiynaldim. Xayolimning qanotida

Dengizlarni ko'targancha tolib uchdim.

*Yulduzlarni ko‘p ko‘rganman hayotimda,
Dengizdagi yulduzlarni keldi quchgim.
Ko‘kka boqdim, o‘t tutashdi jonim aro...
Qat-qat bulut qatlarida ne sir-asror!
Hayrat ichra o‘ldirgusi meni samo,
Ona zamin, ucha qolay, qo‘yib yubor!.*

Shoir yaratgan lirik qahramon o‘tmishni, o‘z davrini chuqur his etadi. Shu bilan birga, u kelajak haqida ezgu niyatlar qiladigan davr kishisining murakkab timsoliga aylanadi.

«Sarbadorlar qo‘shig‘i» she‘rida xalq uchun boshini dorga tikkan bir guruh xalq qahramonlari hayoti va ularning eng og‘ir daqiqalarda, o‘lim bilan yuzma-yuz turgan paytdagi kechinmalarini his qilamiz, ularning xalq va haq yo‘lidagi kurashlari tasvirida ana shu kechinma yanada quyuqlashadi.

*«Qayt», dedingiz, «qalb», dedik,
«Ayt», dedingiz, «haq», dedik.
Boshimiz dorda turib,
«Jon», demadik, «xalq», dedik,
«Jon», demadik, «xalq», dedik.*

Bu she‘rida lirik kechinma kuchli falsafiy mushohada bilan yo‘g‘rilgan. Haq va xalq yo‘lida jonini tikishga tayyor er yigitning matonat va jasorati uning iymon-e‘tiqodini belgilashi kechinma salmog‘ini oshirgan.

Taassufki, xalqimiz bosh-adoq yolg‘on siyosatlarni behad ko‘p ko‘rdi, munofiqlikdan, soxta aqidalardan ko‘p jabr chekdi. Usmon Azim sig‘ingani sarob bo‘lib chiqqanlar nomidan shunday bong urgan edi:

“Men charchab senga suyandim, Haqiqat.

*Soat bong urmoqda,
Gaplashaylik, kel.”*

Mustaqillik davrida yetishib chiqqan ijodkorlar orasida har bir ifoda vositalarini milliylik ifodalovchi lingvopoetik vositaga aylantirishda Usmon Azim o‘ziga xos uslubga ega. Masalan, do‘mbira so‘zidan mahorat bilan foydalanib matnga milliy ruh kiritgan va kitobxonni milliy o‘zligini anglashga, ajdodlarimiz urf-odatlar bilan faxrlanishga undaydi. Shu nuqtayi nazardan shoirning baxshiyona ruhda yaratilgan asari diqqatga sazovordir. Vatan ravnaqi, xalq farovonligida, yurt tinchligi, fikr ongi ezgu maqsad sari yo‘nalishida, komil insonning shakllanishida milliy qadriyatlar va milliy g‘ururning o‘rni katta. Uni odamlar qalbi va ongiga singdirishda adabiyot alohida rol o‘ynaydi. Adabiyot insoniylik bilan yo‘grilgan satrlari bilan insonni ezgu maqsadlar sari yetaklashi tabiiydir.

Kishiga hayot va insoniylikning mohiyatini anglatish qalbiga ezgulik urug‘ini ekish demakdir. Qozoqboy Yo‘ldoshev shoir va publitsist Azim Suyunning “Ey do‘st” she’riy kitobi xususida yozgan maqolasida uning buyuk evrilishlari, boshidan kechirayotgan millat shoirining o‘z ulusi oldida turgan muammolar tizimini belgilaganligi va ularni hal etish yo‘riqlarini taklif etganligi bilan e’tiborga molik deb baholadi. Ko‘pincha vazmin, ayrim paytlarda esa emotsional kayfiyatdagi ijodkor Azim Suyun ijodida milliy til taqdiri, ta’lim tizimini isloh qilish, millat iqtisodini rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash, Vatan mustaqilligi tushunchasini vatandoshlarining ko‘ngliga ko‘chirish yo‘llarini axtarish va topish, millat ahlining ijtimoiy faolligini oshirish va boshqa sanoqsiz o‘tkir hayotiy masalalar tegishli o‘rin olgan. Shubhasiz,

bular uning qiziqish va faoliyat doirasining kengligini ko'rsatadi. Iste'dodli shoir ilgari surmoqchi bo'lgan g'oyasini she'r sarlavhasi zamiriga singdiradi. Sarlavha esa mavzudan kelib chiqib belgilanadi. Nomlanishda yarim mazmun o'z ifodasini topsa, mavzu bilan uyg'unlikda esa o'z mantiqiy asosi va mohiyatiga ega bo'ladi. Bu xususiyat Azim Suyunning "Bu vatanni sevmay bo'lurmi?!" she'rida yorqin o'z ifodasini topgan:

Sevish-sevmoq saodat erur, ilohiy baxt jo'sh urar qonda.

Tulporingni minginu mag'rur choptir, yeldir ota makonda!

Bu Vatanni sevmay bo'lurmi?!

Hisor tog'da ochib keng quchoq yasha, yuksal bamisli xayol.

Sangardakda ming ko'zli buloq – to'lib-toshgan kechagi hilol!

Bu Vatanni sevmay bo'lurmi?!

Qayda, qaydan bu erka chog'lar, zangor toshqin qiru yobonda.

Qizg'aldoqlar – gulgun yonoqlar to'rt ufqda – to'rtala yonda!

Bu Vatanni sevmay bo'lurmi?!

Ayg'irko'l gulmohilarining gullarida o'ynaydi nurlar.

Badayto'qay xongullarining ko'zlarida do'sti xongullar!

Bu Vatanni sevmay bo'lurmi?!

To'kis emas, neki mavjuddir, to'kis baxt ham yo'qdir jahonda.

Faqat Vatan to'kis vujuddir, baxt ham to'kis ota makonda!

Bu Vatanni sevmay bo'lurmi?!

Sirojiddin Sayyid ayol va vatanni o'zgacha idrok etadi va ko'radi. Ayolni vatanning sarhadi deb biladi. "Ayol manzumasi" she'rida shunday deydi:

Bu diyorda oru nomus, sha'nu shavkatdir ayol,

Mehru shafqatdan yaralgan, mehru shafqatdir ayol.

Olam uzra bir quyosh bor, bitta oy bordir, valek,

Yerdagi nur — mohitobon, shamsi tal'atdir ayol.

Ona so'zi yurt so'zi birlan nechun payvastadir?

Bir ulug' eldir, Vatandir — shunga sarxatdir ayol.

Ona yurtning davlati deb bilgan ayolga katta hurmat bilan qaraydi va shunday kuylaydi:

Onajonim, Ona yurtim, davlating kam bo'lmagay,

Toki sen borsan jahonda katta davlatdir ayol.

Bugungi kunda yoshlarga xorijiy tillardan birini egallash imkoniyatlarining yaratilishidan maqsad fan va texnika, sport va intellektual salohiyat, kreativ tafakkur va ijtimoiy-madaniy muloqot sohalarida dunyo miqyosida o'z tengdoshlari orasida raqobatlasha oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Sirojiddin Sayyid “Kim tilni bilur – elni bilur” she’ri bilan yoshlarga qarata “Teng aylab jahon ahliga kuch-hafsalangizni” deydi va quyidagi satrlar bilan isbotlaydi:

“Gar ushbu Vatan bizga azal ota makondur,

Sultonlaridin sha’ni aning ro’yi jahondur.

Kim tilni bilur – elni bilur, shoniga shondur,

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,

Til vositai robitai olamiyondur.

S. Sayyid she’rlarida yangi zamon o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmasligini yorqin ifodalaydi:

Yangi davr-u zamon qasri o‘z-o‘zidan bino bo‘lmas,

O‘z-o‘zidan hech bir dilband Beruniy yo Sino bo‘lmas.

...O‘z uyingday, o‘z yurtiingday-Ko‘z qorangni o‘zing asra,

Dilporang ham jigarbanding, O‘z bolangni o‘zing asra

“Ogohlik talqini” she’ri bilan shoir “Uyg‘oq ko‘ngillarning dushmanlari”dan ogohlikka chaqiradi:

Ko‘rinmas dushmanlar biz bilan birga,

Ular doim qasdi jonimizdadir.

Go‘yo daxldorday har bir taqdirga —

Har kun, har soatda yonimizdadir.

Uyg‘oq har bir ko‘ngil ularga dushman,

Qadrdon oshnosi — har mudroq yurak.

Ular bu borada jiddiy uyushgan,

Ularga loqayd va mudroqlar kerak.

Farqi yo‘q keksa-yosh, erkakmi, ayol —

Bani odamzodga alami borday:

Dunyoda sihatlik topsin der zavol,

Tiriklik yotsin der xasta bemorday.

Hushyor bo‘lish bugungi kun talabi ekanligini yoniq qalb bilan ifodalar ekan, barchani ogohlikka chaqiradi:

Hushyor bo‘l, zamondosh.

Uyg‘on, zamondosh!

Mard zotlar hikmati bizga bo‘lsin yor.

Chunki ortimizda — jigardosh, jondosh

Ona O‘zbekiston — bedor Vatan bor!

“Televizor bilan suhbat” she’rida yosh avlodning kitob o‘qishdan uzoqlashayotgani, kitob o‘rnini televizor egallaganini alamli yoritar ekan, hozirda telefon yoshlar hayotini butunlay mahv etishini go‘yo oldindan ko‘ra olgan avliyodek mushohada qiladi:

*O'sha kun so'rida o'tirgandim men,
"Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon" tinglab.
Sen mening yam-yashil bolaligimga
Kirding yolg'izgina zangor ko'z bilan.
Kirding, egallading dars stolimni.
Do'mbiralar tindi.
Tindi zamonlar.
Sallalar qarshingda lol qotdi.
Boqdi.
Soqollarda – chala dostonlar!
Meni dostonlardan judo aylading,
Biyron so'ylar edi o'sha kun tiling:
Bola, tulporlarni nima qilasan,
Bola, yonimga kel, mana multfilm!..
Otini kishnatib Avazxon ketdi,
Yollarida shamol – mening kunlarim.
Sallalar birma-bir g'oyib bo'ldilar,
Sen hamon tiriksan – porlar nurlaring.
Umrlar yemrilar.
Qismatlar so'nar.
Xazon, xazon, xazon bo'ladi dillar!..
Sening yolg'iz ko'zing
so'nmas hech qachon,
Sen tirik yashaysan hali ming yillar!
Darslarim chinqirdi daftarlarimda,
Meni kitoblardan aylading judo.*

Meni tortib olding osmonlarimdan,

Bugun osmon bo'lding,

Bugun sen – Xudo!

Senga termuladi hissiz gavdalar,

Senga mahliyodir jonli xaltalar.

Bolalar yuzingga tupurgay ba'zan,

Multfilm ko'radi kattalar.

Bugun jahonlarni aylading ishg'ol,

Jahongir!

Nurlaring buncha turlanar.

...Ajab odamlari bordir dunyoning –

Xotinini qo'yib, senga uylanar.

Istiqlol bergan ne'matlardan to'g'ri foydalanib, uni asrlar osha avlodlarga beziyon yetkazish ham bizning burchimiz. Bugungi kun bolasiga kitob o'qitolmasak, ajdodlar o'gitini berolmasak, ma'naviyatimizni singdirolmasak vijdonimiz qanday dosh beradi deya zo'r shijoat bilan o'z qarashlarini ifodalagan. Istiqlol davri she'riyati tamoyillari mana shunday keng qamrovli va mushohadalidir.

Milliylik bilan yo'g'rilgan she'rlarning xususiyatlari yurtga, vatanga, xalqqa, odamlarga nisbatan kishi qalbida katta mehr uyg'otadi, xalqning qadimgi qadriyatlari —urf-odat, udumlari, jo'mard va tantiligi, mehnatkashligi naqadar fusunkorligi inkishof bo'ladi, eng muhimi, go'zal insoniy tuyg'ularni tarbiyalaydi.

Zaranglarda to'rg'ayga

Aylangan chanqovuzim.

Ko'ksida kiyik uxlar

Qishloqdagi hovuzim, - deb yozadi Oydin Hojiyeva “Tavallud taronasi” turkumiga kiritgan she’rida. Sof milliylik bilan sug‘orilgan tashbehlardan ko‘ngilar yayrab ketadi. Chanqovuz - sof milliy cholg‘u. Nihoyatda qalbgga yoqimli kuy taratadi. Bu kuy yigitlar qalbida shijoatkorlik, jo‘mardlik kurtagini, qizlar qalbida ibo, sabr, mehr va sadoqat maysalarini undirgan. Shundan uning kuyiga nisbat berib, to‘rg‘ayga mengzaydi, zarang to‘rg‘ay deydi. Ma’lumki, kiyik nihoyatda hurkak, ziyrak, chiroyli va pokiza hayvon hisoblanadi. Shunday fazilatga ega bo‘lgan kiyik qishloq hovuzining ko‘ksida uxlaydi. Bu yerda hovuz ko‘chma ma’noda. U - qishloq ayollarining ramzi. Demak, qishloq ayollari kiyikday hurkak, begonadan begonasiraydi. Ziyrak va go‘zal. Pokizaligi ikki bor ta’kidlanadi. Birinchisi, kiyikning pokizaligiga qiyos qilinsa, ikkinchisi hovuzga. Bilamizki, suv — toza, poklovchi tabiat mahsuli. Hovuz toza tutilmasa, ifloslanadi, o‘z jozibasi, tarovatini, keraklik xususiyatini oy‘qotadi, xunuklashadi. Shunday ayollarni ularga qiyos qilganda, katta falsafiy ma’no yotadi. Shoir she’rlaridagi har bir badiiy tasvir balandparvozlik, jimjimadorlikdan xoli - sodda, xalqona so‘zlar bilan berilgan.

Oydin Hojiyeva dastlabki she’rlaridayoq, inson baxti va baxtsizligi, erk sari intiluvchanlik, oliyjanoblikni alohida ifodalaydi. Bu esa she’rxonni teran fikrlashga o‘rgatadi.

Shoshilma aytmoqqa!

Ko‘ngil bobida,

Mehr sadafida gavhar – bitta so‘z,

Shoshilma, shoshilma til g‘ilofida

O‘ljasini kutgan xanjar – bitta so‘z!

Shoshilma sabrning panjarasida

Sirtlonday sapchisa u beixtiyor

Uning vajohati iskanjasida

Talofatsiz chiqmoq o'limdan dushvor.

Shoira soʻz orqali insonning ruhiy olamiga chuqurroq kiradi va ichki dunyosini badiiy tadqiq etadi. Shubhasiz, soʻzning badiiy estetik funksiyasi yanada takomillashadi.

Yashamoq! Osmonga yetadi boshim

Bu oddiy, mehnatkash, soʻz qudratidan,

Koʻzimdani tirqirab ketadi yoshim

Quyosh isli yorugʻ dunyo baxtidan.

Bu satrlar bevosita sheʼrxonda shukronalik tuygʻusini uygʻotadi. Oydin Hojiyevaning lirik qahramoni allaqanday baxtli, unda hayotga muhabbat, kelajakka ishonch ufurib turadi. Pokiza ishq nafasi bilan qorishgan ingichka sezimlar lirik chizgilarni bahor quyoshi bilan yoritadi. Maʼlum maʼnoda shoira oʻz chamanzori bor. Ushbu sheʼriyat chamanzorida esa kuzgi xazonlarga oʻrin yoʻq. Poetik ifodalardagi oʻziga xos nafosat sheʼrxon dilidagi dilbar oʻktamlik bilan uygʻunlashib, yakdillik kasb etadi. Oydin Hojiyevaning lirik qahramoni hayot qiyinchiliklarini fojia deb yoki baxtni tayyor holda qabul qiladigan shaxs emas. Bir qaraganda baxt va baxtsizlik hammaga ravshan tushunchadek, biroq ular inson qalbi orqali roʻyobga chiqadi.

Shoira lirik qahramonining sabr-u qarori par misoli toʻzgʻiganda soʻz bilan joniga oro kiradi. Lirik qahramon goh quvonadi, goh sabab-besabab ranjiydi, baxt kelishini “lahzalar sanab” kutadi. Lekin baxt uchun odat kutilmaganda kelishdir.

*Tongotarga yetdim mag‘rur, yorug‘ yuz,
Bugun chiqdim ajal tegirmonidan,
Tabrik, dovruq bo‘lib xuddi o‘sha kez
Charaqlab turding, baxt, ikki yonimda!*

Baxt va ezgulikni tarannum etuvchi, hayotning go‘zal damlarini yorituvchi, she‘rxon ruhiyatiga kirib borib, ko‘tarinkilikka yo‘naltiruvchi lirik chizgilar ijodkori xalqimiz qalbidan chuqur joy egallagan.

Halima Xudoyberdiyeva milliy g‘oya va milliy mafkurani o‘zgacha idrok etadi va ko‘radi. Istiqlof tufayli yurtda har jihatdan tiklanish boshlanganligini e‘tirof etar ekan, unda ayollar o‘rni beqiyosligini ta’kidlaydi. “Chunki ayolda yaratuvchanlik mavjud. Jamiyat minbariga chiqish — oila ostonasidan uzoqlashish degani emas. To‘maris momomizni ehtimol qasos o‘ti hukmdor etgandir. Nodirabegimni balki qaro qismat siyosatga tortgandir. Bibixonimni, ehtimol, xalqiga, yoriga bo‘lgan mehri saltanat tomon chorlagandir. Ne bo‘lganda ham, ular hech bir vaziyatda muqaddasligini va muborak dargohlari — oilani zinhor unutmaganlar. Biz musulmalik, hokisorlik tiynatida xalqqa bosh bo‘lgan ayollarning avlodimiz”. U ayolni behad e‘zozlaydi, unga katta ishonch bildiradi:

*Ayol - olov, ayol — gul
Sochlar — arsloniy yollar,
Ishqda yonmay bo‘lsa qul,
Hayf-ey, olov ayollar!
Dunyosiga o‘t ketsin,
Dunyosiga ertak hayf
Ul ko‘ngil ayolsiz*

Ketayotgan erkak hayf! (“Hayf”) Avvalo, she’rdagi xalqona ohang milliy jozibadorlikni yuzaga keltirsa, zamiridagi fikr milliy mafkurani ta’minlaydi. Bu yerda ishq polifonik tushunchaga ega. Ya’ni hayotiy va majoziy ishq uyg’unligini tashkil etish bilan birga, yurtiga, xalqiga bo’lgan ishqni ham qamrab oladi. Oddiy narsalarda katta falsafiy fikr chiqarish ijodkorning chuqur mushohadakorligidan dalolatdir. Narsalarni e’zozlash, qadrlash, uning mohiyatini va, o’z navbatida, o’zining kimligini anglatish demakdir. Ularga bepisandlik qilish o’zini unutishdan, o’rinsiz xatti-harakat qilishdan dalolatdir.

Ma’lumki, insonning hayotda tirik yurishiga, yashashiga imkon beradigan to’rt unsurdan biri yerdir. Shundan kitoblarda, xususan, “Avesto”da yerni, tuproqni toza tutish haqida ko’p ulug’ gaplar aytilgan. Lekin XX asr odamlari bunga amal qilishmadi. Ayniqsa, sovetlar davrida yerga nihoyatda bepisandlik qilindi. Uning oqibati bugungi kunda ma’lum. Halima Xudoyberdiyeva bunga sharqona yondashadi. Ya’ni yer - o’z yurti. Bu yer uni dunyoga keltirgan, bag’rida yashaydi va qayta bag’riga oladi. Demak, uni e’zozlashga har kimsa burchdor. Umuman olganda, insonga bo’lgan mehr yaratganga bo’lgan mehrdan boshlanadi. Bilamizki, inson tuproqdan yaralgan. (Bu gipotezada jon borlig’ini yapon olimlari isbotladi. Tuproq tarkibidagi elementlarning barchasi, inson tanasida ham mavjud ekan). Demak, yerga - yurtga qancha mehr qo’yilsa, uning sofligi, ravnaqi uchun shuncha qayg’uradi.

Filologiya fanlari doktori, professor No‘mon Rahimjonov o‘z maqolasida Gulandom Tog‘ayeva ijodiga xolis yondashadi. Shoir, olim, adiba - Gulandom Tog‘ayeva siymosiga nazar tashlasak bu fikrlarga yanada ishonch hosil qilamiz. “*Gulandom Tog‘ayevadagi go‘zallikni his*

etish tuyg‘usi uning otashin she’rlarida jilolanadi. Yetti yoshida dilida nish urgan tuyg‘u yillar o‘tgan sari ko‘karib bordi. Chaqmoq chaqinidan duv-duv to‘kilgan xo‘rsiniqlarni hovuchiga yig‘di. Devorlarda qolgan bulbul panjasining izlaridan ma’no o‘qidi. Ko‘ngli tog‘ qushlari bo‘lib uchgandek bo‘ladi. Dov-daraxt bog‘larning tushlari misoli gullaydi. “Umr – bu izhori dil uchun imkon...” deydi shoiraning lirik qahramoni “Yashash nima o‘zi, tiriklik nima” she’rida. Ko‘ngil chig‘irig‘idan sizib chiqqan kechinmalar, kayfiyat va ruhoniy holatlar suratini chizish, his-tuyg‘ulardan ungan fikrlarni badiiy umumlashmalar shaklida ifodalash shoira she’rlarining bosh xususiyati. Shu ma’noda bugungi lirikamizda fikrsizlik hastaligi kuchaygan, fikriy qaytariqlar, obrazlar takrori tobora bolalab borayotgan bir paytda har bir she’rida yangi fikr aytishga intiladi.

...Shoira Gulandom Tog‘ayeva ijodida ham o‘ziga xos falsafiy mushohada, olamni mantiqiy bilishga bo‘lgan nozik dunyoqarash sezilib turadi. Shoiraning badiiy qahramoni olamga yoniq va qat’iy nigoh tashlaydi:

Oldinda hali ko‘p go‘zal kunlar bor,

Mayin iforlarga to‘lar g‘am qasri.

Aziz zamondoshim, muborak bo‘lsin,

Sevishganlar asri, muhabbat asri!

Gulandom Tog‘ayeva xoh ilmiy izlanishlarida, xoh poetik ijodida bo‘lsin, hamisha yangilikka intiladi. Mavzu-masalaning yangi qirralarini topish va yoritishga she’riy izlanishlarida esa yangi badiiy yechimlar topishga, yoritishga, obrazlar vositasida fikrlashga katta rag‘bat, ishtiyoq ko‘rsatadi.

Ko'ngil chig'irig'idan sizib chiqqan kechinmalar, kayfiyat va ruhoniyl holatlar suratini chizish, his-tuyg'ulardan ungan fikrlarni badiiy umumlashmalar shaklida ifodalash shoira she'rlarining bosh xususiyati:

***Kuygulgimmi, bu suygulgimmi,
Yoki bu dunyodan to'yulgimmi,
Men aytib qolayin degulgimni,
Alloh rozi bo'lsin muhabbatimdan.***

Bugungi lirikamizda fikrsizlik xastaligi kuchaygan, fikriy qaytariqlar, obrazlar takrori tobora bolalab borayotgan bir paytda shoira har bir she'rida yangi fikr aytishga intiladi:

***Yulduz yig'lagani oyga boradi,
Tog'-tosh yig'lagani soyga boradi,
Mening yig'laganim qayga boradi,
Alloh rozi bo'lsin muhabbatimdan.***

She'riyatimiz o'zining azaliy va adabiy o'zanlariga qaytmoqda. Shoiraning "Qalamga" she'rida ana shu betakror o'zanlar shukuhi seziladi:

***Qalamim, burchakda yotma endi jim,-
Chunki yuragimga Elim ko'z solgan!
So'yla, men kimlarning bolasi edim,-
Ular Qalam bilan dunyoni olgan!
Soat aniqligi, fikrat kengligi,
Baxtning sibizg'asi uyqungni buzsini.
Qalamim uchida turgan avlodim,
Kimsan, jamolingni ayla tajassum!...-***

Ma'fkuraviy andozalardan chetlanib, ko'ngil deb atalgan bekaron mavoni sinchkov o'rganish, chuqurroq va xolis yoritish sari yuz tutdi. Uning qutlug' nishonalari sifatida ko'ngil adabiyoti bo'y ko'rsatib bormoqda. Qaddini rostlab o'zbekning ko'ngil dunyosini badiiy-falsafiy kashf etish hodisasi sezilarli, salmoqli yo'nalish oldi.

Ko'ngil-ummonlar, osmonlar qadar bekaron hadsiz, adadsiz. Ko'ngil – borliq bilan yo'qlik dunyolarining tutashgan mehvari. Ularning cheki-chegarasi qalb qutbidan boshlanadi. O'n sakkiz ming olam osha yana ko'ngilga kelib bog'lanadi. Ko'ngildan rang, ma'no, jilo olib, aniq shakl-shamoyil kasb etadi. Shaxsning tabiat, jamiyat bilan bog'liqligi rishtalarini, sir-sinoatlarini badiiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy tadqiq qilish ijodkorlar zumrasiga hamisha yangi-yangi vazifalar yuklab keladi. Adiblar iste'dodining kuch-quvvatini, imkoniyatlarini ko'z-ko'z etish birobarda badiiy so'z madaniyatidagi o'rni mavqei, masnadini ham belgilab beradi.

Ey muxlisim yo'q deb ruhin tushirgan,

So'zga armonini bitib yashirgan,

Navoiy bobo ham uzoq Hirotda

Nizomiy bolidan halvo pishirgan.

Men ham Nizomiyni qo'lga olaman,

Shu sabab Xisravdek goh so'zim botir,

Goh Shirin misoli hayo qilaman,

Goh sodiq do'st ular go'yoki Shopur.

Ba'zan Alpomishdek do'mbira – belda,

Goho Siyovushdek ot chopar yelda.

...Dil-chi sevimagan quyoshdek botar,

Bir kun u uxlagan qalbing uyg‘otar...

Kimki kamolotni orzu qilsa, shunchaki orzu qilishning o‘zi kifoya emas. Bu uchun u intilishi ham zarur. Shoiraning lirik qahramoni voqelikka bor bo‘yicha, mardona nigoh tashlashga harakat qiladi. Shu bois ham u o‘z oldiga juda katta talablar qo‘yadi:

O‘z xalqingning timsoli bo‘l,

Bo‘l xalqingga rivoyat.

Eslaganlar eslasinlar

Aylab she‘ru hikoyat.⁴

“O‘z xalqingning timsoli bo‘l!” satrlaridagi keng poetik mushohada, keskir ohang qahramon ruhiyatining ijtimoiy-ruhiy faolligi ortganligini ifodalaydi. Bu talab aslida qalb ehtiyojidan kelib chiqqan

Shoira Gulandom Tog‘ayeva o‘z ijodida morfologik va fonetik takrorlardan unumli foydalanadi. Lekin ular fikr qaytarig‘ini vujudga keltirmaydi:

Meni baxtli hisoblamang odamlar,

Och xandasin tark etmaskan yulduzlar.

Meni baxtli hisoblamang odamlar,

Qizarmasa yolg‘on gapdan bu yuzlar.

Pushkin so‘zi javonlarda jim tursa,

Devorlarda osig‘ qolsa dutorlar.

Qarovsiz gul umr ko‘rmay qurisa,

Meni baxtli hisoblamang bahorlar.

Allasini unutsalar onalar,

⁴ Тоғаева Г. Муҳаббат асри.-Т.:А.Қодирий номли Халқ мероси нашриёти, 2004.–Б.61.

Buvilardan chiqmasa hech bir ertak.

“Labbay” so‘zin bilmasalar bolalar,

Meni baxtli hisoblama, kelajak.

Meni baxtli hisoblamang, odamlar,

Sizlarni deb qalbim yona olmasa.

Meni baxtli hisoblamang, odamlar,

Yozganlarim sizlar bilan qolmasa...⁵

She’rning ilk satrlarida tezis sifatida berilgan poetik ma’no uning keyingi misralarda dalillanadi. “Meni baxtli hisoblamang, odamlar!” satri qat’iy tizim asosida emas, erkin ravishda, ma’noni qayta bezagan holda(masalan, “odamlar” so‘zi “bahorlar”, “kelajak” kabi komponentlarga tenglashtirilgan) ishlatiladi. Natijada ushbu so‘zlar ma’noni kuchaytirishga, ma’nodoshlikni vujudga keltirishga, ta’sirchanlik va badiiylilikni oshirishga xizmat qilgan. Donishmand shoir Pushkin so‘zi javonlarda jim, muhtar holda turishi, dutorlar devorlarda chang bosib, gullar qarovsiz qurib qolishi, onalar alla aytishni unutishi— bu aslida go‘zallikni his qilish baxtidan bebahra, qalbida nuri yo‘q kimsalar fojeasining poetik manzarasidir. Shoiraning lirik qahramoni dunyoni ana shu kabi holatlardan xoli ko‘rishni xohlaydi. Shu bois bu she’rni bedorlikka, hushyorlikka chaqiriq, ezgulikka chorlov deb qabul qilish mumkin”, - deya shoira ijodini atroflicha baholab beradi.

Shavkat Rahmonning “Xonadon” she’rida o‘tgan asrning hamma sezmagani, seza olmaydigan xususiyati — ichki “mashinasi” o‘z ifodasini topgan.

⁵ Тоғаева Г. Муҳаббат асри.-Т.:А.Қодирий номи Халқ мероси нашриёти, 2004.—Б.67.

*Bunda hamma o‘zini sevar,
Tag‘in sevar nozik gullarni...
Chaqmoq ko‘zli bolalar emas,
O‘stirishar faqat qullarni.*

Bu yerda nozik gullar o‘z injaligi, go‘zalligi bilan kishi qalbida ezgu tuyg‘ular uyg‘otuvchi tabiiy gullar emas, balki axloqsizliklarga ishora. Ya’ni chiroyli qizlarni yaxshi ko‘radi, demoqchi shoir. Chunki axloqsizlik hukm surgan yerda “g‘araz, fosiq niyatlar” urchiydi. Yaxshilarni halok qiladi, kazzoblarga keng yo‘l ochiladi. Bunday muhitda ruh o‘ladi, ruh yo‘q joyda orzu-xayollar, tuyg‘ular qotib qoladi. Harakatsizlik o‘lishdir, chirishdir.

*Nafas olmay o‘taman har gal,
Uf-f, naqadar o‘tkir anqiydi.
Irib ketgan orzu-xayollar,
Chirib yotgan tuyg‘ular hidi.*

Shavkat Rahmon she’rlarida narsa va hodisalarga katta ma’no yuklaydi, hodisalardan falsafiy umumlashmalar yasaydi. Natijada ular jonsizlikdan jonlilikka aylanadi, insoniylashadi. Tut daraxtini hamma biladi, uning boshiga tushadigan savdodan (yiliga kallaklanishi) ham barcha xabardor. Lekin o‘zbek xalqi hayotiga juda yaqin shu voqelikdan kishiga o‘z o‘tmishi xususida chuqur mushohada yuritishga va istiqlool mohiyatini anglashga beradigan ijtimoiy xulosani ko‘pchilik o‘ylab ko‘rmagan. “Tutzor xotiralari” she’ri shunday boshlanadi:

*Tutzor - Kallaklangan birodarlarim,
Osmonga bosh tirab turibsiz hamon,
Mayishgan timsohday badanlaringiz,*

Dahshatli qudrat-la ezganday osmon.

Tasvirning haqqoniyligi, tiniqligi shoirning badiiy tasavvuridagi mantiqni kuchaytirgan. Bu she'da barcha ot, fe'l va sifatlar ramziylashgan. Tutzor — o'z fikriga ega bo'lganlar, erkinlikka intilganlar. Lekin ularning niyati amalga oshmasligi kallaklangan - yo'q qilinganligi. Ular o'ldirilgan bo'lsa-da, ruhlari tirik. Hamon isyon qilishadi. Bunday intilish uzoq yillardan beri davom etadi. Uzoq yilligini timsoh misolida beradi. Chunki timsoh uzoq yashaydi. Osmon ikkinchi qudratli kuch ma'nosiga ham ega. Keyingi misralarda tutlarning qurishini habashiy qullarday mahzun deydi-da, darrov inkor qiladi, turkiy shevali pahlavonga o'xshatadi. Bu yerda so'z o'yini bor. Aslida, ikkala o'xshatish ham haqiqat. Bu pahlavonlar bobolardan qolgan darzni - yerni, ya'ni ona yurtni balolardan saqlashadi. Shoir kechagi - el, yurt mustaqilligi uchun kurashganlarning fazilatlarini sanar ekan, bugungi kunda o'zi ham tut bo'lgisi keladi. Chunki bobolari shu tarzda ham yer, ildizlariga quvvat beradi. Biroq shohlari o'sganda hamon kesishadi. Lekin u ham isyonkorligini qo'ymaydi. Shoir sezadi:

Kessalar kessinlar, Chandon o'samiz,

Erkimiz borligini ko'rib qo'ysinlar.

Har bahor chog'ida chandon jo'sharmiz,

Zolimlar zulmga qarab to'ysinlar.

O'smasak, kelipti balog'at gali, tig' kabi ildizlar yerdan uzilar, bu g'arib maskanda asqotar hali, devyurak botirlar uchun gurzilar. Demak, odamlar shunday yashasa, o'zligini topadi. Shoir qator she'rlarida hayotning real tasvirida o'zimizning qiyofamizni o'zimizga ro'para qiladi. Hayotda ro'y bergan adolatsizlikdan zada bo'lgan qalbning

ziddiyatlarini misralarga to‘kadi. “Oq devor tagidagi suhbat” she’rida moziy haqida gapirib bo‘lmaydi, buzg‘unchi, qo‘poruvchi deb yoqangdan oluvchi gumroh bor, deydi-da, “Yaxshisi, moziyni toshbo‘ron qilib, farzand o‘stirgan qavmga ergash”, — deb kinoya qiladi. Bu bilan bugungi kundagi ba’zi masalalarga bir tomonlama qarashga, ya’ni kechagi kun jarayonni” yoppasiga inkor qilinishiga ishora qiladi. Shavkat Rahmon qalb ko‘zi ochiqligidan hamma narsani yorqin ko‘radi, zakovati kuchliligidan barcha narsaning mohiyatini chuqur idrok etadi, ruh tetikligidan kelajakka nekbin boqadi va she’rida namoyon qilib qalblarga jasorat hamda g‘urur chirog‘ini yoqadi:

Panoh so‘radimmi borimni yechib,

O‘zimni urdimmi yo biron eshikka?

Qaltis lahzalarda orimdan kechib,

Kirdimmi sichqonlar kirgan teshikka? (“Bo‘sag‘a”)

Soddalik, oddiylik buyuklikdir. Chunki unda samimiyat, qalb yaqinligi, insoniylik, muhimi falsafa mujassam.

Muhammad Yusuf “Daryodek chayqalib, daryodek toshib” deb atalgan she’rida yozadi:

Izzat ilinjida mansab talashib,

Odamdek yashamay umr o‘tkazdik.

Onaizorimiz qabriga gohi

Bitta gul to‘shamay umr o‘tkazdik.

Do‘st holin so‘rmoqqa fursat bo‘lmadi,

Yo‘qladik-yo‘qlamay umr o‘tkazdik,

— deb o‘zimizni o‘zimizga ro‘para qilar ekan, bu holat yanada kuchayadi:

*Iblisni inim deb quchdik gohida,
Arshda arg'imchoqlar uchdik gohida.
Shayton bilan sharob ichdik gohida,
G'aflatdan bo'shamay umr o'tkazdik...*

Bunday yo'l tutishlik gunohi azim ekanligini shoir yaxshi tushunadi, oqibati ayanchli bo'lishini ham to'g'ri anglaydi. Shundan o'zining armonli va ogohli so'zini aytadi:

*O'zdan o'tganidan o'zimiz ogoh,
Ikki yelka to'la bir dunyo ogoh.
Nasib etgaymi endi odamdek o'lmoq?...
Odamdek yashamay umr o'tkazdik.*

Muhammad Yusufning qator she'rlari hayotiy shaxslar nomi bilan atalgani uchun ularning nomiga qarab, madhiyadir-da, deb qarash mumkin. Lekin bir-ikki misra o'qib bu fikrdan qaytish mumkin. Chunki ularda hayotiy fojia, insoniy drama mujassam. "Xursanoy opa" nomli she'rida quyidagi qalbni zirqiratadigan misralarni o'qish mumkin:

*Kecha nodonchalar qilishib huzur,
Haykalin tiklashib, haykalin buzib,
Bugun bari kelsa so'rashib uzr,
Xursand yashash qiyin, Xursanoy opa.
Ana, farishtangiz turdi ham go'rdan,
Joyi to'rda edi - berishdi to'rdan.
Sizda ham bor ekan manglayda sho'rdan,
Xursand yashash qiyin, Xursanoy opa.*

"Said Ahmad", "Mo'minjon", "Ma'ruf Jalil" nomli she'rlar shular jumlasidandir. Ko'rib o'tganimizdek, Muhammad Yusufning she'rlari

sodda yozilgan. Unda jimjimador soʻzlar, burama, aylanma, mavhum fikrlar yoʻq. Lekin yurakka yaqin, kishi tuygʻusiga taʼsir qiladi, bir holatdan ikkinchi holatga soladi. Ha, bekorga soddalikda ulugʻlik mujassam deyilmagan.

Qozoqboy Yoʻldoshevning “Yoniq soʻz” kitobidagi “Koʻrkamlik ochqichlari” faslidan joy olgan “Isyonkor tuygʻular kuychisi” qismi haqiqatdan ham koʻrkamlik chechaklariga munosib. Oʻttiz bir yoshida tiriklikni tark etgan Nazar Shukur degan bitganlari chin va yorqin sahroyli shoirni kashf qildim deganicha bor, uning isyonkor tuygʻular kuychisi sifatida qudratini kuchli ehtiros bilan bitishga harakat qiladi, qator sheʼrlarini bilimdonlik bilan tahlil qiladi. Shoir toʻlqinlanib, tebranib “Ey, Nazar, yashab qol, oʻlish qochmaydi!” degan edi bor ovoz bilan. Qozoqboy Yoʻldoshev bu haqda lutf qilib “chin badiiy soʻz oʻlim bilmaydi” deganida ham haq. Shoirlar qalbi doimo haqiqatga oshufta, haqiqatga tashna va haqiqatsiz kuylamasdan yashay olmaydi. “Shoirni tushun” sheʼri bilan buni yaqqol isbotlab bergan:

*Otilsa ortidan taʼnalar toshi,
Xam boʻlsa igʻvodan, gʻiybatdan boshi,
Toʻgʻon boʻl, quyilsa koʻzidan yoshi,
Birodar, zil ketsa, shoirni tushun!
Oʻrgatma sen unga zahmatsiz bir yoʻl,
Doim oʻz yoʻlini oʻzi topar ul,
Unga puldorlarning shafqati bir pul,
Baxti chil-chil ketsa, shoirni tushun!
Sen tinmay yashaysan, bola-chaqam deb,
Bolam deb yashar u el-yurt gʻamin yeb,*

*Nogahon arisa hayotidan zeb,
Sharobga dil ketsa, shoirni tushun!
O'tmas u birovning qo'liga qarab,
El haqin har joyda qiladi talab.
Sochiga erta oq qolsa oralab,
Umridan yil ketsa, shoirni tushun!
Bir kunda necha bor tirilar, o'lar,
Sevinchdan yig'lar u, dard ila kular,
Bir umr, bir umr yonaru kuyar –
Bag'rida kul ketsa, shoirni tushun!
Sevdimi — qaytarma, yo'ldan qolmas,
Bergan bor pandingga u quloq solmas,
G'o'ddaysang, seni ham bir pulga olmas,
Qo'l siltab yo'l ketsa, shoirni tushun!
Istasang yo'liga choh qil, chuqur qil,
Tushirsang, bir nazar sol-da, shukur qil,
Qilmishing oldida o'yla, fikr qil,
Orzusi tul ketsa, shoirni tushun,
Armoni mo'l ketsa, shoirni tushun!*

Insoniyatga barcha zamonlarda, turli vaziyatlarda she'riyat hamroh bo'lgan, qalb kechinmalariga o'rtoq va dardlariga malham bo'lganligi, zamon shoirlari esa ana shu shior bilan yashaganligi sabab chin insoniyat osmonida porlagan yulduz kabidirlar.

Istiqlol davri she'riyatining barcha tamoyillari shoir Tursun Alining “Tuyg'ular rangi” (T., “Yozuvchi”, 2001 yil), Abduxoliq Abdurazzoqning “Kuzdagi ko'klam” kitobi (“Sharq” NMAK, 2002 y.),

Ulug‘bek Hamdamning “Atirgul” to‘plami (T., Yangi asr avlodi, 2005 y.), Nazir Shukurning “Sen qaytmasang...” she’rlar to‘plami (“Zarqaynar” nashriyoti, 2006 y., Farida Afro‘zning “Tasbeh” kitoblarida (“Sharq Print” nashriyoti, 2006 y.) bo‘y ko‘rsatgan.

Tekshirish uchun savollar:

1. Bugungi lirika qanday tamoyillarga ega?
2. Milliylik bilan sug‘orilgan she’riyat qanday ahamiyat kasb etadi?
3. Sharq madaniyati va axloqining negizi nimada?

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.I. A. Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi.5-jild. —T.: O‘zbekiston, 1996. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: O‘zbekiston, 2000.
- 2.Ҳақимжон Каримов. Истиклол даври адабиёти — Т.:“YANGI NASHR” нашриёти-364 б. 2010 йил
- 3.Ulug‘bek Hamdamov. Badiiy tafakkur tadriji. - T.: Yangi asr avlodi,2002.
- 4.Oruell D., Esse, stati, retsenzii. 2 tom. Perm: Kapik. 1992.
- 5.Xotam Umurov. Adabiyot nazariyasi. - T.: Sharq, 2002.

3-MAVZU: ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK DOSTONLARI POETIK TAFAKKURINING O‘ZIGA XOSLIGI.

Reja:

- 1.Doston janri haqida ma’lumot
- 2.Doston turlari
- 3.Liro-epik dostonlarning xususiyati.
- 4.liro-epik poemaning shakllanishi va qaror topishi.
- 5.Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti.
- 6.Lirik doston xususiyatlari.
- 7.Lirik qahramon tabiatiga xos jihatlar.
- 8.“Xotiram siniqlari”da shoira dardi ifodasi. Istiqlol.
- 9.“Ichkari... tashqari...”, “Sopol siniqlari” dostonining falsafiy mohiyati.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti xilma-xilligi bilan katta ahamiyatga egadir. Xilma-xil badiiy asarlarning vujudga kelishi tufayli xilma-xil idrok ahli paydo bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar badiiy didi yuksak, so‘zni nozik his etadigan, sezimlardagi yengil tebranishlarni ham ilg‘ay oladigan kitobxonlar ko‘payishiga sharoit yaratdi. Bugungi ijodkorlarimizdan ana shunday nozik didli kitobxonlar tomonidan hamisha sevib o‘qiladigan asarlar yaratish kutilmoqda. Ko‘plab yuqori badiiy mahorat ila yozilgan asarlar milliy adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda. Bular qatoridan o‘zbek dostonchiligimiz ham ahamiyatli o‘rin egallamoqda. Ma’lumki, yangi mazmun hamisha yangi shaklni yuzaga keltiradi. Keyingi davrda yuzaga kelgan asarlar janrning qay bir qirrasini qaysidir jihatdan boyityapti. So‘nggi yillarda inson shaxsiga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi, insonning ruhiy iqlimlarini

tadqiq etish bevosita uning ongi, saviyasi, fantaziyasini ham keng qamrab olishni taqozo etyapti. Mustaqillik sharofati bilan keng dunyoga chiqish xalqimiz ma'naviy dunyosini ham, ongini ham, fikrlashini ham tubdan o'zgartib yubordi. Davr bugungi inson qalbini jamiyat qalbi bilan omuxta tadqiq etish borasida ijodkorlardan chuqur mushohadalikni talab etdi. Natijada falsafiy o'ylar bilan yo'grilgan dostonlar yuzaga keldi, janr tabiatida intellektuallik, falsafiylik, fikriy teranlik singari belgilar chuqur ildiz otdi.

Doston ham xuddi drama kabi g'oyat murakkab janr hisoblanadi. Bu sohada biror bir jiddiy muvaffaqiyatga erishmoq uchun shoir astoydil mehnat qilmog'i, ko'p izlanmog'i zarur. "Doston" so'zi asli forsha; u "1) makr, firib, tazzir, hiyla, nayrang; 2) nag'ma, lahn, navo, maqom; 3) afsona, qissa, doston; 4) Rustamning otasi Zolning laqabi". Shuningdek bir qator lug'atlarda u ta'rif, shuhrat, sarguzasht, yangilik, voqea-hodisa, sehgarning ismi, Samarqanddagi shaharning nomini ham anglatadi, deya izohlanadi. Ko'rinadiki, ushbu so'z g'oyat serqirra va ko'p ma'noli. Ko'pgina lug'atlarda adabiy termin sifatida ham ifodalanadi. O'zbek klassikasida yozma adabiyotga hamda xalq og'zaki ijodiga mansub epik asarlar doston termini bilan yuritilgan. Epik poeziya o'zbek va qardosh xalqlar adabiyoti tarixida turli terminlar bilan ifodalanib kelgan bo'lsa-da, ammo ulardan doston va masnaviylar poema ma'nosida XI asrlardan so'ng keng qo'llanilgan. "Doston" va "poema" terminlari ko'p ma'noli va serqirra, lekin bu ularni istagancha ta'rif-tavsif qilaverish mumkin, degani emas. Adabiyotshunoslik ham qa'tiy yo'nalishga va konkret o'rganish obyektiga ega bo'lgan fan; u yoki bu terminning obyektiv ahamiyatini chetlab subyektiv talqin qilishini ko'tarmaydi. Har qanday

fan kabi adabiyot ham mohiyatan aniqlik va konkretlikka intiladi. Adabiyot rivojining har bir bosqichi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekan, ana shu jarayondagi xarakterli belgilari, har bir adabiy termin kasb etib borgan yangi ma'no qirralari ham tarixan obyektiv talqin etilishi darkor. "Adabiyot ensiklopediyasi"da esa "doston – nazm (masnaviy) yoki nasr bilan aytilgan katta hikoya, doston, ertak, sarguzasht, tarix" deya izohlanadi. Doston ko'plab adabiy tur va janrlarning badiiy komponentlarini o'zida mujassamlashtirgan qorishiq janr bo'lgani sababli, uni she'riy qissa, she'riy hikoya yoki rivoyat deya ta'riflasak – uning ma'no va ifoda qirralarini cheklashdan tashqari, janr xususiyatlarida bir yoqlamalikni tug'diradi. Shu sababli, bugungi kun dostonlarini to'rt qismga, ya'ni lirik, liro-epik, dramatik, shuningdek, modern yo'nalishidagi dostonlarga bo'lish mumkin. Mazmun ko'lamiga, xarakterlarning serqirraligiga, mavzu va tasvir turlariga ko'ra dostonni quyidagicha tasniflash mumkin:

1.Voqelik ifodalanish usuliga ko'ra: lirik, liro-epik, dramatik dostonlar. 2.Davr voqeligiga ko'ra: tarixiy va zamonaviy dostonlar. 3.Uslubiy izlanish yo'nalishiga ko'ra: a) folklordagi doston, ertak, afsona, rivoyat kabi epik janrlar shakli, syujeti va ifoda uslubi asosida yaratilgan stilizatsion dostonlar; b) mumtoz dostonchilikka xos aruz vaznida, masnaviy shaklida, qasida mazmunida, maktublar uslubida yozilgan masnaviy dostonlar, qasida dostonlar, maktub dostonlar, tasavvufiy ruhdagi dostonlar, ma'rifiy-didaktik dostonlar; v) jahon modernistik adabiyoti an'analari ta'sirida yaratilgan modern izlanishdagi dostonlar.

Bugungi kun dostonlarini mazmun ko‘lamiga, xarakterlarning serqirraligiga, mavzu va tasvir turlariga ko‘ra to‘rt qismga bo‘lish mumkin, ya’ni lirik, liro-epik, dramatik, shuningdek, modern yo‘nalishidagi dostonlarga.

1.Lirik dostonda asosiy e’tibor tashqi olamga emas, kishining botiniy olamiga qaratiladi va lirik she’rga xos unsur yetakchilik qiladi. Lirik esa ichki kechinma bilan fikr uyg‘unligining mahsulidir. Lirik kechinma tarkibini esa fikr va his munosabati tashkil qiladi. V. G. Belinskiy shunday talqin qiladi: “She’riyatda fikr nima? Ushbu savolga qanoatlanarli javob bermoq uchun his nima, degan masalani hal qilish zarur. Hissiyot o‘zining etimologik ma’nosiga ko‘ra, tanimiz, jismimiz, qonimizga tegish. His va sezgilarning o‘zaro tafovuti shundaki, keyingisi tanimizda biror moddiy jism ta’sirida qo‘zg‘algan jismoniy sezgi, birinchisi ham jismoniy, biroq u fikrdan tug‘ilgan sezgi. Shu sababli ham qandaydir hisob-kitob yoki quruq mulohazalar bilan mashg‘ul bo‘lgan odam hissiyotidan to‘lqinlanib, larzaga tusharkan, qo‘lini ko‘kragiga yoki yuragiga mahkam bosib oladi. Chunki ko‘kragida nafasi bo‘g‘iladi, ko‘kragi qisadi yoki kengayadi, yonadi va sovqotadi, yuragi orziqadi, titraydi, depsinib uradi; shuning uchun u chekinadi va qaltiraydi, qo‘llarini ko‘taradi, butun tanini boshdan-oyoq qaynoq ter qoplaydi, sochlari tikka turib ketadi. Binobarin, asar fikrchan, biroq hissiyotdan mahrum bo‘lishi mumkinligi juda tushunarli; bunday holda, o‘sha asarda poeziya bo‘larmikan? Aksincha, his bor ekan, fikr bo‘lishi muqarrarligi ham juda tushunarli bir hol. Tabiiyki, his teran bo‘lgan joyda fikr ham teran bo‘ladi va, aksincha... Shoirning boshida tug‘ilgan fikr, aytish mumkinki, uning jismiga turtki berib, hayajonga soladi, qonida o‘t yoqib,

ko'ksida tipirchilab uyg'onadi". Fikr hissiyotidan holi bo'lishi mumkin, usiz yashay ham oladi, lekin hissiyot fikrdan holi, undan ajrab yashay olmaydi. Chunki fikrsiz hissiyot insoniy emas, hayvoniy tuyg'udir. Bu narsa lirik qahramonsiz yuzaga kelmaydi. Lirik qahramon esa o'z shaxsini tanigan, o'zini shaxs sifatida anglagan, o'zini olam ichra yana bir olam deb bilgan insondir. U o'z shaxsini olam bilan qiyoslaydi, o'zini unga qarama-qarshi qo'yadi. Lekin undan o'zini tashqarida emas, u bilan tutash va payvasta ekanligini qayd etadi. "Ammo hech qachon olam qarshisida o'zini batamom unutib qo'ymaydi. Olam bilan birligi, bir butunligini, ya'ni "Men va borliq", "borliq va men" degan juftlik hamisha o'z hukmini yuritadi". Bu xususiyat bugungi lirik dostonlarning muhim belgisidir. Shuningdek, shoir diqqatida voqea-hodisalar tasviri emas, balki undan olgan taassurot, ta'sirlanish orqali ichki kechinmalar, xotirotlarga berilish orqali qalb to'lqinlanishi, hissiyotning junbushga kelishi mohiyati tasviri asosiy o'rinni egallaydi. Unda kechinmalarning tasviri emas, kelib chiqish sabablari, holati ta'sirchan bir ruhda tahlil etiladi, tuyg'ularning dil izhori emas, o'zi o'rganiladi va inkishof etadi.

Zulfiyaning "Xotiram siniqlari", Oydin Hojiyevaning "Najot", A.Mahkamning "Tavajjuh", "Ishq", Faxriyorning "Muchal yoshi", To'lan Nizomning "Girya" dostonlarida shu xususiyat o'z ifodasini topgan.

2.Liro-epik poemada voqeabandlik ya'ni voqelikka lirik munosabat bildirish yetakchi bo'ladi. Buni shartli ravishda formula orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

EPIK+LIRIK+EPIK=LIRO-EPIK POEMA

Liro-epik poemada epik tasvir kuchlilik qiladi. Shuning uchun bunda liro-epik tushunchasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. V.Kikans ham liro-epik poemaning shu xususiyatidan kelib chiqib, «olamning epik kartinalari tasvirisiz poema o'zining mavjudligini oqlamaydi» degan fikrga keladi. L.K.Dolgopolov ham epik poemalar haqida fikr yuritadi, ammo uning liro-epik poema atamasini qo'llashga uncha qo'shilmasligi kuzatiladi. N.Rahimjonovning ham liro-epik poema haqidagi qarashlari V.Kikansga hamohang. Olim bu haqda yozadi: «Liro-epik poemada obyekt bilan birga shoirning ana shu obyektga munosabati parallel ravishda mavjuddir. Unda voqeaning dialektik o'sishi bir necha qahramonlar taqdiri orqali ma'lum va aniq syujet oqimida tajassum topadi». E'tibor berilsa, liro-epik poemalarga berilgan ta'riflarni bitta nuqta birlashtirib turadi. Bu voqelikning yagona syujetga asoslanishidir. Taniqli adabiyotshunos I.Sulton ham dostonidagi liriklik va epiklik jihatlarni nazarda tutib shunday yozadi: «Doston aslida epik asardir, ammo she'riy shaklda yozilishi uni ayni paytda lirikaga ham mansub etadi. Dostonda epos va dramadan farqli o'laroq, lirizm alohida bir kuch kasb etadi».

Badiiy asarda syujetning yaratilishini g'oyaviy mazmun boshqaradi, g'oyaviy mazmunning talabiga uyg'un holda xarakterlar namoyon bo'ladigan va hayot ziddiyatlarini umumlashtiradigan voqealar silsilasi kashf etiladi. Voqealar silsilasi o'z navbatida asar g'oyasini badiiylashtiradi, uni tiriltiradi. N.Rahimjonovning yozishicha: "Lirik poemada hayot xossasi liro-epik poemadan farqli o'laroq, aniq syujet oqimida emas, balki "men" orqali ifodalangan lirik qahramonning

obyektiv voqelikdan tug‘ilgan ichki kechinmalari, ana shu hayotga munosabati, his-tuyg‘ulari orqali ochiladi”. Sh.Hasanov esa bugungi poemalar taraqqiyotidan kelib chiqib yozadi: “Liro-epik va lirik doston orasidagi asosiy farqni obyektiv va subyektiv tasvir usuli belgilaydi. Liro-epik dostonlarda voqea-hodisalar, xarakterlar, hayotning turfa manzaralari o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalana boshlaydi, shoirning shaxsiy ehtirolari esa ikkinchi darajaga o‘tadi. Lekin lirik dostonda esa lirik qahramonning taassurotlari, ehtirolari yagona bir mavzu doirasida badiiylashadi va shoir qalbidagi tug‘yonlar uzviy aloqadorlik kasb etadi. Agar unda ba’zi bir voqea tafsilotlari bayon etilsa-da, u ham lirik shaxsning ruhiy olamini yoki hasbi holini ochishga xizmat qiladi”. Biroq hamma lirik poemalarda ham hasbi hol berilavermaydi. Shunga qaramay, adabiyotshunoslar qarashlarida mushtaraklik mavjud. Bu lirik poemada lirik qahramonning kechinmalari berilishi bilan bog‘liq. His-tuyg‘u, kechinmalar silsilasi esa ko‘proq monologda yuzaga chiqadi.

Mustaqillik millat tarixida ham, adabiyot tarixida ham muhim davr bo‘ldi. Bu davrda tarixiy, diniy-axloqiy, madaniy-ma’naviy qadriyatlarga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbek xalqining ongi, dunyoqarashida tub o‘zgarishlar yuz berdi, qalbida esa istiqloлга shukronalik, ertangi kunga ishonch tuyg‘ulari qaror topdi. Binobarin, davr dostonchiligida mana shunday yangilanishlarni ifodalash, millatning milliy mustaqillikka kirib kelish tarixini badiiy yoritish bosh xususiyatga aylandi. Ana shu xususiyatlar shoirlarimizning hayot materialini tanlashda, unga yondashishda, badiiy-estetik talqin qilishda, o‘z individual mahoratlarini namoyon etishida yorqin kuzatiladi. Binobarin, istiqloл yillarida yaratilgan dostonlar quyidagi asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1.Davr dostonlarida mustaqillikning ma'naviy-ijtimoiy asoslarini ochishga, milliy g'urur tuyg'ulari psixologiyasini yoritishga e'tibor qaratildi. Bu jihatdan Zulfiyaning «Xotiram siniqlari» asari ahamiyatli.

2.Mustaqillik dostonlarida diniy-axloqiy qadriyatlarning talqini, olis o'tmishimizda yorqin iz qoldirgan mashhur shaxslar hayoti, taqdiri haqida diniy-falsafiy, tasavvufiy mavzuda dostonlar yozish o'tgan asrning 90-yillarida o'ziga xos an'ana tusini oldi. Eshqobil Shukurning «Naqshband» dostoni bu jihatdan e'tiborni tortadi. Adabiyotshunos Sh.Hasanov 90-yillarda yaratilgan dostonlarni tahlil etar ekan, yozadi: «Bugungi doston komillik masalasini falsafiy talqin etayotgan ekan, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Jaloliddin Rumi, Boyazid Bistomiy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy singari komillik martabasidagi shaxslar uning syujetidan qonuniy joy olmoqda. Ijodkor esa o'zining axloqiy, ma'rifiy qarashlarini shu obrazlarning shaxsiy sifat va fazilatlariga tayanib ro'yobga chiqarmoqda». «Naqshband» dostonida Boboyi Samosiy, Amir Kulol, Bahovuddin Naqshband singari avliyolar obraziga chizgilar berilgan. Shoir tarixiy shaxslar obrazlarini badiiy gavdalantirish orqali yosh avlodni uzoq o'tmishimizda yashab o'tgan, karomat va bashoratlari bilan insoniyat ahlini hamon hayratga solib kelayotgan siymolar hayotini yoritishni ko'zlaydi. Eshqobil Shukur Bahovuddin hayotidagi eng xarakterli davrlarni qalamga oladi. Shulardan biri uning tavalludi bilan bog'liq. Hinduvon bo'ylab o'tib ketayotgan karvon bilan borarkan, ulug' mutasavvuf Boboyi Samosiy shu yurtda bir o'g'lon tug'ilishini bashorat qiladi. Buni birlamchi manba Alisher Navoiyning «Nasoyimul-muhabbat» asaridagi quyidagi mulohazalar tasdiqlaydi. Xoja Ali

Rometaniyning shogirdi Xoja Muhammad Boboyi Samosiy «Qasri Hinduvondan oʻtarda der emishlarki, bu tufrogʻdan bir er (oʻgʻil bola) isi keladur. Qasri Hinduvon Qasri Orifon boʻlgay». Ikkilamchi manba H.Homidiyning «Tasavvuf allomalari» kitobida ham shu haqda fikr yuritiladi. Eshqobil Shukur dostonida ana shu maʼlumotni badiiy qayta ishlagan.

Boboyi Samosiy otdan tushdilar.

Bir chayqalib ketdi Qasri Hinduvon,
Bir buloq koʻz ochdi bosgan izidan,
Xizr hassasidan yoqqanday imon.

Maʼlumki, Boboyi Samosiy tarixiy shaxs boʻlib, oʻzining yuksak diniy eʼtiqodi, ilmi, bashoratlari bilan tasavvuf olamida shuhrat qozongan. Asarda uning mana shu jihatlariga alohida urgʻu berilgan. Shoir Boboyi Samosiy otdan tushgan paytlarida Qasri Hinduvonning «bir chayqalib ketishi», uning izidan «bir buloqning koʻz ochishi» kabilar avliyoning gʻayrioddiy xislatlariga, karomatlariga ishoradir. Ayni paytda Bahovuddinning tugʻilishi bashorat qilinadi. Eshqobil Shukur Boboyi Samosiyning Qasri Hinduvonda toʻxtashining sababini ham ochishga intiladi:

Hinduvon tuprogʻin hidladilar soʻng
Abad shamollarin boʻylar edilar.
Ilhom tovush berdi pirning tilida
Tuproq hikmatidan oʻqib dedilar:
«Bu tuproqdan bir er isi keladir,
Ul er fayzi bilan Qasri Hinduvon
Kun yetib Qasri Orifon boʻladir».

Boboyi Samosiy tuproqni hidlab ko‘rib, Hinduvonda bir avliyo tug‘ilishini oldindan aytadi. Dostonda ham ana shu voqelik – Bahovuddinining tavalludi badiiy to‘qima bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlangan. Mazkur jarayonni shoir Boboyi Samosiy safardan qaytayotgandagi holati orqali reallashtiradi:

Boboyi Samosiy, avliyo Bobo

Qasri Hinduvondan qayta o‘tar choq,

Oq changlar to‘zg‘igan somon yo‘lida

Qadim hayot bilan sirlashdi uzoq.

Bir zum tin oldi-da, so‘ngra dedilar:

«Dimog‘imiz sezgan o‘shal er hidi bu gal bu tuproqdan keldi ortuqroq». Ma’lumki, Boboyi Samosiy Bahovuddinini yoshlikdan farzand qilib olgan va uni Amir Kulol tarbiyasiga topshirgan. Alisher Navoiy mulohazalari mazkur fikrga oydinlik kiritadi: «...Va ashob sari boqib, debdurlarki, «Bu ul er (o‘g‘il bola) durki, bizg‘a aning isi yetib erdi, ro‘zg‘orning muqtadosi bo‘lg‘ay. Va Amir Sayyid Kulolg‘a buyurdilarki, «Farzandim Bahovuddin haqida tarbiyat va shafqatni darig‘ tutmag‘aysan». Dostonda ham shoir ushbu haqiqatdan chekinmagan: «Uch kundan so‘ng Boboyi Samosiyning osmonning o‘ngiri etaklariga manglayiga oy porlagan go‘dakni quyosh bolasiday obkeb soldilar. Etaklari nurga chulg‘angan Bobo uni farzandlikka qabul qildilar». Shoir Bahovuddinini «manglayida oy porlagan go‘dak» deya tanishtiradiki, bunda tasavvufiy ruh sezilib turadi. Shu tasvir orqali kitobxon shoir ifodalayotgan voqelikning, u yaratgan badiiy obrazning mohiyatini anglashga intiladi. Dostonda Bahovuddinining kamolga yetishi jarayoni ham qalamga olingan. Unda yozilishicha, din dunyosini, qalandarlar

hayotini kuzatgan Bahovuddin insonning yorug‘ dunyoga kelishi sabablarini izlashga urinadi. Nihoyat, alloma bu dunyoning orzu-havaslaridan voz kechmagan holda Olloh yo‘lida ibodat qilib yashash mumkinligini tushunib yetadi. Shu bois u «Dil ba yoru, dast ba kor» – «Ko‘ngling ollohda, qo‘ling esa mehnatda bo‘lsin» degan hayotiy xulosaga keladi. Dostonda mana shu jarayonlar nihoyatda ishonarli ifoda etilgan. Shunday qilib, shoir voqelikni realistik-romantik uslubda diniy, ilmiy manbalarga tayangan holda ishonarli tasvirlashga erishgan. Bu esa keyingi yillar dostonchiligiga xos muhim xususiyatlardan biri sifatida ko‘zga tashlanadi. Tarixiy-tasavvufiy mavzudagi «Naqshband» dostoni Eshqobil Shukurning diniy sarchashmalarga chuqurroq kirib borayotganligidan darak beradi.

3.Davr dostonchiligida o‘zbek xalqi tarixining muhim qatlamlari qalamga olinib, tarixiy shaxslar obrazini yaratishga, bu bilan milliy istiqlol ildizlarini ochishga e’tibor berildi («Tavajjuh», «So‘z yo‘li»). Binobarin, Asqar Mahkamning Boburga bag‘ishlangan «Tavajjuh» dostoni ham tasavvufiy mazmun-mohiyati bilan ajralib turadi. Shoir Bobur hayotining millat va Vatan taqdiridagi g‘oyat muhim nuqtalarini, ruhiy holatlarini qalamga oladi. Dostonda shoh va shoir Boburning qalb dunyosi manzaralari berilgan. Unda, asosan, kechinmalar surati chizilgan. Natijada dostonda tarixiylikdan ko‘ra umuminsoniy jihatlar bo‘rtib ko‘rinadi. Kitobxon ko‘z o‘ngida tarixiy shaxs – Bobur iztiroblarda o‘rtangan, o‘kinch va armondagi inson sifatida gavdalanadi. Ana shu jihat tarixiy mavzu talqinidagi yangi usullardan biri sifatida ko‘zga tashlanadi. Garchi shoir tarixiy shaxs hayotini asos qilib olgan bo‘lsa-da, unda bugunning dardlari, umuminsoniy jihatlar yaraqlab

turadi. Doston boshidan oxirigacha Bobur monologlaridan iborat. Unda shoir monologning ikki xilini uyg'un holda qo'llagan. Asarning sof monolog asosida qurilgan Bobur o'ylari shaklida berilgan qismlarida shoh va shoirning o'z-o'ziga murojaati muhim o'rin tutadi. «Mirzo Boburning qazo va qadar haqida o'ylaganlari» qismida Boburning o'z qismati aks etgan satrlar mavjud:

Yo Bor Xudo, tuman jahongirdan so'ng,
Qur'on, qalam, qilich tutgan foniyman.
Yo Bor Xudo, Temur naslidan so'nggi
Bodiyalar kechgan Andijoniyman.

Satrlardan ma'lum bo'ladiki, minglab jahongirlar orasida Bobur alohida ajralib turadi. Chunki u uch narsa: Qur'on, qalam, qilichni tutgan shohdir. Boburning shoir qalbi hamisha adolatsizlik, vafosizlik, xiyonat kabilardan ozor chekadi. Shu bois o'zini «yori zor», «xoru zor» deydi. Binobarin, bu ifodalarda Boburning Vatandan ayriliqdagi holati badiiy aks ettirilgan. Biroq davr dostonchiligida monologning bir xillashib lirik qahramon nutqidan iborat bo'lib qolishi ifoda imkoniyatlarini toraytirayotganligi ham kuzatilmoqda.

4. Davr dostonchiligida shaxs erki masalasi yetakchi o'ringa chiqdi. Istiqlol va sho'ro davri kishilari psixologiyasi, kechinmalar manzarasini ikki qutbda sho'ro va mustaqillik qiyosi nuqtayi nazaridan o'rganildi. («Ichkari...Tashqari», «Yobondagi yolg'iz daraxt»). I.Otamurodning «Yobondagi yolg'iz daraxt» dostonida yolg'iz daraxtning yashash uchun kurashgan holati nihoyatda tabiiy tasvir etilgan. Bu orada necha bor «labi quvrab javzo» – yoz, «libosini almashib ko'klam» – bahor, «xayr etgan tiyramoh» – kuz fasllari kelib ketadi. Shoir bunda «labi quvrab», «libos

almashlab», «xayr aytgan» kabi insonga xos sifatlarni fasllarga ko‘chirib, tashxis san’atini hamda metaforik sifatlashlarni vujudga keltirgan. Mazkur badiiy topilmalar falsafiy mohiyat kasb etishi bilan birga shoir badiiy-estetik tafakkurining yuksakligini o‘zida namoyon etadi. «Yobondagi yolg‘iz daraxt» dostoni I.Otamurod asarlariga singdirilgan badiiy-falsafiy konsepsiyasining yangi qirrasini yoritishi bilan ahamiyatlidir. («Yobon cheksiz. Masofa – umid ... Masofa – xotira. Umid – xotira tuprog‘i»). Yobon – hayot, masofa esa hayot yo‘llari. Unda insonning umidi va xotiralari ekilgan. Shu bois u cheksizdir. Shoir ana shu hayotiy-falsafiy fikrlar asosida voqelikka nazar soladi. Otashin shoiramiz Zulfiya Isroilova turli yillarda xilma-xil mavzularda “Uni Farhod der edilar”, “Mushoira”, “Vodil yulduzlari”, “So‘roqlaydi shoirni she’rim”, “Quyoshli qalam”, “Xotiram siniqlari” kabi asarlar yaratib, o‘zbek dostonchiligi an’analarini rivojlantirdi. Shoira qalamiga mansub “Xotiram siniqlari” lirik dostoni – 1995-yilda yozilgan bo‘lib, unda mustaqillik dil-dildan ulug‘langan. Shoira asarda umri davomida o‘zi boshidan kechirgan yaxshi va yomon kunlarini eslab, hayot va jamiyat taraqqiyoti haqida teran poetik mulohaza yuritgan. Sho‘rolar davridagi achchiq hayot qoldirgan dard va alamlarini, orzu-istaklarini doston misralari qat-qatiga to‘kib solgan. Zulfiya “Xotiram siniqlari” dostonida mustaqillikning buyuk ne‘mati hurriyatni, chin erkinlikni katta quvonch bilan olqishlagan:

Hurriyat, keldingmi – nahotki kelding...

Pinhona sog‘indim, pinhona kutdim.

Yomg‘irga bag‘rini tutgan sahrodek –

Sening nasimingga qalbimni titdim

*Kelding-ey, Istiqlol istiqolol bo‘lib,
Qalbimga nasiming bilan yo‘l solding.*

Bu doston muallifning yillar bo‘yi qalbida cho‘kib yotgan dardlari, og‘riqlari, alamlari asosiga qurilgan. Shoira buni bir-bir xotirasida tiklar ekan, go‘yo singan ko‘zguning siniqlarini bir-biriga ulaganda narsaning aksini ko‘rsatganday, bu xotira siniqlarining ortida o‘zining siymosi paydo bo‘ladi. Biz bu siniqlarda shoira yuragidagi suvaydoni ko‘ramiz.

*Ko‘ngling qolganmidi bizlardan, Xoliq?
O‘zing berganding-ku, poklik, halollik,
Iymonu ishonchlar – butun, beillat,
Qilolmas edi-ku shayton dallollik,
Ilmu hikmatlarga yor edi millat. ...
Ey gumbazigardun, qoldimmi g‘ofil,
Ishonch, e‘tiqodlar chiqdi puchlarga?!
Suyanib najotlar kutgandik, nahot,
Bizga choh qazigan qora kuchlarga?!*

Bu jarayon shoiraning oilasini ham chetlab o‘tmadi, balki taniqli partiya arbobi bo‘lgan akasi Normat Isroilovni ham domiga tortib ketdi. Mana shunday kunlarni sodir qilgan kishilar haqida shoira kuyinib yozadi:

*Sizni-da qora tun olarmikin,
Qo‘lingizga kishan solarmikan,
Yukinish, yalinchimas — g‘ururni ko‘rib,
Vahshiy gazablarda yondilarmikan?!*

Dostondagi tahayyullar tabiati shundan iboratki, lirik qahramon xotirasida tiklangan — singan taqdirlar misolida o‘z yurti, millati boshiga

tushgan zo‘ravon tuzum ko‘rguliklariga qarshi bosh ko‘targan nolalarini satrlarga tizadi:

*Onam, “suv boshidan loyqa” derdingiz,
Bilmasdik bu gapda haqiqat zuhur.
Muhtasham binoda sirli, yashirin
Asl yigitlarga qazilardi go‘r...
Va faqat derdigiz: “soldim xudoga”,
Bu qirg‘in doyasi xudosizlar-ku.*

O‘zbek ayolining nechog‘lik teran fikrlashini shu satrlar orqali ifodalab bergan.

Shoira o‘sha davrdagi qamoqxonalar va onalarning farzand dog‘ida zir yugurishlarini ham yozadi:

*Onam qo‘llarida mushtday tugunchak,
Tosh shaharni kezar avaxta izlab.
Avaxta nechadir, zor ona necha,
Nechalar yashardi zamonni «sizlab» 32 [129,215].*

Bu satrlarda shoiraning onasi timsolida davr onalarining holati aks etgan. Onaning tugunchak bilan shahardagi qamoqxonalarda sargardon bo‘lishi, o‘g‘lining qaysi avaxtaga tashlanganligini bilish uchun soatlab navbatda turishi singari tasvirlarda bu xususiyat bo‘rtib ko‘rinadi.

*Ota, bir ko‘rmadik ko‘zingizda yosh.
Yashab umidlarning pok sajdasiga
Hatto yovingizga otmadingiz tosh.
Va faqat dedingiz: «Soldim xudoga»,
Bu qirg‘in doyasi xudosizlar-ku [129,215].*

Shoira o‘z otasiga xos mustahkam iroda, sabru qanoatni ifoda etar ekan, o‘sha davr otalarining tipik qiyofasini chizadi va ular bu ijtimoiy ko‘rgulik sabab chekkan ruhiy iztirobini erkaklik g‘ururi tufayli onalar kabi oshkor etolmasdan, «Soldim xudoga» deyish bilan o‘z hukmini bildirganligini ochib beradi. Ikki farzandidan judo bo‘lgan otaning (ukasi ham vafot etgandi) chidami shoirani lol qoldiradi:

...Bunga chidam qaydan — po‘lat, olovdan,

Metindan yaralgan jonmidi otam...

Otash og‘ushida topib bizga non,

G‘amga ham chidamli bo‘larkan odam.

Bu misralardan shoiraning irodasi manbayini anglash mumkin. Hayot faqat g‘am-anduhdan iborat emas, balki quyoshli, bahoriy kunlar ham bisyor. Hayot faqat g‘am yoki quvonchdan iborat bo‘lsa, ularning mohiyati anglanmasdi. Zulfiyaning bu lirik dostonida maqsad aniq, ifodasi betakror. Shoira mustaqillik haqida hayajon bilan kuylar ekan, go‘zal tashbihlar, yorqin obrazlar yaratgan. Shuning uchun ham bu lirik-falsafiy dostonni 80 yoshli shoira ijodining o‘ziga xos gultoji desa bo‘ladi.

Sabr-qanoatdan yaralgan elim,

So‘qir ham o‘ziga so‘qmoq izlar-ku.

Lirik qahramonning yongan so‘zlari, bu-millatni sukutga cho‘mdirgan, so‘qir dillarni yuzaga keltirgan, shirin yolg‘onlarni katta haqiqat deb bilgan mutelik psixologiyasiga, gumrohlikka, g‘ofillikka qarshi isyondir. Alamdan, iztirobdan junbushga kelgan tuyg‘ular tug‘yoni bu. Lirik qahramon “yallig‘lanib yotar keksa xotiram”, deyishi bejiz emas.

Eng kichik giyoh ham nazdimda uygʻoq

Faqat el-elatni sukutda koʻrdim.

Doston – Zulfiyaning millatni uygʻoqlikka, kurashchanlikka daʼvat etuvchi oʻtli nidosi. Ana shu tuygʻulardan bugungi kunlar shukronasi, milliy istiqloldan gʻurur tuygʻulari sizib chiqayotganligini tuyish mumkin. Kurtak tukkan gʻurur tuygʻusini vujudimizda oʻstirish, iftixor bogʻlariga aylantirish har bir vatandoshimizning burchi, vazifasidir. Insonlarda tugʻilgan gʻurur tuygʻusi koʻngillarni togʻdek koʻtaradi, koʻksi osmon qadar kengayib ketgandek boʻladi. Ushbu rohatbaxsh tuygʻu, maʼnaviy lazzat hissi inson umrini boqiy lashtiradi. Insonning ongi-shuuri borliq bilan yoʻqlik tabiatini, mohiyatini hamisha farqlab, koʻrsatib turadi. Jamiki qadriyatlar boqiy goʻzalliklar bagʻridan chiqadi. Shunday lahzalarda odam gʻururi chek-chegara bilmaydi, oʻzini behad baxtli deb biladi. Gʻurur hissining qudrati bois inson boqiy baxtga munosib. Gʻurur hissi odamning kelajagi yorugʻ ekanligidan ishonch va qanoat tuyganda yuzaga chiqadi, oʻzligini dunyoga tanitadi. Gʻurur tuygʻusi boshqa hislari singari tugʻma boʻlmaydi. Nemis faylasufi Gerder “Insoniyat tarixi falsafasiga oid gʻoyalar” asarida milliy iftixor — tarbiya mahsulidir deya taʼkidlagan. Demak, gʻurur tuygʻusi odamlar koʻnglida shakllantiriladi. Shoir qalbidagi ana shunday gʻurur tufayli tuzum qabohatlaridan ozor topgan ota-onasi, farzandlari, xalqi uchun, qolaversa, adabiyot-sheʼriyat, haqiqat uchun barcha gʻam-anduhlarni yengishga, undan ustun chiqishga intildi va muyassar boʻldi. Iroda kuchi nimalarga qodir ekanligini namoyon qilish bilan insoniylikdan saboq berdi, vafo timsoliga aylandi va asarlarida ifodalab berdi:

Bo'ldi, bas!

Jangdan so'ng horg'in sarkarda

Tirik askarlarin tizganday qator –

Men tirik hislarim bir joyga yig'dim

Va kuchli yashashga ayladim qaror.

Istiqlolga shukronalik bilan sug'orilgan dostonda o'zi yashagan tuzumni qalbigi o'kinchlar, armonlar vositasida tasvirladi. Sobiq tuzum sharoitidagi xatolarini mardona turib tan oldi, ijodiy jasorati ham namoyon bo'ladi.

«Yangi hayot» debmiz o'sha kunlarni,

Betalab, benolish yashabmiz ko'p yil.

Bir o'ylab ko'rmabmiz bu yurt hokimin

Labi kulib, nechun rang-ro'yi zahil [129,216].

Bu fikrlar o'ziga xos iqrornoma, xatolardan ozurlangan qalb sadolaridir. Yashab o'tgan hayot yo'liga nazar tashlab, undagi qusurlarini tan olish insonning e'tiqodi yuksakligini va kuchli iroda sohibi ekanligini namoyon etadi. Shoir "yurt hokimining labi kulib, rang-ro'yi zahil bo'lganligi, o'zini toji yo'q podshoday sezishi" misolida mamlakatimizning rasman ozod, lekin amalda qaram bo'lgan yetmish yillik hayotiga ishora qiladi:

Hali biz sezmagan qora qish aro

Nahot, jonlanmoqda ishq otlig' chechak...

Va hademay sezdik bu qahramonni,

Tig'day tillarida yalay boshladi.

Qadami yetganda har xonadonning –

Quvonchi bujmayib, so'liy boshladi...

Zulfiya hurriyatga, yurtning mustaqil kunlariga shukrona qilar ekan, beixtiyor o‘tmish manzaralari jonlanadi. Ayniqsa, shu kunlarga intilgani uchun qatag‘on qilingan akasini kuyinib yodga oladi:

Aka, jonim akam – jondoshim akam,

Oltmish yil izimga qaytib yig‘layin,

Bo‘g‘zimda tosh bo‘lgan yo‘qlovlarimni

«Oh»larim eritar – aytib yig‘layin [129,214].

«Aka» so‘zi bir misraning o‘zida uch marta takrorlantirilishi evaziga millat fidoyilari obrazi umumlashtirilgan. Asarda “Yo‘qlov” so‘zi ham bekorga ishlatilmayapti. Chunki qatag‘on qilinganlar qismati shu qadar ayanchli ediki, hatto ular uchun ovoz chiqarib yig‘lash mumkin emas edi. Shuning uchun shoira oltmish yil ortga qaytib, bo‘g‘zida qotib qolgan «oh»larini eritib yig‘laydi.

Badiiy ijodda iztirobli kechinmalarni, insoniy dardlarni xotiralar tarzida ifoda etish usuli butunlay yangi emas. V.M.Jirmunskiyning yozishicha, bu usulni qo‘llash J.Bayron dostonlari («Parizina»)dan boshlangan. Zulfiya ham qalbida kechgan tug‘yonlarni monologda ifoda etar ekan, bu usuldan samarali foydalanadi. Shu jihatlarni inobatga olib, adabiyotshunos N.Rahimjonov «Xotiram siniqlari» dostonining XX asr oxiri – XXI asr boshlari o‘zbek dostonchiligi takomilida ayricha ahamiyat kasb etganini ta’kidlab, yozadi: «Gap asar mavzui milliy istiqlolga bag‘ishlanganligida emas. Hamma gap hurriyat uyg‘otgan milliy g‘urur tuyg‘ularini ta’kidlash asnosida inson ruhiyati iqlimlariga teran kirib borganligida, kechinmalar silsilasi asosida erkka intilib yozg‘irgan ruhning suratini chiza olganligida ko‘rinadi». Katta qalbning armonlari, dardlari ham katta bo‘ladi. Bunday shaxslarning dardlarida

xalq dardi yotadi, armonlari millat armonidir. U qo‘liga qalam olgandan to so‘nggi kunigacha bir armon, ya’ni xalqning mustaqilligini ko‘rish armoni bilan yashadi. Zulfiya dunyodagi barcha shoirlarning faqat tinchlikni, faqat ezgulikni kuylashlarini orzu qiladi va o‘z asarlarini ana shu qutlug‘ niyat bilan ko‘tarinki ruhda yakunlaydi.

Ikrom Otamurodovning “Ichkari... tashqari...” nomli dostoni insoniyatning ikki botiniy va zohiriy hayoti falsafiy mohiyatiga bag‘ishlangan. Inson hayotining mukammalligi ikkalasining uyg‘unligiga, bir-birini to‘ldirishga bog‘liq. Nazariyasiz amaliyot, amaliyotsiz nazariya bo‘lmaganidek, ichkarisiz tashqari, tashqarisiz ichkari to‘lamas. Chunki tashqi hayotning to‘laligi, ichki hayotning mukammalligiga bog‘liq. O‘z navbatida, tashqi olam ham ichki olamga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shundan shoir yozadi:

Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,

Istayur tashqariga to‘luvni.

Tashqari ichkariga kirmoq istayur,

Istayur ichkarida bo‘luvni.

Ma’lumki, inson fikrlash, mulohaza qilish qobiliyatiga ega bo‘libdiki, tashqi olamni mukammal qilishga intiladi, lekin bunga muyassar bo‘lgani yo‘q. Chunki insonning o‘zi hali to‘liq mukammallikka, komillikka erishmagan. Zigmund Freydning fikriga ko‘ra, “odamzod o‘zining mohiyatini bilmaydi yoki...bor haqiqatni tan olgisi kelmaydi. Bu borada u yo riyokorlik qiladi yoki o‘zi xususida, haqiqatan ham, chuqurroq tushunchaga ega emas”¹⁶. Ikrom Otamurodovning dostonidagi satrlarni o‘qir ekansiz, bu fikrda haqiqat borligiga tan berasiz:

Ichkari — xo‘rsinik.

Tashqari - xandon.

Ichkari — zabun.

Tashqari - mungdir.

Tashqari - rutubat.

Ichkari - safo.

Ichkari - ko‘ngil, tashqari - hayotdan o‘ziga javob istasa, tashqari - hayot ichkari ~ ko‘ngilga kirib uni tavof qilishni istaydi. Bu holatni ikki ma’noda tushunish lozim. Hozirgi kunda bu ikki olam - tashqari va ichkari bir-biriga uyg‘un emas. Inson tasavvuridagi olamni tashqarida ko‘rishni istasa ilohiy axloq bilan yashamog‘i zarur. Unga yo‘l qo‘ygan tashqi olamdan bu kabi shaxslar mamnun. Vaholanki, ularning a‘molidan tashqi olam simyon. Ilohiy axloq bilan yashaydiganlar, ya’ni o‘zining mohiyatini anglaydiganlar esa sukunatda nola qiladilar. Ilohiy axloq bilan yashamaydiganlar haqida Qur’oni Karimda shunday deyilgan: “Mol-mulk, bola-chaqa dunyo, hayotning ziynatidir. Parvardigoringiz nazdida esa abadiy qoluvchi yaxshi amallar savobliroq va orzuliroq (orzu qilishga arzirliroqdir)”¹. Demak, barcha ilohiy axloq bilan yashasa, ichki va tashqi olam uyg‘un kechadi, dunyoviy olam mukammallashadi, chunki insonning amallari keng quloq yozadi. Oqibatda inson dunyoviy saodatga erishadi. Bu esa inson ko‘nglining pokligiga bog‘liq, chunki ma’rifatli odam hayotning har bir jabhasidan poklanadi, o‘zini anglab boradi:

Hayroning ham kanglungda,

Vayroning ham kanglungda.

Oring ham kanglungda,

Xoring ham kanglungda...

To'zing ham kanglungda,

O'zing... ham kanglungda... o'zing... ham kanglungda...

Istiqlol davriga kelib adabiyot o'z o'zaniga tushdi. Ya'ni voqea va hodisalar tasviri, ularning yuzaga kelishining dialektik qonuniyatini ochish o'rniga, asosiy e'tiborni inson ko'ngliga qarata boshladi. Insonning ko'nglini kashf qilish odam va olamni kashf qilish demakdir.

Shoir o'zining har bir she'riga yoki satriga bironta noyob, kutilmagan so'z kiritib, uni uchqunlatib qo'ymasa, ko'ngli o'rniga tushmaydi. Zukko adabiyotshunos I.G'afurov ta'kidlaganidek, "Ikrom shu kabi so'z izdihomlari ichida yashaydi. Lekin noyob so'zlar, iboralarni qo'llashda poetik me'yorni saqlash bu ham badiiylilik hamda estetik didning juda muhim elementi. Busiz badiiyat talafotga giriftor bo'ladi" (*I.G'afurov. Mangu latofat. T., "Sharq", 2008, 287-bet*).

Ikrom Otamurodning "Sopol siniqlari" (1994) nomli dostoni tuyg'ular asosiga qurilgan. Biz qahramonning falsafiy mushohadasida, xotiralarida, dardlarida dunyo mohiyatini, unda insoniyatning o'rnini, yurtning boshiga tushgan kulfatlarini anglaymiz, eng muhimi dunyo deb atalmish borliq voqea-hodisasidan iztirobga tushgan qalb tebranishlarini his qilamiz. Bu narsa Holat va Rang deb nomlangan qismlari orqali beriladi. Holatlar, o'z navbatida, mumtoz adabiyot dostonlarini yodga soladi. Ya'ni maqolat va hikoyatni. Ma'lumki, maqolat nazariy yo'nalishda bo'lsa, hikoyatda o'sha yo'nalishlar amaliyotda o'z ifodasini topgan. Mazkur dostonda Holatda falsafiy-nazariy yo'nalishda hayot haqiqati ochib berilsa, Rangda esa kechagi va bugungi hayot manzaralari o'z tajallisini topadi.

Bunday holat ma'naviyati boy, ruhi tetik, doimo yangilikka intiladigan shaxslarda ro'y beradi. Dunyo taraqqiyoti shu kabi insonlarning sa'y-harakati tufaylidir. Dostondagi lirik qahramon shunday insondir. U hayotdan ham, o'zidan ham qoniqmaydi. Uning tabiati, asta-sekin kitobxonga ham ko'chadi. Rangda shunday satrlarni o'qiymiz:

Loyga botib siniqqan kamon –

Yurt ori deb to'kilgan darddir.

Qo'lda lochin tutgan pahlavon —

Qadrin quchib yiqilgan marddir.

ko'milgan imondir,

ko'milgan tildir

tepalar...

Ko'milgan Vatandir.

ko'milgan eldir

tepalar...

Bu yerda yurtimiz boshidan kechirgan kechagi manzaralari o'z ifodasini topgan. Haqiqatan ham, totalitar tuzum ma'naviy qadriyatlarimizga - dinimiz, tilimiz, imonimizga daxl qilib, butun jahonga shuhrati ketgan Vatanimizdan judo qilgan edi. Bu manzaralar xotira orqali chiziladi. O'z navbatida, xotira ikki vazifani bajaradi. Ma'lumki, o'tmishsiz kelajak yo'q. O'tmish xotiralarda tiklanadi. Xotiraga berilgan odam o'zini ham anglay boradi. Shuningdek, xotirlash ongning fikrlash jarayonini ham belgilaydi. Fikrlagan odamning o'z olami bo'ladi. Kishining umidlari amalga oshmasa, ko'ngli o'ksiydi. O'ksigan ko'ngil xotiraga beriladi. Lekin u ham xursand qilmaydi.

Chunki qadriyatlar vayron qilingan. Rang qismida quyidagi misralarni o‘qiymiz:

Daraxtning tomiriga qurt doridi,

o‘zidan paydo bo‘lgan qurt... zirqiroq...

Zanam tanasi... shoxlari xoridi...

Barglari — quroq

Qancha bo‘hronlarga chidagan bardosh.

Bu yerda daraxt bizga ma’lum bo‘lgan tabiatning mahsuli emas. U- vatan timsoli. Qurtlar ham tabiiy qurt emas. U - insoniy g‘ururi, vatan, millat tuyg‘usi yo‘q, hamiyatsiz, xoin shaxslar. Shular tufayli ming yillar qancha tashqi kuchlarga, bo‘htonlarga chidash bergan Vatan bu “qurt”larga dosh berolmay quladi. Bu hol shoirning yuragini zirqiratadi. Holatda yozadi:

U bitta ko‘za oldi.

Kasbining tufrog‘idan yasalgan ko‘za

Labi uchgan. Dastasi singan...

Hayron bo‘ldi kulol.

Butunlari turibdi, axir,

Yana har xillari!...

Kulol hayron bo‘lganday kitobxon ham hayron bo‘ladi va sirini anglashga intiladi. Keyingi misralardan anglaydi. Siniq ko‘za siniq qalbning ramzi. Odamning qalbi katta yo‘qotishdan sinadi. Lirik qahramon ham shu holga tushgan:

Siniq ko‘zani bag‘riga bosdi avaylab.

Siniq kang‘lu kushoyish topganday bo‘ldi.

Siniq...

Siniq kangul...

do'ppaygan qabr...

Nimjon nihol...

Kangluning armoniga to'ldirib,

ko'zining chashmiga to'ldirib,

qayg'usining qayg'usiga to'ldirib,

to'ldirib...

to'ldirib... ko'mdi... siniq ko'zani... ..

tufrog'ini tufrog'iga qo'shdi...

Bu yerda lirik qahramon siniq ko'zani ko'mgani yo'q, siniq qalbini ko'mdi. Bu ila o'z mahbubi bilan abadiy bo'lish ishorasini bildirdi. Nimjon nihol esa o'zi. Keyingi misralarda lirik qahramon yanada bo'y ko'rsatadi. Uning o'y-fikri, kechinmalarida, xotiralarida odam va olam haqiqatini, shuningdek, insoniylik mohiyatini anglaymiz. Dostonning ahamiyati ham shundadir.

Abduvali Qutbiddinning «Izohsiz lug'at» yoki Faxriyor dostonlari yaxlit holda XX asr oxiriga kelib o'zligini anglay boshlagan, ma'nisiz o'tgan hayot yo'lini shafqatsizlarcha tanqid qilayotgan avlodning afsus nadomatlaridir. Faqat o'tmishiga emas, hozirgi holatiga ham mardona tanqidiy nazar tashlay olishdir. Abduvali Qutbiddinning «Izohsiz lug'at» dostoni ham dunyoni o'ziga xos tarzda badiiy idrok etishning mevasidir. Dunyo azal-azaldan Ezgulik va Yovuzlik orasida taqsimlab olingan. Shoir dunyoda Ezgulikning ko'p bo'lishi, g'olib bo'lishi tarafdori. Agar atrofni Yovuzlik qoplay borsa, shoir qalbi bezovta, hassos qalbi nihoyasiz iztiroblarga tushadi... Doston boshdan oyoq o'sha ikki azim Kuchning

ziddiyatidan bahs qilsa-da, davrning real voqea-hodisalari ham aniq-ravshan ko‘rinib turadi:

O, Darig‘!

Qo‘qonda tasirlar xiyonat miltig‘i,

Tiflisda zirh, kaltak, belkurak

Insondan o‘zini qo‘yadi ustun.

Sariq ofat kelar yoprilib,

Egatlar qappayar tirik vahmday,

Etagiga solar bolalarni

Oxirsiz mung,

Oxirsiz mung.

A.Qutbiddinning tasavvufga «yaqinligi», u yashagan muhitidagi tasavvufiy iqlim ham dostonida sezilib turadi. Bu ta’sir asarning bor bo‘y-bastiga singdirilgan dunyoqarash mazmunida yashirin. Dostonning «Izohsiz lug‘at» deb nomlanishining siri ham ehtimol yuqorida aytganimiz – dunyoning azaliy kuchlarining mangu ziddiyati va bu kurashda odamzodning «Yaxshilik» tomonida turishi, tura olishi zarurligi, shartligiga ishora borligidadir. Dostonning asosida turgan o‘sha ikki azim Kuchlar qismatini eslasak, nomlanish mantiq va mazmun kasb eta boshlaydi: izohsiz lug‘at, ya’ni izohga hojat yo‘q! Dunyo dunyo bo‘libdiki, dostonida tilga olingan Kuchlar va ularning omonsiz jangi bor:

Barmog‘im qaboqqa qo‘ydim, o‘rtandi,

Emrandim, nigohim tindi, aylandi.

Bildim, a‘zoyi badanim hayot shirasidan.

Hamshiram – turna,

Qondoshim – jayron,

Jigarim – arg‘uvon.

Xonu turobdanman, inim – qumursqa, og‘am – ot,

Bildim – odamiyzodman,

Odamiyzod...

«Bildim – odamiyzodman, Odamiyzod» degan misralarda shoirning o‘sha mangu kurashga o‘z munosabatini bildiradi... Chunki odamiyzod bo‘lish oson emas, buning uchun «Dunyo»ning lazzat-farog‘atidan voz kechib, «U»ning zahmatlariga bardosh berishi shart!.

Voqelik va inson tabiatining tinmay o‘zgarib turishi, yangi-yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, makon hamda zamon hodisalarini yangicha idrok etish jarayoni olam va odamga nisbatan yangicha qarash, yangicha munosabatni taqozo qilyapti. Ko‘rinadiki, XX asr ikkinchi yarmi 50-60-yillar, 70-80-yillar, mustaqillik davri dostonlari o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. O‘tgan asrning 50-60-yillarida yaratilgan poemalarda davr xurujlaridan, sobiq tuzumga xos soxta demokratiya qurshovlaridan tashqarida erkin harakat qilolmagan ijodkorlarning mustaqillik, erkka intilish g‘oyalari turli ramziy timsollar vositasida ifodalangani, real hayot manzaralarini ko‘proq lirik qahramon kechinmalari orqali tasvirlangani kuzatilsa, 70-80 yillarda turg‘unlik davri fojialari, xalq qalbida yashiringan dardlar, erk, ozodlik g‘oyalari ramzlar asosida aks ettirilgani ko‘zga tashlanadi. Shunisi bilan ular o‘rtasida muayyan uyg‘unlik borligi seziladi. Biroq 70-80 yillar dostonchiligining o‘ziga xos muhim xususiyati shundaki, bu davr dostonnavislari erk haqidagi orzu-intilishlarini folklorning ertak, afsona, rivoyat singari janrlarini badiiy sintez va stilizatsiya qilish asosida ramziy ifodalash yo‘lidan borishgan. Istiqlool davri dostonlarida esa milliy mustaqillikning

ma'naviy-ijtimoiy asoslarini, ildizlarini ochishga: diniy-axloqiy qadriyatlarning talqini, istiqloлга shukronalik, ertangi kunga ishonch tuyg'ulari, shaxs erki singari masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Muhammad Yusuf o'zining "Qora quyosh" dostonida millatimizning ulug' ziyolilari qatl etilgan kunning dahshatini, ularning farzandlari timsolida bor bo'yicha ifodalagan:

Qushlar ham uyqudan uyg'onmay hali,

Jovdirab bir safga tizilar bari.

Mudrab yo'lga tushar tergovchi sari —

Ikki yashar «xalq dushmanlari».

Ularning gapi yo'q bo'rsildoqlarda,

Ularning xayoli — o'yinchoqlarda...

O'xshaydi qorako'l qo'zichoqlarga —

Ikki yashar «xalq dushmanlari».

Qo'lchalarini qo'yib oyoqchasiga,

O'ltirar kelishgandek boqchasiga,

Mo'ltirar tergovchi tayoqchasiga —

Ikki yashar «xalq dushmanlari».

Tergovchi ham asli kimgadir ota,

Tergovchida juda tajriba katta.

Yo'q aybiga iqrор bo'lar, albatta,

Ikki yashar «xalq dushmanlari».

Istiqloл milliy adabiyotimizga yangi ruh berdi, ufqlarni kengaytirdi, erkin ijod imkoniyatini yaratdi. Adabiyot — ko'ngil mulkiga aylandi. Iste'dod egalarida o'z mahoratlarining barcha qirralarini ko'rsata olish imkoniyati paydo bo'ldi. Vatan ostonadan boshlanadi. Kishi o'z kindik

qoni to‘kilgan muqaddas tuproqning, Vatan deb atalmish tabarruk makonning barcha sir – asroridan: tarixidan, adabiyotidan, geografik joylashuvidan, unda yashovchi millat va elatlardan, yuksak iste’dodli kishilaridan boxabar bo‘lishi, bu uning ma’naviy – ma’rifiy jihatdan yuksalishining asosi sanaladi. Davr va adabiyot munosabati g‘oyat murakkab muammodir. Chunki zamonning asosiy belgisi, uning tinimsiz harakatdaligi, o‘zgarib turishi bo‘lsa, asl adabiyotning bosh xususiyati uning o‘zi yaratilgan zamonga qaraganda ko‘proq yashashga intilishi, barqarorroq bo‘lishga urinishidir. Istiqloлга erishish o‘z – o‘zidan bo‘lmadi, albatta. U xalqning kurashlarda toblanishidan, shirin jonidan kechishidan, matonat va qahramonlik, fidoiylk ko‘rsatishi natijalarida qo‘lga kiritiladigan bebaho ne‘mat, ulug‘ saodatdir. Professor Naim Karimov bu haqda fikr yuritib, haqli ravishda quyidagilarni yozgan edi: “XX asr – insoniyat tarixidagi eng ulug‘ asrlardan biri. Bu asrda qanchalik ko‘p qon to‘kilgan, qanchalik nohaqliklar va adolatsizliklar ro‘y bergan bo‘lmasin, insoniyat xuddi shu asrda kelajak sari katta qadam tashladi... Bu asrda sodir bo‘lgan barcha voqealar insoniyat tarixining ajralmas tarkibi. Ularning bizlarga maqbul bo‘lmagan qismlarini yoddan chiqarishga, tarixdan o‘chirishga urinish bema’nilikdir... XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o‘rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo‘lmagan. XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyatni o‘z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayyan yutuqlarga erishdi”. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev istiqloл adabiyoti haqida quyidagicha talqin yuritadi: “ Eng muhimi, yozuvchilar, olam, odam haqida avvalgidan o‘zgacharoq fikrlash mumkinligini

angladilar va o‘zlari ham shunga ko‘nika boshladilar. Istiqlool kishilarimiz ma’naviyatiga, dunyoqarashiga kuchli ta’sir o‘tkazdi. Odamlar bundan 10 – 15 yil avvalgi odamlardan juda ko‘p jihatlari bilan farqlanadi: ularning olam va odam haqidagi qarashlari o‘zgacha, dunyoni teranroq anglash, voqea – hodisalarning mohiyatini tushunib yetish, o‘z fikrini aniq ifodalay olish – bularning barchasi yuksalishda, kun sayin o‘zgarishdadir. Albatta, bunday yuksalish onlarida adabiyot bir chetda qo‘l qovushtirib turgani yo‘q. Endi uning hech kimga qaram bo‘lmagan tuyg‘ulari, ijod yo‘llari bor. Bugungi chinakam asarlar o‘quvchiga aql o‘rgatishga, uning uchun “hayot qo‘llanmasi” bo‘lishga urunmaydi, buni da’vo ham qilmaydi. U ko‘proq sezgi, tuyg‘u hosil qilishga yo‘naltirilgan. Sevimli yozuvchimiz Abdulla Qahhor joyiga keltirib aytib qo‘ygandek: “Bilgan bilib qo‘yaverishi mumkin. His qilgan his qilib qo‘yavermaydi”. His qilish - munosabat, munosabat – faoliyat demakdir. Asl adabiyot faqat davrning muammolariga yechim topishdan, zamonaviy savollarga javob berishdan iborat bo‘la olmaydi. Istiqlool davri o‘zbek adabiyoti tubdan o‘zgargan milliy ongning, tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsuli o‘laroq tug‘ildi. Ma’lumki, adabiyot maydoniga qadam qo‘ygan odam ijodkor mas’uliyatini, xalq jamiyat va tarix oldidagi burchini, vazifasini qanday tushunadi, qaysi yo‘ldan boradi, qanday orzu – armonlari bor – hamma narsa shunga bog‘liq. Ijodkor iste’dodining kamol topishi, bor imkoniyatini namoyon qila olishining ildizi shu hisoblanadi.

Tekshirish savollari:

- 1.Lirik va liro – epik dostonlar qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
- 2.Lirik qahramon qanday shaxs?

3.Zulfiyaning “Xotiram siniqlari” dostonida shoira dardi qanday ochib berilgan?

4.Zulfiyaning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?

5.Zulfiya she’riyatining boshqa shoiralar ijodidan farq qiladigan tamonlari nimada?

6.Abduvali Qutbiddin ijodidan nimalar bilasiz?

Adabiyotlar:

1.Karimov I.”Adabiyotga e’tibor- ma’naviyatga, kelajakka e’tibor”- Toshkent, “O‘zbekiston”, 2009. 87- bet.

2.Rahimjonov N., Quvvatova D., O‘roqova N. Zamonaviy doston xrestomatiyasi. /— T.: ... 2021. – 562 b.

3. Naim Karimov. Hamid Olimjon. — T., 1973 yil. 86-bet..

4.Zulfiya. Tong bilan shom aro. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2012-yil. 213-bet.

5.Ф.Бадриев. Юкори синфларда адабиётдан синфдан ташқари ишлар. –Тошкент: Ўқитувчи, 1969, 90-бет.

6.To‘xliyev B.va b. Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun. –T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.

7.Abduvali Qutbiddin. Bor. G‘afur G‘ulom nomli nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T., 2011, 307-бет.

4-MAVZU: HOZIRGI O‘ZBEK POEMALARI(DOSTONLARI) TABIATI

Reja:

1. Poema o‘zbek adabiyotining eng qadimiy janri.
2. Bugungi dostonchiligimizda muammolar talqini.
3. “Ra’noning savdosi” dostoni zamiridagi falsafiy haqiqat.
4. “Najot” dostoni zamiridagi fikr mohiyati.
5. “Cho‘lpon” dostonining ma’rifiy xususiyati.
6. “Girya” dostonining g‘oyasi.

“HAQIQATNING YOVSHAN ISLARI...»

Shavkat Hasanov

Ma’lumki, bugungi doston o‘zining voqeaband o‘tmishdoshlaridan she’rga yaqinlashganligi bilan farq qiladi. Faxriyorning bu boradagi tajribalariga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Uning “Yoziq”, “Ayolg‘u”, “Muchal yoshi” dostonlari zamonaviy she’riyatimizning ajoyib namunalari. “Yoziq” – xayolotning rivoyatlar olamiga va insoniyat tarixiga sayohati, voqelikdan toliqqan ruhning, parokanda o‘ylarning, zo‘riqqan tafakkurning isyoni va izhori. Metaforik fikrlash tarzi tufayli tarixning butun-butun davrlari, yuz yilliklari qisqa-qisqa satrlarga jo bo‘ladi. So‘z o‘yinlari, metaforaning quyuqligi, fikr-kechinmaning zarbulmasal polifoniyasi dostonni diqqat bilan o‘qishni talab etadi.

Besh juft taxayyul sabog‘i va to‘rt tanaffusdan iborat “Ayolg‘u” turli xil uslubiy maneralar birikuvidan yaralgan simfoniya taassuroti qoldiradi. Voqelikka goh tasavvufona dunyoqarash, goh baxshiyona ohang, goh

moderncha munosabat bir-biriga uyg'unlashib, kompozitsion yagonalikni yuzaga keltirgan.

Oy yuzing dog'lariga qarab yig'ladim, — deb boshlanadigan dostonda oyga qiyoslangan rang-barang ramzlar, detallar, so'z o'yinlari mavjud: yarim oy arab alifbosidagi nun (ن)ga, sahrodagi qayiqqa, beshikdagi bolaga, turkiylarning mifologik ramzi ko'kbo'riga, qovurg'aga, nahangga, sirtmoqqa, qurib qolgan ummonga, oyboltaga, uzukka qiyoslanadi va shu tushunchalar ifoda etadigan mif, rivoyat, tarix, hayot haqiqati kecha, bugun, ertangi kun ko'zgusida akslantiriladi, ya'ni "qayg'uga safar" boshlanadi.

Shoir boshqa asarlarida bo'lgani kabi bu dostonini yozishda ham kitobxonning ongida va ongostida saqlagan, xotira qatlarida o'rinishgan milliy, diniy, dunyoviy, tarixiy, adabiy ma'lumotlar, manbalar zahirasiga tayanadi. Masalan, asarda Boyazid Bistomiy eslanadi. Nima masalada gap ketayotganligini bilish uchun hech bo'lmasa "Tazkirat-ul avliyo"dan xabardor bo'lish kerak. Tuyg'ular assotsatsiyasiga ulanib ketgan qizaloq Rebekaning holatini tushunish uchun Gabriyeel Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" asarini mutolaa qilish lozim va hokazo. Dostonda eslatib o'tilgan, ba'zan imo, ishora qilingan bunday tarixiy shaxslar, adabiy qahramonlar, ramziy obrazlar, diniy-falsafiy aqidalar juda ko'p. Agar kitobxonda ruhiy tayyorgarlik bo'lmasa, asar tushunarsiz bo'lib qolaveradi.

Erix Fromm "Ozodlikdan qochish" asarida rivojlangan qator davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tuzilmalarini tahlil qilib, bugungi insonning tabiatida mutelik va tobelik kayfiyati tobora ildiz otib borayotganini isbotlaydi. Faxriyorning she'rlaridagi ozodlik, erk

faqatgina mazlumning zolimdan, bir xalqning o'zga xalqqa bo'lgan qaramligidan qutulishnigina anglatmaydi, shu bilan birga davr illatiga aylanib borayotgan ruhiy mutelikdan, fikrsizlik balosidan qutulishga undaydi.

Tuluk bordir ostida cho'kayotgan osmonning

Zuluk bordir ostida cho'kayotgan osmonning

Qulluq bordir ostida cho'kayotgan osmonning

Ko'ktangrining qoshiga

Yetolmay qolgan yo'lim

Hey tulugim, hey Tulum

Hey tulugim, hey tulum

Shu bois bu she'riyatda tariqat pirlariga, ruhiy erk va ozodlikni kuylagan mutaffakkirlarga qayta-qayta murojaat qilinadi.

Qumsoatga mengzaydi odam,

Vaqt chopadi o'z marrasiga.

Har soniya, tashlangan qadam

Oqib ketar qum zarrasiday...

O'zlikni izlash azoblarini shoir izlam deydi. Izlam – vaqt sahrosida millionlab qum zarralaridek sochilib ketgan o'y-xayollaringni yig'ib olishdir, “men”lik atalgan tayanch nuqtasini topishdir. “Izlam”, “Uchlanish”, “Sensizlik” kabi tushunchalarga qo'yilgan yangi tashxis Faxriyorning tilimizga olib kirgan yangiligi. Abdulla Oripov “Olomon” so'zining yangi ma'no qirralarini kashf etganidek, Ikrom Otamurod “Kangul” so'ziga mumtoz ohang va musiqiylik jo etganidek, Faxriyorning ushbu yangiliklari ham kitobxon adabiy ongidan joy oldi.

Shoirning badiiy soʻzni tasviriyl sanʼat bilan uygʻunlashtirish orqali aql va hissiyotning, fikr va tuygʻuning oʻziga xos original izhorini yuzaga keltirayotganligini ham eʼtirof etish kerak. “Aygʻu”da namoyon boʻlgan bu xususiyat “Geometrik bahor” turkumida oʻzining ajoyib ifodasini topgan.

Salvador Dali bir suratida inson portretini chizar ekan, uning koʻzlarini qorniga joylashtirgandi. Bu – hayotga qorin koʻzi bilan qaraydi, degani. “Geometrik bahor”da ham shunday tagmaʼnoli kechinmalar surati borki, xayol bilan hayotni, tush bilan oʻngni, mavhumot bilan konkretlikni, kutilganlik bilan kutilmaganlikni omuxtalashtirib yuborgan bu turkum syurrealist rassomlarning ijodini yodga soladi.

Bir ayol ishqiga boʻyin sungan erk.

Mingta savdosi bor savdogar yurak.

Baxt bilan oʻrtada bitta eshik – berk va bitta qanoat, udumga koʻra.

Zarar koʻrmaslik uchun visoldan hijrondan tikilgan himoya kiyim.

Sizni suyuntiradigan misoldan: koʻngil bilan kuyib kul boʻlgan uyim.

Ichilib boʻlgan may. Paymona – yarim.

Chekkulik bir alam. Bir oʻy – surgulik...

Onajon, kuyinma, bularning bari fojea emas, oddiy koʻrgulik!..

Baxt abstrakt tushuncha, aniq va bir butun emas. Lahza va soniyalardan iborat umr yoʻllarining qay bir muyulishlarida uning izlari elas-elas koʻzga tashlanib qoladi. Umuman, baxt va baxtsizlik talqini modern sheʼriyatning sevimli mavzularidan. “Biz hayotda goʻyoki abadiy motamda yashayotgandekmiz”, — deb yozadi Sh.Bodler. Agar hazrat Yassaviyning “Ota-ona qarindosh// Hech kim boʻlmaydi yoʻldosh” – satrlari, hazrat Navoiyning “Gʻurbatda gʻarib...” deya boshlangan

ruboiylarini yodga oladigan bo'lsak, tasavvuf va modern adabiyot o'rtasida bir qator mushtarakliklar mavjudligi ayon bo'ladi. Faxriyor she'riyati, mening nazarimda, mana shu ikki buyuk bahrdan bahramand bo'lgan o'ziga xos ijod namunasi.

Har qanday janrning xarakterli xususiyatlarini belgilashda hayot materialining taqozosi bilan yuzaga kelgan badiiy tafakkur tabiati, fikrlash madaniyati hal qiluvchi o'rin tutadi (Intellectual hamda tuyg'ular jamg'armasining mohiyati uning asosini tashkil etadi). Ana shu poemabop tafakkur ko'lami hayot materialini tanlashda, qay yo'sindan yondashish va badiiy tadqiq etishda, eng muhimi, ularda chiqariladigan ijtimoiy-falsafiy yoxud ma'naviy-axloqiy umumlashmalar miqyosida hal qiluvchi o'rin tutadi. Asar hajmining katta-kichikligi janrning muhim xususiyatlaridan biri bo'lolmaydi. Garchand, bugungi kunda lirik-epik janrdagi asarlar ham "doston", ham "poema" ifodalari bilan yuritilib kelayotgan, har ikki termin zimmasiga yuklangan badiiy-estetik vazifa bir xil ma'noda anglashilayotgan bo'lsa-da, ularning har biri klassik adabiyotimizdagi epik janrlar (masnaviy, noma, qissa, va h. k.) an'anasi bilan asoslanishini e'tibordan chetda qoldirishimiz mumkin emas. Klassik she'riyatimiz hamda Yevropa poemachiligi poetikasining ta'sirini ham hisobga olishimiz zarur. Shu ma'noda, birgina salkam yuz yillik poemachiligimiz tarixida "poema" terminining evolyutsiyasi, kasb etib kelgan ma'no qirralari va ko'lami, adabiyotshunosligimizda keng yoyilgan she'riyat terminologiyasidagi chalkashliklarning o'zi alohida masala. Xususan, shu o'rinda birgina Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" poemasini olib ko'raylik. Uning mundarijasi qalam sohibi Yigitning dunyodagi boshidan kechirgan voqealarni hikoya qilib

berishdan iborat emas; afsonaviy jannat bilan bog‘liq qiziqarli syujet tarmoqlari o‘quvchini rom etadi, albatta. Yigitning jannatga tushish uchun Ota va Ona bilan suhbatlari, do‘zax darvozasi oldidagi o‘spirin va qariyaning yoqalashuvi, so‘roq, qiyomat va h. k. lar asar syujetining qiziqarliligini ta‘minlasa-da, shu hikoya orqali bugungi hayotimizdagi yuzsizlik, tubanlik, axloqsizlik, “Hayotning ancha keng va tugallangan manzarasi, kishilarning ancha murakkab munosabatlari va kechinmalari ma‘lum darajada obyektivlik bilan tasvirlanadi. Asar syujeti bilan bog‘liq hayot materiali alohida janr sistemasida taqdim etilayotir. Bunda lirik chekinishlar, qahramonning monologi va dialoglari, voqealarning obyektiv tasviridagi manzaralar, hikoya ichidagi kichik-kichik hikoyalar – barchasi birikib epik yaxlitlikni tashkil etadi. Ana shu estetik butunlikni ta‘minlab turgan narsa esa, avvalo, shoirning falsafiy mazmun bilan yo‘g‘rilgan ko‘lamdor tafakkur tabiatidir. Demak, birgina voqeani hikoya qilib berishning o‘zigina poema janri spetsifikasini belgilashda yetarli emas ekan, u janr tabiatini xarakterlovchi bir komponent sifatida xizmat qilmoqda. “Poema – alohida bir muallifga mansub ko‘p qismli katta she‘riy asar”, – deyilsa, boshqa bir manbada “Poema – epik yoki lirik xarakterdagi ko‘p qismli she‘riy asar”, – deya ta‘riflanadi. Ko‘rinadiki, poemaga berilayotgan ta‘riflarda bir xillik ham, mohiyatan bir-biridan keskin ajralib turuvchi farqlar ham yo‘q. Bu narsani ikki jihatdan izohlash mumkin. Birinchidan, poema qanchalik uzoq tarixga ega bo‘lsa, asrlar osha uning shakli va mundarijasi ham shunchalik ko‘p o‘zgarishlarga uchrab keldi. Konkret misollarga murojaat etaylik. Birgina 20-yillar poemachiligi (Botuning “Sinflar kurashi”, “Tog‘ qizi”, “Birinchi xat”, Shokir Sulaymonning “Ichkari kuladi”, “Yangi saroy”, “Davr hayqirig‘i

yoki paxta poemasi” va h.k) bilan keyingi yillar epik janr namunalari (‘‘Surat’’, ‘‘Toshkentnoma’’, ‘‘Hakim va ajal’’, ‘‘Istanbul fojeasi’’, ‘‘Dol qoya’’) qiyosan nazar tashlasak, ularning syujet-kompozitsion tuzilishida, qahramonlari tabiati va tasvir prinsiplarida, uslubida, til xususiyatlarida anchagina farqlar borligi yaqqol ko‘rinadi. Lekin ajablanarlisi shundaki, nazariy adabiyotlardagi ta‘riflarda janr tabiatidagi mazkur o‘zgarishlar, xarakterli belgilar, negadir o‘z ifodasini topmaydi. Buning o‘rniga yirik nufuzli shaxslarning fikrlarini u yoki bu yo‘sinda, xiyol o‘zgartirgan holda kitobdan kitobga o‘tkazilgan. Poema ichki tuzilishining nechog‘lik boyiganligini, avvalo xilma-xil janr ko‘rinishlari tasdiqlaydi. Shunday esa-da, u o‘zining asl tabiatni – lirik, epik va dramatik tasvir uyg‘unligidan vujudga kelishini – uch asosning mevasi ekanligini aslo yo‘qotmaydi. Ikkinchidan, nafaqat o‘zbek adabiyotshunosligida, balki Butunittifoq adabiyot ilmida ham poemaning janr tarixi va nazariyasi yaratilmaganligi boisdan yuqorida kuzatilgan turli xil nuqtayi nazarlar yuzaga kelaveradi, shekilli. Ushbu masalaning boshqa tomoni ham bor. Ma‘lumki, xalq hayotining ijtimoiy mohiyati poema janrining taraqqiyotiga kuchli ta‘sir ko‘rsatib keldi. Bu narsa, o‘z navbatida, poema janrining rivojlanish bosqichlaridagi mavzu va muammolar ko‘lamini belgilab keldi. Ushbu jarayonda poema janri yangi alomatlar kasb etib, boyib bordi. Shu boisdan ham poemaga berilayotgan ta‘riflarda, janr xususiyatlarini ko‘rsatishda uning rivojlanish bosqichlaridagi qonuniyatlar bilan bog‘liq kasb etgan yangi belgilar aks etishi lozim. Poema janrining tarixiy taraqqiyot bosqichlarida nazariyachilarning turfa ta‘riflariga duch kelimiz. Lekin badiiy tasvir prinsiplaridan kelib chiqqan holda janrning spetsifik belgilarini ochib beruvchi eng mukammal va

muxtasar ta'rif B.G.Belinskiyga mansub "Hozirgi she'riyatda eposning alohida bir turi bor – deb yozadi. U hayot prozasiga yo'l qo'ymaydi, faqat hayotning shoirona ideal holatlarini qamrab oladi; hozirgi insoniyatning teran dunyoqarashi va ma'naviy-axloqiy masalalari uning mundarijasini tashkil qiladi. Eposning yolg'iz ana shu turi o'zida "poema" nomini saqlab keladi". "Roman, povest va poema o'rtasida katta farq bor – deydi u. Poema ideal voqelikni suratlantiradi va hayotning oliy daqiqalarini tutib qoladi. Bayron poemalari va ular samarasida tug'ilgan Pushkin poemalari shunday. Roman va povest esa aksincha, nasr bilan yoki nazm bilan yozilishidan qati'y nazar, hayotni barcha prozaik ko'rinishlarida tasvirlaydi". Demak xalq hayoti va jamiyat taraqqiyotining eng muhim, "ideal holatlari"ni tanlash, tadqiq etishdek bosh alomati poemaning barcha davrlarda yaratilgan badiiy barkamol namunalari uchun xos xususiyatdir. Demak, yuqoridagi mulohazalardan ravshan bo'lyaptiki, poemaning janr tabiatini, spetsifik belgilarini lirik, epik va dramatik tasvirning o'ziga xos badiiy sintezi tashkil etadi; ulardan qaysi birining asarda tashigan g'oyaviy-badiiy vazifasi salmoqli bo'lsa, poemaning lirik, liro-epik yoki dramatik janr ko'rinishlarini, xususiyatlarini belgilab berarkan. Rus va Yevropa badiiy tajribasidagi "poema" termini 20-yillardan e'tiboran adabiy jarayonda qo'llanila boshladi. Bugungi kunda ham liro-epik janrdagi asarlar "doston", "poema" terminlari bilan atalmoqda; shoirlarning har ikki termin zimmasiga yuklagan badiiy-estetik vazifasi bir xil ma'noda, deyish mumkin. Keyingi yillarda nasriy, sahna, kino hamda tasviriy sa'nat asarlari ham "doston" termini bilan yuritila boshlandi. Bu kecha yoki bugungi adabiy hayotda yuzaga kelgan hodisa emas; ham klassiklar, ham bugungi adabiy tajribadan ko'plab

misollar topish mumkin. Xususan, Gogol “O‘lik jonlar” asarini poemaga nisbat beradi. A.Muxtor “Davr mening taqdirimda” romanini uch fasl dostoni, deb aytadi. H.Nazirning “Suv gadosi oqpadar – dengizni boshlab qaytdi” povesti ham “suv dostoni” deb, nomlanadi. Lekin bu nasriy roman va povestlar janr xususiyatlarini yo‘qotdi, degan gap emas. Bu hol, nazarimizda, nasriy asarlar poetik unsurlarni o‘z tabiatiga singdirgan holda, boyib borayotganligidan dalolat beradi. Vaholanki, poema o‘zbek adabiyotining eng qadimiy va qadrdon janri. O‘zbek Dostonchiligi asrlar davomida o‘tib, kamol topib, shakli rang-baranglashib bordi. O‘rxun-Yenisey yozuvida, Avestoda, “Devonu Lug‘otit turk”dagi qadimgi doston parchalarida, turkiy xalqlar mulki bo‘lmish “Kitobi dodam Qo‘rqut” da, ayniqsa, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida o‘zbek dostonchiligining taraqqiyot yo‘llari ko‘rish mumkin. Navoiy “Xamsa”si o‘zbek dostonchiligida yuksak cho‘qqi bo‘ldi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan Alisher Navoiyning “Xamsa”sidagi dostonlargacha jahon badiiyatini boyitgan obidalarimiz poema janrida yozilganini eslasak, o‘zbek poemachiligi nihoyatda boy va teran an‘analarga ega ekanligi ravshan bo‘ladi. Klassik hamda xalq og‘zaki ijodi dostonchiligi badiiy-estetik tajribalarini, hayotbaxsh an‘analarini (poema poetikasi – lirik qahramon, til, syujet va kompozitsiyasi, konflikt tabiati, qahramon xarakterini yaratish, hayot materialini tanlash, yondashish va yoritish mayllaridagi vorisiylik, klassiklarimiz estetik prinsiplarini) davom ettirayotganini o‘rganish poemashunoslikning muhim vazifalaridan. Keyingi yillar poemachiligimizda epik tasvir imkoniyatlarining kengayishi, kuchayishi alohida tendensiya sifatida zuhur topdi. Shu boisdan, poemachilikning kelgusi rivojlanish yo‘llarini

epik tasvirga qurilgan polotnolar belgilab beradi, degan fikrlar ham eshitila boshlandi. Ma'lumki, hayot materialini badiiy o'zlashtirish taqozosiga ko'ra, epik tasvir har bir asarda yangicha yo'sinda ko'zga tashlandi. Bu esa, o'z navbatida, poema janrining ichki tuzilishiga yangi sifat o'zgarishlari olib kiradi. Xususan, epik tasvir unsurlari o'zining avvalgi, ya'ni voqelikni tavsifiy yo'sinda aks ettirish vazifasini yo'qotib boryapti, epiklik lirizm bilan yo'g'rilgan holda namoyon bo'layotir. Epiklik – badiiy tafakkur madaniyatida, g'oyaviy-badiiy umumlashma xulosalarning ko'lamdorligida aks etmoqda. Ijtimoiy voqelikdagi o'zgarishlar, hayot materialini badiiy idrok etish taqozosiga ko'ra, poemada goh lirik, goh epik, goh dramatik tasvir alomatlari yetakchilik qiladi. Ularning namoyon bo'lishidagi o'ziga xos belgilariga, ko'rinishlariga asoslanib mustaqil poetik hodisa sifatida kuzatilgani ma'qul. 20-yillarda Sidqiy Xodayliqiy, Fitrat, M.Royiq, Botu, Shokir Sulaymon, H.Olimjon va boshqa shoirlar yaratgan poemalar qahramon xarakterining yaratilish prinsiplari, sujet va kompozitsion qurulishi, til xususiyatlari, tafakkur madaniyatiga ko'ra klassik dostonchiligidan farq qilgan yangi tipdagi asarning dastlabki namunalari edi. 20-yillar tongi poemachiligimiz janr tarixidagi mazkur xususiyatlar – badiiy tasvir prinsiplari keyingi bosqichlarda yetakchilik qila boshladi. Dostonchilikning 50-yillar oxiri va 60-yillari, ayniqsa, monolog tipidagi poemalar fasli bo'ldi (M.Shayxzodaning "Toshkentnoma", Mirtemirning "Surat", Shukrulloning "26 Tongotar", E.Vohidovning "Nido", H.Sharipovning "Quyoshga oshiqman", J.Jabborovning "Ona yer qo'shig'i", A.Abdurazzoqning "Yo'llar" va h. k.). Eng muhimi, poema tarixini belgilovchi ajoyib namunalari maydonga keldi. Demak, doston

janri tabiatidagi yangiliklardan biri – inson bilan ijtimoiy voqelikni dialektik birlikda tadqiq etish, o‘rganish va ko‘rsatish tendensiyasi ilk bor ko‘z ochdi. “Birinchi xat”, “Davr hayqirig‘i”, “Komsomol keladi” singari poemalarda xitob, da’vat alomatlari ustunlik qilardi; keyinchalik esa, ya’ni 30-yillarga kelgach, bu narsa bevosita keyingi voqelik jarayonlari tahlilga o‘z o‘rnini bo‘shatib berdi. 20-yillar poemachiligidagi izlanishlarda lirik, epik hamda dramatik tasvir uyg‘unligiga erishishga intilish ko‘zga tashlanadi. Lirik va dramatik tasvirning badiiy sintezida ko‘rkam namunalar (“Shaytonning tangriga isyoni”) yaratildi. Rus va Yevropa poemachiligi badiiy tajribalarini o‘rgangan, Sharq dostonchiligi hamda barmoq sistemasiga asoslangan xalq og‘zaki ijodidagi epik janr an‘analari o‘zlashtirilgan holda yangi tipdagi poemalar yaratilishida 20-yillardagi badiiy izlanishlar alohida bosqich vazifasini o‘tadi. Sidqiy Xodayliqiy, Fitrat, Botu, Shokir Sulaymon va boshqalarning poemalarida kuzatilganidek, klassik va xalq dostonlaridagi janr belgilari saqlangan holda liro-epik tasvir janr tadrijida bosh mavqe egalladi. 30-yillarda Oybekning “Baxtigul va Sog‘indiq”, “Temirchi Jo‘ra”, “O‘ch”, G‘.G‘ulomning “Ko‘kan”, H.Olimjonning “Zaynab va Omon”, Uyg‘unning “Jontemir”, G‘ayratiyning “Onamga xat”, “Jinasta”, U.Nosirning “Norbo‘ta”, “Naxshon”, S.Jo‘raning “Bruno”, H.Po‘latning “Qobil”, “Mehribonlar”, “Jangovor”, M.Shayxzodaning “Tuproq va Haq”, Mirtemirning “Nomus”, “Ajdar” singari asarlari maydonga keldi. Shuningdek, liro-epik poemaning shakllanishi va qaror topishida klassik adabiyotimiz tarixidagi hamda xalq og‘zaki ijodidagi dostonchilik tajribalari, rus va Yevropa poemachiligining ta’siri hamda, eng muhimi, yangi voqelik, kishilarining yangicha fikrlash tarzi, she’riyatimizdagi

yangicha badiiy tafakkur tabiati – ana shu besh omil liro-epik poemaning yangi shakl va mazmun kasb etgan holda maydonga kelishini ta’minladi. Xususan, rus va Yevropa poemachiligining janr-uslubiy xususiyatlari chuqur o’rganib va o’zlashtirib (tili, syujet va kompozitsiyasi, obrazlar sistemasi kabi) borildi. Bunda ayniqsa, o’zbek tiliga qilingan tarjimalar badiiy mahorat, tajriba maktabi rolini o’tadi. 30-yillar poemachiligida mamlakatimiz hayoti va taqdiridagi ijtimoiy voqealarni aks ettirish, shaxs psixologiyasidagi o’zgarishlarni ifodalash va shu asosda xalq obrazini gavdalantirish tamoyili yetakchilik qildi. 20-yillar poemalarining aksariyatida (“Shaytonning tangriga isyoni” bundan mustasno) didaktika elementi kuchli bo’lib, ular poemadan ko’ra ko’proq she’riy hikoyalarni eslatadi. Eng muhimi, ularda poemaga xos va mos tafakkur ko’lami, poemaga mutanosib badiiy-estetik umumlashmalar yetishmasdi. Ko’rinadiki, adabiy asar janri ijodkorning hayot materialini tanlashi va tadqiq etishidagi badiiy tafakkur tarzi bilan chambarchas bog’liq ekan. Oybek ijodiy prinsiplari hamda falsafiy-estetik qarashlarining shakllanishida Sharq falsafasi (Alisher Navoiy, Bedil, Bobur va h.k) bilan rus va Yevropa romantizmining (Bayron, Pushkin, Blok singari) ta’siri kuchli bo’lganligi adabiyot ilmiga ma’lum. Ana shu omillar ta’siri shoir poemalarida balqib turadi. Shu yillarda poemaning she’riy qissa singari ko’rinishi ham vujudga keldi. Elbekning “Tozagul”, Abdulhamid Majidiyning “Kuchala”, Ra’no Uzoqovanning “Sarviqad” poemalari). Lekin ular poema tarixida sezilarli iz qoldirgani yo’q. Mazkur asarlar esa bu yo’nalishda ham izlanishlar olib borilganidan, muayyan poetik tajribalardan dalolat beradi. Xususan, “Sarviqad” va “Kuchala” asarlarida hayot prozasiga keng o’rin berib yuborilganligi, she’r ruhiga mos

kelmaydigan mayda tafsilotlar, hayot faktlari va hodisalarini shunchaki qayd etish, materialni saralamasdan badiiy tahlilga tortilishi ushbu poemalarni muvaffaqiyatsizlikka olib keldi. Umuman, yaxlit olib qaralsa, 30-yillar poemachiligida milliy dostonchilik an'analarining yangi voqelikdagi estetik mag'zi, mustahkam asosi qaror topdi. Hayotni badiiy o'zlashtirishda realistik ifoda ustivorlik kasb etdi. Ayrim xulosalar: birinchidan, klassik dostonchiligimizning badiiy-estetik an'analari, boy tajribalari yangi tipdagi liro-epik poemaning shakllanishida katta rol o'ynaydi. Xususan, birgina klassik dostonchiligimizdan o'zlashtirilgan epik tafakkur madaniyatini ta'kidlash joiz. Unga qo'shimcha ravishda xalqimizning yuksak madaniyati, xalq og'zaki ijodidagi dostonchilik, rus va Yevropa poemachiligi, xalqimizning yangicha tafakkur tarzi – yangi tipdagi poemachiligimizning taraqqiyot yo'llarini belgilab berdi. Yangi tipdagi poema tarixining ilk sahifasini bitgan (30-yillar), kelajak yo'nalishlarini tayinlagan shoirlarimiz (Fitrat, G'.G'ulom, Oybek, G'ayraty, Uyg'un, H.Olimjon, Mirtemir, M.Shayxzoda, U.Nosir, Sh.Sulaymon, S.Jo'ra va h.k) asosan yosh avlod vakillari edi. Ular klassik dostonchiligimizdan o'zlashtirgan epik tafakkur madaniyatini, poemaga xos sermiqyos fikrlash malakasini rus va Yevropa poemachilik maktabining realistik tasvir prinsiplari bilan uyg'unlashtirishga intilishdi. Aytish mumkinki, shoirlar zimmasidagi g'oyaviy-badiiy vazifani ado etishda folklor unsurlari ham poema tabiatidagi (syujet rivoji, holat va vaziyatlar tasviri) badiiy komponentlardan biriga aylandi. Folklorizm poema janr imkoniyatlarini kengaytirdi; poetik ifoda rang-barangligini, til boyligini, uslublar xilma-xilligini ta'minlashda ham ahamiyati katta bo'ldi. Jumladan, eng muhim xususiyatlardan biri, bu – xalq og'zaki

mazmuni, yangi voqelikni aks ettirishga qaratildi. Lekin bu davr dostonlari g'oyaviy-badiiy bekami ko'st, degan tasavvur tug'ilmasligi lozim. Ularda uch jihatdan xarakterli bo'lgan kamchilik ko'zga tashlanadi. Birinchidan, ayrim asarlarda voqelik jarayonlarini va odamlar taqdirini poetik tahlil qilish emas, balki tavsiflash kuchli bo'ldi ("Olimjon" singari). Ikkinchidan, lirik, epik va dramatik tasvir mutanosibligini saqlay bilmaslik, ayniqsa epik tasvir me'yoriga erisha olmaslik yaqqol namoyon bo'ldi. Xususan, Shuhratning "Orzu va Qasos", "Farzand" singari poemalarini aytib o'tish mumkin. Uchinchidan, poetik hikoyada publitsistika elementi yetakchi badiiy komponentlardan biriga aylandi. Zero, voqelik poetik idrok etishdagi hozirjavoblik, tezkorlik hayot talabi, davr taqozosi edi. Lekin ayrim shoirlar mahoratsizligi tufayli poetik publitsistikaning o'rnini oddiy xabar egallab qolgan asarlar ham ko'p bo'ldi. Yarim asrlik o'zbek dostonining shakllanishi, taraqqiyoti, badiiy takomili shu xususiyatlar bilan belgilanadi. Ma'lumki, sof lirik dostonlarda individual shaxsning borliq olamdan ta'sirlanishidan butun vujudning harakati ifodasi, shuningdek, ruhdagi assotsiativ holat, bu tufayli yuzaga keladigan kechinmalar tasviri asarning mundarijasini tashkil qilsa, liro-epik dostonlarda esa lirik ifoda bilan epik tasvir uyg'unlashib ketadi. Keyingi yillarda yuzaga kelgan dostonlarda esa lirik holat ustuvordir. Dostonlarda lirizm kuchliroq, ayniqsa, hozirgi zamon dostonlarida lirik asos yanada salmoqliroqdir. Dostonlar keng qamrovligi va hajmining kattaligi, ko'tarib chiqqan ijtimoiy, siyosiy, axloqiy muammolari, syujetining sertarmoqligi va dramatizmining o'tkirligi, personajlarining ko'pligi bilan ajraladi. Bunday asarlar markazida jamiyat va xalq taqdiri turadi,

jamiyat, xalq va qahramon yaxlit, bir butunlikda tasvirlanadi, ular o'rtasida ziddiyat bo'lmaydi, balki shu xalq, shu qahramon bilan tashqi dushmanlar o'rtasidagi kurash, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi ziddiyat tasvirlanadi. Ularda vatanparvarlik, qahramonlik, insonparvarlik, mehr-muhabbat, do'stlik va sadoqat, mehnatsevarlik g'oyalari ilgari suriladi. O'zbek dostonchiligi asrlar davomida o'sib, kamol topib, shakli rang-baranglashib bordi. Buning sababi avvalgi asarlardagi kabi ijtimoiy motivlar yetakchiligi emas, insoniy muammo, munosabat, xususiyatlarga e'tiborni qaratishdir. Yanada aniqroq aytsak, G'arb falsafasiga emas, Sharq falsafasi asosiga suyanishdir. Sharq falsafasi asosida esa dunyodagi barcha ezguliklar zamini ma'naviyat, axloq va aqlning uyg'unligida ko'rish hamda shuni asoslash yotadi. Konfutsiyning fikri bo'yicha: "Agar yerdagi hayot yomon bo'lsa, inson osmonga emas, balki o'z qalbiga, vijdoniga nazar tashlashi kerak". Cho'lpon Ergashning "Ra'noning savdosi" dostoni zahirida shu falsafiy haqiqatning badiiy ifodasi yotadi. Shoir doston voqealarining vaqt va makoni haqida yozadi: "Qosh qoraygan payt. Tor va tuproq bog' ko'cha. Uning bir tomoni katta yo'lga, ikkinchi tomon istirohat bog'iga tutashgan. Bog' tomondan daryo shovqini aralash tegirmon guvlashi eshitilmoqda. Rahmon Ra'noning uyi to'g'risida yuradi". Dostonni o'qish davomida shoir bu tasvirni bekorga bermaganini, unda ijodkorning maqsadi mujassamligi anglanadi. Makon tasviri ramziylikka ega, ya'ni katta yo'l maqsadga yetkazuvchi, saodatga sazovor qiluvchidir. Unga soflik, poklik, diyonat, ma'naviyat va axloqlilik bilan erishadi. Istirohat bogi esa maqsaddan chekintiruvchi, hissiyotga berilishni yuzaga keltiruvchi, faxshlik makonidir. Tegirmon ins-jinslar in qurgan joydir.

Dostonning qahramoni Rahmon sevgani Ra'noning uyi to'g'risida turib nido qiladi. Ra'no boylikka mahliyo, muhabbat mohiyatini tushunmaydi. Muhabbat mohiyatini anglash esa Jaloliddin Rumiylar hazratlari fikri bo'yicha: "Inson o'ziga o'xshagan insonga muhabbat qo'yishi bilan o'z mohiyati, umuman, insonlik mohiyatini anglab yetadi". Rahmon esa boshini changallab katta ko'cha, ya'ni to'g'ri, saodatli yo'l tomon ketadi.. Shaytonlar alam bilan nido qiladi va ezgulik oldida o'zlari mag'lubliklarini tan olishadi:

Ko'z oldimda

Tish qayrab menga,

Ulg'aymoqda

Rahmon, beomon...

To'sing Rahmon fahmini tezroq!...

Falokat boshida bugun

To'g'onoq - bir mana shu Rahmon! - deyishadi.

Bekorga Dostoyevskiy qahramon knyaz Mishkin tilidan: "Hayotni go'zallik asraydi", — demagan. Chunki go'zallik zamirida ezgulik yotadi. Cho'lpon Ergashning xayoliy kechmish dostoni — "Ra'noning savdosi" zamirida ham ezgulikka da'vat yotadi. Cho'lpon Ergashning liro-epik janrdagi izlanishlari, xususan, yigirma dostonidan iborat "Rahmon vas-vas" turkumi adabiy-madaniy hayotimizda katta voqea bo'ldi. O'tgan asrning 70- yillar o'rtalaridan boshlanib, 90-yil boshlarida yakunlangan dostonlar ("Shaytonning boshidan kechirganlari", "Tangri vasiyati", "Qiyomat", "Ajinalar o'yini", "Osmondan tushgan odam", "Rahmonning qaytishi", "Ra'noning savdosi", "Jinnixonadagi tushlar", "Bezovta ruhlar" va hokazo) majozlar, timsollar asosiga qurilgan.

“Sehrli qo‘g‘irchoq”, “Zar kokilli bog‘ijahon afsonasi”, “Nomus va muhabbat”, “Hasharchilar”, “Umrдан lavhalar” singari liro-epik asarlari ham dostonchiligimiz tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega. “Rahmonning qaytishi” dostoni kompozitsiyasi 1978- 1988 yillarda yozilgan va u 1995 yilda “Sharq yulduzi” jurnalida bosilib chiqqan. Yozilganidan qariyb yigirma yildan so‘ng nashrdan chiqqan. Chunki Cho‘lpon Ergash tabiatan tikso‘z edi. Ko‘z o‘ngida bo‘layotgan axloqsizliklar, ma‘naviy o‘pirilishlarni murosasiz shoir tomosha qilib o‘tira olmasdi. Asar ana shunday chuqur ma‘naviy dard mahsuli bo‘lib oppoq qog‘oz sahifalariga doston bo‘lib to‘kildi. Barcha manzaralarda Rahmon turli holatlarga duch keladi. Aslida uni notinch qilgan, ruhiyatiga ta’sir qilgan bu voqelarning asosida shayton vasvasi yotadi. Binobarin, shoirning “Arosat” dostonida Rahmonning armiyadagi hayoti tasvirlanadi. Bu asar ham manzralardan tashkil topgan. 70 yillaridagi ma‘naviy hayot manzaralarini tasvirlar ekan, ijod erkinligi bo‘g‘ilgan bir davrda ramziylik orqali shu ma‘naviy dardlarni qalamga oladi. “Bezovta ruhlar” dostonida esa Pok ruhlar tilidan tulkisifat odamlarga ta’rif berar ekan, insoniyatni ulardan ogohlantiradi:

Yo‘q Tulkilar imoni,	Yov bosib el-yurtini,
Qolgan ular qarg‘ishga.	Talab yotsa, bu shaltoq
Ko‘ring, hozir o‘z joni	O‘zgartirib turqini,
Uchun tayyor har ishga.	Topgan dushmandan panoh.
Bir vaqtlar bu hayvon ham	So‘ng o‘z qavmi oralab,
Yashab odam suvratda	Poylab og‘zini doim:
Odamlarni damodam	Kim dushmanni qoralab,
Duchor etgan g‘urbatga.	Vatanim deb kuysa kim,

Sotib ularni yovga,
O'z elini xo'rlagan.
Do'stlik qilmas birovga,
O'ziga el bo'lmagan,

O'zlarining ham oxir
Uzgan boshini dushman.
Hushyor bo'ling, u hozir
Birov poyiga tushgan.

Xiyonotkor va vatanfurushlarning asl basharasini ochib tashlaydi. Oydin Hojiyevaning "Najot" (1991) nomli liro-epik dostoni yetti afsonada (aksariyati haqiqat) yaqin o'tmish voqealarini tasvirlagan. Doston bag'ishlovida Navro'z bayramida Toshkentning bosh maydonida uning dahalaridan kirib kelgan beklarni tasvirlar ekan, Navoiy hazratlarining paydo bo'lishini shunday yozadi: "Hazrat Navoiy bayram libosida Xo'jai Xizrday bo'lib, o'zbek elatlarini qutlagani, Iymon va Dinni butlagani kirib keldi. Shoira hazratni quyidagi fikrlar bilan kutib oladi:

O'tmishini unutgan el,
O'zgalardan bo'lib domangir,
Jonidan g'am o'tganida El,
Keltirdingiz, ey, ulug' hazrat,
Poklanishning toza havosin,
G'aflatda qul, shuur karaxt
Bandalarga malham davosin.

Bu malham shoirning falsafasi, g'oyasi, ya'ni insonni qadrlash, adolatli shoh va mustaqil markazlashgan davlatga ega bo'lish hamda inson qalbida ma'rifat nurini, g'urur ruhini jo qilishdir. Shundan keyin haqiqat afsonalariga o'tib, kechagi kunimiz qiyofasini gavdalantiradi. "Bolalik bog'idan afsona" bo'limi shunday boshlanadi: "Onam Toshbibi bobo Rahmat qizi Buxoro inqilobi haqida yig'lab so'ylardilar. Yozning sutday

kechalarida, qor-bo‘ronli qahraton qish tunlarida ertaklar aytib berib, va bir etak jiyanlarimni ovutardilar”. Ma’lumki, ertak zaminida hamisha ezgulik va yaxshi hayot orzusi yotadi. Shundan ertak tinglagan odam uning dunyosida yashaydi, ya’ni yaxshi hayot kelishini orzu qiladi. Ularning nazarida uni Hizr bobo olib keladi. Bolalar Hizr boboni kutishadi. Bu yerda Hizr bobo yaxshi hayot va yorug‘ kun timsolidir. Chunki Oktyabr inqilobi shuni va’da qilgandi. Xizr bobo qizchaning ko‘ziga bir ko‘rinadi-ku, ikkinchi paydo bo‘lmaydi. U ko‘ringan yaxshilik olami kechagi kun, o‘tmish edi. Shoir shuni aks ettiradi va butun dahshati bilan ko‘rsatadi. U yozadi: “Xo‘jai Hizr bobo qaytib kelmadi. Bu hovliga kolxozning sariyog‘, tuxum yig‘ib yuruvchi soliqchisi serqatnov bo‘lib qoldi. Gujum daraxtidan yasalgan gulkori darvozaga ko‘zini tikib oldi. Pul va’da qildi. Yo‘q! Evaziga bir sog‘in sigir beraman, dedi berishmadi. Kunlarning birida GPUdan uch kishi keldi. Darvozani xatladi. Mohir o‘ymakor usta arab alfozida Ollohi karim oyatlarini darvoza “peshonasiga” yozgan, nafis husnixat bilan uning tabaqalarini pardoqlagan”. Ma’lumki, hayotda yomonliklar, yaramasliklar, zolimliklar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki odamlarning sa’y-harakati, qilmishlari, o‘zaro munosabatlari tufayli yuzaga keladi. Dedi:

Ular zamondan na shod,
Qo‘msar o‘tmish ovozlari.
Yig‘ilishib o‘qishar bot-bot
Avliyolar bayozlarini.
Yomon ko‘rar ozod tuzumni,

Yuragida alam-keki bor...
Boshladilar yalpi hujumni,
Arabchada bitgan neki bor,
Yondirdilar, pora qildilar...
Mulla borki, qora qildilar

Masjidlar vayron qilindi, kishi qalbida mehr-shafqat tuygʻusini yuzaga keltiradigan, shuuriga shuur qoʻshadigan ijod namunalari kuydirildi. Lekin har qanday tazyiq ham ezgulikni yoʻqota olmaydi. Dostonda shu haqiqat ham oʻz tasviriga ega. Hazrat Mavlavxonni xoʻrlashadi, kitoblari, devoni Tangrining inoyati bilan saqlanib qoladi. Lekin koʻp narsa yoʻq qilindi. Buning natijasi “Eldan chiqqan balo” nomli qismda aks ettirilgan. Kitoblarni yoqishga qishloq shoʻro raisi Toʻlov bosh-qosh boʻladi. U kattakon bir xodani moyga botirib, unga gugurt chaqib, kitoblarga tutadi. Qurʻonda shunday deyiladi: “Kimga Olloh nur (iymon) bermasa, bas, uning (uchun) hech qanday nuri boʻlmas”¹. Olloh nuridan mahrumlar johil kimsalardir. Ular hayotda jazo topadi. Dostonda Toʻlov obrazida shu hayotiy haqiqatni aks ettirish bilan shoir maʼrifatning haqiqatidan ogoh etadi. Bu hol dostonning maʼrifiy ahamiyatini ham belgilaydi. Toʻlovning ishi oʻsha qilmishidan keyin orqaga ketadi. Nimaga qoʻl ursa, teskarisi roʻy beradi. Hayotdan ketganda uni yer ham qabul qilmaydi (Alqissa, shu: uch kunga dovur Goʻr oʻlgin otib tashlabdi). ' “Nur” surasi. 40-oyat. Dostondagi biz qayd qilgan voqealar zahirida va undan keyingi afsonalarda — “Hamid Sulaymon hasrati”, “Murodbaxsh bobo hikoyati”, “Xatar vodiysidan fasona” uch gʻoya yotadi. Birinchisi, xalqimiz boshiga tushgan fojialar tasviri mustaqillikning mohiyatini anglashga xizmat qilsa, ikkinchisi, kishilik olami yaxshilikdan yomonlik sari ketishining tub ildizi ochib beriladi, uchinchisi, kishi yaxshilikka, yaxshi hayotga, yaxshi aʼmollar orqali erishadi, degan gʻoya ilgari suriladi. Buning uchun kishi oʻz jismiga va ezgulik urugʻini sochganlar ruhiga ishonish hamda undan madad, najot tilash bilan ular yoʻlini davom ettirishi lozim. Chunki Olloh yaxshi aʼmol

qilganlarni sevadi va magʻfirat koʻrsatadi. Dostonning “Najot” deb atalishi ham, uning maʼnaviyat va adabiyot olamida tutgan oʻrni ham shundadir.

T.Nizom bu janrga obdon tajriba orttirgandan keyin 90- yillarda qoʻl urdi va qisqa muddat ichida bir nechta doston eʼlon qildi. Bular 1991 – yilda Mirtemirga bagʻishlangan “Majnuntol yigʻisi”, oʻsha yili yaratilgan “Choʻlpon” dostoni, 1992 – yilda “Girya” dostoni, 1993 – yilda eʼlon qilingan Mashrab qismati fojiasini umumlashtiruvchi “Ruhi ravonim” dostonidir. Bularning hammasi lirik dostonlardir. Bu dostonidan soʻng shoir moziyning yanada olisroq manzillariga Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davrga adabiy sayohat qilib, bu ulugʻ shoh va shoir haqida “Uch soʻz” dostonini yaratdi. Dostonda Bobur umrini boshdan oxir miridan – sirigacha hikoya qilib berishni maqsad qilib qoʻymaydi, faqat bu magʻlubiyat va zafarlarga, quvonch va qaygʻularga toʻla hayotning eng muhim oʻrinlarini aks ettirish orqali yaxlit poetik obraz yaratishga muvaffaq boʻladi. Toʻlan Nizomning “Choʻlpon” dostoni hayotiy voqelikni hikoya qilishi, davr kartinasini yaratishi ila epiklik kasb etsada, unda lirik tuygʻu, ichki dard ustun. Bu narsa dostonni liro-epik janrga mansubligini taʼminlaydi. Dostonning birinchi boʻlimi “Uchar yulduz” deb nomlashi bejiz emas. Qadimda tabiat bilan inson bir-biri ila chambarchas bogʻliq deb bilishgan. Bir yulduz uchsa, bir odamning ketgani deb hisoblashgan. Shoir shu aqidaga ishora qiladi. U uchar yulduzning qayerga uchganini soʻraydi. Hech kim bilmaydi. Shoirning iltijolariga hech kim javob bermaydi. Shoirning kuyinishlarini his qilgan sari afsona deb bilgan narsa reallashadi. Haqiqatan, Choʻlponning taqdiri uzoq davr mavhum edi. Toʻlan Nizom shunga

ishora qiladi. “Sado” bo‘limida shoirning iltijolariga sado beriladi. Cho‘lponning qismatida davr fojiasi, shuningdek, uning shaxsiyati aniq ko‘z oldimizda gavdalanadi:

Yaproq yanglig‘ uzildim, qora taqdir emasmi bu?

Tillarimni kesdilar, menga tahqir emasmi bu?

Bog‘landi oyoq-qo‘lim, dog‘uli dahr emasmi bu?

Vijdonim but ham halol bir musulmon edim, do‘stlar.

“Muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon edim, do‘stlar”.

Bu ayni haqiqatdir. “Aks-sado” bo‘limida mazkur fojيانing ufqi kengayadi va aniqlik tus oladi:

Qani, Fitrat, Otajon Hoshim,

Qodiriyni ko‘rmadingmi, ayt?

Oqar yoshim, tugar bardoshim,

Yodga tushsa o‘zing yozgan bayt.

To‘lan Nizom 1902 yilda Andijonda bo‘lib o‘tgan zilzila haqida yozar ekan, faqat tabiat hodisasini ko‘zda tutmaydi. Balki barcha narsani mehvaridan chiqarib yuboradigan ijtimoiy zilzila - Oktyabr inqilobiga ishora qiladi. Tabiiy zilzila go‘dak Abdulhamidga shikast yetkazgan bo‘lsa, kelayotgan ijtimoiy zilzilaning oqibatini oldindan his qilib, unga qarshi qalbida tug‘ilgan isyondan ogoh qiladi. Demak, adolatsizlikka qarshi tug‘yon Abdulhamidda go‘dakligida yuzaga kelgan. “Tutqun” bo‘limidagi misralardan faqat muhabbat osmonida emas, ma’naviyat, go‘zallik osmonida Cho‘lpon bo‘lgan shoirning achchiq ko‘rguliklaridan xalqimizning g‘ururi, faxri bo‘lgan Abdulla Qodiriy, Fitrat, Usmon Nosirlarning qismatini ko‘z oldimizga keltiramiz. Mana bu misralar esa

o‘zligimizni chuqur anglashga va mustaqilligimizni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Pok iymonga o‘q otildi, bir musulmon uyg‘onmadi,
Tug‘ilgan yurt yo Farg‘ona, yo Andijon uyg‘onmadi,
Har so‘zida dardi tomgan bu Turkiston uyg‘onmadi,
Onam deya zardob yutgan O‘zbekiston uyg‘onmadi.

O‘zbekiston, shoir o‘g‘ling — Cho‘lponingga kim o‘q uzdi,
O‘q ovozi yarim kecha uxlayotgan ko‘kni buzdi?!

Totalitar tuzum o‘qidan, aybi millatparvarligi bo‘lgan shoir ohidan ko‘k uyg‘onadi (Cho‘lpon, debon yig‘lar mudom odoshi — ko‘kdagi Cho‘lpon), lekin bir musulmon, bir vijdon uyg‘onmadi, ajdodlariday ko‘ksini qalqon qilib sor lochin o‘glonini, tengsiz shoirni himoya qila olmaydi. Chunki ular erksiz, loqayd, mute kimsalardir. Ko‘rib o‘tganimizdek, To‘lan Nizom bu fojining asl ildizini ochgan, uni hislar, tuyg‘ular, dard va iztiroblar silsilasida ta’sirli inkishof qilgan. Dostonning adabiyotda tutgan o‘rni va ahamiyati shundadir. To‘lan Nizomning “Girya” dostoni (1992) haqida taniqli shoir Ikrom Otamurod shunday deydi: “Nazarimda, dostonning harakat nuqtalari: yig‘i, yod, tush. Uch holat. Ular ko‘ngilning kechinmalarida birlashadi. Ruhiyatning yagona qayg‘usiga aylanadi. Asarning yig‘i manzaralarini o‘qiyotganimda, xayolimdan shunday fikr o‘tdi. “O‘zbekning qayg‘usi ham, azasi ham, yig‘isi ham qudratli”. Juda topib aytilgan fikr va unda butun dostonning mohiyati o‘z ifodasini topgan. Ma’lumki, adabiyot subyektiv hodisa. Lekin unda insoniy faoliyat, munosabat, tuyg‘ular - dard-alam, g‘am-alam, g‘am-quvonch, yig‘i-kulgu o‘z ifodasini topgani uchun obyektivlik tusini oladi. Chunki bu tuyg‘ular, barcha insoniyat olamiga tegishli. Shu

ma'noda "Girya"dagi mahzunlik, yo'qotishdan uni hamma birday his qiladi. Doston inson qalbini poklashdan tashqari, vafo, sadoqatdan, insoniylikdan dars beradi, oila mohiyatini anglatadi. Oila bu er-xotin juftligi-yu, farzandlarni yuzaga keltirish emas, oila bu insoniyatni yashashga ishtiyoqini oshirish, o'zining eram bog'ini yaratish, unda faqat ezgulik nihollarini o'stirish, bu bog' bilan hayotning bir qirrasini bezash, undan hamisha o'zi ham zavqlanish demakdir. Bunday bog'dagi daraxtning bir shoxchasi lat yesa, olam titraydi. Bunday oila go'zal turmushdan bino bo'ladi. Doston To'lan Nizom umr yo'ldoshining vafoti munosabati bilan yozilgan. Muqaddimada shoir shunday deydi:

Vodarig', iqbolim zabunmi chunon,
Dunyodin yuz burib, kulbamga cho'kdim!
Qonim siyoh bo'ldi, qalbim siyohdon,
Qirq kun mushkulotin qog'ozga to'kdim!

Bu qirq kunlik musibat tasvirida o'ttiz yillik birgalikdagi umrguzaronlik hayoti bilan tanishamiz. Bu muddat voqealari tasviri goh yig'i, goh yod, goh tush uyg'unligida beriladiki, misralarda naqshlangan voqealar qanchalik mahzun, qanchalik zalvorli bo'lmasin kishi yengil tortadi. Chunki shoir kechinmalarida "Bu ayol o'z umrini behudaga o'tkazmabdi, u o'z faoliyati, ezgu a'mollari orqali insoniyat "umr daftarin bezabdi" (G'. G'ulom) deysiz. Oqibatda o'zbekning solih, dilbar ayolining siymosi butun borligi bilan gavdalanadi, uning sharpasini his qiladi. U go'yo "Jon dadasi, xo'p deng, Toshkent boraylik, yaqin do'stlaringiz bir-bir ko'raylik", goh "Muncha so'lib qolibsiz? Ovqat yeyapsizmi, choyingiz qalay? Ro'molchangiz bormi, joyingiz qalay?" deyayotganday bo'ladi. Sababi bunday odamlar hamisha tirik. Demak, u

go‘zal turmush qanday bo‘lishidan saboq beryapti. Dostonning yana bir ahamiyati - shunda. Ikrom Otamurod yana doston haqida yozadi: “Shoir tushiga sig‘inadi. Uning madadi ila ko‘ngil maydonida umrining xotira imoratlarini tiklaydi. Kechgan va kechayotgan kunlari endi tush. Qirq kun mobaynida ruhida sodir bo‘lgan tush”.

Yillar kechdi shirin tush misol,

Tushlar ko‘rib yotdim necha qur.

Tushlarimda tunlari behol

Alla aytib yorim yig‘latur...

Qayg‘u fikrning tarixini ochadi. Ulug‘ yozuvchi Chingiz Aytmatovda shundayin bir kalima bor: “Agar insonning boshiga musibat tushsa, uning har bir so‘zining tagida yana aytilmay qolgan o‘nlab so‘z yotadi”. Bu so‘zlar armonning uyg‘unligi bilan topiladi. “Girya”da shu xil armon mavjud. Armon – ko‘ngilda dard chizgan surat”. Ha, doston har kimning hayotini, turmush tarzini ko‘z oldida naqshlaydi, undan xulosa chiqarishga undaydi. Uning muhimligi shundadir.

Tekshirish savollari:

1.O‘zbek poemasining taraqqiyot bosqichlari haqida gapiring

1. Qanday dostonlar liro-epik doston deyiladi?
2. “Najot” dostonida qanday g‘oya ilgari suriladi?
3. “Cho‘lpon” dostonining ma’rifiy xususiyati nimada ko‘rinadi?
4. “Girya” dostonining ma’rifiy ahamiyati nimada?

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.N. Rahimjonov. O‘zbek adabiyotida poema. - T.: Fan, 1986.
- 2.Rahimjonov N., Quvvatova D., O‘roqova N. Zamonaviy doston xrestomatiyasi. /— T.: ... 2021. – 562 b.

- 3.Каримов, Ҳакимжон. Истиклол - бахтим, саодатим...: дарслик /. — Т.: Yangi nashr, 2010. — 364 б.
- 4.Ulug‘bek Hamdamov. Badiiy tafakkur tadriji. — Т.: Yangi asr avlodi, 2002.

5-MAVZU: ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK HIKOYACHILIGINING BADIY VA USLUBIY O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Istiqlol davri o‘zbek hikoyachiligining janr va uslub xususiyatlari
2. Iymon masalasi insoniy masala ekanligi.
3. Hikoyachilik taraqqiyotining yetakchi tendensiyalari.
4. Hayotning mohiyatini, insonning hayotdagi o‘rni, yashashdan maqsadi kabi masalalar mohiyatini ochib beruvchi hikoyalar.
5. Ma’naviy-axloqiy masalalar insonning ruhiy dunyosi orqali ochib berilgan hikoyalar.

Nasrimizning o‘tgan asr 80-90 yillaridagi yangilanish odatiy an’anaviy yo‘lida uning ijodi o‘zgacharoq kechdi, XIX-XX asr boshlarida G‘arbda paydo bo‘lgan adabiy oqimga o‘xshash sifatlar namoyon bo‘ldi. Hozirgi nasrimizdagi mazkur ijodiy izlanishlar darhol adabiy jamoatchilik e’tiborini tortdi. Natijada o‘zbek nasrining tahlil hududi kengaydi, Xususan, obyektiv olam, voqea-hodisalar, inson kichinmalari, ruhiy talqini, ichki tuyg‘ularini jamlagan holda kitobxon qahramon bilan emas balki, uning tafakkuri bilan muloqotga kirishadigan, uning tafakkur jarayoni bilan bahslashadigan bo‘ldi. Milliy istiqlol davriga kelib jamiyatda axloqiy mezonlarni yangilash zarurati tobora kuchaya boshladi. Hikoyachilikda qisqa vaqt mobaynida inson ma’naviyati tadqiqi birinchi o‘ringa ko‘tarildi. Chunki bir tomondan, katta ijtimoiy muammolar kun tartibiga ko‘tarilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mavjud siyosiy poetikalar yemirilayotganligi ruhiyat talqiniga zaruratni oshiradi. Tabiiy ravishda, mazkur xususiyat voqelikni tadqiq etishning o‘zgacha tamoyillarini

yuzaga chiqardi. Asrlar davomida hikoya janr imkoniyatlari cheksiz ekanligini namoyon etdi. Tadqiqotlar natijalari hikoya nafaqat soʻz sanʼatining eng mukammal namunasi, balki oʻzi yaratilgan davr uchun ham muhim ekanligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, hikoya boshqa adabiy janrlar ichida insonga xos boʻlgan ong, ruh, vujud, aql tushunchalarini bir-biri bilan garmonik uygʻunligini aks ettira olgan, insonni shaxs sifatida shakllanishi jamiyat bilan bogʻliqligini toʻlaqonli, keng qamrab olgan janrdir. Shuning uchun adabiyotshunos Umarali Normatov bu haqida shunday yozadi: “Badiiyat olamidagi eng asosiy oʻzgarish shundan iboratki, sanʼat, adabiyot, adabiyotshunoslik yakkahokim mafkura iskanjasidan xolos boʻldi, sanʼat va adabiyoning erkin, xilma-xil falsafiy-estetik oʻzanlar boʻylab rivojlanishi uchun keng yoʻl ochildi” [1,5-bet]. Shu oʻrinda romanlardagi barcha janr oʻzgarishlar oqimi bugungi hikoyachiligimizda keng miqiyosda asarni yoritib berishga xizmat qilib kelmoqda.

Hikoya—badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Oʻtmishda hikoya folklor asarlari tarkibida bayon unsuri boʻlib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan. Yevropa adabiyotida hikoyachilikning rivojlanishiga italyan yozuvchisi Bokachcho “Dekameron” asari bilan katta hissa qoʻshgan. Asarda 7 qiz va 3 yigitning 10 kun davomida aytgan 100 ta hikoyasi berilgan. Gi de Mopassan (Fransuz), Ogenri (Amerika), A.P.Chexov (rus), A.Qodiriy, Choʻlpon (oʻzbek) hikoya janrining asoschilari hisoblanadi. Yevropa adabiyotida hikoya novella deb ham ataladi. Oʻzbek adabiyotida hikoya juda qadimdan boshlangan. Ilk yozma adabiy yodgorliklar — Kultegin va Toʻnyuquq bitiktoshlarida bayon

qilingan voqealar ishtirok etuvchilar tomonidan hikoya qilingan. Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida ham axloqiy xarakterdagi hikoyaning yaxshi namunalari bor. Bobomiz Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining 5-maqolotidagi "Hotami Toy hikoyati", 20-maqolatidagi "Ul qul hikoyati", "Sab'ai sayyor" dostonidagi yetti musofir hikoyalari ham bu janrning ilk namunalari hisoblanadi. 16-asrda yaratilgan Poshshoxojaning "Gulzor" va "Miftoh ul-adl" asarlari o'zbek hikoyachiligining rivojlanishiga asos bo'lgan. Hikoya biror bir davr bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Masalan, 3-sinfda "Jaloliddin Manguberdi" hikoyasida Chingizxon va uning qo'shinlariga nisbatan nafrat uyg'otilsa, Jaloliddin Manguberding xatti-harakati orqali ona-Vatanga mehr-muhabbat uyg'otiladi, uning taqdiri orqali o'z ajdodlaridan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ladi. Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi. "Hikoya" atamasi kengroq ma'noda biror voqeani gapirib berishni ham anglatadi. So'zlab berilgan bunday voqelik o'z qamrovi, hajmi, rang-barangligi bilan qissa yoki romanga xos bo'lishi ham mumkin. Bunday hollarda bu atama janr ma'nosida tushunilmaydi. Masalan, O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani 9 personajning 49 ta hikoyasidan tashkil topgan. Sh.Xolmirzayev "Olabo'ji" asarini "romandan katta hikoya" deb ataydi. Hozirgi o'zbek

hikoyachiligi O.Muxtor, N.Aminov, S.Siyoyev, F.Musajonov, X.Sultonov, E.A'zamov, N.Eshonqulov, Sh. Bo'tayev va boshqa yozuvchilar bilan boyidi. Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani lo'nda ifodalashga mo'ljallangan. Unda shu voqeaga qadar personaj hayotida nima bo'lgan, qanday ro'y bergan, kim bilan — bular to'g'risida ma'lumot berish shart emas. Juda zarur bo'lsa, ayrim detallar orqali ishora qilinishi mumkin. Masalan, A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida Qobil boboning kechagi kuni haqida lom-mim deyilmaydi. Egamberdi paxtafurushdan kichkina shart evaziga ikkita ho'kiz olgan Qobil boboning ertasi to'g'risida "Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi", deb xabar beradi, xolos. G'.G'ulom esa "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidagi o'g'rining kechagi kunini lo'nda detallar orqali to'ldiradi. Uydan biron narsa olmay chiqib ketgan yigitning ertangi kuni haqida hech qanaqa ma'lumot bermaydi. Ixchamlik Hikoyaning muhim belgisi, lekin unda personaj hayotidan birgina lavha, uzoq davrlik voqealar, personajlarning butun umr yo'li, bir emas, bir necha odamlar taqdiri, xarakterning shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning almashinib turishi, muhim fazilat bo'lib qolishi mumkin. Biroq har qanday ko'rinishda ham tasvir siqiq tarzda beriladi. Hikoya mazmuniga ko'ra lirik, psixologik, falsafiy, ilmiy-fantastik, satirik, yumoristik yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Shuningdek, ocherkka yaqin voqeyiy hikoyalar (N.Fozilovning "Ustozlar davrasida") ham bo'ladi. O'zbek adabiyotida bir mavzu, bitta qahramon hayoti bilan bog'liq bir necha yozuvchi tomonidan yozilgan "hashar hikoyalar" ham uchraydi. Hikoyalar orasida detektiv va xayoliy hikoyalar ham mavjud. Detektiv hikoyalar jinoiy voqeani tasvirlab, ularning fitnasi jinoyatchini qidirishga asoslangan. Ko'pincha

yoʻzuvchilar qahramon orqali birlashtirilgan detektiv hikoyalar sikllarini yaratadilar. Shunday qilib, hikoya kichik hajmda, oz sonli qahramon va qisqa muddatli tadbirlarga xos boʻlgan hikoyalardir. Badiiy asar - insoniyat tarixining qaysi qatlamini tasvirlamasin, uni birinchi galda inson sifatidagi oʻy-fikrlari bilan yoritishi lozim. Jumladan, hikoya - oʻquvchini qahramonga ruhan yaqinlashtiradigan janr sanaladi. Hikoya yaratishda hech qachon hajm ahamiyatli emas. Kichik hajmli hikoyada ham butun bir davr muammolari va davr ruhi yoritilishi mumkin. Shu boisdan ham hozirgi adabiy jarayonda barcha janrlar kabi hikoya ham oʻz oʻrnini topayotgani kunday ravshan. Hikoyachilik janrining badiiy takomiliga xos belgilardan biri shundan iboratki, yozuvchilarimiz yuzaga kelgan ijodiy erkinlik tufayli, noanʻanaviy koʻrinishdagi, yangi tipdagi qahramonlarni, oʻziga xos milliy xarakterlarni adabiyot maydoniga olib kirdi. Bugungi kun oʻzbek nasrida, va ayniqsa, hikoyanavislik borasida bir qator yozuvchilar qatorida Xurshid Doʻstmuhammadning ham oʻrni oʻzgachadir. Adabiy tanqidchilikda ham uning asarlari xususida turli xil ijobiy fikrlar bildirilmoqda. X.Doʻstmuhammad uslubining oʻziga xosligi, qahramonlarining hayotiyliigi uning asarlarini oʻqimishliligi va yuqori saviyadaligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Istiqlol davr adabiy jarayoni turfa xil janrlarni tarkibdagi oʻziga xos badiiy talqinlarni tom maʼnoda yuzaga chiqardi. Shu jihatdan hikoyachilik taraqqiyotida ham bunday holatlarni kuzatish mumkin. Oʻzbek adabiyotida hikoya janri oʻz tarixi va taraqqiyotiga ega. Munaqqid H.Umurov eʼtiroficha: «Mahoratni egallash uzluksiz davom etadigan jarayondir. Yozuvchi oʻz ijodining maʼlum davrida – usta sanʼatkor darajasiga koʻtarilishi mumkin. Agar u shu bilan cheklansa, badiiy mahoratini oʻstirmasa –

hayotdan va san'atdan o'rganishda davom etmasa u orqaga ketaveradi, o'quvchilari soni kamayaveradi. Demak, o'rganish, kashf etish to'xtagan joyda talant kuchi, ta'siri susaya boshlaydi» [3,41-bet]. Darvoqe, munaqqid e'tiborni «kashf etish, o'rganish»ga qaratadi. Biz bu fikr-mulohazadan shuni anglashimiz mumkinki, yillar davomida yig'ilgan ijodiy izlanish va tajriba «kun»i kelib tashqariga chiqsa, ana shundagina yuksak did va mahorat bilan bitilgan badiiy javhar tug'ilishi mumkinligiga iqror bo'lamiz. Ma'lumki, yozuvchi uslubining tadrijiy shaklanishiga tashqi omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, albatta! Masalan, har bir yozuvchi yoki shoir boshqa ijodkor yaratqiqlaridan nimalarnidir o'qib o'rganadi, ulardan ijodiy o'zlashtiradi. Bu o'rganish uning hayot hodisalarini akslantirishi, inson obrazini gavdalantirishiga ta'sir qiladi. Uslub - yozuvchi xayolot olamining individual namoyon bo'lish tarzi hamdir. Yozuvchi, shoir voqealarni, qahramonlarni, ular yashaydigan manzil manzaralarini qanday tasavvur qilsa, shunday ifodalaydi. Badiiy adabiyotda insonning mohiyatini anglash, uning his-tuyg'u va kechinmalarini ifodalash bosh omillardan biridir. Shunday ekan, inson ruhiy olami tasviri adabiyotda eskirmaydigan, muhim masala bo'lib qolaveradi. Adabiyotshunoslikda inson ruhiyati ifodasi badiiy psixologizm deyiladi. Psixologizm qahramonning ichki dunyosiga chuqur kirib borish atroflicha, keng tasvir, uning qalbidagi turli holatlarni tahlil etish, nozik hissiyot va kechinmalarga e'tibor berish kabi masalalar birlamchi o'rinda turadi. "Psixologizm klassik adabiyotning uzoq yillik tarixiy hayot sirlaridan biri yashirin: inson qalbi haqida gapirar ekan, u har bir kitobxon bilan uning aynan o'zi haqida gaplashadi". Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm masalasini tadqiq etgan

I.V.Straxov, S.G.Bocharov, A.N.Iezuitov, L.Ya.Ginzburg, V.V.Kompaneets, M.B.Xrapchenko, A.B.Yesin, A.V.Kareolskiy, L.Kolobayeva, Ye.G.Etkind, D.Xalizev, H.Umurov kabi olimlar “psixologizm” terminini turlicha tadqiq etishgan. “Badiiy psixologizm” tushunchasi bilan bir qatorda “psixologik tahlil”, “psixologik tasvir”, “qalb dialektikasi” kabi terminlar ham keng qo‘llanilib kelingan. “Yozuvchi o‘zi mansub bo‘lgan xalqning milliy mavqeyida mustahkam tursa, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga o‘z xalqining ilg‘or farzandi nuqtayi nazaridan qarasa va kelajakka nazar sola bilsa, uning asarida ifodalangan milliy tuyg‘ular umumbashariylik tusini oladi”. Istiqlol davri ijodkorlari inson ruhiyati tasviriga yanada ko‘proq e‘tibor qaratdilar.

Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Xurshid Do‘stmuhammad, Erkin A‘zam kabi o‘zbek adiblari ijodida inson xarakterining murakkab uslubdagi tasvirini kuzatamiz. Ularda qahramonlar tasviri tashqi real olamda harakatlansada, o‘y-xayollari, kechinmalari, quvonch-u qayg‘ulari, umuman, o‘ziga xos ruhiy tasviri birlamchi o‘rinda turadi. Nurilla Choriyev, Xoliyor Safarov, Sanjar Tursunov, Jasur Kengboev, Javlon Jovliyev, Nodira Ibrohimova kabi yosh ijodkorlarning hikoyalari paydo bo‘ldiki, ularda mutlaq yangi zamon, yangi davr ruhi aks etdi. G‘afur Shermuhammad “Faxriy yozuvchi”, “Obro‘li xastalik” hikoyalari bugungi kunda ko‘payib borayotgan ba‘zi illatlar haqida yozilgan. Ayniqsa, o‘z maqsadiga qo‘rqitish yo‘li bilan erishayotgan ba‘zi shikoyatbozlar qiyofasi yorqin bo‘yoqlarda ochib berilgan. Yoshi sakson yoshlar atrofidagi Turg‘unmat O‘rtaovuliy qadalgan joyidan qon olmay qo‘ymaydiganlar xilidan. U borgan eshigidan quruq chiqmaydigan, maqsadiga yetishmaguncha hech kimni tinch qo‘ymaydigan, ayniqsa,

mas'ul xodimlarning holi-joniga qo'ymay zulukdek yopishib oladigan nusxadir. O'zicha bir nimalarni qoralab gazetalarga qatnab yuradi. Yozganlarini o'qib bo'lmaydi, lekin gazetadagilar uning qatnashlaridan, dag'dag'alaridan bezor. Kimdir shapaloqdek maqolasiga, kimdir xabar yoki to'rt qator she'riga uning ismini qo'yib chiqaribgina undan qutuladi. Bularga qanoat qilmagan "faxriy yozuvchi" kitob chiqarish orzusiga tushib qoldi. Endi u nufuzli nashriyotga qatnay boshlaydi. Va o'zi ham nima yozganini tushunmaydigan qalin, eski qoralama daftarini kitob qilib chiqarish uchun qoldirib ketadi. Mas'ul qilib biriktirilgan xodimga kitobni o'z vaqtida chiqarmayotganligi uchun to'nini teskari kiyib olib, do'q-po'pisa qiladi: *"Sen bolani ishdan haydatmaguncha qo'ymayman. Kerak bo'lsa boshlig'ingdan kattasiga ham boraman!"* kabi dag'dag'alar bilan maqsadiga yetadi. Ya'ni o'sha xodim o'zining kitobini uning nomi bilan bosmadan chiqartiradi.

Bugungi globallashuv jarayonida har bir millat ahlining ijtimoiylashgan va dunyo bilan integratsiyalashgan holda o'z qiyofasini saqlab qolishiga erishish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday vaziyatda nafaqat, adabiyot vakillari, balki vatanini, millatini sevgan har bir millat jonkuyari befarq turolmasligi, qo'liga qalam olib, kelajagimiz hisoblanmish yosh avlodga halol va to'g'ri yo'l ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, istiqlol tufayli bunday sa'y-harakatlarga keng imkon ochilgan. *O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Iqtisodiyot va moliya vazirining ma'naviyat bo'yicha maslahatchisi Obiddin Mahmudov o'zining "Ibratli hikoyalar" to'plamiga kiritilgan falsafiy-didaktik, pand-nasihat ruhidagi hikoyalari bilan bilan odob-axloq, ezgulik, halollik kabi xislatlarning ziynatligiyu va*

insonlarda uchrab turadigan ba'zi illatlarning yaramasligini go'yoki bashariyatga taqdim etgandek taassurot qoldiradi kishida.

Hasadgo'y va g'iybatchi

“Qadimda bir hukmdor bo'lib, u saltanatni adolat bilan boshqargani sababli xalq orasida odil podsho degan nom olgan ekan. O'sha odil hukmdor ko'pgina masalalarni o'z a'yonlari, ilm ahillari bilan maslahatlashgan holda bajarar ekan. Ana shunday muhim majlislardan birida hukmdor donish ahllariga yuzlanib, shunday savol beribdi: “Qanday kasalni tuzatib bo'lmaydi va nima uchun?” Kimdir u, kimdir bu debdi, yana kimdir boshqa bir kasallik nomini aytibdi. Lekin bu javoblar hukmdorni qoniqtirmabdi.

Hukmdorning e'tiborini bir chetda nigohi yerga qadalgan ko'yi o'tirgan yosh yigit tortibdi va undan savoliga javob so'rabdi.

Yigit shunday javob qilibdi: “Dunyoda hasad va g'iybatni tuzatib bo'lmaydi. Chunki hasad shunday illatki, hasadgo'yga dunyoni bersang ham u baribir, senga ko'rolmaslik nazari bilan boqadi. G'iybat shunday tuzalmas kasallikki, egasining og'zi ochiq turgandan yopiq bo'lishi afzal. Chunki ular o'z hayotlarini yashash o'rniga, vaqtlarini boshqalarni ko'rolmaslik va g'iybat qilishga sarflaydilar””.

Donishmand va shahzoda

Ilm insoniyat gavharidir.

Mirzo Bedil

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim o'tgan zamonda bir podsho bo'lib, uning yakkayu yagona o'g'li bor ekan. Kichik shahzoda yoshligidan taltaygan, yalqov, o'qishni xush ko'rmas ekan. Tengqurlari har bir saboqni diqqat bilan tinglab, ilmli bo'lishga harakat qilishsa,

kichik shahzoda bu paytda turli-tuman o'yinlar bilan band bo'lib, ustozlarining gapiga ham quloq solmas ekan.

Kunlardan bir kun kichik shahzoda o'rtoqlari bilan toqqa sayrga chiqibdi. Ular tabiatda rosa miriqib dam olishibdi, turli o'yinlar o'ynashibdi. Bir mahal ularning ko'zi kichik uychaga tushibdi. Borib qarashsa, ichkarida soch-soqollari oppoq, nuroniy chol kitob mutolaa qilib o'tirgan ekan.

Bu nuroniy kishi shu mamlakatning ulug' donishmandlaridan biri ekan. Donishmand bolalarni o'tirishga taklif qilib, ular bilan qiziqarli munozara olib boribdi. U bolalarning bilimini sinash maqsadida turli mavzularda savollar bera boshlabdi. Shahzodaning o'rtoqlari barcha savollarga chiroyli tarzda javob berishibdi va bundan donishmandning ko'ngli to'libdi. Donishmand goh-gohida bahs-munozaraga qo'shilmasdan, bir chekkada turgan bolaga nazar tashlab qo'yar ekan.

– Xo'sh, o'g'lim, nega sen suhbatimizga qo'shilmayapsan, – deb so'rabdi donishmand shahzodadan. – Sen o'rtoqlaringga qaraganda, yaxshi ta'lim olmagan ko'rinasan. Bu esa juda yomon. Senga bir savol beraman. Qani, ayt-chi, o'g'lim, ota nega farzandiga tanbeh beradi?

Kichik shahzoda biroz o'ylanib turibdi, ammo javob bera olmay, o'rtoqlari o'rtasida mulzam bo'libdi. Shunda donishmand unga debdi: – O'g'lim, javobing yo'q ko'rinadi. Javobni men aytaman, sen esa diqqat bilan eshitgin. Har bir ota-ona farzandining bilimli, odobli, barkamol inson bo'lib voyaga yetishini xohlaydi. Uning odamlar oldida mulzam bo'lmasligi va boshqalardan tanbeh eshitmasligi uchun ota-ona bor kuchi va imkoniyatini bolasining bilimli bo'lishiga sarflaydi, foydali kasb-hunarning egasi bo'lishini chin dildan istaydi. Ota-onaning eng katta

orzusi shu, aslida. Buning uchun farzand albatta yoshlikdan qunt bilan o‘qib, ilm olishi zarur!

O‘g‘lim, ko‘rinib turibdi, sen judayam ziyrak va aqlli bolaga o‘xshaysan. Faqat biroz dangasaliging bor ekan. Lekin men ishonamanki, sen kelgusida yetuk va ajoyib inson bo‘lasan. Ushbu so‘zlarimni hech qachon unutmagin.

Kichik shahzodaga donishmandning aytgan nasihat va o‘gitlari juda qattiq ta’sir qilibdi. U bundan o‘zi uchun kerakli xulosa chiqaribdi. Kichik shahzoda o‘z ustida tinimsiz mehnat qilib, puxta ilm va foydali kasb-hunarni astoydil o‘rgana boshlabdi. Oradan yillar o‘tibdi. Shahzoda tengqurlariga nisbatan ancha bilimli va zukko bo‘lib voyaga yetibdi, ustozlari, elu yurtidan olqishlar olibdi. Otasi keksayib qolgach, u podsho bo‘lib, saltanatni tinch va odil boshqaribdi. Bu mamlakatdan ko‘plab donishmandlar, hunarmandlar yetishib chiqibdi...

Qissadan hissa: Puxta bilim va foydali kasb-hunar, go‘zal xulq va mehnatsevarlik – odamzod kamolotining asosiy omillaridan hisoblanadi.

* * *

Hunarli mingni yengar...

Shogird so‘radi:

– Hayotda afsusli narsalar nimalar?

Ustoz dedi:

– Mashaqqat ila erishilganini yo‘qotish. Biron-bir foydali kasbni o‘rganmasdan umrini mazmunsiz o‘tkazish...

Qadim zamonlarda qudratli bir davlatning bahodir va navqiron podshohi bo‘lgan ekan. U saltanatni aql-idrok va mohirlik bilan boshqarar ekan. Oylar, yillar shu zaylda o‘taveribdi. Ammo bir

muddatdan so‘ng yosh podshoh aysh-u ishratga berilib, hukmronlikni asta-sekin qo‘ldan chiqara boshlabdi. Vaziyatdan foydalanib, qo‘shni mamlakat xukmdori bu yurtga hujum qilibdi va uni bosib olibdi. Baxtli tasodif tufayligina yosh podshoh jon saqlashga muvaffaq bo‘libdi.

U yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, tog‘- u tosh, qir- u dara, cho‘l- u biyobonlardan oshib, o‘zga bir mamlakatga kelib qolibdi. Yonida bir chaqasi, yeyishga bir burda noni ham yo‘q ekan bechoraning. U kech qorong‘i bo‘lganda, bir kichik hujra yoniga zo‘rg‘a yetib kelib, eshikni taqillatibdi. Bu hujra temirchi cholning uyi ekan. U kech bo‘lganda ham ish bilan band ekan. Chol eshikni ochib, “Kel, bolam, kimsan, kech bo‘lganda nima qilib yuribsan?”, deb so‘rabdi. “Men bir savdogarning xizmatkori edim. Karvonimizga qaroqchilar hujum qilib, hammani o‘ldirishdi, birgina men omon qoldim. Iltimos, menga bir kechaga joy bersangiz”, deb javob qilibdi. Chol mehmonni uyiga olib kirib ovqatlantiribdi va so‘ng dam olish uchun to‘shak solib beribdi.

Podshoh yigit roppa-rosa bir kechayu bir kunduz uxlabdi, chunki u uzoq vaqt uxlamasdan, och-nahor yo‘l yurgan ekan-da. Uyqudan turib, o‘ziga biroz kelgandan so‘ng, u hayotning qadr-qimmati, umr mazmuni, o‘zining esa biron-bir kasbni o‘rganmagani, hayotini behuda ishlarga sarflagani haqida, bundan keyin qanday kun kechirishi xususida chuqur o‘y suribdi. Chunki odamzodning boshiga qachon musibat, og‘ir kunlar tushsa, u kasb-hunar, umr, hayot haqida o‘ylay boshlaydi-da.

Ikkinchi kuni ertalab chol yigitning yoniga kelib, biron-bir hunari bor-yo‘qligini, bundan keyin nima ish bilan mashg‘ul bo‘lishini so‘rabdi. Podshoh yigit bir og‘iz so‘z aytolmabdi. Shunda chol unga shu yerda temirchilikni o‘rganib, kun ko‘rishni taklif qilibdi. Podshoh yigit

noilojlikdan bu taklifga ko‘nibdi. Cholning hech kimi yo‘q, shu bois, u yolg‘iz yashar edi.

Sobiq podshoh choldan temirchilik sirlarini o‘rgana boshlabdi. Oradan yillar o‘tibdi. U kasbini puxta o‘rganib, mohir temirchi bo‘lib yetishibdi. Olislardan unga vatani haqida xabarlar kelib turar edi. U tug‘ilib o‘sgan yurtini juda sog‘ingan, qaytishni o‘ylar edi. U juda ko‘p qurol-yarog‘ yasab, o‘z yurtiga borib, o‘zining safdoshlari, izdoshlarini topibdi. Aqlu zakovati, kuchi va puxtaligini ishlatib, bosqinchilardan taxtni qaytarib olibdi.

Podshoh ertasigayoq quyidagi mazmunda farmoni oliy chiqaribdi: “Saltanatdagi barcha fuqaro, o‘g‘il-qiz mansabi, millati, irqidan qat’i nazar, jamiyatga foydali ilm va kerakli kasb-hunar o‘rgansin”. Podshohning o‘zi esa oqila bir qizga uylanib, ko‘p farzand ko‘ribdi va ularning har biriga bilim va kasb-hunar o‘rgatibdi. Vaqtlar o‘tib bu yurt judayam qudratli saltanatga aylanib, fuqarolari farovon hayot kechira boshlashibdi.

Qissadan hissa:

Yosh podshoh o‘zining ko‘rgan qiyinchiliklari tufayli, hayotning har bir lahzasini mazmunli o‘tkazish lozimligini tushunib yetibdi. Shuningdek, har qanday mamlakatning tinchligi, qudrati va ravnaqi o‘sha yurt fuqarolarining jasur va mardligi, o‘qimishli va kasb-hunarligiga bog‘liqligini ham anglab yetibdi.

Ushbu jajji hikoyalar qisqa va lo‘nda bo‘ishi bilan birga didaktik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, kitobxonga hayot falsafalaridan saboq berayotgandek tuyuladi. Hikoyalardagi qahramonlar qismati kishini

bundan ogoh qiladi. Demak, kishini hayotni qadrlashga, to'g'ri yashashga, iymonga undaydi.

Millatning ma'naviyati qaror topishida adabiyot muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, yoshlarning muayyan hayotiy vaziyatlarda qaysi yo'lni tutishi, qanday to'xtamga kelishi, ko'zda tutgan ishlarni qay saviyada bajarishlari, ko'p jihatdan, adabiyotning rivojiga bog'liqdir. Shuning uchun ham kitobxon yoshlarni tarbiyalash maqsadida adabiy uslub va janrlar ilmi uchun adabiy asoslarni belgilash hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ya'ni adabiy jarayonda dunyo miqyosidagi yangiliklardan boxabar bo'lib turish nima maqsadda, nimani va qanday asarlar yaratilish kerakligini aniq belgilab olish zamon talabi darajasiga ko'tarilmoqda. Bugungi kunda asarlar jonli va ravon tilda, sodda va ixcham usulda yaratilishi talab etilmoqda. Hazrat Alisher Navoiy bejizga g'oyat siqiq jumlalarga katta ijtimoiy va badiiy voqelik va maqsadni singdirishga harakat qilmagan. Bunday asarlar yaratish barcha zamonlarda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lsa bugungi kunda yanada ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Chunki yoshlarimiz kitob mutolaasiga sarflagan vaqtini internet tarmoqlaridan o'z qiziqishlari yo'lida foydalanmoqda. Biz bugungi yoshlarni badiiy asarlarga qiziqtirishimiz, buning uchun esa siqiq va lo'nda jumlar bilan yaratilayotgan yangi-yangi asarlardan foydalanmog'imiz zarur. Hozirjavob, idrokli, yuksak tafakkurli kitobxonni tarbiyalashda ham bunday usulda yaratilgan hikoyalardan unumli foydalanmoq maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda yosh ijodkorlar orasida drabllar nomi bilan yaratilayotgan hikoyalarni o'qigan kitobxonda zehn va idrok o'sishi bilan bir qatorda shu singari hikoyalardan yaratishga ishtiyoq paydo bo'ladi. Drabllar hikoyaning

o'ziga xos kichik janri bo'lib, (inglizcha drabble – parcha, bo'lak) – hikoyaning o'ziga xos kichik janridir. Unda, asosan, biror voqeaning qisqacha tarixi beriladi. Kutilmagan yechim bilan yakunlanuvchi eng qisqa va tugal hikoya deyish mumkin. 1980 – yilda Buyuk Britaniyada drabbl deb nomlangan hikoyanavislikning yangi janri paydo bo'ldi. Bu kichik asar bor – yo'g'i 100 so'zdan iborat bo'lib, tugallangan g'oya va o'ziga xos shaklga ega bo'lgan. Dastlab Birmengem universitetida g'aroyib so'z o'yini sifatida qabul qilindi. 1987 – yilda Stiv Moss “New Time” jurnali orqali tanlov o'tkazilib, unda ishtirok etuvchilar oldiga 55 so'zdan iborat tugallangan hikoya yozish topshirig'i qo'yildi va bu ish amalga oshirildi. Shunday qilib drabbl degan yangi janr vujudga keldi. Bugungi kunda bu janr ko'pchilikni qiziqtirib qo'ydi. Jumladan, o'zbek ijodkorlari orasida ham bu janrda o'zlarini sinab ko'rayotgan yosh qalamkashlar ijod qilishmoqda. Masalan, Dilafro'z To'ychiyeva qalamiga mansub “Sirli sandiq” nomli drabbl hikoya kitobxonga mehr-oqibat, ota-onani qadrlash tuyg'ularini singdiradi.

Uyning bir burchida katta-kichik sovg'alar, undan sal narida esa anchagina eskirgan sandiq bor edi. Sultonning e'tibori avval rangin qog'ozlarga o'ralgan tuhfalarga tushdi. Kecha oqshom bu yerda-bazmu jamshid avjida edi. Quloqqa xush yoquvchi qadax so'zlari, har xil alyorlar, yangradi. Shularni o'yladi-yu, uning yuziga tabassum yugurdi. Beihtiyor ko'zi tanish eski buyumga tushdi. Negadir qiziqishi ortib ketdi shu tobda.

Har gal qishloqqa borganda dadasi shu matoh oldida goh kulib, goh yig'lab o'tirar edi. Sababini so'rasa:

- “Eh bolam, muni ichida eng qimmatli boyligim bor”-deb javob berardi.

U nima bo'lishi mumkin...- deb pichirladi yigit.

Qiziqib sandiq dastasiga qo'l urdi. Ochdi-yu, turgan joyida qotib qoldi.

Tomog'iga nimadir tiqildi, mijjasida yosh qalqidi.

Ichida o'zining yoshlikdagi o'yinchoqlari, kiyimlari turardi...

Badiiy adabiyotda insonning mohiyatini anglash, uning his-tuyg'u va kechinmalarini ifodalash bosh omillardan biridir. Shunday ekan, inson ruhiy olami tasviri adabiyotda eskirmaydigan, muhim masala bo'lib qolaveradi. Adabiyotshunoslikda inson ruhiyati ifodasi badiiy psixologizm deyiladi va psixologizm qahramonning ichki dunyosiga chuqur kirib borish atroflicha, keng tasvir, uning qalbidagi turli holatlarni tahlil etish, nozik hissiyot va kechinmalarga e'tibor berish kabi masalalar birlamchi o'rinda turadi. Har qanday shaxsning shakllanishida badiiy asar o'qishning beqiyos o'rni bor. Negaki badiiy asardagi qahramonlarning holat-u kayfiyatlari, iztirob-u quvonchlari, haq-u nohaqliklari bilan tanishish va tuyish orqali kishida odamiylik sifatlari qaror topadi. Odam o'zini o'zga bilan solishtira bilganda, o'zini boshqaning o'rniga qo'ya olgandagina chinakam odamga aylanadi. Shundagina shaxs ijtimoiylashadi, ijtimoiylashmagan odam esa individdan farqi yo'q. Chunki unda iste'molchilikdan o'zga biror ezgu sifat shakllanmagan bo'ladi. Badiiy asar va uning qahramonlari taqdiri bilan tanishish orqali odam o'ziga yoqimli bo'lgan narsaning o'zgaga ham ma'qul bo'lishini, o'ziga yoqmaydigan tutum o'zgaga ham yoqmasligini bilib olsa, tuyib yetsa, unda odamiylik sifatlari tarkib topa boradi. Bugungi odam dunyodan uzilib yashay olmagan singari, ijod ahli bugungi milliy rivojimiz uchun ham ochun tajribasidagi yangiliklardan chetda turib, ko'zlagan natijalarga erisha olmaydi. Bugunni bilish, ertaning

yo‘nalishlarini belgilash zamon bilan hamnafas yashashdan, dunyo yangiliklarini yaxshilab o‘zlashtirishdan boshlanadi. Badiiy asar o‘qish kitobxonga ikki jihatdan g‘oyat muhim yumush sanaladi. Birinchidan, u odamni kitobga bog‘lab qo‘yadi: asar qahramonlari bilan keyin nima bo‘lganini bilishga qiziqish uyg‘otadi, hayotdagi turli-tuman kutilmagan voqea-hodisalar bilan tanishtiradiki, buning o‘zi kitobxonda qiziqish uyg‘otadi. Inson o‘ziga mutlaqo notanish odamlar, o‘zgacha taqdirilar bilan tanishadi, ijodkor mahorati sabab ularga befarq bo‘lolmaydi, yangi hayot bilan tanishadi va bundan zavq oladi. Holbuki, o‘qilgan asar o‘quvchi tomonidan ilk bor kashf etilishadanoq, uning qalbida iz qoldirishi zarur. Badiiy asar o‘qishning ahamiyatini ta‘minlaydigan ikkinchi hal qiluvchi jihat: badiiy asar o‘quvchida o‘zgani his etish, birovga tuyg‘udosh bo‘lish fazilatini shakllantiradi. Bu ilmiy tilda empatiya deyiladi. Globallashib borayotgan hozirgi shoshqin dunyoda yashayotgan odamlarda aynan empatiya tuyg‘usi kamayib bormoqdaki, badiiy kitob o‘qish o‘sha yetishmovchilikni to‘ldirishga yordam beradi.

Tekshirish savollari:

1. Iymon masalasi qanday masala hisoblanadi?
2. Jajji hikoyalar haqida nimalar bilasiz?
3. Siz ham jajji hikoyachalar yaratatishga harakat qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarali Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. T., 2000
2. Umarali Normatov. Tafakkur yog‘dusi. — T., 2005
3. Ulugbek Hamdamov. Badiiy tafakkur tadriji. - T. 2000
4. Hozirgi adabiy jarayon: tahlil va talqin. Maqolalar

5. D. Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent, “Fan”, 2007. 63-bet.
6. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent., “Yangi asr avlodi”, 2006. 62-bet.

6- MAVZU: BUGUNGI O‘ZBEK HIKOYACHILIGI: ULARNING O‘ZIGA XOS YO‘NALISHLARI.

Reja:

1. Ijtimoiy masalaning mohiyati.
2. O‘zbek hikoyachiligida yangilanish.
3. 90-yillar hikoyachiligidagi yangi tamoyillar.
4. Milliylikning ifodasi va mohiyati.
5. Milliy xarakter va badiiy talqin.

Jamiyat hayotining burilish davri bo‘lgan hozirgi kunlarda adabiyot xalq ma’naviyatini shakllantirishda beqiyos o‘rin tutadi. Badiiy adabiyot nafaqat xalq ma’naviy qiyofasini shakllantirish, balki mamlakat iqtisodiyotini ko‘tarish, uning ijtimoiy qudratini orttirishga ham samarali ta’sir ko‘rsata oladi. Chunki jamiyat taraqqiyoti tezligi unda yashayotgan odamlarning intellektual va kreativ imkoniyatlari darajasiga bog‘liqdir. Binobarin, jamiyat a’zolari tafakkuri va ma’naviyatining yuksakligi uning taraqqiyoti sur’atini belgilaydi. Shu o‘rinda hikoyalar tahlili uchun yetakchi tamoyillarni belgilab olishda filologiya fanlari doktori adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov bilan Gulnoz Mo‘minova suhbatini keltirdik.

KO‘ZGU SINIQLARI YOXUD AYTILMAGAN SO‘Z QUDRATI (UZOQ JO‘RAQULOV BILAN SUHBAT) (2013)

– *Dunyo adabiyoti tarixidan ma’lumki, hikoya prozaning keng tarqalgan va shunga mos ravishda kuchli taraqqiy etgan janrlaridan biridir. Adabiyot tarixida bor mahoratini ishga solib, hikoya janrining eng go‘zal namunalarini yaratgan adiblar ko‘p uchraydi. Aytish mumkinki, J.London, S.Sveyg, P.Merime, H.Hesse, O.Genri, Mopassan*

kabi adiblarni yirik hajmli asarlaridan ko‘ra hikoyalari ko‘proq mashhur qilgan. Bu holat mazkur janrning ichki imkoniyatlari bilan bog‘liqmi?

– Har qanday adabiy janr asosini Yaratganning buyuk san’ati – makon-zamon kengliklarida aylanib turuvchi voqelik tashkil etadi. Ammo uni qamrovlash, badiiy aks ettirishning yo‘llari, darajalari xilma-xil va o‘zaro tubdan farq qiladi. Bunday farq milliy adabiyotlar, davrlar, avlodlar va bir ijodkor hayotiga oid turli bosqichlar, kayfiyatlar diopozonida ko‘proq kuzatiladi.

Voqelikni anglash, talqin etishning inson tomonidan kashf etilgan minglab usullari bor. Bularning ba’zilari falsafa, ba’zilari fan, ba’zilari esa hayotiy tajribalar negizida shakllangan. Inchunun, bunday vositalarning barchasi o‘z maqsadi, imkoniyatlari doirasida, inson va inson uchun yaratilgan borliq olam (“to‘qquz aflok”)ni tushunish, anglashga qaratiladi. Navoiy hazratlari “Lison ut-tayr” debochasida yozadilar:

Aylagach doir to‘quz aflokni,

Qosir etdi fahmidin idrokni...

Ya’ni Alloh taolo “to‘qquz aflok”, demakkim, butun moddiyat dunyosini yaratdi. Uni makon-zamon o‘lchovida harakatga keltirdi. Ammo borliq aro zarra misol – inson, uning uchun yaratilgan “to‘qquz aflok”, ularda kechmish va kechajak voqeotlar mohiyatini, dunyoning avvali-yu oxirini to‘la anglash, idroklash imkoniyati Odam bolasiga berilmagan.

Insoniyat o‘z tarixi davomida erishgan barcha kashfiyotlar, ilmlar, falsafalar mana shu “imkoniyat” doirasida tug‘ilgan. Jarayon esa davom etyapti. Bu jarayon qachon boshlangan va qachon tugashini bir Zotdan

o'zga hech kim bilmaydi. Xususan, adabiyot ham shu jarayonda maydonga kelgan idroklash vositalarining eng to'ng'ichi, ta'bir joiz bo'lsa, eng mukammalidir. Chunki fan, falsafa singari bilish vositalari, asosan, tafakkur bilan ish ko'radi. Voqelikni idroklashning ratsional yo'lidan boradi. Shu bois ham fan va falsafa qamrovi tafakkur chegaralari qadar. Illo, ulug'lardan biri aytganidek: "Aql Ka'baga bormoqqa tuya hozirlaguncha, qalb uni ming bor ziyorat qilib keladi". Adabiyot bilish vositalari ichida hissiyot va tafakkurni, tana va ruhni o'zida jamlash ehtimoli ortiqroq bo'lgan birdan-bir fenomen. Bunday qo'sh qanot imkoniyati esa uning makon-zamon chegaralari bo'ylab kengroq ko'lam egallashini ta'minlaydi.

Agar biz asl adabiyotni voqelik aks etgan bir ko'zguga qiyoslaydigan bo'lsak, hikoya janri ushbu ko'zguning siniqlaridir. Ammo hikoyaning bor qudrati ham aynan shu siniqligida. Zarrada borliq, qatrada ummon, nur tolasida quyosh aks etishini yodga olsak, hikoyaning asl qudratini teran his qilamiz. Insonga xos ulug'vorlik va shariflik butun borliqdan ko'ra ustunroq bo'lganidek (*Barchasini garchi latif aylading, Boridin insonni sharif aylading...* Navoiy), ba'zan qatra imkoniyati ummon imkoniyatlaridan ustunlik qiladiki, jahon adabiyoti tarixida siz kuzatgan holatlar shu bilan izohlanadi.

Jahon adabiyoti tarixida A.P.Chexov, S.Moem, J.London, H.Hesse, O.Genri singari mashhur hikoyanavislar bilan bir qatorda L.N.Tolstoy, U.Folkner, M.Sholoxov kabi bu janrga kamroq murojaat qilgan, ammo bir-ikki hikoyasi misolida betakror san'at namunasini meros qoldirgan yozuvchilar ham uchraydi. Tolstoyning "Avliyo Sergiy", Folknerning

“Qora musiqa”, Sholoxovning “Xol” hikoyalari mana shunday noyob badiiy kashfiyotlar hisoblanadi.

Endi ichki imkoniyat masalasiga keladigan bo‘lsak, u janrda emas, yozuvchida bo‘ladi. Har bir adabiy janrning kashf etilgan va yuzaga chiqmagan bitmas-tuganmas imkoniyatlari bor. Badiiyati yuksak hikoyaning maydonga kelishi soddagina xuddi ot va chavandoz munosabatiga o‘xshaydi. Xalqimiz orasida bor-ku, ot o‘ziga munosib chavandozni topsa, maydon uniki. Xuddi shunday iste’dod, haq so‘z, mos voqea, shunga munosib kayfiyat, ayniqsa, fikr va amal uyg‘unlashgan nuqtada hatto romanlarni dog‘da qoldiruvchi hikoya dunyoga kelishi mumkin.

– *Adabiyot yaralganidan buyon unda “ustoz-shogird” an’anasi davom etib kelmoqda. Shunday adiblar borki, ular o‘zlariga “uvays” ustozlar tanlashgan va bu tanlov o‘zini to‘la ma’noda oqlagan. Nazarimda, mazkur an’ana aynan hikoyachilikda ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Fikrimni oqlash uchun ba’zi misollarni keltirsam. O‘zbek hikoyachiligining ustozlaridan bo‘lgan Abdulla Qahhor hikoyachilikda Chexov uslubiga yaqin bo‘lgan siqqlik, so‘zni qizg‘anish va real hayotga iloji boricha yaqinlashishni ma’qul ko‘rgan. Milliy hikoyachiligimizning yana bir yorqin namoyandasi Sh.Xolmirzaev esa o‘zi tug‘ilgan Surxon dashtlariday keng va xotirjam yozgan. Uning “hikoya” degan nom ostida chop ettirgan ba’zi asarlari, hajmiga ko‘ra qissaga yaqin turadi. Buning boisi shuki, u jahon adiblari orasida Tolstoy boboga o‘xshash ezmaroqlarini ko‘p o‘qigan, inson taqdirini keng va har tomonlama talqin etgan adiblarga yaxshi ma’noda ergashgan. Umuman, hikoyachilikda hajmning ahamiyati bormi?*

– Adabiy ta’sir adabiy-tarixiy jarayonning o‘zak muammolaridan. Ammo, taassuflar bo‘lsinki, bu muhim hodisaga xos ma’naviy mezonlar, adabiy-estetik kriteriylar bizda aniq, ilmiy-nazariy tushuncha o‘laroq shakllanmagan. Bu masalada, bizda bo‘lganidek, yondosh yoki qardosh adabiyotlar negizida ishlab chiqilgan kriteriylarni etalon qilib olish tamoyili o‘zini oqlamaydi. Adabiy ta’sir yoki komparativistika jarayoni har bir milliy adabiyot doirasida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Bizda aynan shu adabiy ta’sir tamoyillarini milliy estetik tafakkur mezonlari negizida tayin etishda oqsash bor.

Siz adabiy ta’sir namunasi sifatida eslagan holatning, “ustoz-shogird an’analarining” ham poydevori u qadar mustahkam emas, og‘izdan-og‘izga o‘tib yurgich bu gaplarning teran ilmiy asosi yo‘q hisobi. Hatto bunday fikrlar adabiy jarayon botinidan emas, balki kimlarningdir xohish-istaklaridan tug‘ilgan, unchalik obro‘ keltiravermaydigan “sayyor luqmalar” deyilsa ham, haqiqatga xilof bo‘lmaydi.

Holbuki, Chexov hikoyachiligi misolida bizda ko‘kka ko‘tarilgan jihatlar jahon adabiyoti kontekstida u qadar noyob hodisa sanalmaydi. Chexov hikoyalari zalvorini ich-ichidan his qilgan, o‘zini uning haqiqiy shogirdlaridan hisoblagan, hatto bu bilan faxrlangan Somerset Moem o‘ta kichik hajmli, chexovcha siqiq hikoyalarning maydonga kelishini o‘sha davr matbaachiligidagi iqtisodiy tanqislik muammolari bilan bog‘lab izohlaydi. Uning yozishicha, dastlab asosan siyosiy, tijoriy xabar va reklamalarni chop etish uchun mo‘ljallangan gazetalarda badiiy asarlarga o‘rin ajratish rasm bo‘lmagan. Faqat gazeta maketlari chizilib, reklama va xabarlardan ortib qolgan, reklama sig‘dirishning imkoni bo‘lmagan burchak-burchakdagi g‘arib joylarda keyinchalik biror badiiy asar bosish

rasmga kirgan. Shuning uchun ham asarini matbuotda chiqarishni xohlagan yozuvchi reklamadan ortgan o'sha kichkina joyga mos jajji hikoya yozishga majbur bo'lgan. Kichik hajmli hikoyalarning ayanchli tarixi shu xolos.

Har qanday yaxshi hikoya o'zining shakli va hajmi bilan tug'iladi. Yozuvchi uni ataylabdan kichik yoki katta hajmli qilib yoza olmaydi. Bir so'z bilan aytganda, bu jajji janrning kichik yoki katta ekanini katta adabiyotga naqadar daxldor ekaniga qarab belgilansa, to'g'riroq bo'ladi. Katta adabiyot esa, menimcha, Navoiy, Servantes, Shekspir, Gyote, Pushkin, Tolstoy, Dostoyevskiy, Qodiriylar mansub adabiyotdir.

– *Zamon evrilishlari insonning ichki, ruhiy ehtiyojlarida ham namoyon bo'ladi. Misol uchun, o'tgan asr o'quvchisi voqeaband asarlarga ko'proq moyil edi. Shu bois insonning botiniy, hissiy hayoti tasvirlangan hikoyalarga "tishi o'tadigan" kitobxonlar hatto ijod ahli orasida ham unchalik ko'p emasdi. Jahon hikoyachiligi namunalari, xususan, insonning ruhiy to'lg'oqlariga bag'ishlangan hikoyalar tarjima qilinib, ularning ilk namunalarini matbuotda chop etilganda, dastavval bu "zerikarli" asarlarni qabul qilolmadik. (Bu hikoyalarning aksariyati Lotin Amerikasi adabiyoti vakillari ijodidan edi) Hali o'zbek adabiyotida bu toifa hikoyalar deyarli yo'q edi. Ko'p o'tmay, milliy adabiyotimizda ham shunga o'xshash asarlar paydo bo'ladi boshladi. Aytish mumkinki, A.A'zam, E.A'zam, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, L.Bo'rixon, U.Hamdam, A.Yo'ldosh, B.Qobul, B.Abdurazzoq kabi adiblarimiz zamonaviy prozaga chin ma'noda yangilik olib kirishdi. Shu ma'noda "Tugmachagul", "Anoyining jaydari olmasi", "Jajman", "Maymun yetaklagan odam", "Qo'lga tushgan qorbobo", "Tosh", "Puankare",*

“Qora kiyik ta’qibi” kabi qator hikoyalar misolida o‘zbek hikoyachiligida ro‘y bergan tadrijiy o‘zgarishlarni ham kuzatish mumkin. Siz nima deb o‘ylaysiz, prozada voqeabandlikdan bir oz yiroqlashib, asosan ruhiyatga, sezgiga urg‘u berilishi kitobxonni asl adabiyotdan uzoqlashtirib qo‘ymasmikan?

– G‘alvir bilan suv tashib bo‘lmaydi. Suv tashish uchun chelak kerak. Yoki shamolni yuganlashga, hushtakka tugma qadashga urinishda hech bir mantiq yo‘q. Ammo jahon adabiyoti maydonida shunga o‘xshash holatlar mavjud ekan, buni avvalo tushunishga, imkoni bo‘lsa tushuntirishga urinishning zarari yo‘q.

Agar siz aytgandek, hikoya janri doirasida “insonning botiniy, hissiy hayoti”ni tasvirlash tamoyili mavjud bo‘lsa, bu ham hushtakka tugma qadashga urinishdek bir gap.

Nima uchun bunday deyapman? Azal-azaldan ulkan qamrovli, ko‘p va egri chiziqli voqelikni proza yo‘lida tasvirlash vazifasini epos, epopeya va roman bajarib keladi. Hikoya joriy voqelikdan bir parchani tanlab oladi va tasvirlaydi. Botin olami, hissiyot kengliklari xususida so‘z aytish esa qissa janrining vazifasiga kiradi. Hatto “Qur’on”da ham yagona shaxs zohiriy va botiniy hayoti haqidagi xabarlarga nisbatan “qissa” istilohi qo‘llanadi(masalan, Ismoil alayhissalom, Yusuf alayhissalom, Ayyub alayhissalom qissalari kabi). Xalq nasrida bo‘lsa, “Ibrohim Adham qissasi”, “Shoh Mashrab qissasi”, “Zufunun qissasi” singari mashhur kitoblar bor. Ularda ham xalq badiiy tafakkuri kengliklarida ifodalangan ayni tamoyil aks etadi. Demak, azaldan botiniy hayot tasviri qissa janriga tegishli. Shu bois ham bu vazifani hikoyaga yuklash yoki shunday ifoda tarziga ega asarlarni hikoyaga nisbatlash

g'alvirda suv tashish yo hushtakka tugma qadashga urinishga o'xshaydi. Modomiki, umuman adabiyotda bunday holatlar bor ekan, buning yana bir grotesk-izohini keltirishim mumkin. Deylik, uyida chelagi yo'q odamning amal-taqal qilib g'alvirda suv olib kelishi haqida "Chorasizlik" degan hikoya yozish mumkin bo'lganidek, botin olami va hissiyotlarini tugal anglamagan, boshqacha aytganda, botini butun bo'lmagan ijodkorlarning hikoya ustiga bunday yuk qo'yishini ham tushunish mumkindir, ehtimol. Lekin, har qanday istiora o'yinlarini chetga surib aytishim mumkinki, voqelikka ko'chmagan botin, voqelikda ifodalanmagan hissiyot bo'ronlari haqiqiy hikoyaga aylanishi mumkin emas.

– So 'nggi yillarda e'tirof etilgan hikoyalarni ko'zdan kechirayotib, xayoldan bir fikr o'tadi. Bugun zamonaviy proza vakili uchun so'zni his eta bilish iste'dodidan ham ko'ra inson psixologiyasidan xabardorlik layoqati zarurroqqa o'xshab qoldi. *Chunki adabiyot, xususan, uning zabardast qismi bo'lgan proza inson ruhiyatiga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Lekin har qanday asar avvalo kitobxon uchun yoziladi. Xo'sh, kitobxon bunday murakkab asarlarni o'qishga tayyormi? Agar tayyor bo'lmasa uni yangi davr asarlari mutolaasiga qanday hozirlash mumkin?*

– Zotan, insoniyatga ruh haqida juda kam bilim berilgan. *Yuqorida ham aytdimki, insonshunoslik, demak, ruhshunoslik vazifasiga loyiq birgina talqin vositasi bor, u ham bo'lsa faqat adabiyot. Shu bois, hatto qilni qirq yoradigan Z.Freyd, K.Yung, E.Fromm, J.Lakan kabi psixoanalitiklar ham, garchi asosiy tadqiqot obyektlari tirik odam bo'lishiga qaramasdan, o'z xulosalarida badiiy adabiyotga tayanadilar.*

Ming yillik sharq-islom lirikasi, xamsachiligi, voqeotnavislik, holotnavislik va manoqibotlardagi nozik psixologizm mohiyati haqida biz hali o‘ylab ham ko‘rganimiz yo‘q. Gomer, Sofokl, Esxil, Yevripid, Shekspir, Servantes, Gyote, Pushkin, Tolstoy, Dostoevskiy, Qodiriy, Oybek, G‘.G‘ulom, A.Oripov, R.Parfilar asarlari ham aynan shu fazilati sabab yashab turibdi. Demak, bu sifat adabiyotning o‘zagini tashkil etishi bugunning gapi emas. Hatto bugungi adabiyot turli “degumanizatsiya”larga chalg‘ib, asl missiyasidan bir oz chalg‘igandek tuyuladi menga.

Agar ayni zamon o‘quvchisining o‘sha “chuqur”likka da‘vo qilayotgan ba’zi asarlarga “tishi o‘tmayotgan” ekan, buning sabablarini o‘quvchidan emas, ijodkor ma’naviyatidan izlash to‘g‘riroqqa o‘xshaydi. Holbuki, inson psixologiyasining xolis va to‘g‘ri tasviri o‘quvchini badiiy asardan uzoqlashtirishi emas, aksincha, yaqinlashtirishi lozim.

Garchi, qalamning vazni qamish poyasi, g‘oz pati bilan o‘lchansada, insonshunoslik mas’uliyatini bo‘yniga olgan odam pokiza, sohibi hikmat, xalq dostonlaridagi bahodirlardek alp bo‘lishi lozim. Yo‘qsa, “So‘z vodiylarida” adashib qoladi, qalamni ko‘tarolmay arosat sahrosida nobud bo‘ladi.

– *Jahon adabiyoti tajribalarini o‘rganib borish va olgan bilimlari asosida yangi an‘analarni yaratish har bir millat adabiyotining muhim fazilatlaridan biridir. Shu ma’noda o‘zbek hikoyachiligi ham dunyo novellestikasining yaxshi an‘analaridan ko‘p narsani o‘rgandi. Sizningcha, qaysi hikoyalarni “jahon standartlari”ga mos keladigan hikoyalar deb atasak bo‘ladi?*

– Xuddi Nobel mukofotlari singari “jahon standartlari” degan gap ham o‘ta nisbiy tushuncha. Chunki bu o‘rinda, avvalo, ushbu “standart”lar qanday mezonlarga tayanadi, degan savolni qo‘yish, unga munosib javob topishga urinish muhimroq. Biz, birinchi navbatda, standart nima ekanini bilib olishimiz, standart mezonlarini belgilashimiz, shundan so‘nggina o‘z “standart”larimiz haqida so‘z yuritishimiz lozim.

Bizda chin ma’nodagi standartlar bo‘lgan. Buni Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Zokirjon Furqat kabi sharq shoirlari yaxshi bilishgan. Bir asrdan ortiq uzilish davri, ma’naviy-ruhiy tobelik oqibati o‘laroq biz XX asr kishilari bunday barhayot ilmlardan uzoqlashdik. Standartlarimizni yo‘qotib qo‘ydik. Bugun o‘z adabiyotimiz tarixini jiddiy o‘rganish, badiiylik mezonlarini tiklash, amal va so‘z uyg‘unligiga erishish, zamonaviy adabiyotimiz, ijodkorlarimiz uchun eng muhim vazifa hisoblanadi. O‘ylashimcha, o‘shandagina biz o‘z standartlarimizga ega bo‘lamiz. Shundagina G‘arb va boshqa sharq xalqlari zamonaviy adabiyoti tajribalarini o‘z asarlarimizga sintezlay olamiz. Balki shunda “jahon standartlari” degan kalima ham o‘zgacharoq, kengroq ma’no kasb etar. Illo, o‘zbek adabiyoti uchun XXI asr umidlar, izlanishlar, o‘zgarishlar asri bo‘lishiga shubha qilmayman.

– Jon Golsuorsi o‘zining *“Adabiyot va hayot”* nomli maqolasida shunday yozadi: *“...muallifi hayot ekan, uning asarini hali adabiyot deb hisoblamaymiz”*. Bir oz telbanamo tuyulgan bu fikr qatida hayot, yanayam to‘g‘rirog‘i adabiyot haqiqati mujassam. Ya’ni asarning asl qiymatini vaqt belgilaydi. Vaqt asarlarni abadiyat kutubxonasi uchun

saralab oladi. Adabiyotshunoslar ham ma'lum ma'noda vaqtning ko'makchilaridir. Ba'zida adabiyotshunoslarni "adabiy bashoratchilar" deb ataging keladi. Sizningcha, zamonaviy o'zbek hikoyalari orasida XXII asrga hech bir to'siqsiz "oshib" o'tadiganlari bormi?

– Aytganingizdek, vaqt degan narsa shu qadar injiq, murakkab va shafqatsizki, u har qanday asarni uning "bashoratchilari" bilan qo'shib tarix sahnasidan supurib tashlashi mumkin. Shuning uchun ham bashorat salohiyati faqat payg'ambarlarga, karomat esa avliyolarga beriladi.

Binobarin, XX asrdan XXI asrga "oshib" o'tgan hikoyalarni ham, hatto XXII asrda muhaqqaq o'qilish ehtimoli bo'lgan asarlarni ham tom ma'noda abadiyat "ro'yxat"iga kirgan asarlar deb bo'lmaydi. Asar o'qilyapti degani ham, uning tom ma'noda yashayotganiga kafolat bo'la olmasligi mumkin. Asl adabiyot vaqt va vaqtdan-da ulkan mezonlarda o'lchanadi. Bu mezon mohiyatini Yusuf xos Hojib, Yassaviy, Navoiylar davrida yaxshi anglashgan. Asl adabiyot kengliklarida biz bilgan mezon tushunchasining o'zi ham mezon sanalmay qoladi. Shuning uchun bu masala talqinida bizning qarichlarimiz judayam maydalik qiladi.

Bugungi hikoyachilik haqidagi real kuzatishlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, bu janrdagi muhim yangilik istioraviylikda ko'rinyapti, deyish mumkin. Bunda voqelik yozuvchi tomonidan o'zining makon-zamon doirasidagi real vazifasidan ajratib olinib, istiora shakli o'laroq qayta modellashtiriladi. Natijada kichik bir hikoya ulkan ma'naviy ahamiyat, salmoqdor umuminsoniy mazmunni ifodalay oladi. Bunday holatning bugungi o'zbek hikoyachiligida ko'rinayotgani quvonarli, ammo tom ma'noda yangilik emas. Negaki, ular bizga Rumiylar va Navoiylar ko'p bor murojaat etgan hikoyatlar – naql-istioralarni

eslatadi(fil, uzum, dengiz haqidagi hikoyatlarni eslang). Nurulloh Muhammad Raufxonning “Etakdagi kulba”, Luqmon Bo‘rixonning “Temir sandiq”, Rahimjon Rahmatning “Adashvoy”, U.Hamdamning “Safar”, I.Sultonning “Suvdagi kosa” hikoyalarida mana shunday jiddiy va xayrli an‘analarning izi ko‘rinadi. Nasrimizning o‘n besh-yigirma yil ichida erishgan jiddiy yutug‘i ham ehtimol shudir. Ammo muammo shundaki, hali bizda qadim istiora maktabi an‘analarining tom ma‘nodagi zamonaviy shakli maydonga kelgani yo‘q. Istioraviylik, shubha tug‘dirmaydigan darajada, zamonaviy hikoyamiz libosiga aylanmagan. Ehtimol, shu jarayon bosib o‘tilsa, yangi o‘zbek hikoyasi ma‘lum badiiyat kengliklari tomon harakatlana olar.

– *O‘zbek hikoyachiligining yangi avlodidan ko‘nglingiz to‘ladimi? Yosh hikoyanavislardan qay biri sizga ma‘qul bo‘lyapti?*

– Agar Nazar Eshonqul, Luqmon Bo‘rixon, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sultonlarni yosh yozuvchilar safidan chiqqan deb hisoblaydigan bo‘lsak, bu safga mansub ijodkor sifatida bir-ikki hikoya yozgan yosh qalamkashnigina ko‘rsatishim mumkin. Illo, sanalgan yozuvchilardan keyin maydonga chiqqan yosh hikoyanavisni ko‘rsata olmayman. Shularning o‘zi ham chamamda ikki toifaga bo‘linadi.

Birinchi toifaga – o‘ta “faol” va adabiyotning alifbosini o‘rganib-o‘rganmay adabiy jarayon maydoniga o‘zini urayotganlar kiradi. O‘zingizga ma‘lum, “sariq matbuot” degan balo bularni qizg‘in tarzda qo‘llab-quvvatlab turibdi. Ammo bu fojiaiy ham, kutilmagan holat ham emas. Bundan qo‘rqmaslik kerak. Vaqt to‘fonining o‘zi ularni sahnadan surib tashlaydi. Badiiy xotira ularni saqlab qolmaydi, balki bir tatib

ko‘rib, axlat chelagiga uloqtiradi. Chiqindi bari bir chiqindi-da, shunday bo‘lgach, undan qanday yangilik kutish mumkin.

Ikkinchi toifani – adabiyotning alifbosini o‘rganishga urinayotganlar, qarib qolishdan qo‘rqmay o‘z ustida ishlayotgan, o‘rganayotgan yosh qalamkashlar tashkil etadi. Balki asl adabiyot uchun eng muhim narsa bu emas, Yaratgan bergan iste’doddir. Ammo o‘rganish, izlanish, anglash uchun ham iste’dod kerak. O‘ylashimcha, adabiyot alifbosini o‘rganish, birinchi navbatda, “kechikkan kashfiyot” (B.Qosimov) sohibining holiga tushmaslik, yangidan amerika ochmaslik, yangi gap aytish uchun zarur. Dunyodagi eng buyuk ijodkorlar ham mana shu bosqichni chin ma’noda bosib o‘tganlardan chiqqan. Adabiyot tarixida bunga misollar juda ko‘p. Juda uzoqqa bormasdan o‘z adabiyotimizdan Navoiyni, rus adabiyotidan Tolstoyni kuzatsak ham savolga o‘rin qolmaydi.

Ochig‘i, mening butun umidim mana shu ikkinchi toifadan. Xotirjam, shon-shuhrat bodiga aldanmasdan, qorin g‘amiga bog‘lanib qolmasdan, katta maqsadlar sari intilayotgan yoshlardan. Bundaylar qatorida bir-ikki nomni sanashim mumkin edi. Ammo keling, shu nomlar sirlicha qola qolsin. Zotan, aytilmagan so‘z, oshkor bo‘lmagan sirning qudrati ulkan bo‘ladi...

Suhbatdosh: Gulnoz Mo‘minova

“Yoshlik” jurnali, 2013 yil, 5-son.

Bugungi kun zamonaviy adabiyotimizda paydo bo‘lgan ko‘plab e’tiborga tushgan asarlar, o‘zbek adabiyotida ham yozuvchilik mas’uliyatini anglagan adiblar borligidan dalolat bermoqda. Ular Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon jasoratining davomchilari bo‘lib ko‘zga

tashlanmoqda. Bu davr adabiyotida Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, N.Norqobilov, S.O'nar, A.Yo'ldoshev kabi bir qator ijodkorlarning turli xarakterdagi hikoyalarini kuzatishimiz mumkin. Biz bu o'rinda ramziylik, majoziylik kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hikoyalarga to'xtalib o'tamiz. Masalan, Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida inson qalbidagi iztiroblar, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar kabi muammolar o'zining badiiy talqinini topgan. Xurshid Do'stmuhammad milliy adabiy an'analarini ham, dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta o'rgangan, doimiy novatorlikka intilgan ijodkor. Adibning o'zi e'tirof etganidek, "Uslub o'zgarmasa, dunyoqarash, hayot murakkabliklarini badiiy idrok va ifoda etish yo'sinlari o'zgarmasa, shu yo'lda turli tajribalarga qo'l urmasa, bunday yozuvchi nafaqat milliy adabiyotda, loaqal o'z ijodida ham biror bir yangilik yaratishi amrimahol". Xurshid Do'stmuhammad asarlarida yaxshilik, insoniylik, komillikka eltuvchi g'oyalar bir so'z bilan aytganda, insonparvarlik deya atalmish bebaho tuyg'ular mujassamlashgan. Bilamizki, adabiy asarlar vaqt, zamon va makon tanlamaydi. Qachonki, kitobxon mutolaa qila boshlasagina asarlar yana yangidan yashay boshlaydi. Adibning ayniqsa, hikoyalarida har bir qahramonning ichki, kechinmalari ko'z oldimizda jonli aks etadi. Hikoyalarini o'qiy boshlagan paytda go'yoki, spektakl aktyorlari ko'z oldingizda yaqqol gavdalanadi. Yozuvchining mahorati shunda, aslida. Har bir yozuvchi alohida bir dunyo. Xurshid Do'stmuhammadning o'zi ham ta'kidlaganidek: -"har bir ijodxona o'zicha bir olam: shakl-shamoyili, ish tartibi, muhiti va hokazolari bilan. Juda ko'p ishlar kayfiyatga bog'liq". Darhaqiqat, har bir yozuvchining o'z ijod

laboratoriyasi bo‘ladi. Ushbu laboratoriyada yangi tug‘ilajak asar uchun asos bo‘ladigan xotira va esdaliklar, yozuvchining qalb tug‘yonlarini ifodalovchi o‘zi boshidan o‘tkazgan hayotiy lavhalar mujassamlashadi. X.Do‘stmuhammad hikoyalarining o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, tarixga hurmat, milliylik ifodasi badiiy talqinda o‘zgacha bir pafos bilan tasvirlanadi. Ko‘p manbalarda qayd qilingan, ta’kidlangan millatga xos bo‘lgan xususiyatlar, ya’ni jamoa bo‘lib yashash ruhining ustunligi; oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining ustunligi; ota-ona, mahalla-ko‘y; umuman, jamoatga yuksak hurmat-e’tiborning kuchliligi; ona tiliga muhabbat; kattaga hurmat va kichikka izzat; ayolga ehtirom; sabr-bardosh va mehnatsevarlik; halollik, mehr-oqibat kuylanadi(Qarang: Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.T.,“O‘zbekiston”, 2000 yil 49-bet). Bu xususiyatlarning barchasi milliy ruhiyatning mahsulidir. Chunki mazkur insoniy fazilatlar inson jismidan emas, tuyg‘usidan kelib chiqadi. Istiqlol davri adabiyotining qahramoni mana shu xususiyatga egadir. To‘g‘rirog‘i, millatning shu xususyatlarini inkishof qilish bilan jahonga tanityapti. Shunday asarlardan biri Xurshid Do‘stmuhammadning “Mahzuna” nomli hikoyasidir. Hikoyada oilani muqadsas sanash, gard yuqtirmaslik ayollik burchi ekanligini anglash, uni ich-ichidan his qilishlikni, shuningdek, Yevropadan kirib kelgan ba’zi bir “madaniy” holatlarni milliy ruhga yot deb bilishlik yorqin badiiy aks ettirilgan. Mahzuna avval ham, turmushga chiqqach ham “zamonaviy ayollar”, ya’ni erkaklar bilan bab-baravar qadah urishtiradigan, ular bilan tap tortmay muomala qiladigan, ovozining boricha kuladiganlar davrasida bo‘lmagan. Bunday holatni u ruhan hech hazm qila olmaydi. Eri Maqsadjon bunday davralarga ko‘p sudragan bo‘lsa-da, bormagan.

Lekin Maqsadjonning bu safar "... yo‘q, hamma xotini, eri bilan keladi, bir o‘zim so‘ppayib borsam, uyat bo‘ladi",- deb turib olgani uchun majbur bo‘ladi. Mehmondorchilikka kelgach, o‘zini juda noqulay sezadi. Ayniqsa, erining rahbari Bo‘ri Sobitovichning ko‘zi butun badanini teshvorganday bo‘ladi. Bu ham yetmagandek ichishga undaydi. Ayniqsa, uning mehmondorchilik tugaganda, dahlizda paltosini kiygizish holati Mahzunani adoyi tamom qiladi. Bu xususida yozuvchi shunday yozadi: " ... Mahzuna chap yelkasida qo‘lansa isni tuydi, paltoni kiyib ulgurmay, ikki kaft ikki yelkasidan qisib ushlaganini, boyagi qo‘lansa is purkayotgan og‘iz yonog‘iga tekkudek yaqinlashib, "qo‘ng‘iroqlashamiz"... deganini eshitdi!... Mahzuna orqasida o‘lim sharpasi qoyadek turgani, u sovuq barmoqlari bilan hademay bo‘g‘a boshlashini oldindan bilganday va taqdirga tan berganday ilkis bo‘shashdi - qo‘l-oyog‘idan mador ketdi, ustidagi palto jonli-yu, a‘zoi badani bejondek boshidan hushi uchdi". Bu holat uyiga kelgach ham uni tark etmadi. Xuddi badaniga shilimshiq narsa yopishgandek o‘zini noqulay sezdi. Vannaga kirib, uzoq yuvindi, "chiroq nurida simobdek yiltirab tushayotgan suvga, oppoq vannaga, oppoq devorga... oppoq badaniga qarashdan uyalib, kaftlarini yuziga bosgancha o‘ksib ho‘ngrab yubordi". Chunki Mahzuna u hirsli nigohdan go‘yo badani nopoklanganday, o‘zini xo‘rlanganday sezgandi. Vannadan chiqqach, ruhi yengillashdi. Lekin "qo‘ng‘iroqlashamiz" degan so‘z uni ta‘qib eta boshladi. Shunda Maqsadjon komandirovkaga ketgach, jiringlagan telefon go‘shagini bir sutka ko‘tarmadi. Va nihoyat, qizchasining "Ada! Adam!" - deb qilgan iltijosidan so‘ng ko‘tarsa, qo‘ng‘iroq qilgan onasi ekan. "Voy, qizim-ey, o‘takam yorildi-ya!!" - degan so‘zidan ho‘ngrab

yubordi. Mahzunaning mehmondorchilikdan so‘ng ichki iztiroblari bevosita kitobxonning jismiga ko‘chadi, tuyg‘ularini junbushga keltiradi, bu hol o‘z navbatida ruhini poklaydi. Oqibatda, shunday ayollar tarbiya topgan avlodning ruhi pok, sog‘lom, e‘tiqodi mustahkam, ma‘naviyatli bo‘lishiga iymon keltiradi.

Adabiyotda ijtimoiy masala deganda ko‘plar faqat siyosatga oid muammolar ko‘tarilgan asarlarni nazarda tutishadi. Aslida, jamiyat, davlat, oila, umummanfaatiga qaratilgan, ularning siyosiy, ma‘naviy, ma‘rifiy, axloqiy, falsafiy qarashlariga xizmat qiladigan, ularning shu ehtiyojlarini qondiradigan asarlar zaminida ijtimoiy masalalar yotgan asarlardir. Bundan ko‘rinadiki, ijtimoiy masala zaminida ko‘p masala o‘z mujassamini topadi. Inson tafakkurining yangilanishida, uning ongiga ma‘lum bir g‘oyani singdirishda hech qaysi soha adabiyotchalik imkoniyatga ega emas.

Shukur Xolmirzayevning so‘nggi yillarda yozilgan “Ozodlik” hikoyasida inson qadrini belgilashda jamiyatning ham muhim o‘rni haqida yozilgan. Ko‘plar avantyuristik harakatni boshlab, abgor holga tusha boshladi. Yozuvchining o‘sha davrda yozilgan “Ozodlik” hikoyasida xuddi shu holat olingan. Hech bir gunohi bo‘lmagan Mansur o‘z davrasidagilardan biri qilgan jinoyat tufayli o‘n yilga kesilib ketadi. Bu ham totalitar tuzumning qiyofasini belgilab beradigan holatlardan biridir. Uning ozodlikka chiqishi, respublikaning mustaqillikka erishgan kunlariga to‘g‘ri keladi. Mansur mustaqillikning samarasini o‘zining hayotida ko‘radi. U otasidan qolgan kulbani epaqaga keltirib, sotdi. Puliga uch-to‘rt sovliq olib qirga ko‘chib chiqdi. Do‘sti, Omonning ko‘magida ikki uy, bir dahliz tikladi. O‘ziga o‘xshagan yetim, g‘aribgina

qizga uylanib, qadini tikladi. Hatto tuzukkina ishga ham ega bo‘ldi, ya’ni “to‘qson chaqirimlik masofadagi kabellarni nazorat qilib yuruvchilik” amaliga erishdi. O‘g‘il ko‘rdi. Qishloq qariyalarini va do‘st-birodarlarini chaqirib, Osh hamda ziyofat berib, elga qo‘shildi. Buning barchasi mustaqillikning sharofatidir. Agar avvalgi davr bo‘lganda, Mansur bularning birontasiga ham erisha olmasdi. Birinchidan, ish topa olmasdi. Chunki qamalib chiqqan odamni hech bir korxonada ishga olmasdi. Ma’lum muddat ichida ishga joylashmagani uchun esa ishsiz deb yana javobgarlikka tortilardi. Ikkinchidan, qirdan uy qilib, mustaqil xo‘jalik yurita olmasdi. Totalitar tuzumda xususiy mulkka ega bo‘lgan shaxs jinoyatchi hisoblanardi. Hikoyada ko‘tarilgan masala bu bilan cheklanmaydi. Yozuvchi Mansur faoliyati orqali avvalgi tuzum va uning odamlari qiyofasini ham inkishof etadi. Tuzumning o‘zi yolg‘on asosga qurilgani uchun uning odamlari ham ikkiyuzlamachi, o‘z e’tiqodiga mustahkam bo‘lmaganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu toifa odamlar, ayniqsa, ziyolilar o‘rtasida bisyor edi. Mustaqillikning mohiyatini Mansur teranroq anglaydi. Chunki ozodlikda yurgan odam ozodlikning qadrini uncha bilmaydi. Mansur qamoqxonada uning qadrini chuqur his etadi. U yana bir narsani, ya’ni maqsadga yetish uchun inson mustaqil harakat qilmog‘i va tadbirli bo‘lmog‘i kerakligini, ana o‘shanda davlati ham mustaqil va taraqqiy etishini ham shuuran, ham qalban anglab yetadi. Shundan o‘zi oyoqqa turgandan keyin boshqalarga ham ilinadi. Mollari tug‘sa, og‘izidan yaqinlariga jo‘natadi. Mansur xatti-harakati ajdodlarimizning axloqini, tutgan ishini yodga soladi. Demak, u o‘z hayot yo‘li bilan o‘zligimizni anglashga qalbimizga darcha ochadi hamda juda katta falsafiy ramziylik bilan nihoyasiga yetadi. Mansur butun vujudidan

mehr qo‘ygan kakligini qafasdan ozod qiladi. Lekin kaklik garchi o‘zi o‘sgan makonda — tog‘ bag‘ri, archazorda qo‘yib yuborilgan bo‘lsa-da, uchib ketmaydi. Qafas atrofida aralashib, u-bu narsani cho‘qilab yuraberadi. Unga ko‘zi tushgan tulki pisib keladi. Tulkini ko‘rgan kaklik undan qochish o‘rniga, unga qarab yuguradi. Chunki hovlida sariq it bo‘lib, undan qochmas edi. Tulkini ham it fahmlab, unga yem bo‘ladi. Demak, mustaqil ish qilishga o‘rganmagan kimsa, mustaqil yashay olmaydi. Sho‘ro davrida shunday edi. Barcha yuqoridan buyurilgan narsani bajarishardi. Mustaqil bir ish qilishga ruxsat yo‘q edi. Shundan mustaqillik qo‘lga tekkach, ko‘pchilik nima qilishini bilmay, gangib, arosatda qoldi. Mansur og‘irlikka chidab, imonini yo‘qotmagani, ozodlikka tashnaligi uchun o‘z yo‘lini topadi. Ezgu xatti-harakati bilan boshqalarning ham ko‘zini ochdi. Hikoyada bu fikr quruq aytilmaydi, voqealar zahiriga singdiriladi. Yozuvchining mahorati ham shundadir. Badiiy adabiyotda milliylik deganda ko‘z adabiyotshunoslar buni urf-odatda, milliy libosda, faoliyatda, sa’y-harakatda, nutqda ko‘rishadi va shu holatlarda o‘z mujassamini topadi, deb bilishadi. To‘g‘ri, bu holatlar milliylikni belgilaydigan omillar hisoblanadi. Lekin mazkur vosita va omillar o‘zida milliylikni to‘liq ifodalaydi, deb bo‘lmaydi. Chunki bular milliylikning zohiriy ko‘rinishlaridir. Ma’lumki, zohiriylik bu shakldir. Shakl esa hech qachon masala mohiyatinn belgilamaydi. U belgilashga xizmat qiladigan vositadir. Milliylik, birinchi navbatda, ruhiyatda o‘z mujassamini topadi. Milliylikni belgilaydigan boshqa xususiyatlarning barchasi unga bog‘liq, undan kelib chiqadi. Ruhiyat esa insonning tabiatini va o‘zligini belgilaydigan ilohiy kuch, ma’naviy oziqdir. Ruhiyati kuchli odam o‘z qiyofasidan, o‘z yo‘lidan, ya’ni to‘g‘ri yo‘ldan

toymaydi, e'tiqodidan voz kechmaydi. Bu borada Qur'oni Karimda shunday deyiladi: "Sendan ruh haqida so'raydilar. Aytgin, ruh - Ollohning ishi, sizlarga faqat ozgina ilm berilgan xolos. ("Al-isro" surasi. 85- oyat), Demak, ruhiyat ilm bilan yo'grilgan, undan ozuqa oladi. Uning inson jismidan, ya'ni tabiatidan joy olishi muhitga bog'liq. Agar qanchalik undan erta bahra olsa, milliy xususiyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bunda onaning, uning allasining o'rni kattadir. Ona allasini eshitmagan, o'z millati muhitida voyaga yetmagan odamda milliy tuyg'u bo'lmasligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Qalbi illatlardan tozalangan kishining ruhi poklanadi. Demak, u hayotda to'g'ri yo'l sari qadam tashlaydi. Odamlarning turli tiynatga ega bo'lishi barchaga ma'lum gap. Lekin bu narsaning bejiz emasligi ko'pchilikka ayon emas. Beruniy bu haqda shunday deydi: "Odam tabiati jihatidan bir-biriga zid a'zolar qo'shilmasidan tarkib topgan murakkab tanaga ega bo'lganligi bois, uning holati o'z xarakteriga ko'ra, xilma-xil va turli-tuman bo'ladi". Shundan dunyodagi har bir inson o'z zohiriy va botiniy dunyosiga ega. Adabiyotning birinchi vazifasi – shuni kashf qilish. Jahon adabiyotida manguqlikka daxldor asarlarda shunday qilingan. Biroq sho'ro davri adabiyotida kishilarni sinflarga, tiplarga ajratib, tiynatlarini bir xillashtirishga harakat qilindiki, albatta, bu jarayon xato edi. Bugun adabiyot o'z o'zaniga tushdi, ya'ni insonning o'zligini inkishof qilish orqali kishini o'zini o'ziga ro'para qilishga e'tibor qilinmoqda. Kishi ko'zguga qaraganda, albatta, biror zohiriy "kamchiligini" tuzatadi, o'ziga o'zi ro'para kelganda esa o'zini botiniy illatlardan xalos etadi. Chunki "Adabiyot — katta yo'lga qo'yilgan ko'zgu" (Stendal). Unda kishining bor borlig'i namoyon bo'ladi. Bugungi adabiyot shunday bo'lyapti. Bu

borada, ayniqsa, hikoyachilik yetakchilik qilyapti. Or-nomus, sha'n, oriyat kabi insoniy fazilatlar insoniyatning azaliy qadriyatlaridandir. Bunday fazilatga ega bo'lganlar jo'mard shaxslar hisoblangan. Bularning loyi toza tuproqdan qorilgan bo'ladi. Bekorga "Avesto" kitobida pok zamin "go'zal va pokiza qizga" qiyos qilinmagan. Normurod Norqobilovning "Oriyat" hikoyasi qahramoni Husan polvon shunday shaxsdir. U faqat o'zining, oilasining sha'nini o'ylamaydi, balki qishlog'i va uning or-nomusini o'ylaydi, o'zini unga javobgar hisoblaydi, qishloq sha'niga gard yuqtirmaslikni insoniy burch deb biladi. Xolposh kampirning shaharga o'qishga ketgan qizi haqida yomon gap oralab qoldi. Nimamish, qiz yomon yo'lga kirib ketibdi. Bu gapni eshitgan Husan polvonning butun dunyosi qorong'i bo'ldi. Bu borada yozuvchi yozadi: "Eshitdi-yu, lekin gurungga qo'shilmadi. Qishlog'iga hasrat va nadomat ila tikilgancha yonbosh tushib yotaverdi. Zohiran u juda sokin edi. Ichida esa olov qaynardi. " Qishloqni badnom qipti! Uni to'shiga tortgan har bir naqs biz to'daqayrag'ochliklarning ustidan irshanglab kuladi endi! O'libmiz hammamiz! Xayolan u qizga qarshi "urush" e'lon qildi. Bir o'yi, qizni tilkalab tashladi. Ana shunda oila va farzand degani oriyatli yigit uchun tushov ekanini angladi. Anglashi barobar, o'zini ojiz va jirkanch bir maxluq o'rnida his etdi. Qavatida o'tirib, bizam borib bir mazasini totib ko'rsak yomon bo'lmasdi, deya hirlinglagan yaqin jo'rasining quloq-chakkasiga tarsaki tortib yuborganini bilmay qoldi". Ma'lumki, jo'mard odamning o'yi bilan amaliyoti bir bo'ladi. Husan polvon ham faqat o'ylash bilan cheklanmaydi, shaharga kelib, qizni topadi. Haqiqat oydin bo'lgach, masalani ko'ndalang qo'yadi. Ya'ni "Unda menga xotin bo'lasan, - dedi qat'iy ohangda. Seni bugun yo

chavaqlab ketishim kerak, yo qaro qismatingga sherik bo‘lib, nomingni oqlab olishim lozim! Emasam, qishloqning sho‘ri quriydi! Ko‘ringan it ustimizdan irshanglab kuladi! E-e, kulyaptiyam!” Husan polvonning tutgan ishi yangilik emas. Qadimda ajdodlarimizning aksariyati shunday bo‘lishgan. Ular noto‘g‘ri qadam bosganlarning munosib jazosini berishgan. Shundan oriyat, sha’n degan narsa kuchli bo‘lgan, oqibatda o‘rtada iymon, e’tiqod, diyonat ko‘tarilmagan. Bu faoliyat o‘ziga xos tarbiya hisoblangan. Bundan ko‘rinadiki, qadimda insoniy komillik bilim, ma’naviyat orqali emas, a’moli bilan ham belgilangan. Demak, bugungi kun adabiyotining qahramoni tiynatida ajdodlarimizga xos bo‘lgan insoniy xususiyatlar o‘z ifodasini topmoqda. Jo‘mardlikni ma’naviyatdan aslo ajratib bo‘lmaydi. Ma’naviy komil odam haqiqiy jo‘mard bo‘ladi. Bekorga ma’naviyatga inson botinidagi ilohiy nur deyilmaydi. Chunki vijdoni uyg‘oq, agar aniqroq aytsak, Olloh yuqtirgan banda bunga muyassar bo‘ladi. Normurod Norqobilovning “Quyosh tutilgan kun” hikoyasi qahramoni Sobir polvon - shunday shaxs. U haqida yozuvchi shunday yozadi: “Davra yuzini ko‘ra boshlagandan beri, u yigitlarni ikki toifaga ajratishni odat qilgandi. Derdiki, - yigit bor - ul, yigit bor- to‘l. “To‘l”-shunchaki, “ul”, ya’ni “o‘gil” esa el g‘amida yuradigan asl yigit”. Hikoya davomida bu narsa isbotlanadi, bayonda emas, tasvirda, gap-so‘zda emas, faoliyatda, hayajonga soluvchi amalda. Hikoya qahramoni Sobir polvon olam va odamni keng idrok etadi, go‘zallikning mohiyatini tuyadi, shunga yarasha, tuyg‘ulari ham nozik, mulohazakor shaxs. Shundan qizni himoya qilishi bir qadar ishonarli va ta’sirli. Haqiqiy “ul”ga xos, o‘zganing dilini og‘ritish hisobiga emas (Husan polvon bola-chaqali, guldek xotini bor edi). Qizni himoya qilish,

dastlab, shunchaki, erkaklikning namoyoni bo'lsa, Boborayim govning nomardlarcha tutgan ishi va odamlarning to'qigan gapidan so'ng sha'n, begunoh, ko'ngli g'arib bir kimsaning himoyachisiga aylanadi. Insonning bunga bel bog'lashi katta gap, chunki bunday a'mol insoniy komillikdan dalolatdir. U tabiatdan shunchaki manzara yaratmaydi, undan mohiyat qidiradi, kishi diqqatini unga jalb qiladi. Hikoyada quyosh, uning tutilishi ko'p tilga olinadi. Birinchi marta qizni tutzordan quvib chiqqan Boborayimga duch kelib, uning dag'dag'asidan so'ng olishib, cho'ziltirgan. Bu borada yozuvchi yozadi: "Yorug'lik istab, tevarakka, so'ng ko'kka tikildi. Quyoshning yuzi kir, quyuq chang buluti orasidan yiltillab arang chalinardi. Olam shu holatda qoladigandek, yigitning yuragi uvishdi". Ma'lumki, quyoshsiz dunyo olamning bo'lsa, qalb quyoshsiz-ma'naviyatsizlik insoniyatning tanazzulidir. Bu gap – haqiqat. Agar odamlar haqiqatning oydin yo'lini ko'rsatuvchi qadimgi qadriyatlardan bahramand bo'lishganda, barg to'la qop orqalagan tog'ani tutzordan juvon bilan boshlashib chiqqanini ko'rgan qishloq kampirlaridan biri "Falonchilarni zino ustida ko'rdim. Kuppa kunduzi-ya! Odamlarda na sharm qopti, na hayo..." - deb jar solmasdi. Chunki "Qur'oni karim"ning "Nur" surasida "Pokiza ayollarni (zinokor deb) badnom qilib, so'ngra (bu da'volariga) to'rtta guvoh keltira olmagan kimsalarni - ularni sakson darra uringlar va hech ularning guvohliklarini qabul qilmanglar! Ular fosiq-itoatsiz kimsalardir", - deyiladi. Bunga amal qilmagan kishilarni Alloh o'z nuridan ham bebahra qiladi. Nursizlik esa inson umri qisqaruvidir. Kishilar o'rtasida fosiqlikning ko'payishi shunga olib keladi. Yozuvchining quyoshni ko'p tilga olishining sababi shundadir. Hikoya shunday yakun topadi: "Bu lahzada quyosh to'la

bekinib, olam xira tortgan”. Bu Sobir polvon Boborayim tomonidan nomardlarcha pichoqlangandan keyingi tasvirdir. Demak, nurli qalb sohiblari - Sobir polvon kabilarning mahv qilinishidan tabiat-yaratgan ham iztirobda. Chunki bunda nurli olamdan ko‘ra, fosiqlik olami taraqqiy topadi. Hikoyaning ijtimoiy salmog‘i va ahamiyati shundadir. Insonning qalbi turmush tashvishlaridan emas, oqibatsizlik, nopisandlikdan ozor topadi. Insonning qadr-qimmatini e‘zozlash uning komilligidan dalolatdir.

Adabiyotshunos U. Normatov qayd qilganidek: “So‘nggi yillardagi bizdagi adabiy jarayonga xos eng muhim xususiyatlardan biri shundaki, adabiyotimiz xilma xil bo‘lib boryapti... bizda ham falsafiy asosi jihatidan xilma xil yo‘nalishga mansub asarlar paydo bo‘la boshladi”. Har bir davr o‘zining yangi qarashlari va tamoyillarini yuzaga keltirishi tabiiy hol. Modern ruhidagi asarlarning yuzaga kelishi va birmuncha jonlanishi shuning mahsulidir. To‘g‘ri, modernizm umuman olganda, adabiyotda yangi yo‘nalish emas. U g‘arb adabiyotida allaqachondan beri mavjud. Lekin u o‘zbek adabiyotida yangi tamoyildir. Bizning adabiyotga uning kech kirib kelishining obyektiv va subyektiv sabablari bor. Obyektiv sababi shundaki, modern ruhidagi asarlar zamirida kuchli g‘ayritabiiy psixologik holat yotishi bilan birga, ramziy voqea-hodisa tasvirida, ramziy manzaralarda g‘ayritabiiy olam ifodasida o‘zi yashab turgan jamiyat illatlarini kuchli tanqid ostiga olishi va fosh qilish xarakteri mavjudligi, shuningdek, uning yuzaga kelish va urchishiga sababchi shaxslarning qiyofasini shafqatsiz ochib tashlash xususiyatiga egaligi. Ma’lumki, totalitar jamiyat bunga yo‘l qo‘ymasdi. Subyektiv sabab esa, modernizmning xususiyatini, uning yo‘nalishi va mohiyatini

o‘zlashtirgan ijodkorning yetishib chiqmaganligi. Bizning adabiyotda modernizm mustaqillik arafasida shakllana boshladi. Bugungi nasrdagi yangi jarayonlar, ma’naviy, shakliy-uslubiy izlanishlar ko‘proq Nazar Eshonqul hikoyalarida o‘ziga xos tarzda aks etmoqdaki, u yozuvchi ta’kidlaganidek, o‘tmish ajdodlarimiz yaratgan qadimiy adabiyotdan kuch olayotgan bo‘lsa, ajab emas. Nasrda modernizm yo‘lini boshlab bergan va eng ko‘p asarlar yozgan Nazar Eshonquldir. Uning bu boradagi hikoyalaridan birinchisi “Maymun yetaklagan odam”dir. U mustaqillikdan bir oz oldin, 1989 yilda yozilgan. Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi ramzlar orqali murakkab hayotning turfa xil qirralarini o‘ziga xos talqin etadi. Mazkur asar zamondosh, asrdosh obrazini yaratish yo‘lidagi yetmish yillik tajribalarning muayyan intihosi va ayni zamonda yangi bosqichning boshlanishi bo‘ldi, deya adabiyotshunoslarimiz tomonidan yuqori baholangan edi. Adabiyotshunos U. Normatov qayd qilganidek: “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi paydo bo‘lgan, unda asrda tengdosh umri asrning alg‘ov – dalg‘ovlari, bema’ni maqsadlar yo‘lida o‘tgan, adashgan odamning fojeaviy qismati betakror tarzda ifoda etgan”. Asarda rassom chol obrazi orqali umrning asosiy qismini jamiyat taraqqiyoti uchun baxshida etgan shaxslarning fojeaviy qismatini talqin etadi butun hayoti davomida e’tiqod qo‘ygan jamiyatning parokandalikka yuz tutishi haqqoniy yoritgan. Umrning so‘nggi damlarida butun e’tiqodi sarobga aylangan shaxsninig ayanchli qismati asosli talqin etiladi. Rassom ma’lum bir davrda maxsus sohalarda xizmat qilgan, ammo davrlar o‘tishi bilan besamar o‘tgan hayotiga achinish bilan qaraydi. Bu faqat bir shaxs fojeasi emas, jamiyat fojealarini o‘zida umumlashtirgan

timsoldir. U o‘zligini anglashga intilgan bir davrda taqdir uni beshavqat jazolaydi. U chizgan sur’atlarda ham ijtimoiy muhitning og‘ir va ayanchli fojealari mujassamlashgan edi. “Cholning ko‘zlari hissiz va ifodasiz, uni ko‘rgan odamning yuragi g‘ash tortadi, ko‘ngli behuzur bo‘ladi, kayfiyati buziladi. Yashab turgan uyidan faqat chirkin va shaltoq is anqiydi. Hikoyada ruhiy holatni kuchaytiruvchi timsollar ko‘p, ularning hech biri bevaj ishlatilmaydi, balki muallif ko‘zda tutgan bosh maqsad – rassom chol fojeasini chuqurroq va bo‘rttiribroq ifoda etishga xizmat qiladi. Badiiy ishora va timsollarga e’tibor qaratilsa, chol qismatida yetmish yillik sho‘ro mafkurasi, e’tiqodining ayanchli qismati mujassam topgani ko‘rinadi”. Hikoyada norg‘ul va baquvvat bir yigitning quyuq o‘rmonzordan qalin bir zanjirda maymunni yetaklab chiqayotgani tasvirlangan bo‘lsa, asarning ma’lum bir nuqtasiga borganda kekxa, mung‘ayib qolgan cholni maymun yetaklab o‘rmon sari ketayotgan tasviri inson umrining ifodasi yoki ma’lum bir jamiyat taraqqiyotiga butun kuch - quvvatini sarflagan inson qismati o‘z aksini topgan. Asar talaba yigit tilidan bayon etilgan bo‘lib, rassom cholning og‘ir hayotini ko‘z o‘ngimizda gavdalantiradi: “Eski uslubda qurilgan, tor tabaqali eshikdan ichkariga kirdim: chol katta ayvonda savat kursida o‘tirgancha oldidagi suratromga egilib olgandi. Cholning uyi hashamatli, keng, lekin tashlab ketilgan maydonday huvillab yotardi. Ustin va romlar chirigan, umuman hovildan chirkin va badbo‘y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog‘ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid axlat solinadigan unduqdan kelardi. Hiddan ko‘nglim ayniganday bo‘lib chol o‘tirgan ayvonga yo‘l

oldim”. Bu tasvirlardan cholning og‘ir hayoti bilan bir qatorda, e‘tiborsizligi, o‘z iztiroblari iskanjasida hayot kechirayotganligi ko‘rinadi. Ammo uy ustunlarning chirishi ramziy ma’noda bo‘lib, o‘sha davr muhiti, yoki jamiyatning o‘zgarishi haqidagi turfa xil qarashlarni ilgari surishga imkon beradi. Uning aksariyat rasmlarida qora rang yetakchilik qilar, buning sababini esa anglab yetolmasdi. Rassom chol dunyo san’atidan xabardor, xuddi uzoq yillar ijod bilan shug‘ullangandek taassurot uyg‘otadi: “Ayvon uzun bo‘lib, suratlar chizilgan yillariga qarab ko‘rgazmaga qo‘yilgandek terib qo‘yilgan, to‘g‘rirog‘i, bor-yo‘g‘i qirqqa yaqin surat va eskizlar “1957”, “1937”, “1928”, “1926” va hakazo tartibda terib qo‘yilgan edi”. Suratlarni ramziy ma’noda nomlanishni o‘zidayoq rassom cholning hayoti, umr lahzalarining ma’lum bir davri mujassamlashgandek taassurot uyg‘otadi. Bu asar ham istiqlol arafasida yaratilgan bo‘lsa-da, badiiyatimizdagi ilk o‘zgarishlarni bu hikoya misolida isbotlash mumkin. Ta’kidlash joizki, mahoratning qanchalik yuksakligini yozuvchi – uslubi ham belgilab beradi. Ijodkorning “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Maymun yetaklagan odam”, “Xayol tuzog‘i”, “Tobut”, “To‘zon”, “Og‘riq lazzati” kabi hikoyalarini har jihatdan ilmiy-estetik tahlil va tadqiq qilish, ular orqali o‘zbek hikoyachiligida g‘arb modern adabiyotiga xos xususiyatlarning shakllanishi va o‘ziga munosib o‘rin egallash jarayonini o‘rganish mumkin. Yozuvchi asarlaridagi qahramonlarga xos milliylik, voqealarning sirli tarzda vositalar orqali, ba’zan sahna ortida imo-ishoralar bilan ko‘rsatilishi, eng asosiysi, asarlaridagi voqealar “men” tilidan hikoya qilinishi va doimo o‘zini-o‘zi taftish-u tahlil etib borishi, o‘z gunohlariga iqrorligi adabiyotdagi, nainki milliy mustaqillik davri

o‘zbek hikoyachiligi, balki butunicha nasrimizdagi yangicha uslubiy yo‘nalish sifatida o‘rganishga sazovordir. Bu xususta yozuvchi Nazar Eshonqulning o‘zi shunday fikr bildiradi: “Adabiyot hech qachon yakka holda taraqqiy etgan emas. Bir insonni fikridan qaytarish yoki o‘z haqiqati bo‘lgan shaxsning qarashlarini o‘zgartirish oson emas. Chunki inson o‘z maslagidan voz kechishi, bosib o‘tgan yo‘lini, yashash tarzini inkor etishi, men adashibman, deya osongina tan olishi hazilakam gap emas. Bu qalb va iroda bilan kechadigan jarayon. Axir, umr davomida singdirilgan mafkurani yangilashning o‘zi bo‘lmaydi-da! Jahon adabiyoti dunyodagi yuzlab xalqlarning adabiyoti, shu jumladan bizning ham. U bizga begona adabiyot emas. Shuning uchun jahon adabiyoti tushunchasiga cho‘chib, xavotirlanib qarash noo‘rin. An’analar adabiyotdan adabiyotga o‘tadi. Kimda nimaga ehtiyoj bo‘lsa, o‘shani oladi. Men ham o‘z ehtiyojimga yarasha olganman. Kimga kerak bo‘lsa bizdan oladi. Men ta’sirni juda oddiy tushunaman, shu sababli cho‘chimayman. “Boshqacha yozish” agar o‘ziga xos yozish bo‘lsa, bu muqarrar hodisa. Agar u chiranish, oliftachilik bo‘lsa, u hech narsa, hatto taqlid ham emas. Taqlid ham taqlid qilinayotgan narsaga mos bo‘lishi kerak. Bo‘lmasa u karnay bo‘laman deb chirangan surnayning holiga tushadi. Gap taqlid yoki ta’sirda emas: gap iste’dodda. Yozilgan asarda iste’dod seziladimi, yo‘qmi? Agar sezilsa, xavotir noo‘rin. U baribir ta’sir doirasini yorib chiqadi”. Yozuvchining bir qator hikoyalari, jumladan, “Xayol tuzog‘i”, “To‘zon”, “Lazzat ortida qolgan yurak”, “Zulmat saltanatiga sayohat” hikoyalari an’anaviy asarlar singari bir kishi taqdiri tafsilotlari tavsifidan iborat emas. Ular mislsiz azobda o‘rtanayotgan bor bisotidan, o‘zligidan ajralgan dunyoga qo‘l siltagan inson ichki

olamining soʻzda chizilgan suratiday boʻlib koʻrinadi. Bu surat buyuk rassomlar asarlari singari qabariq va taʼsirchandır. Undan oʻz xotiralarini yengolgan, taqdir soʻqmoqlarida adashgan alamzada odam soʻzlab turganday koʻrinadi. Bu qahramonlar oʻzini-oʻzi inkor qilgan gʻalayonlarning moʻjaz umumlashmasi sanaladi. “Qora kitob” qissasida oʻz “men”ini taftish qilayotgan qahramon oʻziga-oʻzi “...meni hech kim oʻzimdek sud qilolmaydi. Jazo nima u?” degan savol qoʻyadi va “Shunchaki rasmiy marosim. Aslida eng oliy jazoni koʻngilning oʻzi chiqaradi”, deydi. Haqiqatan ham inson oʻz qilgan aybini, xatosini qalbining tub-tubidan anglab yetsa, unda insonga sud tomonidan berilgan jazoning vijdon oldidagi jazodan oʻn chandon, yuz chandon yengil ekanligini his etadi. Bu jihatni ochishda, hayotning, zamonning turfa oʻyinlari, insonning qilmishlari toʻgʻrisida fikr yuritgan mazkur asarlar katta ahamiyat kasb etadi. “Xaroba shahar surati” hikoyasi ham yozuvchining mahorati, isteʼdodidan darak beradi. Parishon yigitning oʻy-xayollari, fikrlari, ichki kechinmalari, oʻzligini anglash yoʻlidagi mashaqqatlari bayon etilgan mazkur hikoya insoniyat ong-shuurining naqadar qotib qolganligi, uning yozuvchi Ch.Aytmatov “Asrga tatigulik kun” asari qahramoni Joʻlomon kabi manqurtga aylanib ulgurmaganini xaroba shahar surati orqali badiiy timsollar bilan ochib bergan. Yozuvchi asardagi shahar nomini Tursoriya deb ataydi va uning vayron boʻlishdan avvalgi goʻzalligini odamlarga uqtirishga, uni qaytadan qurishga chaqiradi. Beparvolik va loqaydlik inson tanazzuli. Uning tuygʻularsiz yashashi, kimligini va nima uchun bu dunyoga kelganligini anglamaslik, misoli hayvondek faqat qorin gʻamini, oʻz tinchini oʻylashi insoniylikdan yiroqlashish degani. “Xaroba shahar surati” hikoyasi insoniyatning oʻsha

tanazzuliga, zulmatga singish jarayonini ko'rsatganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ko'p yillar aldov odamzotni shunday ko'yg'a soldi. Uni jirkanch maxluqdan ajratib bo'lmas holda tarbiya qildi. Natijada inson "Xayol tuzog'i" hikoyasidagi kabi odamkushlikka ruju qo'ydi. Yonida har kun bir-birini chopish maqsadida bolta olib yurar holga tushdi. Bu uning kasbiga aylanib bordi. O'tmaydigan davrning o'zi yo'q. Badiiy tafakkur ham shu. U tinimsiz o'zgaradi, o'zgargani sayin badiiy tasvir imkoniyatlari kengayadi, torayadi, tinch turmaydi. Shu tariqa har qanday milliy badiiy tafakkur biridan keyingisiga o'tuvchi bosqichlar evolyutsiyasidan tashkil topa boradi. Ana shu tadrijiy davomiylik ilg'ab olinsa, milliy-badiiy tafakkurning yaxlit bir jarayon ekanligini tasavvur etish oson ko'rinadi. Mazkur yaxlit jarayon ichidagi badiiy tafakkur evolyutsiyasi bosqichlarini aniqlash uchun esa qo'llanilayotgan badiiy tasvir vositalari tadrijini o'rganishga to'g'ri keladi. Chunki ijodkor shaxs dunyoni, insonni qanday idrok etsa, shunga yarasha badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi, yangilarini kashf etadi. Yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalarida esa bu ko'rinish o'ziga xos tarzda bo'y-bast ko'rsatib borayotir. "Uyg'onish badiiyati insonni jo'n va yuzaki tushunishdan, uni bir yoqlama talqin etishdan voz kechdi, – deb yozadi filologiya fanlari nomzodi Xurshid Do'stmuhammad, – o'zbek hikoyachiligida bu o'ziga xoslik nasihatbozlikdan qutulishda o'z ifodasini topdi. Qahramonlarning ijobiy yoki salbiyligini belgilovchi mezonlar o'zgardi. Qahramon shaxsi, ruhiy olami, shuuri tasviriga moyillikning kuchayishi hikoyaning syujet qurilishini, tasvir maromini, konfliktlar tabiatini yangiladi". Darhaqiqat, adib ta'kidlaganidek, inson ruhiy holatini taftish etuvchi, uning o'zligini, "men"ini kashf etishga

qaratilgan modern adabiyoti Sharqning ulkan tafakkur qudrati bilan yaratilgan. Bu borada yozuvchi Nazar Eshonqul fikr bildirar ekan, xalqimizning qadimiy ijod namunalarini yuqori baholab: “Turkiy xalqlar asotir va eposining ta’sir ko‘lami shu darajada kengki, biz hatto buni tasavvur ham qilolmaymiz. Agar biz ana shu merosni o‘zlashtira olsak, g‘arb adabiyoti nimadan “ozuqlangan”ini ham, chinakam ma’nodagi adabiyot o‘zi nimadan iborat ekanligini ham tezda tushunib yetamiz”. Nazar Eshonqul asarlarini o‘qib turib yozuvchi ijodidagi ko‘zga tashlanadigan jihatlar asosan xalq mifologiyasi asosida, uning o‘zagidan ruh olib yaratilganligiga amin bo‘lasan. “Shamolni tutib bo‘lmaydi”dagi Bayna momodek matonatli insonlar, “Xaroba shahar surati”dagi parishon yigit, o‘z tanazzulini sezmagan saylovga nomzodi qo‘yilgan shoir, unga qarama-qarshi tarzda o‘z mag‘lubiyatini seza turib, bunga ko‘nikkan professor, “Xayol tuzog‘i”dagi aldov va maqsadsizlik ustiga qurilgan bu dunyodan voz kechgan Voqif, inson miyasini taomiga aylantirgan “To‘zon”dagi maxluqlarga urush ochib, o‘zi ham uning domiga tushgan yozuvchi yigit, “Lazzat ortida qolgan yurak”dagi kabi yo‘qlik va noma’lumlik, puch g‘oyalarga berilgan talabalarning o‘y-xayollari, orzu-armonlari, kechinmalari, his-tuyg‘ulari aks etgan bir qator hikoyalar dunyoga keldiki, ular Xurshid Do‘stmuhammadning ta’biri bilan aytganda bugungi “uyg‘onish badiyatining” nodir namunalari sirasiga kiradi. “Har bir millat o‘z uyg‘onish davrini o‘ziga xos yo‘sinda boshdan kechirgan” deb yozadi taniqli badiyatshunos faylasuf A.Losev va uyg‘onish badiyatining bosh alomatlaridan biri qadimgi qadriyatlarga tashnalikning kuchayishi ekanini ta’kidlaydi. Insoniyat tarixidagi eng ko‘hna qadriyatlar tabiat qonunlariga uyg‘unlashib ketishi bilan

farqlanadi. Bu ulkan haqiqat Nazar Eshonqul hikoyalarida o'ziga xos tarzda o'z talqinini topdi. Ayniqsa, o'zbek xalqi tabiatidagi eng qadimiy va eng tabiiy tuyg'u kindik qoni to'kilgan ona zaminga muhabbat tuyg'usi hisoblanadi. Nazar Eshonquling "Ozod qushlar", "Maymun yetaklagan odam", "Tobut", "Xayol tuzog'i" kabi ko'plab hikoyalarida ozod vatanning ozod sohibi obrazlari turkumi yaratildi. Nazar Eshonqul hikoyalarida dunyoni, insonni qayta nazardan o'tkazar ekan, shaxs ehtiyojlari va manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Har qanday qadriyat shaxs manfaati nutqayi nazaridan baholanadi. Bunday hollarda insonning, shaxsning eng nozik, eng bokira kechinmalari ham tarixiy hodisa ahamiyatiga teng ko'rinadi. Zero, dunyoni va insonni qayta tahlil etishga kirishgan lirik qahramon inson shuuri va qalbidagi eng xususiy hilqatlarga ham tap tortmay kirib boraveradi. Bu eng erka tuyg'u va istaklarni oshkora qilish joizmi? Yo nojoiz deb ikkilanmaydi, balki nima mavjud ekan, hammasini ko'rsatishga harakat qiladi. Ya'ni mavjudmi, bas, ular rad etilmaydi. Balki badiiy mushohada, mulohaza mavzuyiga aylantiriladi. Ba'zi bir yozuvchilar ijodida chuqur ruhiy tahlilga moyillik ustuvorlik qilsa, ba'zilarida sodda, jo'ngina dialoglarga ma'no yuklashga ustamon bo'ladi, ba'zilar har ikkisini barovar rivojlantirib boradi. Bunday deyishimizga sabab shuki, ijodkorlarning badiiy izlanishlarida hayotni oddiy kuzatishdan boshlab to murakkablik tomon harakatlanishi kundalik turmushimizda tez-tez uchrab turadigan insoniy fazilatlar, maishiy muammolarning tomir yoyish sabablarini butun murakkabligicha ochib berishida qabarib ko'rinadi.

Tekshirish savollari:

1. Milliylik va uning mohiyati nima?
2. Milliy xarakter qanday shaxs?
3. Modern ruhidagi hikoyalarning yuzaga kelishida qanday omillar rol o'ynagan?
4. Modern ruhidagi hikoyalar qanday xususiyatga ega?
5. Totalitar tuzumda modern ruhidagi asarlarning keng quloch yozmaganligiga asosiy sabab nima?
6. “Maymun yetaklagan odam” hikoyasida davr qanday o'z ifodasini topgan? Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов, Ҳакимжон. Истиклол - бахтим, саодатим...: дарслик /. — Т.: Yangi nashr, 2010. — 364 б.
2. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. —Т.: «O'zbekiston», 20-bet. to'plami. - Т., 2005
3. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. — М.: Просвещение, 1988. — С.176.
4. Ғойибов Н. Санъат тараққиётининг баъзи масалалари. Тошкент, Адабиёт ва санъат. 1970, 108-б.

7-MAVZU: ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK QISSALARIGA XOS QAHRAMON YARATISH TAMOIYILLARI

Reja:

1. Istiqlol davri qissachilik taraqqiyotining yetakchi tendensiyalari.
2. Ijtimoiy muammolar va milliy qadriyatlar aks etgan qissalar.
3. Mutelik ruhiyatining salbiy oqibatlari ochib berilgan qissalar.
4. Milliy-ozodlik kurashchilari faoliyati va obrazlari yangicha tahlil qilingan qissalar.
5. Ma’naviy-axloqiy muammolar va inson illatlarining kelib chiqish asoslari teran tahlil qilingan qissalar.

Istiqlol davri o‘zbek qissalaridagi rang-barang uslubiy yangilanishlar, izlanishlar bugungi ijtimoiy hayot, odamlarning adabiyotni his va idrok qilish qobiliyatlari oshganligini, o‘zgarganligini ko‘rsatadi. Insonlarning yashash tarzi yangilanganligi, jamiyatning mavjud qoliplari yangilganganligi adabiyotimizning boshqa tur va janrlaridagi singari qissachiligimizga ham ta’sir etdi. Yozuvchilarimiz hayot haqiqatini bor bo‘yu basti, butun murakkabiligi bilan ko‘rsatishga intildilar. Natijada qissachiligimizda ijodiy tafakkurning yangicha bosqichga ko‘tarilish jarayoni yuz berdi. Davr adabiyoti badiiy san’atning o‘lmas namunalari hisobiga hozirgacha boyishi davom etmoqda. Ayniqsa, o‘zbek qissachiligida yosh avlod tarbiyasirni, inson qalbini poklanishga da’vat etuvchi didaktika mujassamligi e’tiborga loyiqdir.

Qissa odatda, bir va bir necha shaxslar taqdiriga oid turli voqealarni o‘ziga asos qilib olishi bilan epik turning hikoya, hajmi va mazmunining nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissaning hayot

murakkabliklarini hikoyaga nisbatan kengroq, xarakter hamda voqelik ko‘lamini romanga qaraganda kamroq qamrab oladi. Qissada u yoki bu shaxs hayotining ma’lum bir davri xronikali tarzda bayon qilinadi. Qissada lirizm hikoya va romandagidan kuchliroq bo‘lishi mumkin. G‘arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida povest termini orqali ifodalanadi. Rus va o‘zbek adabiyotlarida qissaning hozirgi va qadimgi ma’nolari o‘rtasida farqlar bor. Masalan, qadimgi rus adabiyotida har qanday nasriy asar povest deb atalgan. O‘zbek adabiyoti tarixida rivoyat usulida nasr yoki nazmda yozilgan tarixiy-afsonaviy asarlar qissa deb yuritilgan. Masalan, ”Qissai Sayfulmuluk”, “Qisasi Rabg‘uziy” va boshqalar hozirgi ma’nodagi “qissa” terminiga to‘g‘ri keladi va asosan, roman bilan hikoya oralig‘idagi o‘rtacha hajmli nasriy janrni ifodalaydi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov qissa terminiga shunday ta’rif beradi: “Qissa -xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan voqeaband xarakterdagi qahramon hayoti va sarguzashtlarini hikoya qiluvchi rivoyaviy asar. Qissalar og‘zaki ijro qilingan folklorning boshqa janrlari kabi variantlilik xususiyatiga ega bo‘lgan”. [1.146]

Roman kabi qissaning ham avtobiografik (Oybek “Bolalik”, A.Qahhor “O‘tmishdan ertaklar”), lirik (Mirkarim Osim “Surat”,) tarixiy (Y.Ilyosov “Sukunat minorasi”), fantastik (Sa’dullo Quronov “Galaktikada bir kun”) turlari bor. Hozirda qissa nasrning eng faol janrlaridan bo‘lib, unda yosh yozuvchilar ham samarali ijod qilmoqdalar. O‘zbek qissachiligida tarixiy, zamonaviy, mavzularda modern, detektiv, hajviy yo‘nalishlarda qissalar yaratila boshladi. Qissachilikning yangicha taraqqiyot tamoyillari to‘g‘risida kengroq to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalo, yosh avlod kelajagi, uning olamga munosabati, ezgu maqsadlarga

intilish, unda insoniylik, fidoiylilik, yurtparvarlik, mehr-oqibat kabi sifatlarning takomillashuvida badiiy adabiyotning hamda g'oyalarning roli katta. Istiqlool davri qissachiligida insonning ma'naviy tarbiyasi masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi. Ma'naviy barkamol shaxs tarbiyasi muammolari bugungi o'zbek qissachiligining bosh masalasiga aylangan. O'tgan asrning 80-90- yillalridan o'zbek qissachiligi ham shaklan, ham mazmunan yangilandi. O'.Hoshimov qissa janriga badiiylilik va chuqur lirizm masalalarini olib kirgan bo'lsa, E.A'zam bilan M.M.Do'stlar yangi qahramon konsepsiyasini olib kirish bilan yuqori bosqichga ko'tardilar. O'zbek qissachiligida lirizmning rvojida T.Murodning xizmati beqiyosdir. T.Murod yozmaydi go'yo kuylaydi.

Qissa ham romanlar singari quyidagi turlarda yoziladi:

- 1.Avtobiografik (M.Muhammadjonov, S.Ayniy, Oybek, N.Safarov, I.Rahim).
- 2.Biografik (G'.G'ulom, A.Qahhor, H.G'ulom).
- 3.Tarixiy (M.Osim, J.Ilyosov, Mirmuxsin, X.Sultonov).
4. Fantastik (T.Malik, H.Islom shayx, M.Mahmudov)
5. Axloqiy (X.Do'stmuhammad, A.Yo'ldosh, N.Jaloliddin).
- 6.Hujjatli qissalar.

Mustaqillik yillari G'arbiy Yevropa ta'sirida yangicha qissalar yaratildi. N.Eshonqulning "Urush odamlari", "Tun panjaralari", "Qora kitob", U.Hamdamning "Yolg'izlik", T.Jo'rayevning "Yiqilgan oy" qissalari shular jumlasidandir. Ozodlik uchun kurashgan vatanparvar otabobolarimizning "bosmachi" deb atalishiga ham birinchi bo'lib badiiy adabiyot, xususan, qissa janri munosabat bildirdi. M.Mahmudovning "Bog'dan tashqari", M.Alining "Ko'k to'nlilar", T.Malikning "So'ngi

o‘q”, “Chorrahada qolgan odamlar” nomli qissalari o‘sha davr kishilari faoliyatini haqqoniy yoritadi.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri o‘zbek adabiyotida badiiy tasvir, uslub, obrazlar talqini kabilar borasida o‘ziga xos, yangicha izlanishlar yo‘lidan borildi. Sharq allomalarining fikriga ko‘ra, inson a‘moli bilan go‘zal. Yaxshi a‘molning natijasi esa ezgulikdir. Kishi ezgulik tufayli baxt-saodatga erishadi. Kishi jismonan kamchilikdan emas, noinsoniy xatti-harakatidan xijolat tortmog‘i kerak. Qur’oni karimning “Hujurot” surasining 13- oyatida: “Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havo) dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishinglar (do‘st-birodar bo‘linglar) uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila-elatlar qilib qo‘ydik. Albatta, sizlarning Olloh nazdidagi eng hurmatlirog‘ingiz - taqvodorlaringizdir”, - deyiladi. Qur’onda “qissa” so‘zi (A‘rof, Baqara, Naml, Niso, Nuh, Maryam, Oli Imron, Kahf, Yusuf, Hud, G‘afur kabi suralar tarkibida qo‘llanilgan) samoviy kenglikdan zaminiy qatlamgacha, ilk payg‘ambar Odam Atodan so‘nggi rasul Muhammad alayhissalomgacha, foniydin boqiygacha bashariy ko‘lam, darajadagi muhim voqea, hodisotni ilohiy axborot mushtarakligida talqin etadi. Erkin A‘zamovning “Pakananing oshiq ko‘ngli” (Toshkent: Ma‘naviyat, 2001) nomli to‘plamidagi shu nomdagi qissasida xuddi mana shu haqiqat Pakana timsoli orqali inkishof qilinadi. Asar g‘oyasi faqat shu bilan cheklanib qolmaydi, yordamchi obrazlar faoliyatida jamiyatdagi qator ijtimoiy va insoniy illatlar ochib tashlanadi. Illatlarni bartaraf qilmaslikning natijasi esa fojia ekanligiga kishini qat‘iy ishontiradi. Ma‘lumki, aql islom dini nazarida eng sharafdir. U ikki naqliy (diniy) va aqliy ilmlar asosida yuzaga keladi. Bir-birisiz yuzaga

kelgan aql kemptikdir. Pakananing aqli shunday, u faqat aqliy (kasbiy) ilmga egadir. Uni ham bo'lsa chala o'zlashtirgan. Shu tufayli uning iymon, e'tiqodi sust. Inson ma'naviyatida ilm va amaliyotning birligi katta ahamiyatga ega. Shunday bo'lgandagina, kishi amaliyoti ezgulikka yo'g'rilgan bo'ladi. Qissada bu hayotiy haqiqat yaxshi ochib berilgan. Pakana o'z kasbiy amaliyotiga qo'l urganda odamlar izzatiga muyassar bo'ladi, hech kim uni kamsitmaydi. Hatto haqiqiy ijod namunasini, ya'ni "Orzu" atalmish portret yaratganda bir bora mashhur ham bo'ladi, ijodi ko'plab jurnallarda bosiladi. Lekin mukammal aqlga ega bo'lmagan Pakana ezgu amaliyot samarasini o'z hayotida ko'rgan bo'lsa-da, bu xususida keng mushohada qilmaydi. Hayotdagi omadsizligini, past bo'yli odamga aylanib qolganligining sababini o'z kasbiy faoliyatsizligidan, ijodiy izlanmaslikdan emas, jismoniy nuqsonidan, ya'ni pakanaligidan ko'radi va yuzaki fikrlaydi. Kishi hayotda omadga emas, bilimga suyasagina maqsadiga erishadi, hayotda o'z o'rnini topadi, o'z qiyofasiga ega bo'ladi. Pakana esa narsa-hodisaning botiniy emas, zohiriy tomoniga e'tibor beradi. Adib o'rni-o'rni bilan kishini aksiomaga ro'para qiladi. Pakana o'z a'mollari orqali faoliyatlari juda katta tarixga aylangan shaxslarni qayd qiladi. Ma'lum bir e'tiqodga ega bo'lib, o'z bilimlarini amalga oshirishga yo'naltirishgan buyuk shaxslarning bo'yi past bo'lsalarda mashhurdirlar. Ular omadga emas, o'z bilimi kuchiga ishonishgan. Ular uchun bo'yning past-balandligi emas, aql-zakovatning kuchliligi birinchi o'rinda turgan. Shundan ular hayotda o'rnini topishgan. Pakana esa ular muvaffaqiyatining sababini omadda deb noto'g'ri fikrlaydi. Uni otaxon dramaturg, novcha, kelishgan Nurali, To'liqjonlar hayotiga havas qilishi ham absurdlikdir. "Chapaklar va

chalpaklar mamlakati” qissasida kechagi tuzumimiz go‘yo ko‘zguda aks etgandek tuyuladi. Qissa qahramonlari Erkin va Baxtiyorlar bu tuzumning butun sir-asrorlaridan xabardor. Ularning kasbi - jurnalist. Qahramonlarning bunday kasbni tanlashi bejiz emas. Ular kuzatuvchan va har narsaning tub mohiyatiga yetishga qiziquvchan bo‘lishadi. Bu hol adibning o‘z maqsadini yorqin ifodalashda qo‘l kelgan. Adib o‘z fikrini og‘zaki bayon qilmaydi, balki tasvir orqali ko‘rsatadi. Asar qahramonlari o‘n kun Boshqa mamlakatda bo‘lishadi. Bu yerda sotsialistik tuzum hukmron. Hamma narsa mazkur tuzumning afzalligini anglatishga, uni kishi ongiga singdirishga qaratilgan. Barcha narsa cheklangan. Xohlagan joyga borish, istagan narsani so‘rash, erkin gapirish mumkin emas. Mahalliy aholi muloqotdan qochadi. Agar biror gap so‘rasangiz, atrofga olazarak qarab, qaltirashib javob berishadi va ko‘zdan g‘oyib bo‘lishadi. Barcha narsa batartib, lekin xuddi ko‘rgazmaga qo‘yilgandek hissiz. Shuning uchun ularda iliqlik yo‘q. Mamlakat ruhiyatida qandaydir bir sovuqlik hukmron. Mamlakat bilan uning rahbarini ajratib bo‘lmaydi. Butun mamlakat uning daholigini ko‘rsatish uchun ishlaydi. Erkin A‘zam tasvirlagan tuzumning mohiyatini ochib berishlik bugungi hayotning qadriga yetishga undaydi. Qissaning ahamiyati - xuddi ana shunda. Insoniyat olami hamisha ikki parsaga - madaniyat va ma‘naviyat mukammalligiga talpinadi. Nigora Ashurovaning “ KO‘NGIL TASVIRI” maqolasida E.A‘zam ijodiga xos qirralar ochib beriladi: *”Erkin A‘zam ijodida kinoya turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lgan, ba’zida muallifning o‘z tilidan keltirilgan so‘z ibora hamda maqol va matallarda, boshqa paytlarda esa persanajlarning o‘zaro muomalamunosabatlarida zohir bo‘ladi. Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, adib*

o‘zini azoblagan bugungi kun muammolariga munosabatini achchiq kinoya, piching, qochirimlarga o‘rab ifodalaydi. Bu esa yozuvchining hayotimizdagi voqea-hodisalarga befarq emasligidan dalolatdir. “Jannat o‘zi qaydadir?”, “Suv yoqalab”, “Zabarjad” asarlarida ham adibning hayotimizdagi nohaqliklardan, kishilarning qon-qoniga singib ketgan illatlardan noroziligi, bezovtaligi sezilib turadi.

“Suv yoqalab” asarining bosh qahramoni Bolta Mardon – sobiq kolxoz raisi. Sho‘ro davrida jamoa xo‘jaligi raisi bo‘lgan, asar personajlaridan biri aytgandek, “necha yil dovruc solib davron surgan odam”, hozirda esa “davri o‘tgan” oqsoqol. Adib asar voqealarini tasvirlash jarayonida bot-bot “davri o‘tgan” iborasiga to‘xtalib, qahramonlar nutqida ifodalaydi.

Shu o‘rinda “davri o‘tgan” iborasi ikki xil mazmun kasb etganligini anglash mumkin: 1. Ma‘lumki, kinoya hosil qilishda intonatsiyaning roli muhimdir. Intonatsiya har qanday kinoyaviy so‘z vositasining ta‘sir kuchini ikki baravar oshirib ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda insonning tuyg‘ulari, intilishlari, maqsadlari boshqalarga intonatsiya orqali tez yetib boradi. Asarda obrazlar tilida keltirilgan “davri o‘tgan” iborasi nim kinoya tarzida ifodalangan. Jumladan: – Siyosat qiladimi, qilmaydimi, davri o‘tdi-da endi (A‘zam E. Suv yoqalab. “Jannat o‘zi qaydadir”, “Sharq” nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi.– Toshkent. 2007. 63-bet); – Bolta Mardonning davri o‘tgan! (O‘sha manba.66-bet), – O‘-o‘ rais, kattaligingni boshqaga qilasan, xo‘pmi? Davring o‘tdi sening! (O‘sha manba.72-bet).

Asar qahramoni Bolta Mardon o‘z mahalladoshlari tomonidan aytilgan ushbu so‘zlardan ko‘ngli ranjiydi, o‘yga toladi. Umr bo‘yi barcha sa‘y-

harakatlari shu xalqining farovonligi, ravnaqi, taraqqiy etishiga safarbar etildi. Ammo ba'zi yurtdoshlari bu kabi mehnatlarini unutib, "davri o'tganligini" andishasizlarcha ta'kidlashadi. Bunda yozuvchi inson mehnatini qadrlash, e'zozlash singari tuyg'ularni targ'ib etadi va o'quvchini mana shunday tuyg'ularni unutmaslikka chaqiradi. 2. Kinoya zaminida o'z navbatida tanqidiy fikr bilan bir qatorda achinish tuyg'usi ham yotadi. Ushbu keltirilgan "davri o'tgan" iborasida inson umrining o'tkinchiligi, lavozimining omonatligiga ishora etiladi.

– Necha yil dovuq solib davron surgan odamning ahvolini ko'ring – suv yoqalayman deb yuribdi bugun! – Hali baquvvat-at. Siyosatini qarang! – Shu, sizning davringiz ajab zo'r davrlar ekanda, rais bobo! (O'sha manba. 68-bet).

Shundan anglashiladiki, bu dunyoning o'tkinchi ekanligi, bir lahzada insonga berilgan umr poyoniga yetishi va mana shu qisqa vaqt oralig'ida inson ezgu ishlarni qilishga, el-koriga yarab, yaxshi nom qoldirishga da'vat etadi. Insonga bir marotaba beriladigan bu umr davomida ko'ngil amriga quloq solishi, vaqt o'tgach qilgan amallariga afsus, nadomat ko'zi bilan emas shukronalik hissi bilan qarashga ishora etadi. Yozuvchi asar boshida KO'NGILga ishora etib boshlashdayoq bu yanada teranlashadi. Ya'ni ichkari xonada namoz o'qib chiqqan Bolta Mardon supa labida o'tirib, obdastadan xotini Musallam opa quyayotgan suvga qarar ekan kecha ko'rgan tushini so'zlaydi. "Tavba... Ajabo tush? Yigitlik davrim emish. Mana shu supada xuddi shu taxlit cho'nqayib o'tirgan emishman. Tepamda, otam, norozi, tanbeh berayotganmish: tutni nimaga kesding, beso'roq? Seni meni to'ydirib, kiydirib turgan shu

ediku? Bolaligingda o‘zing shoxma-shox tirmashib tut terib yurarding... He, noinsof” (O‘sha manba. 57-58-betlar).

Ushbu keltirilgan lavha asar qahramonining xarakterini ochishga, voqea-hodisalarni yoritishga ishoradir. Bunda “tush”, “tut”, “ota tanbehi”, “bolalik” kabi tushunchalar qahramonni o‘yga toldiruvchi, uni mushohadaga, harakatga undovchi omil sifatida bo‘lib, tush-ishora, tut-ko‘ngil, tiriklik ramzi, ota tanbehi-burch, qat‘iylik hamda bolalik-o‘tmish xotiralariga, yoshlikka xos jo‘shqinlik fasliga ishoradir. Asarda xalqimizning asrlar davomida shakllangan kamtarin va oqilona turmush tarzi, qishloq tabiati, odamlarning o‘zaro munosabatlari mahorat bilan qalamga olinadi. Bolta Mardon xarakterining yana bir o‘ziga xos xususiyatidan biri – bu yangi davr evrilishlarini, ayniqsa, yoshlarning ko‘ngil olamini to‘g‘ri talqin eta olishidir. O‘z o‘g‘li Botirga ko‘ngil amriga quloq solish, yetti o‘lchab bir kesish lozimligini uqtirib o‘tadi: “Botir gap bunday: shu, ammaning qiziga ko‘ngling bo‘lmasa, ochiq aytaver, to‘y qoladi! Ko‘nglingga qara, bolam! Lekin uylansang, shunday birovini topib xotin qilginki, sira-sira joningga tegmasin! Necha yil o‘tsa ham! Bo‘lmasa, bu savdo – bir umrlik azob. Shu gapim esingdan chiqmasin” (O‘sha manba.87-bet). Ushbu keltirilgan parchada Bolta Mardonning hayotiy tajribasi, qaysidir ma’noda achchiq qismati edi. U butun umrini ko‘ngliga quloq solmay, ko‘ngildan voqif bo‘lmay, ko‘ngil amriga qarshi o‘tkazib yuborganligini anglab yetadi va o‘g‘lini bunday xatolarni takrorlamaslikka chaqiradi. Asarda Bolta Mardon o‘g‘li Botirga aytgan quyidagi so‘zlarida ko‘ngil tubida yashirib yurgan, uni umr bo‘yi qiynab kelgan tuyg‘ularini yaqqol ko‘rsata olgan: “Tag‘in bir gap, o‘g‘lim. Ertaga bir kun orqamda qolmasin-da. Noligan – noshukur

deydilar. Enangni aytaman-da, yaxshi xotin. Yuvosh. O‘zim ham undan biror yomonlik ko‘rmadim. Lekin ko‘ngil qurg‘ur he-yech... Bilmadim – nimaga...” (O‘sha manba.88-bet).

Bolta Mardon o‘z ayolidan norizo emas, ammo ko‘ngil aslida boshqada edi. Asarda Bolta Mardonning ayoli Musallam opa xokisor, ma’suma, itoatkor va butun umri umr yo‘ldoshiga, farzandlariga baxshida bo‘lgan mehribon ayol sifatida gavdalanadi. Yozuvchi asarda KO‘NGIL tushunchasiga alohida urg‘u berganligi bejiz emas. Inson tashqi jihatidan qanday yaratilishidan qat’iy nazar uning ko‘ngli bor. Bu ko‘ngilda hayrat, muhabbat, cheksiz tuyg‘ular mujassam. Aslida mana shular emasmi insonning baxti, boyligi.

Asar qahramonining ilk muhabbati bo‘lgan, lekin eri o‘lib, beva qolgan, bog‘i xarobga aylangan, befarzand Sharofat bilan muloqotida qahramon ko‘ngil izzatlarini kuchaytirib, qalbida armon tuyg‘usini yuzaga keltiradi. Tushida ko‘rgan tut daraxti Sharofatning uyida ko‘rishi ham ko‘ngilga, o‘tmish xotiralarga bir ishoradir.

Asarda maqol va matallarning, iboralarning o‘z o‘rnida ishlatilishi, asarning yanada jozibali, o‘qimishli chiqishiga zamin yarata olgan: – Baloga qolgan –surnaychi (O‘sha manba.59-bet), Yaxshilik qilginu suvga ot – baliq bilar, baliq bilmasa – xoliq bilar (62-bet), – Yo‘l bo‘lsin, rais bobo? Bunday, lashkar tortib... (63-bet), – Anovi begonasirabroq turgan pason – kenjasimi? Toshkentda o‘qiydi-ya? Sal ko‘proq o‘qib yubormadimi shu bola? Yo u yoqda... (64-bet), Kafan tekin deb o‘laverish ekan-da (72-bet). Muallifga xos uslubning yana bir o‘ziga xosligi avvalo asar mavzusi, qahramon nomi va tilida ramziy ko‘pincha kinoyaviy ma’no mavjudligida ko‘rinadi. Ayniqsa, asar

qahramonlarining ismlarini to'la oshkor etmay, balki uning nomini yashirin holda ifodalab, xarakteriga, ichki ma'naviy, ruhiy holatiga, kasbiga xos xususiyatlarni inobatga olib, kinoyaviy so'zlar uyg'unligida nomlaydi. Mana shunday qahramonlardan biri O'rin Jaga (O'rinboy). – Quloq boshida O'rin Jaga o'tiribdi... (63-bet) deya yozuvchi ushbu qahramonni g'oyibona ta'riflashdan boshlaydi. Quloqboshiga o'zini xo'jayindek tutuvchi, o'sha o'rin faqatgina o'ziga tegishli ekanligini, kuch bilan egallab, raisning o'g'rincha ekinzoriga suv oqizib, boshqalarni bunday mahrum qilayotganligini ta'riflar ekan yozuvchi qahramon ismiga (O'rin) ishora sifatida talqin etadi. Jaga ismiga hamohang tarzda qo'llanib, qo'rs, qo'pol yozuvchi ta'biri bilan aytganda “o'tgan asrning elliginchi-oltmishinchi yillardagi xudo urgan bezorisi...” ga go'yo taxallus qo'ygandek kinoya qiladi yozuvchi.

Asar voqealari davomida O'rin Jagani yozuvchi mahorat bilan ta'riflaydiki, o'quvchi yuzida beixtiyor kulgu zohir bo'ladi. Bu ham yozuvchining iste'dodidan, kinoyaviy uslub vositalaridan mohirona foydalana olish mahoratidan dalolatdir. Suv korizning poyonidagi ko'lsimon dahanadan taqsimlanadi. Demak, taqsimotchi mirob hazilakam odam emas. Hozir bu yerda O'rin Jaga xo'jayin. Vajohati chatoq-da. Basharani har xil chandig'u tirtiq “bezagan”. Oyoq-qo'l va badanning-ku sog' joyi yo'q – vatanga muhabbatdan tortib behisob ishq jafolarigacha turli yo'sinda ifodasini topgan (65-66-betlar).

Bolta Mardon bilan qilgan suhbatida O'rin Jagani oddiy inson emasligiga kinoya qiladi: – Rais emish! Jipiriq! O'zimning qo'limda katta bo'lgan. – Sening qo'lingda o'sganlar rais bo'lib ketaversa, hazilakam odam emas ekansan, O'rinboy! Bilmay yurarkanmiz-da. –

Nima deyapsiz, rais bobo, Toshkentlarda paxanlik qilganman-a! U yog'ini o'zingiz bilasiz... (69-bet) Xullas adib insoniyat hayotini nozik tasvirlaydi hamda kinoyaviy uslub masalasi ijodkorning estetik idealini badiiy mahorat qirralarini nomoyon etuvchi ifoda vositasi sifatida Erkin A'zam ijodida alohida o'ringa ega".

O'ta kuchli fojiaaviylik kishining dilidagini tiliga chiqaradi. Bir qadar ko'nglini poklab, o'zi va yaqinlarining qismatini, sha'nini o'ylashga da'vat etadi. Aristotel buni katarsis deb atagan. Biz ta'kidlagan fazilatlar bilan istiqloq davri adabiyotida alohida o'rin tutadi. Kishi ongida, dunyoqarashida o'zgarish bo'lmas ekan, hayotida, turmush tarzida, tabiatida ham o'zgarish bo'lmaydi. Bunday shaxslar nurli cho'qqilar sari ko'tarilmaydi, balki zulmat botqoq qa'riga bota boradi. Qalbida insonlikni ta'minlaydigan tuyg'ular so'lib, kufr urug'i sepila boshlaydi. Bu hol insoniyatning o'zinigina emas, jamiyatni ham taraqqiyotdan qoldiradi. Chunki barcha o'zgarish insonning sa'y-harakatiga bog'liq. Qator hikoya va qissalari bilan o'z o'quvchisini topgan, e'tiborini qozongan yozuvchi Shoyim Bo'tayevning "Ko'chada qolgan ovoz" (Toshkent: Ma'naviyat, 2005) nomli to'plamiga kirgan "Bir kunlik mehmon" qissasida xuddi shu narsa o'zining badiiy ifodasini topgan. Yozuvchi buni voqealar olamida ko'rsatadi va asoslaydi. Qissa syujetini bir kunlik voqea tashkil qiladi. Ana shu bir kunlik voqea tasvirida umuman taraqqiyotdan orqada qolgan qishloq va uning odamlarining qiyofasini gavdalantiradi. Qishloq odamlari sodda, halol, diyonatli bo'ladi, degan qarash avvalgi qishloqlarga tegishlidir. Hozir unday emas, chunki millat tabiatiga ancha-muncha nomatlub illatlar kirib kelgan. Bu narsa "So'pi" laqabini olgan kishining xatti-harakatida yorqin

ochib berilgan. U Ollohni ham aldayman deb o‘ylaydi. Odamlarning haqiga xiyonat qiladi, ya’ni tegirmonga olib kelingan g‘alladan o‘marib oladi. So‘pi shu qadar pastkashki, kelini nojo‘ya qadam tashlashini bilgan holda uni jazolash o‘rniga, maqsadi yo‘lida foydalanadi. Qissa oxirida So‘pining uyiga o‘t ketadi, aroqdan bezgan, butun vujudi qaqshagan mehmon - Saidmurod qishloqni tark etadi. Bu hol ham katta falsafaga ega. Qur’oni karimda shunday deyiladi: “Dillaringizdagi narsani xoh yashiring, xoh oshkor qiling, Olloh bilur. Va (shuningdek, U zot) osmonlar va yerdagi bor narsani bilur. Olloh hamma narsaga qodirdir. Har bir jon o‘zi qilgan amallarni hoziru nozir holda ko‘radigan, yomon amallarining esa olis-olislarida qolib ketishini istaydigan kunni (eslanglar)! Olloh sizlarni o‘zining (azobidan) ogoh qilur”. (“Oli Imron” surasi, 29-, 30-, 31- oyatlar). Ha, imonsizlar, albatta, jazosini topadi. So‘pining uyiga o‘t ketishi Ollohnin jazosidir. Nomatlub ishlarga qo‘l urganlar boshiga ham shunday kunlar tushishi muqarrardir. Qissada shu haqiqat o‘zining mukammal badiiy ifodasini topgan. Keyingi davr adabiyotida voqea-hodisalar, ijtimoiy muammolar tasviridan ko‘ra, insonning ruhiy olami, ruhiy kechinmalari, dard va iztiroblarini tasvirlash yetakchilik qilyapti. Chunki barcha hayotiy masalalar, muammolar inson xatti-harakatiga borib taqaladi. Bu borada, ayniqsa, insonning insoniyligini belgilaydigan e’tiqod, halollik, poklik, axloqiy masalalar muhimdir. Shoyim Bo‘tayevning ikkinchi qissasi “Shohona sovg‘a”ning leymotivini shu tashkil qiladi. Sirtidan qaraganda, bir shaxsning, ya’ni uzoq vaqt yuqori lavozimda davlatning tiyinigga xiyonat qilmay, boylikka ruju qo‘ymay, halol ishlagan, o‘z e’tiqodi, vijdoniga sira qarshi bormagan odamning shallaqi bir ayolning qo‘lida o‘lib ketishi — fojiasiga

bag'ishlanganday. Qissani o'qigan ko'pchilik shunday anglashi muqarrar. To'g'ri, bu — fojia, lekin faqat diyonatli, chin vazir — insonning fojiasi emas, balki unday odamning qadriga yetmagan odamlarning - vazirning o'gil-qizining, qarindoshi Qobilning, insoniy xislatlardan mahrum Gavharning, qolaversa, jamiyatning fojiasidir. Yozuvchi buni insonlar tabiati va ruhiy olamida juda ta'sirchan badiiy aks ettira olgan. Adib birorta qahramonning tutgan ishiga, xatti-harakatiga aralashmaydi, izoh bermaydi, tasvirda ko'rsatadi.

Tekshirish savollari:

- 1.E. A'zamov qissalarida ijtimoiy va insoniy illatlar qanday o'z ifodasini topgan?
- 2.Odamlar faoliyati mohiyatini anglamay ularga havas qilishning absurdligi nimada?
- 3.Qishloqdagi nochor manzaralar odamlarning fe'liga yarashaligi nimada ko'rinadi?
- 4.“Shohona sovg'a” qissasidagi fojia nima uchun jamiyat fojiasi deyiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Adabiy janrlar va turlar. I jild. — T.: Fan, 1991.
- 2.E. A'zamov. Pakananing oshiq ko'ngli. - T.: Ma'naviyat, 2001
- 3.Shoyim Bo'taev. Ko'chada qolgan ovoz. — T.: Ma'naviyat, 2005.
- 4.H. Karimov. Janrmi yoki uslub.-T.: Fan, 1991.
- 5.X. Karimov. Davr va inson. — T.: Fan, 1992.
6. H. Karimov. Istiqlol davri asri. -T.: Zarqalam, 2007.
- 8.F.Olim. Milliy so'z. - T.: Yozuvchi, 1999.

- 9.I. Mirzayev. Nasrimiz badiiy olami. — T.: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 1991.
10. Nazar Eshonqul “Momoqo‘shiq” G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. — Toshkent, 2019.

8- MAVZU: HOZIRGI O‘ZBEK QISSACHILIGI.

Reja:

- 1.Hozirgi o‘zbek qissachiligida ijtimoiy muammolar.
- 2.Milliy qadriyatlar aks etgan qissalar.
- 3.Tarixiy voqelik va tarixiy shaxslar faoliyati yoritilgan qissalar.
- 4.Ma’naviy axloqiy masalalar insonning ruhiy dunyosi orqali yoritilgan asarlar.
- 5.Insonga nisbatan mutelik tubanlik ekanligining badiiy talqini.
- 6.Modernistik yo‘nalishdagi qissalarning o‘ziga xos xususiyatlari.
- 7.Odamning tuban ketishi muayyan shart-sharoitga bog‘liqligi.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy yo‘nalishlarini belgilashda ajdodlarimiz merosidan, ular yaratgan eng yaxshi urf-odatlardan voz kechmaslik, aksincha, ularni davom ettirish va boyitishga alohida e’tibor qaratmoq lozim. Badiiy ijod qaysi zamonda bo‘lmasin faqat salmoqdor fikr, mustaqil qarashni taqozo etadi. Ijodkor o‘zini ruhan erkin his etgan taqdirdagina chinakam asar maydonga keladi. Badiiyat olamidagi eng dolzarb yangilk, san’at, adabiyot, adabiyotshunoslik mafkura iskanjasidan ozod bo‘ldi, san’at va adabiyotning erkin, xilma-xil psixologik, falsafiy-estetik tamoyillar asosida rivojlanish yo‘llari ochildi. Erkin A’zam A.Qodiriy, Oybek, O.Yoqubov, P.Qodirov singari ulkan adiblarga izdoshlik qilib, epik turning deyarli barcha janrlarida ijod qildi. Natijada, novatorlikka ham erishdi. Bu qissaning yangi ko‘rinishlari (kinoqissa, dramatik qissa) da asarlar yaratganligi, sarlavha tanlash mahorati singarilarda yaqqol seziladi. Erkin A’zam nasrini o‘ziga zamondosh adiblardan ajratib turadigan xususiyat kinoyani qo‘llashda ko‘rinadi. Adib qo‘llagan kinoyaviy so‘z, kinoyaviy birikma, kinoyaviy

ibora kabilar tasvirlanayotgan davr voqeligi, milliy hayot manzaralarini ochib berishga xizmat qilgan. Affiksatsiya va kompozitsiya yo‘li bilan hosil qilingan 30 dan ziyod yangi so‘zlar adibning o‘zbek tili boy imkoniyatlaridan samarali foydalanganligini ko‘rsatadi. Bu ham yozuvchi ijodiga xos novatorona xususiyatdir. Ayniqsa, «kino» asosli qo‘shma shaxs otlari, turdosh qo‘shma otlar hozirgi o‘zbek tili lug‘atini boyitdi. Adib asarlarida milliy uy-ro‘zg‘or anjomlari nomi, numizmatik leksika, san’at dunyosi, musiqa, hunarmandchilik, odob-axloq, mentalitet bilan bog‘liq nomlar; qarindosh-urug‘chilik aloqalariga qarab, ma’muriy-hududiy bo‘linish bilan bog‘liq, o‘simlik va hayvonot dunyosi nomlari, antroponimlar realiya bo‘lib kelgan. Professor Umarali Normatov “Chunonchi, “Suv yoqalab”, “Zabarjad” asarlari kinoqissa deb yuritilgan, “Jannat o‘zi qaydadir” esa dramatik qissa deb atalgan; “Suv yoqalab”, “Zabarjad”, “Jannat o‘zi qaydadir” asosida ajoyib filmlar yaratildi, ammo uchala asar ham ayni paytda yetuk qissa namunasi tarzida shavq bilan o‘qiladi”, deb yozadi. *““Parizod” asarida ovloqroq tog‘li qishloqlarimizda uchrashi mumkin bo‘lgan voqealar qalamga olinadi. Milliy dunyoqarash va kundalik turmush haqiqatlari bilan to‘yingan, qay bir jihatlari bilan Gabriel Garsia Markesning “Oshkora qotillik qissasi”ga yaqin turadigan bu asari bilan yozuvchi bugungi davr kishisining loqaydlik botqog‘iga tobora chuqur kirib borayotganligini ko‘rsatib beradi. Erkin A‘zam nasrida keyingi asrda jahon adabiyotida kechgan o‘zgarishlar va yangilanishlar o‘z izini qoldirganiga guvoh bo‘lish mumkin. “Javob” qissasidagi Nuriddin Elchiyevning hayotiy pozitsiyalari atrofdagilarga tomosha, ermak bo‘lishi bilan Frans Kafkaning “Jarayon” asaridagi Yozef K.ni esga solsa, “Bayramdan*

boshqa kunlar”dagi Bakir o‘zining jamiyat uchun begonaligini anglab borayotgan xarakter sifatida ko‘rinadi. Yozuvchi “Tanho qayiq”da globallashuv davri muammosini absurd ifodalarda tasvirlaydi. Asar qahramoni Orol bobo tushib qolgan hayotiy mantiqsizliklardan ma’ni izlab yashaydi. Aksariyat qahramonlar xarakterlarining barqarorligi, hayotiy e’tiqodlarining sobitligi tufayli dramatik situatsiyalarga tushadilar. “Tanho qayiq”da maromiga yetkazib tasvirlangan. Ushbu asarni tahlil qilgan adabiyotshunos B.Nazarov Orol bobo holatidagi, fikrlash tarzidagi tabiiylik, soddalik, milliylik sifatlari bilan Chingiz Aytmatovning “Oq kema”sidagi Mo‘min cholni, Ernest Xemengueyning “Chol va dengiz”idagi Santyagoni eslatadi, deb yozadi. Chindan ham hush va tush, reallik va ro‘yo aro o‘zi e’tiqod qo‘ygan, o‘zi yaratgan xayolot olamida quvonib, qayg‘urib, goh tushkun, goh umidvor yashayotgan Orol bobo keyingi yillar adabiyotimizda yaratilgan eng ajoyib va mukammal xarakterdir. Yozuvchining aytmoqchi bo‘lgan poetik g‘oyasi kinoqissa shaklida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Asarda mazmun va shakl elementlari shunday uyg‘unlashib ketganki, ayni syujet ifodasini o‘zga janrda tasavvur qilish imkonsiz. Badiiy asarning mazmuni shakli bilan birga tug‘iladi, albatta. Bu ijod psixologiyasi bilan bog‘liq murakkab ruhiy jarayon, shunday ekan, kinoqissabop materialdan boshqacha turdagi asar yaratish o‘zini oqlamagan bo‘lardi. “Tanho qayiq” Erkin A‘zam kinoqissachiligining, shuningdek, adabiyotimizning jahon adabiyoti namunalari bilan bo‘ylasha oladigan jiddiy yutug‘i. Yangi davr yangi g‘oyalarni, yangi g‘oyalar yangi shakllarni talab qiladi. O‘tgan asrning 60-yillarida doston janri shunday yangilanishlar an‘anasini boshdan kechirgan edi.

Dostonchilikdagi lirik doston, liro-epik doston, dramatik doston kabi ichki ko‘rinishlar o‘sha davrlarda o‘zligini namoyon etgan edi. Bugun qissa janrining shunday o‘zgarishlarga yuz tutishi ham tabiiy va qonuniydir. Bu borada, kinoqissalarning o‘ziga xos janr sifatida tarkib topishi va takomillashishida Erkin A‘zamning munosib xizmatlari bor. Yozuvchining keyingi davrdagi uslubiy-shakliy izlanishlari, kinorejissyorlar bilan hamkorligi adabiyotimizda yangi janrning istiqbolini belgilab berdi. Kinoqissa janri bir qadar dramatik asarlarning tarixi va taqdirini yodga soladi. Azaldan dramatik tur janrlari faqat sahnaga qo‘yish uchun mo‘ljallab yozilgan, o‘qiganda unchalik qiziqish uyg‘otmagan. Adabiyotshunoslarning fikricha, Uilyam Shekspirning xizmatlari tufayli dramatik asarlar o‘qiganda ham qiziqish uyg‘otadigan bo‘ldi. Shu kabi qissachilik ham o‘zining yangi imkoniyatlarini namoyon etmoqda, janr tarkibi va tabiatida o‘ziga xos o‘zgarishlar kechmoqda. Erkin A‘zamning “Jannat o‘zi qaydadir”, “Shajara” asarlarini dramatik qissa atash to‘g‘ri bo‘lardi, boisi bu asarlar ko‘proq qissa talablariga bo‘ysundirilgan. Ulardagi dramatiklik, asosan, shakliy xarakterda bo‘lib, o‘zagida nasriy belgilarning salmog‘i baland. Adabiyot tarixidan ma‘lumki, har qanday janr davrning shaklu shamoyilini, zamondoshlarning o‘y-kechinmalari va intilishlarini yorqinroq ifodalash istagi tufayli paydo bo‘ladi. Ana shu istak va izlanishlarning samarasi o‘laroq Erkin A‘zam kinoqissalari o‘quvchining ham, tomoshabinning ham yangilanib borayotgan talablariga javob berayotganligi bu xildagi asarlarning kelajagiga umid bilan qarashga undaydi”.

Filologiya fanlari doktori Shavkat HASANOV “Erkin A‘zamning “Parizod”i” maqolasida Erkin A‘zam qissalari haqida atroflicha to‘xtaladi.

«Shoirning to‘yi», «Pakananing oshiq ko‘ngli», «Guli-Guli», «Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati», «Jannat o‘zi qaydadir», «Suv yoqalab», «Bayramdan boshqa kunlar» qissalari; «Guli-Guli» qissasida qo‘llangan «Qodir kalamush» laqabi Qodir ismli qahramonga tegishli bo‘lib, o‘z manfaati uchun hamma narsaga tayyor, davlat mulkini muttasil talon-taroj qiladigan odam bo‘lgani uchun unga nisbatan «kalamush» laqabi qo‘llangan va laqabning o‘zidanoq o‘quvchida u haqida salbiy fikr uyg‘ota olgan, adib asarlarida milliy urf-odatlar yuksak tasvirlangan. Masalan: «Odatdagi quyuq-suyuq, odatdagi «oling-oling» u sipo gurung. Negadir odatdagi tanishuv-tanishtiruv bo‘lmadi; chamasi, bu yerdagi mendan boshqa hamma bir-biri bilan tanish» lavhasida yozuvchi o‘zbek xalqining butun dunyoga mashhur mehmonnavozligi, odamoxunligini «quyuq-suyuq», «oling-oling», «sipo gurung» tarzida ifoda etgan. Bunda «quyuq-suyuq» – xilma-xil o‘zbek taomlarini, aniqrog‘i, suyuq va quyuq ovqatlarni o‘zida aks ettirgan. «Oling-oling» takror so‘zi mehmonni dasturxonga chorlash maqsadida ishlatiladi. Adib asarlarida qo‘llanilgan o‘zbek maqollari milliylikni ifoda etuvchi vosita sifatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Erkin A‘zam asarlaridagi milliy ruhni kuchaytirishga xizmat qilgan vositalardan biri maqollardir. Erkin A‘zam uslubining o‘ziga xosligi shundaki, u o‘z asarlarida xalqona iboralarni ko‘p qo‘llagan va shu asosda milliy hayot manzaralarini yorqin aks ettirishga erishgan. Istiqlool davri o‘zbek nasrida idealda yoki ko‘ngilda adashgan odamlar obraziga eng ko‘p murojaat qilindi. Ijtimoiy idealda, e‘tiqodda, ko‘ngilda adashgan, aldangan odamlar obrazi Shukur Xolmirzaev, Erkin A‘zam, Ahmad A‘zam, Shoyim Bo‘tayev, Xurshid Do‘stmuxammad, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Qo‘chqor

Norqobil, Luqmon Bo'rixon kabi ijodkorlar nasrida keng va har tomonlama yoritildi. Erkin A'zamning «Aralashqo'rg'on», «Yozuvchi» hikoyalari, «Pakananing oshiq ko'ngli», «Guli-Guli» qissalari, «Shovqin» romanida bunday insonlar taqdiri bilan bo'ladigan ziddiyatlar ko'zga tashlanadi. Masalan, Erkin A'zam nasrida Bolta Mardon "Suv yoqalab", Salom chapdast "Chapdast", Pakana rassom "Pakananing oshiq ko'ngli", Salim Qaror "Ta'ziya", Mirzo Ramazon, Farhod Ramazon, Baynal-milalchi bobo "Shovqin", Sho'ro bobo, O'rmon kalta "Guli-guli" kabi yuzlab obrazlar borki, ularning ko'pchiligi idealda, ba'zilar esa ham idealda, ham ko'ngilda adashgan. Umuman, olganda aldangan avlodning hayoti, fojialari, inqirozga yuz tutgan e'tiqodlarini, ko'ngil royishlariga qarshi yashayotgan qahramonlar iztirobini Erkin A'zam ham o'zicha, o'z badiiy qarichi bilan har tomonlama mukammal talqin etishga harakat etdi. Istiqlool davri o'zbek nasrida —Aldangan avlod taqdiri "Umri zavol topgan avlod",- desa ham bo'ladi) turli rakurslardan turib, o'nlab ijodkorlarimiz tomonidan yoritildi. Hikoya-qissalarimiz asosida "Chantramore", "Piyoda", "Erkak", "Dilxiroj", "Jannat qaydadir", "Zabarjad", "Suv yoqalab" kabi badiiy filmlar ishlandi. Erkin A'zam o'zining nosir, dramaturg, publitsist, kinossenarist, muharrir sifatidagi adabiy qirralarini namoyon etdi. Erkin A'zam so'z qadrini zargar kabi qadrlaydi. U so'zdan avaylab asrab foydalanadi, shu bois adibning roman, qissa, hikoya va badiiy-publitsistikasida so'zning ming xil badiiy tovlanishlari jilolanib turadi. Yozuvchi nasrida kinoya, yengil kulgi, zaharxanda, qahqaha, piching, kesatiq, masxaraomuz, mazaxlovchi hazil qatlamlari, sarkazm, so'z o'yinlari, parodiya, paradoks, parodiyaviy obrazlilik, niqoblangan obrazlar kuzatiladi.

Adibning soʻzga, chinakam adabiyotga boʻlgan talabchanligini, injiqligini, obrazli ifoda va oʻtkir kinoya vositalarini qoʻllashiga qarab, biz uni zamonaviy oʻzbek adabiyotining tamal toshini qoʻygan Abdulla Qodiriy, Fitrat, Choʻlpon, Gʻafur Gʻulom, Oybek, Abdulla Qahhorlarning munosib izdoshi, munosib shogirdi deya olamiz. Erkin Aʼzamni baʼzi adabiyotshunoslarimiz — Abdulla Qahhorning shogirdi desa, yana boshqasi — Asqad Muxtorning shogirdi deyishadi. “Jannat oʻzi qaydadir? yoxud Jiyyalidan chiqqan Joʻraqul” asarida esa ham idealda, ham koʻngilda adashgan qahramonlar taqdiri jonli va aniq ilib ochib berilgan. Turgʻunlik yillarida baʼzi oʻzlarini ziyoli va madaniyatli deb bilgan qatlam ichida nafaqat koʻcha-koʻyda hatto oʻz farzandlari orasida ham oʻz ona tilida gaplashishdan uzoqlashib ketgan oilalar bor edi. Farzandlar tarbiyasida, ularga berilgan ismlarda ham milliylik butunlay yoʻqolgan edi. Asli Jiyyalidan chiqqan Joʻraqul sobiq markschi olim, akademiklikka daʼvogar, eʼtiqodidan qaytmaydigan odam. Oilasini zamonaviylashtirmoqchi boʻladi, adashuvlar orqasida, bilib-bilmay, oilasining kelajagini barbod qiladi. Roza Lyuksemburgga havasan turmush oʻrtogʻini Roza, Klara Setkinga oʻxshatib qizini — Klara, yolgʻiz oʻgʻlini esa, oʻzi umrini bagʻishlagan gʻoya yoʻlboshchilarini eslab — Melis deb ataydi. Oqibatda qishloqda oʻsib tarbiya topgan xotinini ham yoʻlga sololmay qoladi. Asar yakunida adib qahramonning pushaymonini, armonlarini oilasiga yozib qoldirgan maktubida ifodalab beradiki bu hech bir oʻqirmanni befarq qoldirmaydi. “«Xonim... Oʻchirilgan... Azizim Roza Hasan... Oʻchirilgan... Bibirobiya! Men bu gaplarni senga koʻpdan beri aytolmay kelardim. Jiyyaliga joʻnashdan oldin xat qilib yozishni maʼqul bildim. Xotin! Men sening oldingda,

farzandlarimning oldida behad aybdorman. O‘ylab ko‘rsam, umrim xatolarga to‘la ekan. Shu xatolar... o‘chirilgan... adashuvlar orqasida, bilib-bilmay, sizlarning ham hayotingizni barbod qilibman. Roza Lyuksemburgga havasan men seni — Roza, Klara Setkinga o‘xshatib qizimni — Klara, yolg‘iz o‘g‘limni esa, bilasan, o‘zim umrimni bag‘ishlagan g‘oya yo‘lboshchilarini eslab — Melis deb atadim. Shu Ruhda tarbiyaladim. Bo‘lmasa, menga kim qo‘yib ediki... O‘zim bir Jiyyalidan chiqqan Jo‘raqul bo‘lsam! Ko‘rmaganning ko‘rgani yomon ekan, Bibirobiya! Zamonni ayblamoq endi befoyda. Bari-bariga o‘zim aybdorman. Seni — bippa-binoyi muslima ayolni o‘zimcha zamonaviylashtirmoqchi bo‘ldim-a! Buning oqibatini bilganimda, xudo haqqi, uydan tashqariga chiqarmasdim seni!.. O‘qiyveraymi? (Sardor Xonimga qarab oladi. Xonim karaxt — miq etmaydi.) Albatta, men ham ko‘p qatori yangi zamondan xursandman, lekin oshkora riyokorlik, ta’ma bilan uni olqishlash qo‘limdan kelmadi. Nomus qildim! Xatolardan iborat umrimda yana gunohga botmayin dedim-da. Qo‘y, huv dono Yalangto‘sh aytganidek, «Shu yo‘ldan keldim, shu yo‘ldan ketay!» Seni esa tutgan yo‘lingdan qaytara oladigan zot yo‘q bu dunyoda. U — o‘lgan. O‘sha — menman! Mayli, bilganingni qil! Men endi Jiyyalida qolsam kerak. Otam-onamning xoku suyagi o‘sha yerda! Yetti pushtim o‘sha yerda! Bir kuni kelib qazom yetganida begona yurtlarda go‘rma-go‘r ko‘chib yurmayin, qo‘y! Klarang... O‘chirilgan... Komilangga ayt, iloji bo‘lsa, qizini biror musulmonga uzatsin, u yoqlarda ham topilar... Melis mendan ranjib yurmasin. Uni yo‘rig‘imga solishga behuda uringan ekanman. Musiqachi bo‘lsa — bo‘lar, Jiyyalidan ham shunaqasi chiqsa chiqibdi-da! Robiya, sendan iltimos, ketishlaringdan oldin bir borib anovi jafokash

ammamizdan xabar olinglar, xo‘pmi? Ehtimol, keyinroq o‘zim kelib u kishini qishloqqa olib ketarman. Yana bir gap. Tursunboy ko‘rinib qolsa aytarsan. Mening umidimda bo‘lmasin. Men endi unaqa noma‘qulchilikka borolmayman. Boshida otasining — paxta terimi mavsumida Mirzacho‘ldan topgan rais birodarimning yuzidan o‘tolmaganman... Ilojini topib pulini qaytarib bersang. Oxirgi gapim: anovi Rahmatullohdan hushyor bo‘l, Robiya! Ko‘ngli toza emas u odamning. Bilishimcha, Jiydaliga ham aloqasi kamroq. Uning vatani — boshqa... Bibirobiya! Xudo yor bo‘lsin sizlarga, xotin! Biz endi uchrasholmasak kerak. Diydor qiyomatga qolmasa deb qo‘rqaman. Yana bir o‘ylab ko‘rarsan. Balki... Bor aybim uchun sening, jigargo‘shalarimning oldida tiz cho‘kib uzr so‘rayman! Rozi bo‘linglar! Alvado! Gunohkoring Jo‘raqul». Bo‘ldi...”

Bugungi o‘zbek adabiyotida be‘ma’ni kechgan shaxs qismatining ovro‘pachi modernistik talqindan farq qiluvchi o‘ta milliy xalqona yo‘li ham mavjud. Bu jihatdan T.Murod tajribalari ibratlidir. Tog‘ay Murod nasrimizda qissa va romanlari bilan el nazariga tushgan adibdir. U adabiyot atalmish «ulkan qasr» (R.Tagor)ni oyog‘i yerdan uzilmay o‘z badiiy asarlari bilan zabt eta oldi. Tog‘ay Murod Mengnorov o‘zbek milliy adabiyotining o‘ziga xos ovozga ega bo‘lgan noyob vakillaridan biridir.

Mashhur yozuvchi Sa’dulla Siyoyev o‘zining tarixiy mavzuda yozgan ko‘plab asarlari bilan nafaqat O‘zbekistonda, balki qardosh xalqlar adabiyotida ham o‘z muxlislariga ega ijodkordir. Uning “Dashti qipchoq lochini (Muhammad Shayboniyxon qissasi)” xalqimiz davlatchiligi tarixida muhim rol o‘ynagan Muhammad Shayboniyxonga

bag'ishlangan. Turkiy Shayboniylar sulolasi va davlatining asoschisi Muhammad Shayboniyxon haqida adabiyotimizda katta bo'shliq bor edi. Adib S.Siyoyev juda katta mashaqqatlar bilan shu bo'shliqni to'ldirishga harakat qildi va ushbu qissani yaratdi. Adib mazkur qissani yaratishda "Boburnoma", "Muhammad Shayboniyxon", "Mehmonnomai Buxoro", "Abdullanoma" singari ko'plab tarixiy asarlarni sinchiklab o'rgandi va xolis tanqidiy yondashdi. Asarni o'qish jarayonida beixtiyor XV-XVI asrga tushib qolgandek, bevosita voqealar ishtirokchisiga aylanib qolgandek taassurot uy'onadi kitobxonda. Jo'mard va mulohazakor, tajribali sarkarda hamda davlat arbobi Muhammad Shayboniyxon faoliyatini o'zbek adabiyotida proza janrida ilk marta yoritib, o'ziga xos jasoratini namoyon etgan Sa'dulla Siyoyev xalqimizning barkamol avlodini Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda o'z hissasini qo'sha olgan adiblardan biridir.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Hozirgi o'zbek qissachiligida ijtimoiy muammolar qanday ifodalangan?
- 2.Milliy qadriyatlar aks etgan qissalar haqida bahs-munozara yuriting.
- 3.Tarixiy voqelik va tarixiy shaxslar faoliyati yoritilgan qissalarga fikringizni bildiring.
- 4.Ma'naviy axloqiy masalalar insonning ruhiy dunyosi orqali yoritilgan asarlarga ta'rif bering.
- 5.Insonga nisbatan mutelik tubanlik ekanligining badiiy talqini qanday aks etgan.
- 6.Modernistik yo'nalishdagi qissalar haqida muhokama o'tkazing.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.H. Karimov. O‘zlikni anglatuvchi qissa. “Yozuvchi” gazetasi. 1999 yil, 15 sentyabr. H. Karimov. Odam va odam haqiqati. Mohiyat. 2002 yil, 18 yanvar.
- 2.T. Jo‘raev. Ong oqimi va tasviriylilik. — T.: Fan, 1994 yil.
- 3.F. Olimov. Milliy so‘z. — T.: Yozuvchi, 1999.
- 4.A. Ulug‘ov. Qissachiligimiz qirralari. - - T.: O‘qituvchi, 1991.
- 5.Muhammad Solih Muhammad Yusuf. Imon. — Kamalak. 1991.
- 6.Shoim Bo‘tayev. Sho‘rodan qolgan odamlar. Sharq yulduzi, 1998 yil, 5-6-sonlar. 7.Ilhom Zoyirov. Yalpatak. Sharq yulduzi. 1992 yil, 2-son.

9-MAVZU: ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK ROMANLARINING BADIY TALQINI.

Reja:

1. Istiqlol davri o‘zbek romanlarining janr va uslub xususiyatlari.
2. Romanchilik taraqqiyotining yetakchi tendensiyalari.
3. Romanning jamiyat ma’naviy taraqqiyotida, inson kamolotida tutgan o‘rni.
4. Totalitar tuzum illatlari tub mohiyati ochib berilgan romanlar.
5. U. Hamdam romanlarining tahlili.
6. Inson va davr muammosi.
7. T. Murod romanlarida insonlar ruhiyati

Inson tafakkurida o‘zgarish bo‘lmas ekan, hech bir ijtimoiy narsada o‘zgarish bo‘lmaydi. Inson tafakkuridagi o‘zgarish davr va jamiyatdagi o‘zgarish ta’sirida bo‘lishi tabiiy hol. Bu narsa o‘zbek romanlarida ham o‘z ifodasini topmoqda. Uch asrdan ziyodroq taraqqiyot tarixida roman janr sifatida o‘zining yashovchanligini, mukammaligini, inson va jamiyat bilan chambarchas bog‘liqligini namoyon etayotgan bo‘lsa, XX asrda A. Qodiriy asos solgan o‘zbek romanchiligi ham dunyo romanchiligi bilan bahslasha oladigan baquvvat asarlar solnomasini yaratmoqda. Roman epik janr sifatida jamiyat badiiy-estetik tafakkuri inikosi sifatida yuzaga kelar ekan, unda inson va jamiyatga xos taraqqiyot va tanazzul sabab va oqibatlari badiiy talqin etilishi tabiiy. Demak, ularda voqea-hodisalar emas, insonning o‘zi, uning o‘y-fikrlari, alamlari, iztiroblari, ruhiyati, ruhiy olami yetakchilik qilyapti, tasvirlanyapti, ochib berilyapti. Romanchiligimiz asoschisi Abdulla Qodiriy eng kichik janrdagi hikoyadan to romanlarigacha “muallif ongi, badiiy tafakkuri”ni ifodalash

shakllarini tubdan o'zgaritirishga hissa qo'shdi. Abdulla Qodiriy va Cho'lpon boshlab bergan an'ana keyinchalik A.Qahhor, Oybek, G'.G'ulom, O.Yoqubov, P.Qodirov, T.Qayipbergenov, O'.Umarbekov, O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzaev, M.M.Do'st, E.A'zam, X.Davron, N.Eshonqul, L.Bo'rixon, U.Hamdam, I.Sulton badiiy izlanishlarida turlicha shaklda namoyon bo'lgani ayni haqiqatdir. O'zbek yozuvchilari milliy kolorit, milliy adabiy-badiiy tasvir o'zanidan sira uzoqlashmagan holda qaysidir ma'noda, jahon adiblariga ergashgan paytlari ham bo'ldi. Biroq ularning ijodi bir-birini to'ldiruvchi mohiyat kasb etmasdan, o'ziga xos uslubiy-ijodiy maktabini yaratishda tinimsiz izlanishlar olib bordi. Zamonaviy o'zbek nasrida muallif ongi va obrazini tipiklashtirish, ularning badiiy asar poetikasidan alohida bir muammo tarzida ajratib o'rganish kam o'rganilgan. Yevropa va rus adabiyotshunosligida bu borada ancha tadqiqotlar olib borilgan. Demak, muallif ongi badiiy tafakkur shakliga aylangunga qadar bosib o'tilgan ijodiy uslub va mahoratda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ijodkor badiiy konsepsiyasi ong va tuyg'u yaxlitligida yuzaga chiqadigan muhim masalalardan biri ekanligi ayonlashadi. Biz badiiy asarni o'qiganimizda, muallif – roviy – hikoyachi obrazini emas, undagi voqelikka qiziqish natijasida muallifni yodimizdan ko'taramiz. Aksincha, ularning hammasi, bo'lishi mumkin bo'lgan voqelik muallif ongida ilk xamirturush sifatida yetiladi. Adabiyotshunos H.Umurov: "Yozuvchi har bir qahramonning ovozi, yuz ifodasini, kechinmasini, so'zlash uslubini berish uchun uning xatti-harakatini, iroda yo'nalishini asoslash uchun, albatta, o'sha qahramonlarning qiyofasiga kirishni shart qilib qo'yadi. Busiz yozuvchi, qahramonning o'sha sharoitdagi, ayni shu vaziyatdagi qalb holatining

o‘ziga xosligini tasvirlay olmaydi. Darvoqe, tasvirlanayotgan shaxs bilan yozuvchining shaxsi o‘rtasida o‘xshashlik bo‘lmasa-da, unda yozuvchi avtobiografiyasining unsurlari ko‘rinmasa-da, baribir, o‘zining yuzlab qahramonlarining ichki tabiatiga mos o‘zak nuqtalarni topib tasvirlash qudratiga ega. Chunki yuqorida aytganimizdek, har birimizda yashirin tarzda insoniy xususiyatlarning hammasi mavjud, lekin ulardan qay biri bo‘lsin ichki ehtiyoj (qahramon xarakteri) talabi bilan birinchi planga chiqqanida, yozuvchi tasavvurida jonlana beradi. Ba’zilar o‘ylaganidek, hamma dunyoda bor ruhiy kechinmalarni yozuvchi boshidan o‘tkazgan bo‘lishi shart emas”. Darhaqiqat, keltirilgan manba shuni taqozo etadiki, ilk asos – g‘oya muallifning olam va odamga bo‘lgan munosabatidan boshlab shakllana borishi mumkin. Masalan, bolalikda ko‘rilgan qandaydir voqelik inson ongida, qalbida o‘zining ijobiy va salbiy xususiyati (izi)ni qoldirganda asta-sekinlik bilan davrini sezilmagan tarzda o‘zgartirib boraveradi. Uni muallif tush sifatida, hayotda pragmatik ro‘baro‘ kelgan taqdirda hamda anglamsiz holatda sodir bo‘lishiga yo‘l ochib berishi tabiiy. Roman “zamondan oziqlanadi, zamon esa undan o‘z qiyofasini qidiradi, uning vositasida o‘zini yanada yaxshiroq anglashga harakat qiladi”¹. Bu ayni haqiqatdir. Chunki romanda zamon va davr qiyofasi o‘z ifodasini topadi. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligi tadrijini badiiy va ilmiy tafakkur masalalariga ko‘ra talqin va tahlil qilishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va struktural-semantik tadqiq usullari qo‘llanildi. Yangilanayotgan milliy romanlarda sintetizmning namoyon bo‘lishi kuzatilmoqda. Ma’lumki, roman – odam va olam munosabatlarini mavjud an’analarga tayangan holda, kompozitsion yaxlitlikda ifoda etuvchi janr. Shu bois differentsiatsion,

modifikatsion jarayonlar va diffuziylanish hodisasi bilan bog‘liq romaniy tafakkurning poetik ifodasi badiiy xronotopning uch tarkibli zamon-makon shakllari ishtiroki – «xronotop qopqasi orqali» amalga oshirildi. Sinkretiklik deyilganida, romanning nisbatan kichikroq yoxud tarixiy janrlarga xos xususiyatlar va boshqa badiiy birliklarni bemalol «hazm» qilishi, ya’ni milliy roman taraqqiyotidagi sinkretik jarayonning muayyan bosqichi nazarda tutildi. Binobarin, har bir roman o‘ziga xos mustaqil poetik sistemadir. Zotan, janr ichki tarmoqlanishi va uning yangi shakllari yuzaga kelishi, poetik ifoda yo‘sinlari turfalashuvi, muallif konsepsiyasi, epik xronotop, epik syujet, obrazlar olami, ifoda ko‘lami kabi masalalar umumbashariy adabiyotning markaziy konsepsiyalari negizida o‘z izohini topadi. Binobarin, yaqin o‘tmishda o‘zbek romani epik konsepsiyasi va obrazlari mohiyatini (odam va olam munosabatlari ilohiy garmoniyasi, eposlar turkumiga xos Vatan va alp tushunchalari, mif va mifopoetika, xronotop nazariyasiga bog‘lash) kosmik miqyoslarda idrok etish: Olloh – borliq – inson uchligi asosida tushunish va tushuntirish imkonsiz edi. Milliy romanlarimiz san’atning miniatyura, teatr, kino, kabi sinkretik janrlariga daxldor an’analarning ijodiy o‘zlashtirilishi jarayonlarini bosib o‘tdi. Janr xronotopi, kompozitsiyasi, fabulasi, syujeti, obrazlar olami va ifoda yo‘sinlarida muayyanlashayotgan o‘zgarishlar mustaqillik davri tafakkurining hosilasidir. O‘zbek romani taraqqiyoti ayni bosqichidagi romannavislarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish o‘rinlidir: 1. Poetik tafakkuri taqlid bosqichi bilan yaqin aloqador adiblar. 2. Poetik tafakkurida sof germenevtik munosabat yetakchilik qiluvchi adiblar. Ikkinchi guruhga mansub adiblarga milliy romanning yangi ichki shakllari, betakror

badiiy ifoda yo'sinlari yuzaga kelishiga munosib ulush qo'shishga qodirdir. Istiqlool davrida yuzaga kelgan: «Fano dashtidagi qush», «Rang va mehvar», «Zarradagi olam» (A.Dilmurod), «Bozor», «Donishmand Sizif» (X.Do'stmuhammad), «Go'ro'g'li» (N.Eshonqul), «Isyon va itoat», «Sabo va Samandar», «Yo'l» (U.Hamdam), «Boqiy darbadar», «Ozod», «Genetik» (I.Sulton) singari romanlarda umumturkiy va jahon adabiyotida sayqal topgan qadimiy mavzularga murojaat qilish kuchaydi. Aslida sinkretizm tabiatan muayyan madaniy-tarixiy, badiiy-estetik kanonlar doirasida izohlanuvchi hodisa emas. Balki mohiyat e'tibori bilan ulkan qamrovli, umuminsoniy poetik tafakkur mahsulidir. Zero, bu romanlarga xos jihatlarni kuzatgan professor A.Rasulov ularni «postmodern» metodiga asoslangan intilishlar sifatida baholagan edi. Nazarimizda, bu roman mohiyatini belgilashda uch muhim omil e'tiborda tutilishi lozim: a) XX asr o'zbek romanchiligi tajribalari, ayniqsa, 1960-yillarda Asqad Muxtor boshlab bergan va 1990-yillarda Murod Muhammad Do'st hamda Tog'ay Murod samarali davom ettirgan an'analarning ijodiy o'zlashtirilishi; b) mustaqillik davrida faol muomalaga kiritilgan diniy-ma'rifiy manbalar hamda milliy folklor, mumtoz adabiyot namunalari leksik-semantik va struktur qatlami; v) jahon mifologiyasi va ulkan poetik arsenalga ega dunyo realistik romanchiligi tajriba va an'analari. Isajon Sultonning «Ozod» romanini boshqa asarlar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali bu kabi ilmiy-adabiy masalalarga oydinlik kiritish mumkin. Ayniqsa, «Mini-roman» yaratish yo'sinidagi eksperimental izlanishlar kuchayib bormoqda. Keyingi yillarda yaratilgan shu tipdagi ixcham o'zbek romanlarida bir-biri bilan bog'liq quyidagi belgi-sifatlar kuzatildi: a) tasvirlangan voqealar zohiran

bir-biriga uzviy tutashmasligi; b) makon va zamon nuqtayi nazaridan farqlanuvchi reallik va xayolot qorishiqqligining poetik ifodaga ko‘chishi; v) badiiy tasvirda adabiy montajga asoslanish; g) ramz, timsollar tilida so‘zlash va ishoraviy mazmunni chuqurlashtirish; d) hayotning mohiyati va bashariyat taqdiri haqidagi fikr-mulohazalarning muallif shaxsiyatida yaxlit butunlikka aylanib, badiiy reallik kasb etishi. **Mini-roman** namunasi sifatida U.Hamdamning «Na’matak» asari keng tahlilga tortilishi maqsadga muvofiqdir. Uning janri «mini-roman» emas, balki zamonaviy novella tarzida belgilandi. Zotan, romanga asos muammo va uning ilmiy-nazariy talqinida badiiy matn mehvarida aks etgan meditatsiyaga yo‘l ochuvchi «kalit so‘z»ni topish lozim». Umuman, har qanday iste’dodli adibning minimum vositalar orqali maksimum natijalarga erishish yo‘lidagi izlanishlarini ijobiy baholash va kelajakda roman qanchalik ixchamlashishini vaqt hukmiga havola etish maqsadga muvofiqdir. Istiqlool davri o‘zbek romanlarida davr voqeligi tasviri, syujetdagi ixchamlashuv va xarakterlar qismati ifodasi jarayonlaridagi yangilanishlar ko‘zga tashlanmoqda. Milliy romanchilikda yangi mazmun va g‘oyalar, shakl va uslub nuqtayi nazaridan muttasil boyib borayotgani quvonarli holdir. U.Hamdamning “Na’matak” asari janri adib tomonidan “mini-roman” tarzida belgilangan. Mini roman - bu hajman mo‘jaz “roman” romanning jajji modelidir. Zotan, janr atamasidagi “mini” so‘zi hajm qisqa va ixchamligini bildiradi. Badiiy asar sarlavhasiga chiqarilgan “na’matak” atamasi fors-tojikcha so‘z bo‘lib, ra’nodoshlar oilasiga mansub butalar turkumini anglatadi. “Na’matak” asariga munosabat bildirgan filologiya fanlari doktori Sh.Turdimov fikricha: “Yozuvchi asarda na’matakni butadan Ismga

aylantira olgan. Voqea, kechinmalarni hikmatga payvand etgan... Yozuvchi asar nomiga bekitgan sir voqealar bayonida ochilgan... asar ulkan epik qamrovli voqelikni qisqa hajmga jamlagan... “Na’matak” – ma’joziy asar”. Anglashiladiki, asardagi qisqa va lo‘ndalikka tugal fikr hamda o‘tkir mazmun joylangan. Unda ulkan epik qamrovli voqelik mavjud bo‘lib, u kontekst mehvariga gizlangan ramz va majozni anglash orqali reallashadi. Asarda odam va olamning ilohiy mohiyati, umumbashariy va mangu muammolar o‘zbek mentaliteti negizida ramzli idrok etilgan. U.Hamdamning “Na’matak” nasriy bitigi epigrafida hayot sirlaridan voqif donishmand zotlardan eshitilgan quyidagi hikmat keltiriladi:

Qanday ko‘zla boqsa odam olamga,

Shunday javob aylar olam odamga, - degan ekan donishlar... Umr so‘nggida berilajak ajru mukofot odamning olamga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra namoyon bo‘ladi, degan yuqoridagi hikmat badiiy matn davomida naqorot sifatida to‘rt o‘rnida qaytariladi va syujet qismlarini o‘zaro birlashtiradi. Hikmatning so‘nggi misrasidagi “degan ekan donishlar...” (“ahli donishlar”, deyilmoqchi I.Yo.) so‘zi birinchi va ikkinchi gal to‘liq, uchinchi gal “degan ekan...” tarzida qaytarilib, to‘rtinchi gal umuman tushirib qoldiriladi. Darhaqiqat, band ixcham, sodda she’riy matn bo‘lib, muallif uni naqorot sifatida qo‘llagan. Naqorot-band takrorida muayyan muntazamlilikni saqlagan. Hikmat ifoda va shaklini badiiy matn g‘oyaviy-emotsional mazmuni rivojiga bo‘ysundirgan. Tadrijiy ravishda shaklan ixchamlashtira borib, asar so‘nggida uni mantiqiy tushuncha - to‘liq hukmga aylantirgan. Kitobxonni ham o‘zining olamiga bo‘lgan munosabati haqida o‘ylash,

his-tuyg'ularini taftish etishga undagan. Ushbu asarda uch avlod taqdiri haqida so'z boradi. Voqelik ikkita dalahovli qoq o'rtasidagi ajriqzorga aylangan qattiq yerdan o'sib chiqqan na'matak detali bilan bog'liqlikda rivojlanadi. Na'matakka bo'lgan munosabat qo'shnilar taqdiri (keng ma'noda, inson qismati) ni bog'lovchi sirli rishtaga aylanadi. Hech kim atayin ekmagan, maxsus parvarish qilmagan, egalik nigohi bilan boqmagan kezlarda na'matak to'rt tomonga tarvaqaylab o'sadi, son-sanoqsiz meva tugadi. Qo'shnilarning iliq mehri, bag'rikengligi, insofdiyonati tufayli moddiy ne'matga egalik hissi butkul unutiladi. Yillar o'tgach, hamsoyalardan birining uyida Yigit, ikkinchisida Qiz farzand ulg'ayib, voyaga yetadi. Avji bahor pallasida o'sha na'matakning chaman-chaman ochilgan nimpushti gullari, nafis iforlari oshuftahol qo'shni qiz xayollarini yuksak orzular quchog'iga chorlaydi. Na'matak gullarining hidlari, yanada aniqroq aytganda, bo'ysira qiz sochlaridagina bo'ladigan nafis bo'yning xush tarovati Yigit dilini sehrlaydi: "Yigit andak engashgan ko'yi nimpushti gullardan birini avaylab hidladi. Dimog'iga atirgul va yana allaqaysi chechak, balki, daraxt bo'ylaridan atirlar yetgandek bo'ldi, ammo, baribir, boshqa hid edi bu: yanada nafis, yanada o'zgacha tarovati bor edi uning!...". Yigit dimog'iga urilgan bu nafis ifor na'matak hidi aralashgan o'zgacha bo'y bo'lib, Yigit yonginasida: "kiprik qoqmay mahliyolanib turgan tamomila yangi bir gul, bo'lgandayam, borliqdagi jamiki gullarning a'losiyu ra'nosi - qo'shni qizning sochlaridan ufurayotgan mushku anbar"ning boshni aylantirib, ikki yosh dil kelgusi hayotiga tarh bo'lgulik shirin nasimlari edi. O'zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon"ning "Nega yerga qaraysan, Ra'no?" faslida Anvar va Ra'no

shirin suhbatlari asnosida: “hayotbaxsh kokillarining muattar bo‘yini uzoq hidladi”, deb yozadi. Ra‘noning to‘yni ko‘klamga qilish ra‘yiga ko‘ngan Anvar tilidan esa: “Yerlar ko‘k gilamlar bilan bezalganda, har tarafni binafsha chechaklari bosganda, qushlar uya qayg‘usini chekkanda biz ham to‘y qilarmiz; chimildiqda baxt sozini tinglab, istiqbol kuyini kuylarmiz...”, -degan haroratli satrlarni bitadi. Albatta, “Na‘matak”da bunday batafsil tasvir yo‘q. Lekin, yozuvchi “borliqdagi jamiki gullarning a‘losiyu ra‘nosi”, deb qisqa ta‘riflagan Qiz qaysidir jihatlari bilan o‘sha Ra‘noni esga soladi. Shuning uchun, oriyatli Qiz va mag‘rur Yigitning avji kuz pallasida na‘matak mevalarini bir-biriga ilinish hollari, ayniqsa, ikki o‘rtada kurtak ochgan samimiy muhabbat, na‘matak avji gulga kirgan fayzli ko‘klam kunlarida qudalashib, to‘y qilgan qo‘shnilar tutumi bilan bog‘liq voqealar bayoni ham ko‘ngilga xush yoqadi. Dilga bir qatim yorug‘ nur indiradi. Go‘yo na‘matak hidlari anqiyotgan dalahovli ko‘k gilamlar bilan bezalgan yer latofati, binafsha chechaklarga burkangan atrof-javonib malohati, uya qayg‘usini chekkan qushlar chug‘uri bilan bog‘liq qodiriyona poetik tasvirlarga qo‘shilib badiiy ifodaga ko‘chganday tasavvur uyg‘onadi. Dalahovliga mehr qo‘yib, shu yerdan umr mazmunini topgan ikki yosh xuddi na‘matak kabi yashab, novdalarini hayot kengliklari bo‘ylab baralla yozadi. Meva tugib, butadan farqli o‘laroq, qarishadi. Nihoyat, vasiyatlariga ko‘ra shu makondan so‘nggi safarga otlanib, yonma-yon manzil topishadi. Na‘matak ular beqiyos mehri, e‘tibori tufayli yasharadi, gurkirab o‘sadi. Nog‘oralar sadosi o‘rnini mung egallaganini aytmaganda, go‘yo vaqt o‘tmaganday. Ammo hayot qonuni, fursat degan sirli ne‘mat ixtiyoriga itoat etib, ikkinchi avlod bo‘y yetadi. Dalahovlilardan biri merosxo‘r kenja o‘g‘il

va ikkinchisi marhumaning yaqin qarindoshi ilkiga o'tadi. Ikki o'rtadagi "egasiz" na'matak atrofida boshlangan mulk talashish avval dag'dag'aga, keyin nizoga aylanadi. Raqiblik pastkashlikka do'nib, ziddiyat kuchaygandan kuchayadi. Nihoyat, yovuz kimsa qo'lidagi oybolta avval na'matakni chopib tashlaydi. So'ngra mazlum qo'shni boshi uzra yarqiraydi. Inson tomirlarida adovat bilan oqqan qonning jo'shishi xunrezlikka doya bo'ladi. Ikkinchi avlod taqdiri maqtuldan necha yillar so'ng qamoqda o'pka sili bilan hayotdan ko'z yumgan qotilning ayanchli taqdiri bilan tugaydi. Afsuski, qotil qismati haqida jo'n axborot beriladi va iztiroblari chuqur tahlil qilinmaydi. Tanishganimizday, bu asar asosida o'z boshlamasi, rivoji va yakuniga ega bo'lgan tugal voqelik yotadi. U.Hamdami tasvir asnosida inson xarakterining mohiyatini ochib beradi. Roviyo jo'n tavsifchi bo'lmay, asarda konfliktli rivoyaviy xususiyat - dramaga xos jihatlar ustuvorlik qiladi. Roviyo "xolis kuzatuvchi" mavqeida turadi. O'quvchi go'yo hayot sahnasida kechayotgan voqeani tamosha qilgandek bo'ladi. U.Hamdami poetik mahorati shu kundalik voqeadan hayotiy falsafa izlash, azal va abad muammolariga daxldor ramz-timsollar topish, kechinmalarni hikmatga payvand etib, e'tiborimizni inson "men"ligiga qarata olganida namoyon bo'ladi. U syujet liniyasini har bir avlod taqdiridagi kutilmagan burilishlardan olib o'tadi. Na'matak voqeasi - hayotning bir parchasini poetik jonlantiradi. Bir hayotiy holat ichidagi o'sish, uzilish va qayta rivojlanish hollarini ko'rsatadi. Shulardan kelib chiqib, mazkur asar janrini "mini roman" emas, balki zamonaviy novellaning go'zal namunasi deb belgilash maqsadga muvofiqdir. Albatta, kuzatilgan asarda romanga asos bo'luvchi problema bor. Yozuvchi inson taqdiri va jamiyat muammolari (keng

ma'noda, odamu olam munosabati) ni badiiy tadqiq etish, uning mohiyatini anglashga intilgan. Muammoni hal qilishda, qahramonlararo konfliktni ta'minlagan. Birinchi avlod o'z ichki olami tabiiy mayllari orqali muvozanatni ta'minlashga erishadi. Ikkinchi avlod xudbinlik va nafs botqog'iga botadi. Uchinchi avlodga kelib, ajdodlari muayyan bo'g'inining qilmishlari oqibatini taftish etish, ya'ni dunyo bilan hissiy munosabatga kirishish jarayoni sodir bo'ladi. Ma'naviy-ruhiy dunyo - botin olamida kechuvchi ziddiyat keskinlashadi. Ha, qo'yilgan muammoni hal qilish uchun tuyg'ular qarama-qarshiligi, mushohada jarayoni zarur edi. Zotan, inson o'z ichki olamidagi omonsiz kurashga xolis hakamlik qilish orqaligina individualligini namoyon eta oladi. Shubhasiz, Yigit va Qizning anglami hali hissiy xarakterda. Shunga qaramasdan, ikki yosh o'z taqdirini bir-biridan ayro tasavvur qilolmaydi. Bizningcha, o'sha hissiy kechinma teran idrok maqomiga o'sib chiqib, muhit bilan ziddiyat darajasiga yuksalmog'i kerak edi. Ma'lumki, zamonaviy adabiyotshunoslikda "roman" deyilganda epik turning yirik hajmli janri anglashiladi. Barqaror tushunchalarga ko'ra roman hajman katta bo'lishi, hayotni keng ko'lamda tasvirlashi, qahramon hayotining katta davrini qamrab olishi, uni turli ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog'liqlikda aks ettirishi lozim. Bu janrda yaratilgan asarda turfa taqdirlar qismati sertarmoq syujet liniyalaridan ko'zlangan bosh maqsad jamiyatning joriy holatini ifodalashdir. Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi amaliyotini kuzatish shuni tasdiqlaydiki, biz romanlarga xos deb hisoblab kelgan yuqoridagi belgi-sifatlar bu janr xususiyatlarini belgilash uchun yetarli emas ekan. Chunki istiqlol davri o'zbek romanlari hajmi bir jihatdan ixchamlashsa, ikkinchi jihatdan, roman-epopeya, hatto

sikl romanlar ham yaratilmoqda. Shunga mutanosib tarzda, roman qamrab olgan davr voqeligi tasviri ham gohida qisqa, gohida esa keng va ko‘lamdor tarzda namoyon bo‘lmoqda. Shubhasiz, “miniatyura” tasviriy san’at, adabiyot, teatr va sirkda faol qo‘llanadigan kichik hajmli badiiy asarlar - alohida janrlarni bildiradi. Badiiy adabiyot doirasida miniatyuralar deyilganida, kichik hikoya (novella), intermediya, ko‘ngilochar vodevil, hajviya, kulki-hikoya singari janrlar anglashiladi. Ta’kidlamogchimizki, shakliy ixchamlik doirasida ham real voqelik muammolari va dolzarb mavzular poetik tahlil etilishi mumkin. Albatta, buning uchun yuqorida sanalgan maxsus janrlar mavjud. O‘zbek romani “mini”lashishiga boshqa asoslar ham bormi? Bu savolga javob izlarkanmiz, quyidagi hol e’tiborimizni tortdi. Masalan, 1950-1960-yillardayoq AQShning rassomlik va musiqa san’atida minimalizm (ing. Minimal Art - minimal san’at) yo‘nalishi shakllangan. Poetik an’ana va zamonaviy milliy romanlarimiz turfa ko‘rinishlari bilan boyib bormoqda. Romanlar strukturasida an’anaviy motiv va timsollarga e’tibor ortib bormoqda. Mustaqillik davri erkin plyuralistik tafakkurining qadr-qimmatini va ahamiyati roman janrining ichki qurilishi bilan uyg‘un ravishda rivojlanmoqda.

Keyingi yillarda ilmiy fantastika san’atining kinematografiya, tasviriy san’at, teatr kabi turlariga kirib borgani, bir qator fantastik filmlar yuzaga kelgani va o‘z muxlislariga egaligi bilan ahamiyatga molikdir. Hojiakabar Shayxov romanlarida inson hayoti va tasavvuriga ma’naviy oziq berayotgan orzular, fantastik gipotezalar, texnik vositalaru tafsilotlar ko‘pincha aniq geografik makon va zamon muammolari bilan uzviy tutashadi. Bunday mulohazalar adibning «Telba dunyo» romani tahlili

misolida isbotlab berildi. Adabiyotshunos O.Sharafiddinov «Tutash olamlar» va «Ikki jahon ovorasi» asarlarini: «o‘zbek nasridagi birinchi mistik-fantastik romanlar», deb baholadi. «Tutash olamlar» romani tahlili orqali H.Shayxov uslubiga xos individuallik quyidagicha tasnif etildi: a) zaminda kechayotgan voqea-hodisalarni samoga ko‘chirish; b) romanning barcha sathlarida: (til, syujet, xarakter, sharoit, kompozitsiya) kontrast usulini qo‘llash orqali tasvir qabariqligiga erishish; v) ramziylikka alohida e’tibor qaratish orqali real hayot va ilohiyot haqidagi qarashlardan keng istifoda etish; g) epik bayonga allegorik mazmun singdirish va boshqalar. Jumladan, X.Do‘stmuhammadning «Donishmand Sizif» romanini tahlilga tortib, «roman-mif»ga asos bo‘lgan badiiy voqelikning genezisi, epik syujet va motivlar silsilasining shakllanish yo‘sinlari hamda obrazlar tizimi tipologik asosda talqin qilinganda, yunon folklor syujet tizimiga mansub «Sizif mehnati», «Sizif toshi» haqidagi epik syujetning o‘zbek romani doirasiga transformatsiyalanish jarayoni aniqlandi. Roman leytmotivi «Yoriltosh» o‘zbek ertagi konseptual mazmuni bilan qiyoslanganda shu jihatlar aniqlandiki, X.Do‘stmuhammad tashqi voqelikka xos barcha ziddiyatlar ko‘lamini Sizifning botiniy olamiga ko‘chirar ekan, muammoning poetik yechimini Sharq-islom falsafasi negizida hal qilgan. Ayni paytda, asarning individual belgi-xususiyatlari – «ong oqimi»ga asoslanuvchi erkin syujet negizida namoyon bo‘ladi. X.Do‘stmuhammad talqinida Sizifni donishmand deyishga asos beruvchi quyidagi fazilatlar birinchi o‘ringa chiqqan: a) mashaqqatlardan cho‘chimay, Korinf shahrini bunyod etish va mamlakat xazinasini boyitish; b) odamlarni o‘lim vabosidan qutqarib, shodlik ulashish; v) isrofgarchiliklarga barham berish; g) har

qanday mushkulotni tafakkur kuchi va yaqin mahramlar maslahati bilan oqilona hal etish; g) ezgulik va nurga talpinish; d) qat'iyatlilik, zukkolik va kuchli iroda. X.Do'stmuhammadning «Bozor» romanidagi fozil va mukarram zotlar: Zar bobo, Egam bobo, Solih qori, Fozilbek va Qadriyalar olamlararo sirkulyativ harakat (uch olam xronotopi)ni bog'lab turuvchi muhim vosita vazifasini bajarishadi. Adib romanda olomonlik geneologiyasi – loqaydlikning urchish sababini izlagan va ishonchli poetik hukm chiqargan. Adibning har ikki romani o'zaro chog'ishtirilsa va donishmand Sizif obrazi mantiqan, yozuvchi ijodining ichki tadrijidan o'sib chiqqani seziladi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda: «Badiiy shakl konservativroq hodisa bo'lganidan uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega. Mazmun esa o'zgaruvchanlikka moyil hodisa bo'lib, har bir badiiy asar mazmuni o'zicha originaldir», – degan fikr mavjud. Keyingi davr o'zbek romanlarini kuzatsak, boshqacharoq holat ham namoyon bo'ladi. Zero, «Rang va mehvar», «Zarradagi olam» (A.Dilmurod), «Boqiy darbadar», «Ozod», «Genetik» (I.Sulton), «Bozor», «Donishmand Sizif» (X.Do'stmuhammad) singari romanlarning barchasida inson va jamiyatga doir haqiqatlar o'ziga xos badiiy talqini bilan e'tiborga molikdir. Demak, mustaqillik davridagi global o'zgarish va yangilanish iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-mafkuraviy asoslardan tashqari, xalqimiz o'z tarixiy ildizlari, bugungi taraqqiyoti va istiqboldagi mo'ljallarini estetik anglashi jarayonida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mustaqillik yillari o'zbek romanlari janr strukturasi (lot. structure – qurilish, joylashish) esse (fr. essai – tajriba, sinab ko'rish), ya'ni muallifning muayyan masala, voqea-hodisa va hayotiy vaziyatga bo'lgan

individual fikr-kechinma, mushohada-mulohazalarini kompozitsion-tematik jihatdan erkin ifodalash imkonlari kengaydi. Garchi roman va esse har biri alohida janr bo'lsa ham milliy romanlar semantik-struktur jihatdan turli ko'rinishlar kasb etishida esselashuv jarayonining kuchli ta'siri kuzatiladi. Jumladan, aksariyat zamonaviy milliy romanlarda qo'yilgan muammo asarning markazida turuvchi subyekt (muallif) hayotiy tajribalari asosida, uning qalb prizmasidan o'tkazib, poetik talqin va ekspressiv bayon qilinmoqda. Shuningdek, roman-esse mualliflari safiga professional adiblar bilan birga, adabiyotshunos va faylasuf olimlar, san'atshunoslar, jurnalistlar, hatto, tibbiyot xodimlari ham kelib qo'shildi. Yozuvchi estetik maqsadidan kelib chiqib, narsa-hodisalarga mikro, makro va meta darajalarda – turli rakurslardan estetik munosabat bildirish imkoniyati kengaydi, janr rivoj topdi. U yoki bu tadqiqot mezon va usullarini qo'llash ehtiyoji adabiy jarayonda sodir bo'layotgan yangilanishlar mohiyatiga muvofiq tarzda yuzaga keladi.

N.Karimovning «Cho'lpon» ma'rifiy-biografik romanida shoir hayot yo'liga daxldor ijtimoiy-xronologik bayon uning siymosiga xos chizgilar asosida beriladi. Cho'lpon yashagan davr va shu muhit odamlari tarixiy-ijtimoiy aspektda – ma'rifiy biografiya ijtimoiy-adabiy muhit kontekstida yoritiladi. Asarga shoirga daxldor bo'lgan barcha manbalar jalb etiladi. Roman mundarijasi ham: «Uyg'onish», «Buloqlar», «Tong sirlari», «Oydin kechalarda», «Qor qo'ynida lola» tarzida tuziladi. Bir qarashdayoq, ularga Cho'lpon asarlari nomi asos bo'lgani, demak, adib shoir hayot yo'lini uning o'z bitiklari negizida yoritgani anglashiladi. O'zbek adabiyoti taraqqiyotining keyingi yillaridagina chinakam ma'noda roman-esse qatorida sanash mumkin bo'lgan Alisher Mirzoning

«Kallaxonalik yigitcha» va «Musavvir» dialogiyasi, Nodir Normatovning «Ro‘zi Choriyevning so‘nggi vasiyati» asarlari yuzaga keldi. A.Mirzo qalamiga mansub dialogiyaning «Kallaxonalik yigitcha» nomli ilk kitobida muallifning bolalik, o‘smirlik davri va uni katta hayot ostonasiga yetaklab kelgan quvonch-qayg‘uli, fikr-mulohazaga chorlovchi hayotiy voqelar tasvirlangan. «Musavvir» nomli ikkinchi kitobida, yozuvchi hayot va ijod jarayonida og‘ishmay amal qiladigan odamiylik hamda imon talablari, ma’naviy-ruhiy dunyosini nurafshon qilgan ishonch-e’tiqodning hikmatidan so‘zlaydi. «Kallaxonalik yigitcha» va «Musavvir»ni bir butunga aylantirgan omillar – bu Alisher Mirzo ijodiy niyatining yaxlitligi, bir-birini davom qildiruvchi umumiy syujet chiziqlari va personajlar umumiyligidir. Qayta ishlangan badiiy personaj – Baxtiyor Alimovning prototipi Alisher Mirzo, uning sirdosh do‘sti va suyangani tog‘i (birinchi romanda Shavkat) ikkinchi kitobda – Hikmatning prototipi esa iste’dodli rassom Shuhrat Abdurashidovdir. Qahramonlar o‘zga nom bilan harakatlanishi asardagi hujjatlilik badiiylilik bilan qorishganidan dalolatdir. Jahon adabiyotida bunday holning analoglari ham bor. Jumladan, S.Moemning «Oy va sariq chaqa» romanidagi Charlz Striklend obrazi prototipi mashhur rassom Pol Gogen edi. Alisher Mirzo shaxsiyatidagi go‘zal fazilatlar, uning ma’naviy javharidagi mavjudliklar asarlarida aks etgan. Asarda roman-esse syujeti adabiy sintez hosilasi bo‘lishini yuzaga chiqargan quyidagi omillar mavjud: 1.Rassom-adib asarni hayotiy voqelik va narsa-hodisalarni nafosatli his qilishi ta’sirida paydo bo‘lgan tuyg‘ularining badiiy ifodasi bilan ta’minlagan. Bu ritmni roman badiiy nutq qurilishi, rivoya va kompozitsiyasida to‘la saqlay olgan. 2.Tashqi xatti-harakat maydonini

o‘z ma‘naviy-ruhiy dunyosi, mushohada olami zamiriga ko‘chirgan.

3.Uzuq-yuluq ruhiy assotsiatsiyalarni o‘zaro chambarchas bog‘lashga erishgan. Buning natijasida, roman-esse shakl-mazmuni, poetik ifoda yo‘sinini o‘zgargan (deformatsiyalangan) tuyg‘u-kechinma dislokatsiyasi sodir bo‘lgan. Sodaroq qilib aytganda, tuyg‘u o‘z holatidan siljib ijodkorning butun borlig‘i – muhokama-mulohaza fazasini qamrab olgan. Bunday holat ilmiy tilda kraudion plastiklik deb ataladi. Roman-esseda badiiy voqelikka g‘oyaviy-hissiy munosabat bildirilishi kuzatiladi, bu muallif ideali bilan hayotda sodir bo‘layotgan hodisalar o‘rtasidagi keskin nomuvofiqlikka asoslanishidandir. Adibning tasdiq orqali ifoda etgan inkorlari zamirida nimtabassumga yo‘g‘rilgan kinoya, ironiya va achchiq kesatqlariga aniq misollar berilgan. Musavvirning «Xayol», «Inson va yopiq eshik», «Inson va boshi berk ko‘cha» suratlari Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanidan ijodiy ilhomlanib chizilgandir. Roman-esse g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasida bayonchi «Men» obrazi muhim o‘rin tutishini ta’kidlangan. Alisher Mirzo epik bayon tarzi va ifoda uslubida A.Qodiriy hajviy hikoyalari, Oybek, G‘.G‘ulom va T.Murod qissalariga yaqinlik seziladi.

Nodir Normatov qalamiga mansub «Ro‘zi Choriyevning so‘nggi vasiyati» asari misolida roman-esseda individual uslub va poetik mahorat muammosini tahlil qilib ko‘ramiz. Adabiyotshunoslikda uslub (ar. tartib, usul, yo‘sin, tarz) badiiy asar arxitektonikasining qay tarzda qurilganini belgilovchi umumiy prinsip – poetikaning muhim kategoriyasi ekani ta’kidlanadi. Uslub ijodkor shaxsi va ijodiy individualligini belgilovchi muhim kategoriya bo‘lib, yozuvchi uslubiy o‘ziga xosligi romanning barcha sathlarida (poetika va ritorika) birdek namoyon bo‘ladi. Uslub

yoʻzuvchini voqelikni yaxlit butunlik sifatida idrok etishga undaydi. Hayot materialini badiiy sistemaga («dispozitsiyani kompozitsiyaga», D.Quronov) aylantirishga yoʻnaltiradi. Shularni nazarda tutib, «Roʻzi Choriyevning soʻnggi vasiyati» roman-essesida Nodir Normatovning badiiy voqelikni ifodalash tamoyillari, shakl unsurlarini yaxlitlikka birlashtirish, har bir unsurning butun tarkibidagi mohiyati va funksiyasini talqin va tahlil qilish mumkin. N.Normatov romanda R.Choriyev qanday qilib rassom boʻlganini boshidan oʻtgan hamda koʻnglida kechgan voqelik fonida tasvirlagan. Adib asar kompozitsion toʻqimasiga oʻzi hissiy idrok etgan, eshitgan va kuzatganlari, tarixiy hujjat va maktublar, musavvir xotira va xayollari, rassom yon daftaridagi sanʼat va adabiyotga munosabat ifodalangan nazariy qarashlar, amaliy tajribasining natijalari, tarjimai holidagi iqrorlari, R.Choriyev shaxsi va ijodiga bagʻishlangan sheʼr hamda maqolalarni kiritgan. N.Normatov isteʼdodli rassom R.Choriyevning murakkab hayot yoʻli va ijodiy merosini keng kitobxonlar maʼnaviy mulkiga aylantirishga erishgan. Bu yoʻzuvchi uslubiy individualligi roman-essening barcha sathlarida yorqin namoyon boʻlganini koʻrsatadi.

«Modern» romanda badiiylik moduslari ham kuzatilmoqda. Modus (lot. modus – koʻrinish, tur, oʻlchov, usul) boʻlib, bu terminni zamonaviy oʻzbek romanlarida badiiylik koʻrinishlari va qonuniyatlari: kinoyaviylik, tragiklik, satiriklik, dramatiklikning namoyon boʻlish usullari maʼnosida tushunish mumkin. Aslida kanadalik olim Nortrop Fray «modus» tushunchasi ostida muallifning badiiy asar qahramoniga boʻlgan nuqtayi nazarini izohlab, bu atamani adabiyotshunoslikka tatbiq qilgan. Biroq u badiiylikning umumestetik koʻrinishlari va adabiy janrlar

o'rtasiga muayyan chegara qo'ymagan. Rus olimi Valeriy Tyupa bu tushunchaga muallifning g'oyaviy-emotsional bahosi, deb qaraydi. O'zbek adabiyotshunosi D.Quronov esa modusni «g'oyaviy-hissiy munosabat yoxud muallif emotsionalligidan tashqari, qahramonni tipiklashtirishning o'ziga xos ko'rinishi», deb izohlaydi. Badiiylikning ro'yobga chiqishi subyekt – obyekt – adresat butunligida anglanishi jihatidan so'nggi qarash haqiqatga yaqindir. Zotan, muallifning voqelik va qahramonga munosabati qay tarzda yuzaga chiqishini belgilamasdan, muayyan roman g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida ishonchli xulosa chiqarish mahol. Jumladan, N.Eshonqulning «Go'ro'g'li» romanida satirik modus markaziga alohida shaxs taqdiri emas, balki «niqob»langan ijtimoiy tiplar qismati qo'yilgan. Muallif faol munosabatiga ko'ra, ular keskin inkor etilgan. Bu hol qahramonlik modusi muayyan transformatsiyaga uchrab, uning ziddi bo'lgan aksilqahramon yuzaga kelganini ko'rsatishda qo'l keldi. Jumladan tragiklik va satirik moduslar – estetik analogiya vositasidir. Ma'lumki, analogiya – (yun. analogia – moslik, o'xshashlik) bo'lib, zamonaviy milliy roman poetikasi uchun yangilik deb qabul qilinayotgan: iztiroblar tasviriga e'tibor ortishi, falsafiy mushohadakorlik kuchayishi, zamon va makon irrealligi, ko'p yechimlilik va boshqa belgi-sifatlarning jahon adabiyotida o'ziga xos muqobillari mavjud. Shuning uchun, roman poetikasi haqidagi talqinlar bilvosita analogiya negizida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, poetik yangilanishlarning bir ildizi qisman, dunyo adabiyotida mavjud modellarga ham tutashadi. Zotan, analogiyaning biri ikkinchisini to'ldirib, izohlab keluvchi ikki turi farqlanadi: a) xususiyatlar analogiyasi; b) munosabatlar analogiyasi.

N.Eshonqulning «Go‘ro‘g‘li» romanini imkon qadar shu yangicha usulda talqin qilinishi maqsadga muvofiqdir. Asar xususiyatlar analogiyasi nuqtayi nazaridan tahlilga tortilsa, birinchidan, Sharq va G‘arb romanlarini yakka holda o‘rganish, ikkinchidan, o‘zaro o‘xshash belgilariga ko‘ra muayyan guruhga ajratib qarash imkonini beradi. Aslida har bir adibni o‘z ijodiy kredosiga ko‘ra tanish va baholashda quyidagi uch jihat muhim sanaladi: a) yozuvchi ilhomi asl javharga monandligi; b) adibning Haq va haqiqat haqidagi mushohadasi qanday qadriyatlarga asoslanishi; v) ijodkor badiiy kashfiyoti nimalardan iborat ekani. Shuning uchun «Go‘ro‘g‘li» romani o‘z milliy asoslari, jahoniy analoglari hamda yozuvchi badiiy matn mehvariga yashirgan mushohada va ko‘ngil holi nuqtayi nazaridan tahlil qilingani ma’qul. Zero, yozuvchining adabiy-estetik qarashlarida ham aynan shunday to‘xtamni kuzatish mumkin: «Fikr – botiniy qiyofa, odamning, shaxsning ichki qiyofasini ko‘rsatib turuvchi ko‘zgu. Fikri yo‘q odamning qiyofasi ham bo‘lmaydi. Fikr odamning o‘zligini, o‘ziga xosligini bildirib, mavjudligini ko‘rsatib, talab qilib turadi. Fikr, aslida, «men mavjudman» degani. Fikr yo‘q joyda olomonchilik va johillik ko‘pchiydi. Mening fikrim – bu mening qiyofam». Anglashiladiki, roman qahramoni muallif estetik konsepsiyasi asosida o‘ylaydi, fikrlaydi va so‘zlaydi. E’tirof etish joizki, bu romanni o‘qish va uqish ancha qiyin. U bir o‘qishdayoq kitobxon shuuriga to‘la jo bo‘lmaydi. Chunki gap nima haqda borayotganini ilg‘ashga qiynalib, kalavaning uchini yo‘qotib, qayta o‘qishga ehtiyoj seziladi. Bu hol asarning jumla tuzilishi, gap qurilmasi, fikrni ifoda etish uslubida kuzatiladi. Muallif badiiy tafakkuridan boshlanib, poetik tasvir va obrazlar tabiatiga ko‘chuvchi

o'sha g'ayritabiiylik sekin-asta kitobxonni o'ziga jalb eta boshlaydi. Sodir bo'layotgan ishlarda tayinli mantiqdan darak yo'qligi, aksincha bu g'ayritabiiylik tobora chuqurlashishi kishini mushohadaga, istehzolar mohiyatini anglashga chorlaydi. «Go'ro'g'li» – hazmi og'ir, modern roman. Shuning uchun kitobxonda uni tushunadigan kayfiyat tug'ilishini, hech bo'lmaganda, roman badiiy vaqti qamrab olgan davr mohiyatini anglab yetgach, bu asar mutolaasiga kirishishni talab etadi. Hayotiy jarayondan uzilib qolgan qahramon birdaniga harakat va fikrdan to'xtamaydi. Biroq, u bora-bora insoniy ro'shnolikdan darak bo'lmagan bu diqqinafas, tussiz va fayzsiz hayotdan bezadi. Tirik odamni go'rga tiqqan jamiyatga qasdma-qasd yashashda biror ma'no ko'rmaydi. «Go'ro'g'li» xalq dostonida ijtimoiy-ma'naviy tanazzulni ilk bor yosh Go'ro'g'ligina ruhan his qiladi. U odamlardan arazlab, Bolli ko'liga chiqib ketar ekan, ich-ichida el oqillari Rayhon podshoga qarshi birlashishini kutadi. Afsuski, Go'ro'g'libek tilidan «benomuslar», deb baholangan elda bunday hol sodir bo'lmaydi. Binobarin, eposda donishmand xalq mamlakatni ichki va tashqi dushmandan xalos etuvchi yangi avlod darg'asi, L.N.Gumilev ta'biri bilan aytganda, «passionar shaxs» – Go'ro'g'lini o'z qadrini bilmagan avlodga qarshi qo'yadi. N.Eshonqul ham inson qismatiga befarqlikni, hech kim fojia sifatida qabul qilmasligi misolida azaliy qadriyatlar poymol etilayotganini ko'rsatadi. Romanda etnos o'z xaloskorini ulg'aytirmaydi. Mash'um saltanat uni «yutib» yuboradi. Bizningcha, roman shafqatsiz realizmi ham aynan shu o'rinda, ya'ni begona etnosning behad xavfli kuch-qudratini ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Chunki, sho'ro jamiyati elga bek bo'lishi mumkin bo'lgan fuqaroni itoatkor qul qilish bilan

cheklanmay, uning nomini ham unuttirish darajasida tubanlashgan. Bu o'rinda «tirilish» motivi romandagi poetik hukmning ishora qatlamiga ko'chadi. Zotan, bir inson boshiga tushgan kulfatga befarq jamiyat tanazzuli yangi etnos paydo bo'lishi muqarrar ekanidan ham darak beradi. Yozuvchi adabiy-estetik konsepsiyasi g'ayrat-matonatli, vatanparvar – yangi passionar shaxslargina yaratishi mumkin bo'lgan etnik-ijtimoiy biomaydon sog'inchi jihatidan qadimiy qahramonlar: Kultegin, Gilgamish, Go'ro'g'li, Alpomishlarni ijod etgan xalq poetik tafakkuriga uyg'un. Zotan, N.ning o'limi ramziy ma'noda, tanazzulga uchragan epik makon (mustamlaka yurt)ni anglatadi. Demak, adib mazlum xalqni ergashtiruvchi qudratli kuch sohibini sog'inadi. Vorislik tamoyili unutilgan, takomillashuvdan begona jamiyat qonunlari ustidan istehzoli kuladi. Nazar Eshonqulning «Go'ro'g'li» romanida majoziy, xayoliy-parodoksal poetik ifoda, ayrim tasvir va epizodlar F.Kafkaning «Evrilish» hikoyasidagi hashoratodam Grigori Zamza taqdirini ham esga soladi. Ijtimoiy tartiblarda uchrovchi ayrim «nozik» jihatlar, xususan, sho'ro davri sud va ijro tizimida namoyon bo'lgan turfa nayranglardan bexabar N. hukmda «istisno holat» bo'lishi mumkin ekaniga ishonib qattiq adashadi. «Anglashilmovchilik» tufayli qabrga ko'milgan murdani «chiqarib olish»ga rozi bo'ladi. Afsuski, N.ning eng katta xatosi barcha imkoniyatlarini to'la ishga solmagani, o'zgalarga ortiqcha ishonganida emas, balki mavjudligini isbotlashga uringanida edi. Odam har qancha haq bo'lmasin, butun boshli qonun va uni ijro etuvchi o'nlab muassasalarga qarshi kurasha olmaydi. Bu jarayonda yolg'izlanib qoladi va inkor etiladi. Roman so'nggida N. o'zining hech kim ekanini anglab yetadi. «Go'ro'g'li» romanida hozirgi o'zbek romanlarida

kuzatilayotgan ro‘yo bilan reallik, xayolot bilan hayotning aralash tasvirlari faol qo‘llanilgan. Biroq asarning xotimasi Sharq kitobxoniga u qadar o‘tirishmaydi. Chunki N. adoyi tamom bo‘lgani, endi muhitga qarshi kurashishga madori yetmayotganidan noliydi. Ya’ni azob chekib yashayotganini biladi va o‘z hayotiga nuqta qo‘yadi. N.Eshonqul shaxs erkinligi masalasida N.ning o‘zini ro‘yobga chiqara olmasligida bir tomondan, ijtimoiy hayot va sho‘ro jamiyatini ayblaydi. Ikkinchidan, harakatdagi inson konkret sharoitda subyektiv va noilojdir, degan xulosaga keladi. O‘zining ozod, umuminsoniy qalbini izlash, rangin iztirob-g‘ussalariga muayyan ism topishga urinadi. Insonning ajralmas boyligi bu – emotsional dunyosi ekani, ya’ni ekzistensializm g‘oyalarini tasdiqlaydi. Milliy adabiy-estetik asoslardan qisman uzoqlashadi. Jamiyat ijtimoiy-ma’naviy hayotining mohiyatini taftish etishda esa, adib uni to‘la inkor etadi. Bu o‘rinda kulgining fosh qiluvchilik xususiyati yetakchilik qiladi va satirik modus yuzaga chiqadi. Zotan, amaldagi tartiblar va uning barcha ijrochilari o‘zlari egallagan mavqe va da’vo qilayotgan maqomlariga munosib emas. Demak, satirik modus markaziga alohida shaxs taqdiri emas, balki «niqob»langan ijtimoiy tiplar qismati qo‘yilgan. Muallif faol munosabatiga ko‘ra, ular keskin inkor etilgan. Yozuvchi romanda bu tiplarni qahramon – aksilqahramon tarzida tasvirlagan. Bu hol qahramonlik modusi transformatsiyaga uchrab, uning ziddi bo‘lgan aksiqahramon yuzaga kelishida yorqin ko‘rinadi. Anglashiladiki, «Go‘ro‘g‘li» romanida tragiklik va satirik moduslar qorishiq holda qo‘llanilgan. Bizningcha, bu o‘rinda Syoren Kyorkegordan boshlanib, Karl Yaspers, Martin Xaydegger, Jan Pol Sartr, Gabriel Onore Marsel va boshqalarda davom ettirilgan, bir uchi

Nikolay Berdyayevning romantik va mistik qarashlariga borib tutashuvchi ekzistensializm falsafasiga xos ayrim jihatlar bo'y ko'rsatadi. Mazkur falsafaning inson borlig'ini bilish va shu borliq ichki mohiyatini tushunishga urinish yo'sini F.Kafka, M.Avreliy, F.Dostoevskiy ijodiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. «Go'ro'g'li» romanida XX asrning fojiali hodisalari, asosan, to'g'ri aks ettirilgan. Muallif roman qahramoni N. taqdiri orqali muhit tug'dirgan fojidan chiqib ketish yo'llarini iztirob bilan izlagan. Adib «Go'ro'g'li» romani mohiyati va jurnalxonlar hukmiga havola etilish «tarixi»ga to'xtalib: «O'zining tirikligini, mavjudligini isbot qilib berolmagan, insonning tirikligi va mavjudligini tan olmagan, insoniylik sha'n va g'ururini xo'rlash va haqoratlash evaziga yashagan o'sha mustabid tuzumdan chiqariladigan kichik bir saboq bo'lib qolishi uchungina uni baribir e'lon qilishga jazm etdim,» – deb yozadi. Bu iqrorga tayanib, «Go'ro'g'li» romani adibning XX asrning 90-yillaridagi ijodiy kayfiyati, estetik qarashlariga xos belgilarni tashiydi, degan xulosaga kelish mumkin. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasida quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi 1.Mustaqillik davrida milliy qadriyatlar va boy ma'naviy merosni e'zozlash, jahon adabiyoti tajribalarini ijodiy o'zlashtirishga imkon beradigan ijtimoiy-adabiy muhit yuzaga keldi. Erkin va plyuralistik tafakkur asosida badiiy ijod qilish, xalqimizning tarixi hamda bugungi hayotini xolis aks ettirishga intilish kuchaydi. 2.Istiqlol davri o'zbek romannavislari dunyoqarashi yanada yuksalishi, poetik mahorati ortishi uchun quyidagi imkoniyatlar eshigi ochildi: a) folklor va mumtoz adabiyot, tarixiy-madaniy merosning ma'naviy, shakily-uslubiy, ifodaviy tajribalari bilan mustahkam robita tiklandi; b) turli fan

va san'at sohalari yutuqlari bilan yaqindan tanishish harakatlari kengaydi; v) ijodkorlar jadidchilik davridagi uyg'onish va yaxlit XX asrda millat ziyolilari ongida kechgan, u yoxud bu ko'rinishda namoyon bo'lgan kurashchanlik ruhiga ma'nan yaqinlashdi; g) sho'ro davri adabiy siyosati tufayli badiiy matn tagqatlamida yashirin tarzda ifodalangan iztirob va armonli tuyg'ular, latif orzu-kechinmalarning milliy tabiati anglab yetildi; d) ustoz adiblar mahorat maktabidan ijtimoiy fikrni poetik g'oyaga aylantirish va qahramonlar harakati, fikr-tuyg'ulariga ko'chirish tajribasi o'zlashtirildi; e) jahon nazariy-falsafiy, adabiy-estetik tafakkuri yutuqlari milliy asosda sintez qilindi. 3. Yangi romanlarni alohida shaxsiyat, mustaqil dunyoqarash, poetik tafakkur sohibi bo'lgan turli avlodga mansub adiblar yozishdi. Shuning uchun janr shakllari ham turfalashdi. Ijodiy metodlararo sintezlashuv yuzaga chiqib, realizm o'zining yangi imkoniyatlarini namoyon etdi. Muayyan adabiy oqimga mansublik, dunyo romanchiligi ijodiy maktablaridan ijodiy ta'sirlanish va uslubiy o'ziga xoslik xilma-xillashdi. 4. O'zbek romani janr ko'rinishlari jihatidan: dilogiya, trilogiya, tetralogiya, pentalogiya, epopeya; mavzu-muammolar qamroviga ko'ra: falsafiy roman, tarixiy roman, siyosiy roman, memuar roman, publitsistik roman, biografik roman, ma'rifiy roman, roman-mubohasa, roman-istehzo, roman-rivoyat, roman-mif, mini-roman kabi ayrimlari hatto ilgari bosqichlarda umuman bo'lmagan yangi shakllar hisobiga boyidi. Janrning ijtimoiy-falsafiy qamrovi va poetik ifoda arsenali kengaydi. Bu hodisa uning syujet, kompozitsiya, konflikt, qahramon, poetik tasvir tamoyillari, struktural qatlami, semantikasi va badiiy ifoda yo'sinida sezilarli o'zgarishlarni vujudga keltirdi. 5. Roman – global dunyo

rivojlanish tendensiyalari va zamon shiddatini butun murakkabliklari bilan ifoda etishga qodir janr. Shuning uchun uning shakl-shamoyili va mazmun-mundariyasi doimiy o'zgarishda. Doimiy o'sish o'zgarishda ekani sababli roman qat'iy kanonlarga bo'ysunmaydi. 6. Romaniy tafakkur tarzi va poetik tasvir usuli yozuvchi badiiy olamida shakllanadi. Roman jahon xalqlari badiiy tafakkurida vujudga kelgan shakllar va vositalarni ijodiy o'zlashtirib, tamomila yangi poetik voqelik yaratadi. Zamonaviy o'zbek romanlari sinkretiklik xususiyati ortib borayotgani sababi shunda. 7. Milliy romanlar badiiy tasvirida shaxs botiniy olamida kechuvchi mikrodialoglarga (ichki harakat) e'tibor ortdi. Poetik voqelik mohiyatini jonli muloqot – dialogga kirishish tashkil eta boshladi. Chunki inson tabiatan doimiy muloqot vaziyatida yashaydi. U odamlar bilan, shuningdek «men» va undan boshqa barcha («o'zga») sifatidagi g'ayriqutb bilan muloqotga kirishadi. Sanoqsiz shakllarda namoyon bo'ladigan bunday kommunikativ murakkablikning poetik ifodaga ko'chishi badiiy asarning ishonchlilik darajasini orttirdi, intellektual kitobxon ma'naviy-ruhiy ehtiyojini qondirdi. Ayni paytda, aksariyat romanlarning keng ommalashuvini ham sustlashtirdi. 8. Millat vakillari o'zligini anglash jarayoni chuqurlashishi ijtimoiy-estetik, adabiy-badiiy hodisalarga ta'sirini o'tkazdi. Nashr qilingan eng sara romanlarning qahramonlari o'zini kashf qilish va anglashga intiladi. Mustaqillik davri o'zbek romani struktur-semantik qatlamida muallif va boshqa qahramonlar ovozig a o'zaro uyg'un jaranglaydigan mikrodunyolar paydo bo'ldi. 9. Mustaqillik davri romanlari badiiy-falsafiy mushohada maydoni vazifasini o'tamoqda. Chunki, hozirgi romanlarda insonning shaxslik maqomi, millat va vatan taqdiriga aloqadorligi ifodalanmoqda.

Ular tarixiy-milliy, diniy-axloqiy qadriyatlar va islom falsafasiga tayanib yaratilmoqda. Romannavislar insonning Olloh, odam, tarix va bugun oldidagi burchini badiiy idrok etishga intilishmoqda. Zamonaviy romanlarda yaratilish va yashashdan maqsad, insonga berilgan ilohiy imkondan foydalanish mavzulariga e'tibor kuchaydi. 10.Tarixiy romanlarda xalqimizning o'tmishda kechgan hayoti, bobolarni yuksaltirgan go'zal ma'naviy fazilatlar yoritilmoqda. Bunday romanlarda umumbashariy qadriyatlar ustuvor estetik mezon bo'lmoqda. Romanlarda jahongirlar va shayx-valiylar, shoir hamda allomalar obrazlari yaratildi. Ularning o'ziga xos imon-e'tiqodi, maqsad-maslagi, fikrlash tarzi, ruhiy-psixologik olami estetik tahlil obyektiga aylandi. 11.Hozirgi romanlarda voqea-hodisalarni adabiy qahramon qalbidan o'tkazib tasvirlashga e'tibor ortdi. Milliy romanchilikda keng tarmoqli syujetlar o'rnini yuksak intellekt va nozik tuyg'uli shaxslarning ichki dunyosini badiiy tadqiq etish egallay boshladi. 12.Tarixiy romanlar markaziga ham voqealar emas, balki real insonning hayot konsepsiyasi chiqarilmoqda. Tarix orqali millatning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-ma'rifiy sifatlari badiiy tadqiq etilmoqda. Bunday romanlar millatning o'zligini anglashi, g'ururini yuksaltirishda muhim o'rin tutmoqda. 13.Mustaqillik davri romanlarida mistika, romantik idrok, falsafiylik, psixologizm, intellektuallik, ong oqimi va ongosti ifoda unsurlarini qo'llashga intilish kuchaydi. O'zbek adiblari modernizm, postmodernizm, syurrealizm, ekzistensializm, irratsionalizmga xos belgi xususiyatlarni milliy negizda o'zlashtirishmoqda. 14.Zamonaviy milliy romanchilikda harakatdagi zamon – tugallanmagan voqelik tasviri ustuvor o'rin tutadi. Mustaqillik

yillarida tarix va hozirgi zamon o'rtasidagi chegaralar nisbati o'zgardi. Bu hol milliy romanlarning til va uslubi ko'p qatlamli hamda serqirra bo'lishiga olib kelmoqda. 15.Zamonaviy o'zbek romanlarida inson fikr-o'ylarini bezovta qilayotgan muammolar, e'tiqodiy qarashlar mohiyatini anglash jarayonining poetik tasviriga e'tibor kuchaydi. 16.Istiqlol davri o'zbek romanchiligi poetik arsenali jahon adabiyotida kechayotgan o'zgarish va evrilishlar hisobiga boyimoqda. Poetik ifodada muallif dunyoqarashi, obrazlarning qalb kechinmalari butun murakkabligi bilan aks etmoqda. Bu hol milliy romanchilik yangi badiiy tadqiq tarziga o'ta boshlagani belgisidir. 17.Mustaqillik davri romanlarida hajm ixchamlashishi jarayoni kuzatilmoqda. Bu voqealarni tasvirlashdan ko'ra uning obrazlar ruhiyatida qoldirgan suvrati aks ettirishga e'tibor kuchaygani belgisidir. 18.Ayrim romanlarda ilohiyot va g'aybga doir mazmun-mohiyat aks etishi kuzatilmoqda. Ularda oddiy insonga tegishli jihatlar majoz va ko'chim bag'rida tasvirlanadi. Ilohiy kitoblar, agiografik manbalarda ifodalangan sirli holatlar istiqlool davriga uyg'un tarzda badiiy talqin qilinmoqda. 19.Zamonaviy o'zbek romanlari bayon tarzida muallif va personaj nutqi, hayotiy hamda xayoliy, xotirada qayta jonlangan, tasavvurda yuzaga kelgan evrilishlar tasvirining yonma-yon kelishiga e'tibor ortdi. 20.Istiqlol davri romanlari poetikasida o'ziga xos quyidagi belgilar ko'zga tashlanadi: a) realizm o'zining yangi imkoniyatlarini namoyon etayotgani; b) janrlar mutatsiyasi va gibridlashuv sodir bo'lgani; v) metaforik tafakkur kengaygani; g) poetik metamorfozalarga e'tibor ortgani; d) o'quvchi tasavvur dunyosi muallif nigohi bilan uyg'unlashayotgani; e) uslub samimiyati o'quvchini o'ziga ergashtirib, milliy turmush sahnalari tasviri uning ichki olamida

poʻrtanalar hosil qilayotgani; yo) syujet voqealari va vaziyatholatlar tasviri mozaika boʻlaklari singari berilib, ramzlar tevaragida jipslashib rivoj topayotgani; j) poetik ifoda inson xayolotini yangi dunyolarga yetaklashi; z) gumanistik pafos teranlashayotgani. 21. Mustaqillik davri oʻzbek romanlari poetikasida quyidagi kamchilik va nuqsonlar kuzatiladi: Bayonchilik va fikr takrorlari. Naturalistik lavhalar hamda kitobxonni zeriktiruvchi mavhumlik; Obraz nutqini individuallashtirishda makon-zamon aniqligiga yetarli eʼtibor bermaslik; poetik nutqda grafik oʻziga xoslikka erishilgan holda, uni emotsional jihatdan toʻyintira olmaslik; syujet va konflikt rivojida publitsistik bayonga berilish; dialog va monologlarda muallif nutqi taʼsirining sezilishi; ehtirosli, pardasiz sahnalarning ochiq tasvirlanishi; ijtimoiy muammolar talqinida keskin konflikt yetishmasligi; ilmiy gipoteza va bashoratlarga moyillik; tafsilotlarga ortiqcha berilish; A.Kamyu va F.Kafkaga taassub qilish; fikrlarni mantiqan tutashtira olmaslik; badiiy voqelikka analitik munosabat bildirish; tarixiy materiallarning hissiy toʻyintirilmasligi; didaktika va yalangʻoch nasihatbozlik; ijodiy niyatni poetik dalillay olmaslik va sxematizm; badiiy asar janrini toʻgʻri belgilay olmaslik.

Ulugʻbek Hamdamning “Isyon va itoat” romani qahramoni – asar oxirida yoshi oltmishlarni qoralab qolgan Akbar butun ongli hayot davomida — Nahotki inson hayoti hech nimaga arzimasa? Degan savolga javob qidirib oʻtdi. Adolatli hukm chiqaraman, deb qasam ichgan hakamning yuzsizligi tufayli kesilib ketishi, ozodlikka chiqqach ham tushungan odamlar tomonidan kamsitilishi, oila boshligʻi boʻla turib, bir tishlam goʻshtga zor bolalarning ehtiyojini qondira

olmayotganligi, sho‘ro mafiyasining zulmiga chidash, tibbiyot professorining «grippga o‘xshagan kasalliklarni vaqti-vaqti bilan kuchaytirish kerakligi, — o‘shanda mo‘rtroqlaru zaifroqlardan tozalanib turishlik, shunda — dori-darmondan ancha-muncha pul ishlab olish mumkinligi» haqidagi nazariyasi va boshqa qator-qator o‘ylab chiqarilmagan, hayotiy ziddiyatlar asar qahramonining isyoniga sabab bo‘ladi. Akbar ma’naviyatga intiladi, tinmay kitob mutolaa qiladi, qalbida ma’rifiy inqilob yuz beradi. Insoniy qadr-qimmati toptalgan fohisha Dianani yangi, pokiza hayotga chorlaydi, himoyasiz kampir qo‘shnisiga beminnat g‘amxo‘rlik qiladi. Shu tariqa isyonkor qalb itoatga keladi. Ulug‘bek Hamdamning bu romani falsafa va adabiyotdagi taqdir va inson munosabatlari masalasiga bag‘ishlangan. O‘z taqdirining quli bo‘lgan inson qalb isyoni tufayli va o‘z ahvolini yaxshilash yo‘lidagi urinishlari oqibatida faqat soxta erkinlikka erisha oladi. Haqiqiy erkinlikka erishish uchun esa u taqdir qulligidan qutilishi lozim qabilidagi aqida bilan tanishadi kitobxon. O‘zbek xalqiga xos xususiyatlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar Tursunboy obrazida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Ulug‘bek Hamdamning “Sabo va Samandar” asari haroratli til bilan yozilgan. U oldindan mutlaqo bashorat qilib bo‘lmaydigan o‘ta chigal insoniy taqdirlar tasviriga bag‘ishlangan bo‘lishiga qaramay, shavq bilan yengil o‘qiladi. Bunda yozuvchi qo‘llagan tasvir uslubining o‘zgachaligi katta o‘rin tutgan. Zero, zamonaviy o‘zbek romanida nafaqat tasvir obyektini tanlash va unga konseptual yondashuv, balki ifoda yo‘sinida ham ovro‘pocha andazalarga amal qilinadi. Ulug‘bek Hamdam esa keyingi yillarda unutilgan bo‘lsa-da, o‘zbek o‘qirmanlarining qonida asrlar davomida

olib yotgan tasvir tarzidan foydalanib, tasvirda qoraso‘z (nasr) bilan she‘rni uyg‘unlashtirib yubordi. Bu hol uch jihatdan: ham qadimgi an‘analarni qayta jonlantirish, ham bosh qahramon bo‘lmish Samandarning shoirona tabiatini yorqin tasvirlash, ham u bilan Sabo o‘rtasidagi sevgining oddiy kundalik tashvishlardan yuksakda turadigan hodisa ekaniga urg‘u berish jihatidan o‘zini oqlagan.

Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida muhim bir hayotiy va falsafiy haqiqat yorqin badiiy aks ettirilgan. Insoniy fojia turli asoslarda vujudga keladi. Bularning ichida eng dahshatlisi, imonsizlik, o‘z manfaati yo‘lida qilingan sa’y-harakat, insonga bepisandlik bilan qarash oqibatida qalbning, o‘zgalarning ozor topishidir. Maktab direktori obrazida mazkur haqiqat o‘z ifodasini topgan. Unga ism ham berilmagan. Yozuvchi buni ataylib aksar direktorlar shu toifadagi shaxslar degan g‘oyani ilgari surgan. Bu g‘oya haqiqatdir. O‘ninchi sinf bolalarining o‘qish nima bo‘ladi, deb bergan savoliga “Paxtazor daftaring bo‘ladi, g‘o‘zalar husnixating bo‘ladi”, — degan javob oladi. Direktor hech bir o‘quvchining qismatini o‘ylamaydi, ular uchun qayg‘urmaydi. Buni sezgan paxtakorlar yordamchilarga o‘ligini tashlab olishadi. Dalada nima yumush bo‘lsa, brigadir direktor oldiga keladi. “Paxta ortishga uchta bola bering. Paxta tushirishga ikkita bola bering. Dori sepishga bitta bola bering”, — deydi. Samolyotga yo‘l ko‘rsatuvchilikka odam so‘raganda, unga beshinchi sinf o‘quvchisi Dehqonboy Jamoliddinovni beradi. Direktor bilan o‘qituvchilar o‘rtasida shunday gap ketadi: “O‘rtoq direktor, endi bolani dori sepiluvchi dalaga yuborib bo‘lmaydi. Onasini bilasiz — kimsan Bolxin terimchi. — Bolxin bo‘lsa nima bo‘pti? - deydi direktorimiz. — Bolxin terimchi obro‘-e’tiborli ayol. Bolaga bir nima

bo‘lib qolsa, onasidan baloga qolasiz” (66-bet). Ular bolalarga bir nima bo‘lishini, ya’ni oqibati fojia ekanligini bilishadi. Bilishgan holda norasidalarini shu yumushga ravo ko‘rishadi. Ayniqsa, Dehqonqulning o‘rniga qaysi bolani yuborishni maslahat qilishgan o‘rnini o‘qib, kishi titrab ketadi. “— Cho‘liboyev Ziyod? - Bir qari onasi bor. Direktorimiz shahodat barmog‘ini tishladi. — Ana shu bo‘ladi! - dedi” (66 - 67-betlar). Bu hol qabohatlikdan boshqa narsa emas. Ziyod dori sepilgan paxtazorda hushidan ketib, yotib qoladi va bir kun yotib, olamdan o‘tadi. Bunga uning o‘zini aybdorga, ya’ni dori sepilgan maydonda uxlab qolganga chiqarishadi. Ziyodning onasini u yotib qolgan paxtazordan biron-bir nima topamanmi degan ilinjda maydonga termulishi, tikilishi va “Ziyod-u-u-u, Ziyod-u-u-u” deb chaqirishida ham katta ma’no bor. Bu chaqirish adolatsizlikdan zardobga to‘lgan qalbning nidosidir.

“Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanida mustaqillik arafasidagi parokandalik, e’tiqodsizlik, surbetlik o‘z ifodasini topadi. Yozuvchi mazkur romanida ham o‘z uslubiga sodiq qolib, voqealarni hikoya qilmaydi, uni bor ko‘rinishi bilan tasvirlaydi. O‘zidan hech narsa qo‘shmaydi, unga munosabat bildirmaydi. Barcha qahramonlari zimmasiga yuklaydi. Ularning xatti-harakati, o‘ylash tarzi, atrof-muhit va odamlarga munosabati - hamma-hammasi sof o‘zbekona. Vaziyatni kuchaytirish, uni dramatik holga olib kelish, qahramonlarining o‘ziga xosligini ko‘rsatish, shuningdek, qalb dialektikasini ochish, iroda kuchini ko‘rsatish uchun qo‘llanilgan detallar ham sof, milliy. Shundan qahramonlari kishi ko‘z o‘ngida naqshlanib qoladi va hayotning fojiaviy mohiyati oydinlashadi. Shukur Xolmirzayevniig “Olabo‘ji” romani ezgulik va fosiqlik dunyosining inkishofi asosiga qurilgan. Ezgulik

olamini Ulton, Ashim (Qoraboy), Xurram, Tursuntosh (Tursunoy), Abduqayum, Dunyo, Qobillar tashkil qilsa, muttahamlik dunyosi To'xliboy Qo'chqorov, Bahor, Bo'taboy So'piyev, Taraknov, Mahfirat Egamqulovalar faoliyatida o'z ifodasini topadi. Roman polifoniya xususiyatiga ega. Bu holat asarning birinchi sahifasidan boshlab to nihoyasigacha davom qiladi.

Sa'dulla Siyoyev o'zining tarixiy mavzuda yozgan ko'plab asarlari bilan kitobxonlar qalbidan beqiyos o'rin egallagan adiblardandir. Yozuvchining ikki kitobdan iborat bo'lgan "Ahmad Yassaviy" tarixiy romani mashhur bo'lib kitobxonlarga yaxshi tanishdir, xalqimiz o'rtasida qo'lma-qo'l bo'lib kelmoqada.

"Dinozavr" romani markazida inson va davr muammosi yotadi. Asar 1996 yil "Yoshlik" jurnalining 2 - 4-sonlarida bosilgan. To'g'risini e'tirof etganda, bozor iqtisodiga o'tish davridagi qiyinchilik va kamchiliklar, muammoalar ko'pchilikni gangitib qo'ydi. Kimlardir uning mohiyatini to'g'ri anglab, Vatan taqdiri, yurt kelajagi haqida kuyib-pishayotgan bir vaqtda, boshqalar faqat o'z manfaati, ya'ni "qorin dardi"ga berildi. Shukur Xolmirzayev bu masalada befarq bo'lmadi. U o'zining ushbu romanida mazkur masalaga kishi diqqatini tortadi. Hayot haqiqatidan ma'lumki, vijdoni uyg'oq, qalbi pok, diyonatli shaxslarning foniy dunyoda yashashi qiyin kechadi. Chunki ular har bir adolatsizlikka, odamlarning insoniylikka zid xatti-harakatlariga befarq qaray olmaydi. Ularga nisbatan o'z e'tirozini bildiradi. Bunday shaxslarning aksariyati ijodkor bo'ladi. Shunday haqiqiy ijodkor xalqning vijdoni sanaladi. Qaysiki jamiyat xalqning ma'naviyati yuksak, o'sha jamiyatning poydevori ham mustahkam bo'ladi. Bunday fazilatga ega davlatni hech

qanday tashqi va ichki kuchlar yenga olmaydi, ma'naviyat insioniylikning oydin yo'li, jaholatga qarshi tiklangan Iskandar devoridir. Roman qahramonlari faoliyatida ana shunday g'oya yotadi. Romanning ahamiyati syujet zamirida yotgan ana shu falsafiy haqiqatdir.

Tekshirish uchun savollar:

1. Turkiy qavmdagilarni do'st-birodar bo'lishlarini sababi nimada?
2. Shafqatsizlik asosi nimaga borib taqaladi?
3. Fojiylik mohiyati qaysi romanda qanday yoritilgan?
4. Jamiyatdagi adolatsizlik qanday talqin qilingan?
5. Botir firqa qanday shaxs?
6. Tuyg'ulari paymol qilinganlar qanday qismatga duchor bo'ladilar?
7. E'tiqod masalasi qanday badiiy talqin qilingan?
8. Inson va davr muammosi qanday yoritilgan?

Adabiyot:

1. Adabiy turlar va janrlar. - T.: Fan, 1991.
2. H. Karimov. Inson va davr. — T.: Fan, 1992.
3. H. Karimov. Shukur Xolmirzaev. - T.: "Qatortol", "Kamolot", 1999.
4. X. Karimov. Nasr baxshisi. - T.: Yangi asr avlodi, 2003.
5. Mirzaev. Nasrimiz badiiy olami. - T.: "G'afur G'ulom" nashriyoti, 1991.
6. U. Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. -T.: Ma'naviyat, 2000
7. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. - T. 1999. 20-bet

10-MAVZU: BUGUNGI O‘ZBEK ROMANIDA DAVR, TARIX, ZAMON MASALALARI.

Reja:

1. Tarix va tarixiy shaxslarga nisbatan yangicha qarash
2. Amir Temur obrazi va milliy qadriyatlar o‘z ifodasining topishi
3. Gavharshodbegim timsolida zukkolik mohiyati
4. Nafrat va iztiroblar talqini.
5. Amir Temurning insoniyligi.
6. Jahongir Mirzo muhabbati va fojiasi.
7. Umarshayx tabiati va shijoatkorligi.

Istiqlol davr voqealarini to‘g‘ri anglash va to‘g‘ri yoritish, buyuk ajdodlarimizni davr siyosati, mafkurasi nuqtayi nazaridan emas, hayotiy haqiqat hamda tarixiy jihatdan haqqoniy inkishof qilish imkonini berdi. O‘zbek adabiyotida tarixiy, biografik, mistik, fantastik, detektiv, satirik va maishiy romanlar paydo bo‘ldi. O‘tmish davri muammolari faqat mamlakat iqtisodiyoti yoki siyosatiga emas, jamiyat estetikasiga, ma’naviyatiga, madaniyatiga va maorifiga ham xosdir. Ma’lumki, ezgulik, xalq manfaatlari yo‘lida qilingan ishning yuziga har qancha qora chiziq tortilmasin, yo‘q qilish yo‘lida har qancha urinishlar bo‘lmasin, u yo‘qolmaydi. Haqiqat olamida o‘tib chiqaveradi. Shaxsning buyukligi faqat jangu jadallarda qo‘lga kiritgan g‘alabalar va mardonavorlik bilan belgilanmaydi, balki ezgu a’mollar, go‘zal qalbi uning ulug‘ligini belgilaydi. Bugun biz ajdodlarimizning shunday ezgu amallarini haqqoniy ta’riflashga erishdik. Amir Temur mana shu fikrlar egasidir. Uning janglari bosqinchilik yo‘lida urushlar emas, balki yaxshilik, ya’ni xalqni va kelajakni o‘ylab qilingan adolatli harakatdir. Mana bu borada

akademik Bo‘rivoy Ahmedov o‘zining “Amir Temur” roman-xronikasida nima deydi: “... butun dunyoga, hech bo‘lmasa, uning yarmiga hukmron bo‘lish emas, balki jumla jahonni har toifadagi adolatsiz podshoh va mufsidlardan (fasodchi, buzg‘unchi) himoya qilish, bozorg‘on va ziyoratchilarni yo‘lto‘sar bosqinchilarning zulmidan qutqarish, feodal tarqoqligiga barham berib, markazlashgan davlat barpo etish orqali o‘zaro nizolarni yo‘q qilishni niyat qilgan”. Bu fikrning to‘g‘riligiga keyingi paytda yuzaga kelgan tarixiy romanlar yaqqol misol bo‘ladi. Qaysiki, badiiy asarda insoniy kechinmalar jarayoni, iztiroblari mohiyati, o‘zining falsafiy talqinini topsa, o‘sha asar har qanday jamiyat o‘zgarishlarida ham umrini tugatmay yashab qoladi. Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” (— T.: Sharq, 2001) nomli romani ana shunday fazilatga egaligi bilan kitobxon qalbini zabt etadi va ma’naviy olamini boyitish orqali o‘z hayot yo‘lini to‘g‘ri belgilashga imkon tug‘diradi. Bu narsa esa, o‘z navbatida, jamiyatning insoniylashuviga demokratiyaning yanada kuchayishiga asos bo‘ladi. Xalqi komillikka intilgan jamiyatdagina adolat va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan qonun hukm suradi. Ma’lumki, temuriyzodalarning ko‘pi jo‘mard va adabiyot, she’riyat shaydolari bo‘lishgan. Bunda Bibixonimning xizmati beiyos bo‘lgan, albatta. Bunday vazifa Saroy Mulk Xonimdan so‘ng Gavharshod begim zimmasiga tushgan edi. Bizda esa Shohruh Mirzoning zavjasi, Ulug‘bekdek allomaning onasi haqida noxush fikrlar yurardi. Pirimqul Qodirov mazkur asari bilan Gavharshod begim haqida haqiqatni yoritib, shubhalarga o‘rin qoldirmadi. Bundan tashqari, ilm-ma’rifat homiysi, qaynotasi Amir Temurning “Kuch —adolatdadir”, “Rostini aytsang, najot topg‘aysen” degan e’tiqodiga bir umr amal qilgan, uni

temuriyzodalar ongiga ham singdirishga intilgan Gavharshod bəgimning hurmati katta edi. Romandagi ko‘p tarixiy voqealar, taxtparaslik oqibatida odamlar boshiga tushgan sonsiz kulfat va fojialar bunday ezgu niyatli shaxslarni ham asrab qololmaganligi haqida xabar beradi. Ya’ni ruhida shayton hukmron bo‘lganlar davlat tepasiga kelsa jamiyatni razolat egallaydi. Bunday davlat xalqi iztirobga mahkumdır. Xalqi iztirob chekkan davlatning esa umri qisqadır. Sohibqiron Amir Temur davri va hayoti jahon tarixining eng yorqin sahifalaridan hisoblanadi. O‘zbek xalqi o‘zining ulug‘ farzandini doim qalb qatida asrab-avaylab keladi. Amir Temir qudratli davlat tuzib, unda el-ulus halol, emin-erkin, farog‘atda yashashini orzu qildi. O‘z tasarrufidagi davlatlarda insofu diyonat, rahmu shafqat tuzuklarini o‘rnatdi. Bu yorug‘ olamni razolatu zalolatdan tozalamoq uchun umrini bedor o‘tkazdi. Bu juda mashaqqatli yo‘lda qanchadan-qancha xiyonatlarni ko‘rdi, sotqinlik, ochko‘zlardan nafaqat o‘zi, balki yaqinlari ham iztiroblar chekdi. Sohibqiron Yaratganning irodasi bilan dunyoga kelgan ilohiy kuch sohibi edi.

Sohibqiron Amir Temur siymosining haqqoniy yaratilishi, uning xalqimiz suyardigan qahramon darajasiga ko‘tarilishida Muhammad Alining xizmatlari beqiyosdir. Ijod yo‘lining boshidayoq Amir Temur haqida she’rlar, keyinchalik maktab darsligiga kiritilgan “Gumbazdagi nur” dostoni, maqola va esselar e’lon qilib adib jasorat ko‘rgizgan. “Sarbadorlar”(1989) roman-dilogiyasida o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib prozada Amir Temur siymosini tasvirlab, keyinchalik dadillik bilan kirishgan “Ulug‘ saltanat” tarixiy epopeyasini yaratishda yigirma yil mehnat qildi. Epopeyada xalqimizning XIV asrdagi hayoti tasvirlanarkan, Amir Temur obrazining tadrijiy o‘sib borishi,

adolatparvarlik, halollik, mardlik va vatanparvarlik fazilatlari ko'rsatib berilgan. Qattiq izlanishlar, tadqiqotlar samarasi bo'lgan, yigirma yil davomida(1993-2013) yozilgan to'rt kitobdan iborat «Ulug' saltanat» asari o'zbek adabiyotida yaratilgan birinchi roman-epopeyadir. Asar 1370 – 1405 yillardagi tarixiy evrilishlar asosida yozilgan bo'lib, voqealar tarixiy hujjatlardan og'ishmasdan, ishonchli dalillar asosida bayon etilgan. Asar zahirida nafaqat iste'dodli yozuvchining, balki bilimdon muarrixning mashaqqatli mehnati yotibdi. Murakkab tarixiy muammolar, qonli to'qnashuvlar, inson vujudini qovuruvchi saraton olovlari-yu, odamni suyak-suyagigacha qaqshatuvchi qish qahrini o'ziga bo'ysindirgan insoniy metin bardoshni tasvirlashda yozuvchi olimligi, shoirligi, faylasufligiga tayanib Amir Temur siymosini bor bo'yicha aks ettirgan. Ma'lumki, insoniylikning muhim belgilaridan biri do'stlikka sadoqat, o'rni kelganda, ulardan ko'magini ayamaskidir.. Amir Temur bu haqiqatga bir umr amal qiladi. O'zi bu borada shunday deydi: “yana tajribamdan bildimki, sodiq va vafodor do'st ulkim, o'z do'stidan ranjmaydi, do'stining dushmanini o'z yovi deb biladi”. Amir Husaynni Temurbek do'sti deb bildi va unga doim ishondi. Bu insoniylikdan dalolatdir. Bu xususiyatlar romanda o'z mujassamini topgan. Kechirimlilik – Amir Temur qalbining bebaho duru-gavhari. U xiyonatkor Shibirg'on hokimi Zindachashim Opardiyning gunohidan o'tadi. Tutingan “o'g'li” To'xtamishxonni kechirib, nomardlik ustiga nomardlik ko'ravergach, nadomat bilan uni eslaydi.

Rum qaysari Yildirim Boyazidni kechirib, “Qaysar banddan bo'shatilsun, elik-oyog'idan zanjirlar yechilsun! Hurmat bilan yaxshi

liboslar kiydirilsun! U sultondir, sulton izzat-ikromi o‘zgacha bo‘lur!” deydi.

“Ulug‘ saltanat” Sohibqiron qalbining goh mag‘rur, goh armonga to‘liq qirralarini yoritadi. Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shohrux Mirzo haqidagi kitoblarning har birida ulug‘ Sohibqironning nurli qiyofasi, faqat o‘zigagina xos boshqaruv salohiyati, ilm-fan sohiblari suhbatiga oshiqishi, yuksak aql egalarini taniy bilishi, har bir navkarini o‘z farzandidek yuragiga yaqin olishi kabi insoniy fazilatlari yorqin bo‘yoqlarda aks etgan. Epopeyaning to‘rt kitobi to‘rt shahzodaga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, bu to‘rt chinorning o‘q ildizi bitta, ya’ni Sohibqironidir. Farzandlarining ichida Jahongir Mirzoning o‘rni boshqa! To‘ng‘ich o‘g‘il, bamisli kishi yiqilsa, eng avval yordamga yetib keladigan o‘ng qo‘lday padari buzrukvoriga suyanchiq, ha, Temurbekning o‘ng qo‘li...

Jahongir Mirzo jang san’atini puxta egallagani bilan birga tabiatan yumshoq ko‘ngil va xayolparast bo‘lib o‘sdi. Endi o‘n besh yoshga qadam qo‘yayotgan esa-da, tutumining bosiqligi, o‘zining salobatlilikidan katta yigitlarga mengzardi, bunga durkun, bo‘ychanligi ham sababchi edi, albatta. “Bo‘larining bolasi o‘n beshida bosh bo‘lar, bo‘lmasining bolasi yigirma beshida yosh bo‘lar”. Olam ahlining shahzodasi, saltanat valiahdi Jahongir Mirzo har taraflama Sohibqironga tortgan edi.

Asarda Umarshayx Mirzo ham mard va jasurligi bilan nom qozongan shahzoda sifatida talqin etiladi. Kutilmaganda olamdan o‘tgan Umarshayx Mirzo Amir Temurga munosib farzandi arjumand bo‘lib yashab o‘tadi.

Asardagi eng murakkab obraz bu Mironshoh Mirzo obrazidir. Mast-alast holda Sohibqironga qarshi beandisha maktub yozgan ham shu. Uning baxtiga, maktub manzilgacha yetib bormaydi.

Mironshoh Mirzo o‘z haramiga xiyonat qilgan yagona temuriy shahzoda. U hatto Jahongir Mirzo vafotidan so‘ng o‘sha davr odatiga ko‘ra, qolaversa, begona qo‘llarda xor bo‘lmasin deb Saroymulixonim va Amir Temur xohishiga binoan Mironshoh Mirzo nikohiga kirgan Xonzoda xonimni haqorat qiladi. Bu holatdan xabar topgan Sohibqiron uni hokimligidan mahrum etib, yasoqqa hukm qiladi.

“Ulug‘ saltanat”da Xonzoda xonim Saroymulxonimdan keyin turadigan tabarruk ayol sifatida tasvirlanadi. U ko‘z o‘ngimizda vafo va sadoqat, ibo-hayo, sabru bardosh timsolida bo‘lib gavdalanadi. Sohibqiron uni kelin emas, qizim deb, hatto matonati uchun o‘g‘lim deb ardoqlaydi. Xonzoda xonim shu qadar jafokash, g‘amdiyda, nozik qalb egasiki, unga qo‘l ko‘tarib bo‘lmaydi. Uning munglig‘ qismati oldida hatto Amir Temurdek zot ham o‘zini aybdordek sezadi.

Sohibqironning Xonzoda xonimga ko‘rsatgan g‘amxo‘rligida ul zotning zaifalarga – xotin-qizlarga nisbatan naqadar e‘tiborli, mehr-shafqatli bo‘lgani aks etgan. Zero, Amir Temurgacha hech bir hukmdor kelinining ko‘z yoshlari uchun o‘g‘lini jazolamagan bo‘lsa kerak.

Shohrux Mirzo shahzodalar ichida eng saodatlisidir. Hazrati Sohibqiron Shohrux Mirzoda ulug‘ saltanat uchun mas‘ullik va javobgarlik tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Unda saltanatga tirkak va ustun bo‘ladigan qudratni kamol toptirdi. Hamisha xushyor, g‘ofillikdan yiroq, el-ulus ahvolidan xabardor Shohrux Mirzoni Yaratgan Egam Ulug‘bek Mirzodek o‘g‘il bilan siylaydi.

Mazkur romangacha yaratilgan badiiy asarlarda Amir Temur obraziga ko‘proq zohiriy, ijtimoiy faoliyatiga, ya’ni jangu jadaldagi qahramonliklari, markazlashgan yirik davlat qurishdagi sa’y-harakatiga e’tibor berilib, uning maishiy-oilaviy, shaxsiy hayoti, ruhiy dunyosi aytarli yoritilmagandi. Muhammad Ali shu kamchilikni bartaraf etib, juda to‘g‘ri ish qilgan. Amir Temur yuksak qalb egasi edi, u xotni-qizlarni e’zozlar, ularga qo‘l ko‘targan yoki haqorat qilganlarni aslo kechirmasdi, hatto o‘z farzandlarini ham jazoga tortar edi.

Amir Temurga nisbatan hatto tilsiz jonivorlardan bo‘lmish tulpori Xono‘g‘lon sadoqati ham ta’rifga ojiz. Chunki, Xono‘g‘lon o‘z sohibidan mehr-muruvvat ko‘rganini hech qachon unutmaydi va sohibining qalbidagi oliyjanoblikni hammadan ko‘proq sezadi. To‘xtamish o‘g‘longa sovg‘a qilingan bu ot qattiq iztirob chekadi, o‘z sohibini bir dam bo‘lsin unutilmaydi va saroyga qochib keladi. Samarqandga yetib kelgan otning ko‘zidan yosh to‘kiladi, u yig‘laydi. Amir Temurning adolatli a’moliga Yaratganning marhamati ko‘p edi. Taniqli tarixchi olim, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi marhum Bo‘riboy Ahmedovning 1996-yil Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan tartib berib chop ettirgan “Amir Temur” nomli kitobidan Amir Temurning davlatni idora qilish siyosati, tariximizning yozilmagan, bahsli sahifalari haqidagi 1988—1994-yillarda yozilgan ilmiy-ommabop maqolalari, matbuotda e’lon qilingan suhbatlari hamda «Amir Temurga maktublar»i, «Temur va Qamariddin» nomli yangi tadqiqoti o‘rin olgan. Sohibqiron Amir Temurni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan arab tarixchisi ibn Arabshoh yozadi: “Amir Temur ...tengi yo‘q fe’l-atvorli, teran mulohazali, uning tafakkur dengizining qa’ri yo‘q. Amir

Temur baland qadli, uzun bo‘yli, tik qomatli, qadimiy pahlavonlar avlodidan bo‘lib, keng peshonali, katta boshli, g‘oyatda kuchli va salobatli, to‘la, rangi oqu qizil yuzli, dog‘siz, qo‘l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo‘g‘on, poychalari semiz, sersoqol, o‘ng oyoq-qo‘li cho‘loq va shol, ikki ko‘zi bamisoli ikki shamdek bo‘lsa-da, shodligi bilinmas, ovozi yo‘g‘on edi; u o‘limdan qo‘rqmas, yoshi yetmishga yetgan bo‘lsa-da, iztirobsiz, vazmin. Badani to‘la va pishiq, xuddi zich (qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax, yolg‘onni yoqtirmas, o‘yin-kulgi-yu ko‘ngilxushlikka maylsiz, garchi so‘zda o‘ziga ozor yetadigan biror narsa bo‘lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi; u bo‘lib o‘tgan ishga aziyat chekmas va o‘ziga hosil bo‘ladigan yutuqdan shodlanmas edi... Ko‘pincha uning majlisida uyatsiz so‘zlar, qon to‘kish, asir olish, naqbu g‘orat qilish va haram (haqiga) haqorat gaplar bo‘lmasdi. U bexato (nishonga urguvchi) fikrli, ajoyib farosatli, mislsiz darajada baxtli, ulug‘vorligi o‘ziga muvofiq, qat’iy azm bilan so‘zlovchi, boshiga kulfat tushganda ham haqgo‘y kishi edi...”.

Zamonaviy milliy romanchiligimizda tarixshunoslik ilmi ham yetarlicha tadqiq etilmoqdaki, bu hol uning mavzu ko‘lami, obrazlar olami, ruhiy tasvir va tahlil doirasini yangiladi. Erkin Samandarning «Tangri qudug‘i» romanida aynan shu jihatlarga e’tibor qaratilgan. Tarixiy mavzuda qalam tebratgan adib mavjud an’anaga ergashish barobarida, mashhur tarixiy shaxslar – Arabmuhammadxon va Abulg‘ozi Bahodirxon hayotini badiiy jonlantirish, ular ruhiyatini teranroq tasvirlashda o‘z individual uslubini namoyon qildi. Asarda xarakterlar ma’naviy-ruhiy olamini aks ettirishda xalq ishonch-e’tiqodlari bilan bog‘liq an’anaviy motivlardan unumli foydalangan. Hatto, poetik ijod

jarayonida Xiva – Ichan qal’adagi «tangri qudug’i» bilan bog’liq timsol roman syujeti va kompozitsiyasiga kuchli ta’sir o’tkazgani kabi masalalar misollar bilan ko’rsatib berildi. E.Samandar romanda xalq rivoyatlari bilan cheklanmay, Xudoyberdi Qo’shmuhammadning «Dili G’aroyib» (1831) asarida keltirilgan Som payg’ambar bu shaharning bunyodkori ekani haqidagi adabiy faktga tayangan. Arab-fors tilidagi tarixiy-geografik manbalar: Istaxriy, Muqaddasiy, Yoqut Hamaviy, Nizomiddin Shomiy, Mahmud ibn Valiyga qisman, ko’pincha «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» (Abulg’ozi Bahodirxon), «Firdavs ul-iqbol» (Munis va Ogahiy), «Shajarai Xorazmshohiy» (Bayoniy) va Ya.G’.G’ulomov, S.P.Tolstov, A.I.Trinojkin, Z.Bunyodov tadqiqotlariga murojaat qilgan. Said Aloviddin, Bibi Hojar maqbaralari, Said Mahro’yjon, Pahlavon Mahmud, Shayx Qalandarbobo, Qibla Tozabog’ majmualari, Juma masjid, Ko’hna Ark (Arzxona), Oq shayx bobo ko’shki, Toshhovli va boshqa ko’plab saroy, karvonsaroy, tim, masjid, madrasa, hammom, minor va darvoza kabi tarixiy-me’moriy obidalar, noyob osori atiqalarni sinchkovlik bilan kuzatgan. Muzey-qo’riqxonani yaqindan bilish, undagi har g’isht va koshinga ma’naviy-ruhiy yaqinlik romanda tasvirlangan davrni dildan his qilish, qahramonlar ruhiyatiga chuqur kirib borish imkonini bergan. Yozuvchi roman epigrafidayoq islomiy hujjat-ko’rsatmalarga tayanadi. Shunga mos ravishda adib roman yetakchi konsepsiyasini imoni pok, e’tiqodi but xarakterlar zimmasiga yuklaydi va tarqoq syujet liniyalarini yagona kompozitsion markaz – quduq xronotopi tevaragida birlashtiradi.

Tekshirish uchun savollar:

1. Istiqloldan keyin tarix va tarixiy shaxslarga qanday munosabatda bo‘linyapti?
2. Gavharshod begim timsolida zukkolik mohiyati qanday berilgan?
3. “Ona lochin vidosi” romanida onalik va farzandlik mehri qanday aks etgan?
4. “Ulug‘ saltanat” romanida Amir Temurning insoniyligi qay darajada o‘z ifodasini topgan?
5. Tarixiy romanlarda nafrat va iztiroblar, muhabbat hamda inson fojiasi qanday aks etgan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Rasulov. Tarix, falsafa roman. “Jahon adabiyoti” jurnali. — T., 2000.
2. Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. Birinchi kitob. — T., 2003
3. U. Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. - T., 2000
4. U. Normatov Tafakkur yog‘dusi. - T., 2005
5. U. Normatov, U. Hamdamov. Dunyoni yangicha ko‘rish ehtiyoji “Jahon adabiyoti”. 2000 yil, 10-son
6. Pardaeva. O‘zbek romanlari poetikasi. - T., 2003 yil.
7. Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. Ikkinchi kitob — T., 2006
8. P. Qodirov. Ona lochin nidosi. - T., 2001.
9. M. Qoriev. G‘aynaviylar. - T.: “Sharq” nashriyoti, 2006
10. H. Karimov. Istiqlol davri nasri. - T.: Zarqalam, 2007.

11-MAVZU: BUGUNGI O‘ZBEK DRAMATURGIYASI. KECHAGI KUN DRAMATURGIYASIDAN BUGUNNING FARQI.

Reja:

- 1.Tarixiy dramada badiiy to‘qimaning roli.
- 2.Amir Temur tabiatining detallarda ifodasi.
- 3.Amir Temur siymosi tarixiy manbalarda va she’riy dramadagi talqini.
- 4.Tarixiy haqiqatning she’riy dramada badiiy haqiqatga aylanishi.
- 5.“Avlodlarga vasiyat” tarixiy dramasida Sohibqiron siymosining badiiy talqini.

Dramada hayot va insonlar o‘rtasidagi munosabatlar ifodasi tomoshabin ko‘z o‘ngida, muayyan sahna vaqti ichida harakatda sodir bo‘ladi, shu sabab unda so‘z va sahna san’ati birlashadi, birbutunlik kasb etadi. Faqat harakat jarayonidagi g‘oyalar kurashi aniq, yorqin, keskin, tomoshabinni larzaga soladigan tarzda ifodalanadi; bu o‘z navbatida hayot qa’ridagi va inson ruhiyatidagi dramatik ziddiyatdan kelib chiqadi. Bu ziddiyatning turli-tuman xarakteri, ya’ni dramatizmga to‘liq voqea-hodisalar va xarakterlarning ko‘p qirraligi ko‘plab dramatik janrlar(ularning hammasini “pyesa”- “birbutun”, “ulush”deb yuritish odati ham hayot)ning tug‘ilishiga sabab bo‘lgan. Ular quyidagilar: tragediya, komediya, drama, tragikomediya, melodrama, inssenirovka, intermediya, monodrama va sh.k. Drama(yun. drame-harakat) atamasi keng ma’noda – dramatik turni, tor ma’noda – drama janrini bildiradi. Drama V.Belinskiy asoslaganidek, tragediya bilan komediya o‘rtasidagi janrdir, u ma’shum falokatni ham, yumoristik va satirik kulguni ham talab

qilmaydi. Balki hayot hodisalarini yuqori darajali, jiddiy holatda tasvirlaydi. “Dramada muhim narsa – uzundan uzoq hikoyalarning yo‘q bo‘lishidir, har bir so‘z dramada harakat – amal bilan ifodalanishi lozim. Drama tabiatdan oddiy ko‘chirmakashlik emas, ayrim sahnalarning, garchi ular go‘zal bo‘lsalar ham yig‘indisi emas, drama ayrim, xos, yopiq bir dunyo bo‘lishi kerak, unda har bir shaxs o‘z maqsadiga intilib, faqat o‘zi uchun harakat qilib, o‘zi bilmasdan ham, pyesaning umumiy harakatiga yordam beradi, drama xayol, mulohaza orqali yopishtirilmasdan, balki fikrdan tug‘ilgan bo‘lsagina shunday xarakterga ega bo‘ladi” (V.Belinskiy, 207-bet). Dramaning qahramoni ko‘pincha hayotdagi oddiy kishilar, ularning dramatismga to‘la qismatlaridir. Ularning taqdirilarida ro‘y beruvchi jiddiy konfliktlarning oqilona bartaraf qilinishidir. Agar tragediya qahramoni noilojlikdan halok bo‘lsa, uni taqdir boshqarsa, drama qahramoni o‘z irodasiga, xarakteriga muvofiq yakun topadi, uni tipik sharoit mantig‘i to‘liq asoslaydi. Dramaning asosiy janrlari Tragediya(yun. Tragos – echki(taka), ado - qo‘shiq)da asosan ilohiy kuchlar va mifologik qahramonlar o‘rtasidagi murosasiz kurashlar falsafasi, yuqori tabaqa vakillari (podshohlar, shahzodalar, qo‘mondonlar, dohiylar, yo‘lboshchilar, boshliqlar, yetakchilar)ning fojialari aks etgan. Tragediya janrining xususiyatlari V.Belinskiy tomonidan quyidagicha asoslangan: 1.“Tragediyaning mohiyati... qalbning tabiiy jarayoni, maylning axloqiy burch yoki daf qilinmas bir to‘siqlik bilan to‘qnashuvidir... tragediya – qayg‘uli tomosha! Agarda qon, o‘liklar, xanjar, zahar tragediyaning odatdagi sifatlari bo‘lmasa ham, lekin uning oqibati harvaqt qalbning eng qimmatli umidlarining yemirilishi, butun bir hayot saodatining yo‘qolivudir. Uning

qora ulug‘vorligi, uning buyuk azamatligi shundan kelib chiqadi: unda taqdir kuchi hukm suradi, uning mohiyati, asosi taqdir kuchidir”.

2.Tragediya “asosida buyuk haqiqat, yuksak donolik yotadi. Kurashda o‘lgan yoki g‘alabada halok bo‘lgan qahramonga biz chuqur qayg‘uramiz. Lekin bu kurashsiz, bu halokatsiz u qahramon bo‘lmasligini, o‘z shaxsiyati bilan abadiy substansial kuchlarni, jahonni va o‘zgarmas borliq qonunlarni amalga oshira olmasligini bilamiz”.

3.“Buyuk axloqiy vazifalarni hal qilish uchun taqdir eng asl ruhlarni, kishilik dunyosi boshida turgan yuksak ruhli shaxslarni, axloqiy dunyoning tiragi bo‘lgan substansial kuchlarni o‘zida gavdalantirgan qahramonlarni tanlaydi. Faqat oliy tabiatli odam tragediyaning qahramoni yoki qurboni bo‘la oladi; voqelikning o‘zida ahvol shunday”.

4.“Har qanday tragediyadan mash‘um halokatni yo‘qoting, siz bu bilan uni buyuklikdan, butun ma‘nodan mahrum qilasiz, buyuk asardan oddiy bir narsa yasaysiz, u birinchi galdayoq o‘zining butun nafis kuchini yo‘qotadi”.

5.“Tragediya ko‘proq sun‘iy asardir”. “Mana shuning uchun tarixiy shaxslarni buzib ko‘rsatishga oz yo‘l qo‘yilsa ham; tragediyaning go‘yo qat‘iy huquqidir, bu uning mohiyatidan kelib chiqadi. Tragediyachi o‘z qahramonini ma‘lum tarixiy vaziyatda ko‘rsatishni istaydi: tarix unga vaziyat beradi, agar bu vaziyatdagi tarixiy qahramon tragediyasining ideyasiga muvofiq kelmasa, uni o‘zicha o‘zgartirishga u to‘la huquqlidir”. O‘zbek adabiyotida yaratilgan Xurshid Davron qalamiga mansub «Alg‘ul», Shayxzoda qalamiga mansub “Mirzo Ulug‘bek” tragediyalari ham bu fikrlarni isbotlaydi... O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron «Alg‘ul» pyesasi uchun, 2013 yil «Sharq yulduzi» jurnalida e‘lon qilingan, «Eng yaxshi badiiy va ilmiy asarlar» tanlovi

g'olibi bo'ldi. Xurshid Davronning "Alg'ul" tragediyasida falsafiy mulohaza, voqea-qahramonlarni qiyoslash, uzluksiz rivojlanib, bir-birini to'ldirib borayotgan fikr tayanch nuqta vazifasini o'taydi. Dramaturg asarida tarixiy haqiqatlarga kengroq murojaat etadi, masalan, to'qima obraz Feruzaning o'rniga tarixiy shaxs xonanda ayol To'yjon obrazi kiritilgan. Su boisdan ham "Alg'ul" matnida mumtoz kuylarimiz borlig'ingizni mahv etayotgandek tuyuladi. Bu asar bilan tanishar ekanmiz milliy qadriyatlarimiz ruhi singdirilganligining ham guvohi bo'lamiz. Adib tragediya yozishda qiyin yo'lni tanlaydi, bevosita qon to'kilishini ko'rsatmaydi. Quyida taniqli munaqqid Abdug'afur Rasulovning "ALG'UL YULDUZI – IZTIROB RAMZI" nomli maqolasini keltirib o'tamiz *"Jahon ilmu faniga bebaho hissa qo'shgan siymolardan biri Mirzo Ulug'bekdir. XX asrning II yarmidan boshlab uning olimu podshohligi haqida ko'plab she'r, doston, qissa, roman, drama, ilmiy badia yaratildi.*

Xurshid Davron badiiy ulug'bekshunoslikka "Alg'ul" ("Sharq yulduzi", 2013 yil, 1-son) tragediyasi bilan hissa qo'shdi.

Asarda makon kengligi, vaqt aniqligi diqqatni tortadi. Xurshid Davron Mirzo Ulug'bek hayotining oxirgi kunini tasvirlaydi. Vaqt tig'iz: tajribasiz yozuvchi shoshib qolishi, xarakterlar va sharoitni qorishtirib yuborishi mumkin edi. "Alg'ul"da izchil marom, qahramonlar harakatlanadigan adabiy maydon, xarakterlarning betakror o'zligi aniq seziladi. Dramaturg maydonni kengaytirib, qahramonlarni ixcham gapirtirib, izchil harakat qildirib nimaga erishadi?

"Alg'ul" tragediyasida falsafiy mulohaza, voqea-qahramonlarni qiyoslash, uzluksiz rivojlanib, bir-birini to'ldirib borayotgan fikr tayanch

nuqta vazifasini o‘taydi. Dramaturg asarida ramz, qiyos, o‘xshatish ko‘p. U asarning badiiy ta’sir kuchini orttiradi. “Alg‘ul” matniga quloq tutsangiz qayerdandir “Cho‘li iroq”, “Tanovar”, “Segoh” singari kuylar borlig‘ingizni sehrlayotganday bo‘ladi.

Ulug‘bek va Ali Qushchi aro suhbatlarda badiiylikka chulg‘angan falsafiy qarashlar yoddan chiqmaydi:

Ulug‘bek: Huv anovi yulduz Baytul Javzodur. Xuddi g‘azabga mingan Abdullatif ko‘zlariga o‘xshaydur!

Ali Qushchi: Shomliklar ani iblis ko‘zi demishlar...

Ulug‘bek: Alg‘ul yulduzini bilursan, Ali.

Ali Qushchi: Filhaqiqat, Alg‘ul g‘alatdur. Uch kun yonib, so‘ngra so‘nadi-da, yana paydo bo‘lub avvalgidek porlab turaveradi.

Ulug‘bek: Ko‘ksimdagi iztirob ana shu Alg‘ulga o‘xshaydur, Ali! (60-bet)

Alg‘ul yulduzi, ruhdagi iztirob “Segoh” kuyi sehri sharhiga ulanib ketadi. Kuy haqidagi gap tragediya oxirigacha davom etadi. Asarga mantiqiy tarzda To‘yjon timsolini olib kiradi. Tragediya mantiqiy bog‘liq voqea-hodisa, timsol, personajlardan iborat. Asar uch samarqandlik suhbatlari bilan boshlanadi. Shaharliklar Ulug‘bek faoliyatidan, yurtdagi notinchlikdan boxabar. Lekin ularni turmush tashvishlari qiziqtiradi: “Men uchun zamin, oyu yulduz harakati emas, tegirmon toshining harakati muhimroqdir” (59-bet).

Ulug‘bek – “Alg‘ul”dagi voqealar markazi, bahs-tortishuvda yetakchi kuch. U Xoja Nizomiddin, Xoja Burhoniddin, Shamsiddin Miskinday saroyning tayanch kuchlari bilan uchrashadi. Bularning har biri o‘z vazifasini yaxshi biladi, vaziyatga ko‘ra ish yuritadi. Ota va O‘g‘il aro

murosasiz jang yetilmoqda. Amaldorlar Abdullatifga maktub jo'natish tarafdorilar. Ulug'bek – Temur nabirasi, g'ururi baland zot. Avval ham Abdullatifga maktub bitilgan – kelishuvga da'vat qilingan. O'g'il shitob bilan Samarqandga yaqinlashmoqda: Otaga qarshi jangu jadalga oshiqmoqda. Ulug'bek jangari o'g'ilni yengishi tayin. Ammo u o'z farzandiga qarshi jang qilishni ep bilmaydi. Podshoh qalbida iztirob avjlanaveradi. Qolaversa, saroy amaldorlari tili bilan dili bir deb bo'lmaydi: do'ppi tor kelib qolsa, ulardan birontasi Abdullatif tomonga o'tib ketishi mumkin. Buni donishmand, siyosat maydonida bo'laverib pishib ketgan Ulug'bek ham yaxshi anglaydi. Arkoni saroy bilan uchrashuv Ulug'bek iztirobini kuchaytiradi.

Ulug'bek Bobo Husayn Turkistoni, Mironshoh Qovchin, Sultonshoh Barlos, Shoh Vali singari amirlar bilan uchrashadi, ko'nglida quvonch uchquni yaltiraydi. Nega? Bir to'da amirlar Abdullatifga bosh urib bordilar, ayrimlar Abulxayrxon panohiga intiladilar. Eng dahshatlisi shundaki, Ulug'bek ko'kaldoshi, amir Vafodor qochib ketayotganida qo'lga olindi. Ulug'bek va Vafodorni donishmand Saroymulxonim tarbiyalagan edi. Tragediyada amaldor, amirlar bilan uchrashuv, xoinu qochoqlar haqida ma'lumot olish Ulug'bek g'amiga g'am, iztirobiga iztirob qo'shadi. Podshoh har bir voqeani chuqur tahlil qiladi, amiru beklar qilmishini qalbidan o'tkazadi. Asarda ostki – asosiy oqim va voqea-hodisalar sirti tasvirlangan. Kitobxon fikr-tafakkuriga qarshi ikki oqimni qiyoslab boradi. "Alg'ul"ning tragediya sifatidagi mohiyatini ostki (falsafiy mushohadalar) va ustki (bevosita jarayon) oqim belgilaydi. Maydonning keng olinishi o'y, qiyos, fikrlashga imkoniyat beradi. Timsol, personajlar (Ali Qushchi, To'yjon singarilar istisno – A.R.) ham

ikki tilda gapiradilar: tilida bir gap, dilida boshqa o‘y. Ulug‘bek bilan uchrashganlardan Vafodorning onasi va Bobo Turkistoniylar obrazi alohida ajralib turadi. Ona podshoh huzuriga nodon o‘g‘li qilmishi uchun uzr so‘ragani keladi. Farzandi gunohidan o‘tishni so‘ramaydi. Amir Vafodorni zahar berib o‘ldirganini aytadi. Onaning bunday jasorati kamdan-kam uchraydi.

Bobo Husayn Turkistoniylar, o‘zga amirlar singari, Ulug‘bekni nobakor o‘g‘ilga qarshi jangga kirishga undaydi. Amirlar podshohga xiyonat qilmaydilar. Ayni damda Ulug‘bek o‘y-xayolini chulg‘ab olgan fikrlarni anglamaydilar.

Ulug‘bek olim-faylasuf, tajribali yurtboshi, sarkarda, Amir Temur siymosini aniq tasavvur qiladi. U o‘z jigarbandiga qarshi maydonga chiqqan. Ota – yurtboshilarni, oqpadarlik tamg‘asini ilib Otaga qarshi kurashgan farzandlarni yaxshi biladi. Ulug‘bek tirik ekan, o‘g‘liga qarshi jang qilmaydi. Uning olimlik, odil shohlik e‘tiqodi shunday. “Alg‘ul”ning kuchli asarligi ma‘rifat va jaholat aro kurash mudom davom etishida ko‘rinadi. Shu g‘oya asarning o‘q tomirlaridan biri. Insoniyat, adolat, ezgu niyat bor ekan, mazkur g‘oya mangu yashayveradi. Ma‘rifat nur manbai sifatida loqaydlik, xoinlik, beparvolik, dangasalik, ikki yuzlamachilikni fosh etadi. G‘oyaviylik illatlarga qarshi o‘t ochadi, ruhiy-ma‘rifiylar jasorat tomon undaydi. “Alg‘ul”dagi fidoyi amirlar Ulug‘bekka sodiqlikni har qanday yo‘sinda isbotlashga tayyor. Abdullatif amir-beklar raqibi. Agar u otasiga qarshi kurashib taxtni egallasa, unga osoyishtalik, huzur-halovat begona. Bobo Turkistoniylarning quyidagi gaplari ontday yangraydi: “Eshitinglar, shahzodaning bu yerdagi quloqlari ham eshitinglar: agar u Sizning

joningizga qasd qilsa, Parvardigor haqi aytaman, men uni sog‘ qo‘ymayman. Ul nobakor Nizomiy hazratlari aytgan hikmatni unutmasun:

Shoh bo‘lmas otani o‘ldirgan odam, Oshmas olti oydan agar bo‘lsa ham”.

Ajabki, Odil Yoqubov romanida Abdullatifni Bobo Turkistoni o‘ldirganligi aytiladi.

Yetuk asarda mantiq izchilligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug‘bek Ali Qushchi bilan bir voqeani eslaydi. Ustoz va shogird bir avliyo devonaga duch keladilar. Ulug‘bek o‘z taqdirini so‘raydi. Shunda devona: “Seni Sheruya o‘ldiradi,” – deydi. Sheruya – Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonidagi yetakchi obrazlardan biri. Yana bir fikr bor. Ulug‘bek zinhor yulduzlarga qarab fol ochmagan. Lekin uning ruhida yulduzlar bilan tillashish xususiyati bor. Baytul Javzo – Iblis yulduzida u Abdullatif ruhi, ko‘zlaridagi yovuzlikni ko‘radi. Uch kun yaraqlab turgach, yo‘q bo‘lib ketadigan Alg‘ulda qalbida mudom davom etayotgan notinchliklarni anglaydi.

“Bashorat” hikoyasida Abdulaziz avlodi taqdirini Ulug‘bek aqlli kelini iltimosiga ko‘ra bexato aytib beradi. Ulug‘bek, garchi dunyoviy olim bo‘lsa-da, yulduzlarning falakdagi joylashishiga ko‘ra vaqti-vaqti bilan bashorat qilib turardi. “Alg‘ul”da ulug‘ munajjimning bashoratlariga imo-ishora bor. Xurshid Davron tragediyasi Ulug‘bekning yuksak darajadagi olimligi, ilohiyot bilan bog‘liqligini ostki mazmun tarzida ifodalagan.

Na Maqsud Shayxzoda, na Odil Yoqubov, na Bo‘rivoy Ahmedov ikki zid qutb kishilari Ulug‘bek va Abdullatifni baqamti tasvirlagan. Xurshid

Davron ota va o‘g‘ilni qurol ishlatilmaydigan, har bir so‘z zaharlangan o‘q-yoy vazifasini o‘taydigan maydonga olib chiqadi. Ulug‘bek qahr otiga mingan, farzandi qilmishini zinhor qo‘llamaydi. Ammo u otalik maqomidan pastlamaydi. Abdullatif maydonga g‘azab bilan kiradi, otasini yer bilan yakson qilib tashlashga tayyor. Uning asosiy, zaharlangan o‘q yoyi shundaki, Ulug‘bek ichi qora, xudbin, iste’dodli odamni, garchi farzandi bo‘lsa-da, yoqtirmaydi. Abdurahim iste’dodli edi. Shuning uchun u ota qahriga uchraganmish. Bechora Abdurahim o‘n ikki yoshida vafot etib ketmaganida ota g‘azabiga duchor bo‘lardi. Abdullatif jon-jahdi bilan Abdulazizni yomon ko‘radi. Ayniqsa, uning valiahdlikka tayinlanishi og‘ani o‘rtab yuboradi. Unga tentak, ma’naviy buzuq singari ayblarni yuklaydi. Yigirma beshga to‘lgan Abdullatif tezroq podshohlik tojini kiymoqchi. U o‘zining qattiqqo‘l bo‘lib yetishishida Gavharshodbegim – Ulug‘bek onasi ta’siri borligini qistirib o‘tadi. Abdullatif dadil, do‘q-po‘pisa bilan gapiradi. Ammo uning da’volari puch, dalillari asossiz. U Ulug‘bek hukmronligi paytida necha amaldor o‘ldirilganini ham hisoblab yurgan. Abdullatif podshohni “Padari buzrukvor” desa-da, eng ashaddiy dushman ekanligini yashira olmaydi.

Tragediyada Ulug‘bek va Abdullatif aro fikr to‘qnashuvi kul’minatsion nuqta vazifasini o‘taydi. Ma’rifatli, fanda maktab yaratgan Ota johil, kaltabin o‘g‘lini haq yo‘liga bura olmasligini anglaydi. Aksincha, ichi qora, butun borlig‘i-la taxtga intilgan Abdullatif qalb mayliga zinhor quloq solmaydi:

“Ulug‘bek: Hu, anavi yulduz Baytul Javzadur. Xuddi g‘azabga mingan Abdullatif ko‘zlariga o‘xshaydur!

Ali Qushchi: Shomliklar ani iblis ko'zi demishlar" (60-bet).

Mantiqan, asar shu dramatik holatda tugaydi. Qon to'kilmaydi. Xurshid Davron asari shu jihatdan an'anaviy tragediyalardan farq qiladi. Xususan, Maqsud Shayxzoda "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida Ulug'bekning Sayyid Obid o'g'li Abbas tomonidan o'ldirilishi – qon to'kilishini ko'rsatadi:

Abbas (cho'chib sipohlariga): Jadal bo'ling, tez otlaning, darhol ketamiz, Mana qasos, mana sizga otamning xuni!

Ulug'bek ko'ksiga xanjar tiqadi (M.Shayxzoda. Asarlar. 6 tomlik. 3-tom, 252-bet).

Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi" romanida Ulug'bekning o'ldirilishigina emas, balki padarkush Abdullatifning ham tig'dan o'tkazilishini tasvirlagan: "Niqoblarini yulib olgan bu ikki suvoriyning biri... amir Sulton Jondor edi. Ikkinchisi... yo rab! Xuddi tushida barkash ko'tarib kirgan navkarga o'xshagan bu ikkinchi suvoriy... ko'pdan beri fitna qo'zg'ab qochib yurgan Bobo Xusayn Bahodir edi!...

Shahzoda jonholatda otining boshini burdi... to'satdan yelkasiga zarb bilan qadalgan o'q-yoy uni bukchaytirgancha egardan ag'dardi..." (312-bet)

Tragediya yozishga qo'l urgan adib qiyin yo'lni tanlaganini biladi. Xurshid Davron bevosita qon to'kilishini ko'rsatmaydi. Qora rang, motamsaro kuyni maromida tasvirlab o'ziga xos tragediya yaratadi.

Ulug'bek o'lim ostonasida turganiga qaramay, rasadxonani to'liq ta'mirlashni Ali Qushchiga topshiradi. Asosiy xazinasi – kitoblarni yashirib qo'yishni shogirdidan o'tinib so'raydi.

“Segoh” kuyi tragediyadagi yetakchi obrazlardan biriga aylanadi. Ulug‘bek bir necha bor bu g‘aroyib kuyni tilga oladi: “To‘yjon xonish qilgan “Segoh”ga quloq tutib o‘ltirgan kezlarim yuragimni kaftimga olib tomosha qilgandek bo‘laman. “Segoh” alamimga, sirqirab og‘rigan jonimga o‘xshaydur” (60-bet).

Fojeiy operada shunday ariyalar borki, ular musiqiy asar joni vazifasini o‘taydi. Shoir Xurshid Davron hayot bilan vidolashayotgan Ulug‘bek ruhi, qalbi, jonini aks ettirmasligi mumkinmasdi.

Asar nihoyasida ixcham, ramziy voqea bor. Mirzo Ulug‘bek Hirotda tug‘ilib, voyaga yetayotan bola haqida To‘yjondan so‘raydi:

“ – Podshohim ul o‘g‘lonning ismi Alisherdur. Amir G‘iyosiddin farzandi... volidasi dugonamdur, — dedi To‘yjon” (86-bet).

Iste‘dodli Ulug‘bek mohir qo‘shiqchidan ertangi kunning yorug‘ yulduzi Alisher haqida so‘raydi.

“Alg‘ul” misoli ostin-ustun qavatli mustahkam bino. Yuqori qavat go‘yoki keng-mo‘l sahna, ijrochilar o‘z rollarini ijro etadilar. Birinchi qavat ma‘no-mazmun, matn osti, shovullab oqadigan daryo. Har ikki qavatda ramziy hayot jo‘sh uradi, “Segoh” kuyi yangrab turadi. Holat, kayfiyat ro‘y berajak fojiadan xabar berib turadi. “-dur,” “-men” singari qo‘shimchalar asar ta‘sirchanligini oshiradi. “Alg‘ul” o‘zbek dramaturgiyasining nurli asari bo‘lib qolishiga ishonamiz”.

Manba: «Yoshlik» jurnali, 2014.

Komediya(yun. Comos-quvnoq kishilar(olomon) va oide-qo‘shiq)da hayot voqea-hodisalari dramatik qahramonlarning kulguli fe‘l-atvorlari, xatti-harakatlarida sodir bo‘ladi. Bu xususiyati bilan u “tragediyaga tamoman qarshidir. Tragediyaning mazmuni buyuk axloqiy

hodisalar olamidir, uning qahramonlari ma'naviy inson tabiatining substansial kuchlari bilan to'la bo'lgan shaxslardir, komediyaning mazmuni-aqliy zaruriyatdan mahrum tasodiflar, sharpalar dunyosi yoki bor kabi ko'rinib, haqiqatda mavjud bo'lmagan voqyelik hodisalaridir; komediyaning qahramonlari o'z ma'naviy tabiyatining substansial (tub, mohiyat –H.U) asoslaridan voz kechgan odamlardir. Shuning uchun tragediyaning ko'rsatgan ta'siri ruhni qaltirativchi muqaddas dahshatdir; komediya ko'rsatgan ta'sir sho'x kulgudir... tragediya o'z hayotining tor doirasida faqat yuksak momentlarni, qahramon voqeasining shoirona momentlarini to'plasa, komediya har kungi hayotning oddiy ko'rinishlarini, uning mayda-chuydasini, tasodiflarini ko'rsatadi" (B.Belinskiy. Tanlangan asarlar. 204-bet). Komediyaning mohiyati-komik konfliktga bog'liq bo'lib, unda "hayot o'z-o'zini inkor qiladi" (V.Belinskiy), ya'ni aslida xunuk, zararli, razil va nopok xulqli inson (mazmun) o'zini yaxshi, ilg'or, pok, odamiy qilib ko'rsatsa (shakl) yoki buning aksicha holatda bo'lsa, kulgu keltirib chiqaradi (Berdiali Imomov. Dramaturgik mahorat sirlari, T., G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 50-bet). Unda shoirning shaxsi faqat tashqi jihatdan ko'rinmaydi, - deb yozadi V.Belinskiy. – Lekin uning subyektiv mushohadasi yashirin fikr sifatida ko'p komediyada bevosita hozir bo'ladi, komediyada ko'rsatilgan hayvonlar va tasqara basharalar orqasidan sizga boshqa yuzlar, go'zal, insoniy yuzlar ko'ringanday bo'ladi, kulgusi sho'x xursandchilikni emas, alam va norozilikni ifoda qiladi... Badiiy komediyaning eng yaxshi namunasi Gogolning "Revizor" nomli asaridir(204-bet). O'zbek adabiyotida Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Maysaraning ishi", Abdulla Qahhorning "So'nggi

nusxalar”, B.Rahmonovning “Yurak sirlari”, Erkin Vohidovning “Oltin devor”, Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, Abduqahhor Ibrohimovning “Zo‘ldir” kabi asarlari ham komediya janrini rivojlantirish ishiga qo‘shilgan hissalaridir. Turg‘unlik davri illatlarini bor-bo‘yicha fosh qilish, davrning barcha kirdikorlarini ochib tashlash maqsadida Uchqun Nazarov ham bir qancha sahna asarlari yaratdi: uning “Oyna” dramasi (1977) hozirgi O‘zbek milliy akademik drama teatrida muallifning o‘zi tomonidan sahnalashtirildi. Drama Akbar Sodiqovning cho‘kayotgan odamni ko‘rib o‘zini suvga otishi va qutqaruvchilar yetib kelgunlaricha yordam ko‘rsatish sahnasi bilan boshlanadi. Termizda birinchi marta mustaqil ravishda tergov olib botayotgan o‘g‘li Tohirga qarata: “Nomim yurist deb nuqul ayb qidirma. Adolatli bo‘l, o‘g‘lim. Qo‘lingdan kelgancha yaxshilik qil, o‘g‘lim”, degan gaplaridan uning qanday insonligini bilib olishimiz mumkin. U o‘z davrining poraxo‘rlik, mansabparastlik kabi illatlari bilan sira chiqisha olmaydi. Hatto uni o‘z turmush o‘rtog‘ tashlab qizirikiga ketib qoladi. Ukasi Arslon va kuyovi Ortiqlar bilan suhbatida haqiqiy aqida, insoniy qaysarlik, oliyjanoblik haqida qanchalik kuyib-yonib tushuntirmasin ularning qalbida insoniylik tuyg‘ularini yoqa olmaydi. Ukasi va kuyovi til biriktirib jinnixonaga joylashtirmoqchi ham bo‘lishadi. U.Nazaraov davr illatlarini ochib tashlash bilan birga, yaxshilik va ezgulikning g‘alaba qozanishini juda ta’sirli va ishonarli tarzda ko‘rsatib bera olgan. Hatto o‘g‘liga qarata dunyoda yaxshi insonlar bor, el dardi uchun yashayotgan Qosimlar bor shuning uchun ham hayot yaxshi, o‘g‘lim, degan gapidan ham inson umrining mazmuni nima bilan o‘lchanishini bilib olish mumkin. Har qanday tarixiy asarda badiiy to‘qima bo‘lishi muqarrardir.

Chunki usiz yozuvchi oldiga qo‘ygan maqsadni, g‘oyasini, konsepsiyasini ilgari surishi dushvordir. Sababi xuddi shu narsalarni amalga oshirishga badiiy to‘qima juda qo‘l keladi. Dramada Qosim va Akbar Sodiqovlar tomonidan aytib berilgan “qahramonlar nomini o‘zgartirishni xohlamagan rejissyor” va “ko‘zi ojiz inson haqida” gi rivoyatlar ham asar mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Yozuvchi G‘afur Shermuhammadning “Ta’ziyadagi to‘y” deb nomlangan satirik-komediya to‘y va ta’ziya marosimlaridagi achinarli holatlar yoritilgan. Xalqimiz orasida urchib borayotgan yangi-yangi bid’atlar o‘ta ta’sirli holatda aks ettirilgan. Mayit tepasida ayollarning dod-voy qilishlari, erkaklarning soxta hassakashliklari, qolaversa, nafaqat to‘y hatto azadagi isrofgarchiliklar kishini hayratga soladi. “Ta’ziyadagi to‘y” deb nomlangan satirik-komediya oddiygina bir qishloqda bo‘lib o‘tayotgan voqea-hodisalar yorqin bo‘yoqlarda aks ettirilgan. Ayniqsa, bandaligini bajo keltirgan Qulman buvaning to‘ng‘ich qizi o‘sha kuni qiziq ustida yuzini ko‘proq timdalab qo‘ygani va gazaklab ketib, kasalxonaga tushgani har qanday kishining kulgisini keltiradi.

Mahalladoshlari o‘z yaqinlaridan ajralib, ko‘ziga dunyo qorong‘u bo‘lib yotganidan foydalanib turli bid’at amallar bilan ularning bor budini shilishni oldilariga maqsad qilib olishgan mahallaning bir guruh “faollari”ning xatti-harakatlari achchiq kulgu ostiga olinadi. Asosiy qahramon bo‘lmish Tirkash buva behush yotganida uning ta’ziya marosimini o‘tkazishga kelgan Nurmat faol bilan Norchaning pul uchun qilayotgan mehribonliklari fosh bo‘lib qoladi. Hatto Serkaboy boshliq

uyushtirilgan hassakash marsiyachilar Tirkash buvaning o‘rniga To‘xtash xolani adashtirib quyidagicha aytib kirib kelihadi:

Mozor yo ‘li andadur, voy, onam,

Tuproqlari maydadur, voy, onam...

Ularga angrayib turgan To‘xtash xolaga qarata siri ochilib qolishidan qo‘rqib Nurmat faol “Biroz tushunmovchilik bo‘lgan”ligini ro‘kach qiladi. Lekin keyingi jarayonda hali joni uzilmagan, o‘lim yoqasidagi mahalladoshining o‘limini kutishib “yaxshi niyat” qilishi yanada dahshatli jarayondir. Pul ilinjida hali joni uzilmagan, qariyaning qachon joni uzilishini betoqatlik billan kutishib, shu xonadondan uzoqlashmasdan o‘likxo‘r kalxatlarday izg‘ishadi.

Buni quyidagi suhbatda o‘tkir kulgu bilan aks ettirilgan.

- Kechgacha bu yerda mum tishlab o‘tirishdan bizga nima naf?, - deb ketishga chog‘langan Serkaboyga Norcha: “Yaxshi niyat qil, Serkaboy, yaxshi niyatga farishtalar ham omin deydi”, - deya o‘zining asl maqsadini bildirib qo‘yadi.
- Mening vazifam – ta’ziyaga marsiya aytish, birovlariga o‘lim tilab duo qilish emas, deya Serkaboy ularning asl basharasini ochib tashlaydi.

Nurmat faol bilan Norcha derazadan Tirkash buva yotgan uyga o‘g‘rincha mo‘ralashi va norozi qiyofada uzoqlashishi g‘oyatda achinarli kulguga olingan.

Ayniqsa, Sabohat savdogar dang‘illama to‘y-hasham o‘tkazsa arziydigan noz-ne‘mat olib kelgandagi suhbat yanada yozuvchining maqsadini ochib beradi. Serkaboy bir o‘rinda: *”Bular bechora otamizni tiriklayin go‘rga tiqishdan ham toyishmaydiganga o‘xshaydi”*, - desa, boshqa o‘rinda

“...Bu xotin bir o‘likning ortidan ham shuncha pul ishlayapti”, - deya hayratini berkitmaydi.

Boshqa xonadonda, ya’ni Boydangalnikida to‘y avjida. Boydangal buni Nurmat faol bilan Norchaga quyidagicha ifodalaydi: *“Men to‘yga qilgan xarajatlar oldida sizlarniki urvoq ham bo‘lmaydi! Doshqozonlarda naq 500 kilo guruch damlangan. Dasturxonga qo‘yilgan yeguliklarning o‘zi Tepaqishloqni bir yil boqishga yetadi. Pulning betiga qaramay Toshkentdan manaman degan otarchilarni chaqirganman”*. Ushbu fikrlarning o‘zidayoq to‘y va azaga sarflangan ortiqcha sarf-xarajatlarning isrofgarchiligi ko‘rsatilgan.

Ikki oqshom Tirkash buvaning o‘limini kutishib, uning marosimini o‘tkaza olmay toqati toq bo‘layozgan Nurmat faol bilan Norcha Qulmurodning *“Otajon!”*, - degan faryodidan cho‘chib o‘rnidan turib ketishadi, hayajonlanib, titrab-qaqshab bir-birini bag‘riga bosishadi.

- *Ana, ana!.. Men nima degan edim!*

- *Nihoyat, Tirkash buvayam chin dunyoga ketdi!*

Birozdan so‘ng Nurmat faol o‘zini qo‘lga olib, chehrasida g‘amgin ifodalar paydo qildi. Nihoyat uzoq kutilgan ta’ziya marosimlari boshlab yuborildi. Kutilmaganda uydan Tirkash buva chiqib keladi va barcha harakatlarni chippakka chiqaradi. Barcha uyushtirilgan xizmat egalari o‘z haqlarini talab qila boshlashdi. Sharmandalarcha qochib borayotgan Nurmat faol bilan Norcha bu qilingan xarajatlarni qanday to‘laymiz deb turishganida, qishloqda Xatcha kampir vafot etganini eshitib rosa suyunishadi. Xursand qiyofada qishloqqa yo‘l olishadi. Sirtan kulguli ko‘ringan bu voqea, aslida yig‘lashga arzigulik edi.

Komediya keyinchalik yangi voqea va personajlar bilan boyitilib kinossenariyga aylantirildi

Izzat Sulton va Uygʻunning “Alisher Navoiy”, Oʻlmas Umarbekovning “Qiyomat qarz”, “Oʻz arizasiga koʻra”, Izzat Sultonning “Imon” kabi asarlari – dramaning harakat birligiga asoslangan eng yaxshi dramalar sanaladi. Agar tragediyani fojea, komediyani kulgu, dramani jiddiylik boshqarsa, baʼzi dramatik asarlarda bu vositalarning birlashganini koʻrish mumkin. Tragikomediya (tragediya va komediyaga xos xususiyatlarning birlashuvi) janrida inson fojeasini kulguli voqealar orqali koʻrsatish yetakchilik qiladi. Sharof Boshbekovning “Temir xotin” asarida “lovullab yonayotgan ayolning dod-faryodi, yetim qolgan bolalar yoki dardu alam girdobiga irgʻitilgan ota-onalarni koʻrmaysiz. Yuraklarni qon qiluvchi sud jarayoni ham yoʻq” (Sh.Boshbekov), unda qishloq ayolining uqubatli, ogʻir hayoti kulguli (yumoristik va baʼzan satirik) voqealar (masalan, Alomat nomli temir-robotning taqdiri) orqali tasvirlanadi. Dramaturg oʻz asarini “Jiddiy komediya” deb ataydi va “umuman inson fojeasi haqida komediya yozish” mumkinligini ham taʼkidlaydi. Bu taʼkidlar bitta xulosani isbot etadi, yaʼni sof adabiy janrlar boʻlmaydi, ularning barchasi hamkorlikda, oʻzaro bogʻliqlikda yashaydi. Melodrama(yun.melos-ohang, kuy, drama-harakat), dastavval, musiqali drama asari sifatida yuzaga kelgan va undagi qahramonlar kuy joʻrligida soʻzlashganlar (Shu sababli hozir ham Italiyada melodrama opera maʼnosida qoʻllaniladi). Unga J.J.Russo “Pigmalion”(1762) asari bilan asos solgan. Bugungi kunda “kuchli taʼsir kuchiga ega boʻlgan, favqulodda voqealarga, tendensioz axloq va keskin intrigalarga boy dramatik asarlar” (N.Hotamov, B.Sarimsoqov)ni melodrama deb yuritish

rasm bo'lgandir. Ayniqsa, "Otalar so'zi aqlning ko'zi" teleko'rsatuvlarida bu janrlarning ko'plab namunalari ko'rsatilmoqda. Melodrama janrida ko'plab kinofilm (masalan, amerikaning "Arvoh"...)lar yaratilgan, ularda qatnashuvchi xarakterlarning holat va xatti-harakatlariga uyg'un holda musiqa chalinib turadi. Monodrama(yun.monos-bir, yakka, yolg'iz, drama-xatti-harakat)-bir aktyor tomonidan ijro etiladigan dramatik asardir. "Esxilga qadar bo'lgan tragediyada bir aktyor maska va kiyimlarini o'zgartirib, bir necha rollarni ijro etgan. Bu aktyorning bir roldan ikkinchi rolga o'tguncha vaqt ichida qo'shiq va musiqali tanaffus bo'lgan.

Dramaturgiyada O.Yoqubov ham barakali ijod qildi. Uning zamonaviy dramasi-«Bir koshona sirlari» jamoatchilik tomonidan yuksak baholandi, 2000-yilning eng yaxshi dramatik asari sifatida «Ofarin» mukofoti bilan taqdirlandi. Ushbu dramada qisman detektiv asarlarga xos ayrim xususiyatlar bor. Chigal insoniy munosabatlar haqida bahs yurituvchi bu drama qandaydir nurli, bokira bir tuyg'u bilan yo'g'rilgan.

Sarvar bilan Dilara oilasidagi farovonlikni, peshqadam ziyolilar-Darveshali bilan Dilnoza orasidagi o'zaro hurmat-ehtirom, el-yurt ishiga, kasbi-koriga sadoqatni kimlar orzu qilmaydi, deysiz! Nega shunday bo'la turib, u ikki oilada bu xil ko'ngilsizliklar ro'y berdi? Nega bu oila a'zolari baxtsiz? Boshga tushgan savdolarga, turmush chigalliklariga najot topmay o'rtanadilar?! Buni hayot deydilar, ko'ngil ko'chalari deydilar. Bu drama inson hayoti, qalbi naqadar murakkab, sir-sinoatga boy, uni anglash, qadrlash aslida o'ziga xos ilm, yuksak san'at ekanini yana bir karra eslatishi, jiddiy o'y-mushohadalarga undashi bilan qimmatlidir.

90-yillarga kelib Odil Yoqubov sohibqiron Amir Temur hayotining so‘nggi kunlari to‘g‘risida pyesa yaratdi. O.Yoqubov “Fotihi muzaffar yoki bir parivash siri” dramasida Amir Temurning ko‘ngil mayllarini jilovlab yashagani, dinu diyonatda benuqson inson ekanligi aks etgan.

Odil Yoqubovning “Avlodlarga vasiyat” tarixiy dramasida ham Sohibqiron umrining so‘nggi kunlari bilan bog‘liq voqealar qalamga olingan. Dramada Sohibqiron avvalgi asarlarda tasvirlangandek faqat mohir sarkarda, qattiqqo‘l taxt egasi bo‘lib emas, go‘zallikka moyil, adolatli, barcha narsaning tosh-tarozisini to‘g‘ri qo‘ya biladigan, hayotni, vaziyatni teran anglaydigan va to‘g‘ri xulosa chiqaradigan, o‘z xalqi hamda davlatining kelajagi uchun qayg‘uradigan, shuningdek, tinchlikni barqaror tutadigan, farzandlari, beklari, o‘rtasida buzuvchi emas, quruvchi inson sifatida gavdalanadi. Birinchi parda, birinchi ko‘rinishda Sohibqiron vajohatidan odam oldiga boradigan shaxs emas, balki hamma qatori tuyg‘ularga berilaturgan inson sifatida gavdalanadi. Bu uni eshik og‘asi, qo‘riqchisi, kanizaklarga bo‘lgan munosabatlarida va ularning ham hech tortinmay harakat qilishlarida ko‘rinadi. Mazkur hol Amir Temur samimiy insonligidan dalolat beradi. Pyesaning ikkinchi parda, to‘rtinchi ko‘rinishida Sohibqironning o‘limi va asarning nima uchun “Avlodlarga vasiyat” deb atalganiga aniqlik kiritiladi. Adib bu o‘rinda tarixiy haqiqatga juda yaqinlashgan, ya’ni tarixiy haqiqatni badiiy to‘g‘ri aks ettirgan. Sohibqironning foniy dunyodan boqiy dunyoga rixlat qilishini shunchalik ta’sirchan, hayotiy va yorqin tasvirlagani, go‘yo kishi shu holatni tepasida turganday his qiladi. Va Amir Temurning irodasiga tan beradi, uning yaqinlariga aytgan purhikmat so‘zlari butun kelajak avlodga, bugunga qarata aytilganini qalban tuyadi. Mana, u nima dedi:

“Biz qirq yil birga ot surdik. Olloh bergan tuz-nasibani birga baham ko‘rib, Mashriqdan Mag‘ribga cho‘zilgan hududsiz davlat qurdik. Ammo eslaringda bo‘lg‘ay. Davlat har qancha qudratli bo‘lmasun, uning tomirig‘a bolta uradigan uch xatar bor: birlamchi o‘zaro noahillik, ikkilamchi jaholat, uchinchisi tarafkashlik. Shul uch xatardin ehtiyot bo‘lsangizlar, faqir tiklagan bu davlat tog‘day abadul-abad turadur”. Drama mana shunday hayotiy voqealardan saboq berishi va Sohibqironning boshqa asarlarda ochilmagan insoniy fazilatlari inkishof qilinganligi bilan adabiyot va inson ma‘naviy olamida muhim o‘rin tutadi.

Buni Abdulla Oripovning “Sohibqiron” nomli she‘riy dramasida ham ko‘rishimiz mumkin. Dramada juda ko‘p tarixiy shaxslar faoliyat ko‘rsatadi. Hayot haqiqatidan ma‘lumki, tarixiy shaxslar bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarning barchasi ham uning ma‘naviyatini, axloqini, tabiatini, ruhiyatini, insoniyligini ifodalamaydi. Buni yaxshi anglagan shoir badiiy to‘qimadan unumli foydalangan. Drama Temurning soch oldirish epizodi bilan boshlanadi. Ma‘lumki, bironta tarixiy manbada dramadagi holat aynan qayd qilinmagan. Lekin hayotda bunday jarayon bir marotaba emas, ko‘plab sodir bo‘lganligi aniq. Shoir shularning bittasidan maqsad yo‘lida foydalanadi. Ya‘ni Temurning oddiy odamlardan o‘zini ayri tutmasligini, ularga ishonishini, shuningdek, mard va mag‘rurligini ko‘rsatishga, sadoqatli odamni ajrata olish xususiyatiga egaligini anglatishga. Sartaroshning “Hatto hazil-huzulni ham iltifot aylab, Qulingizdan ayamaysiz”, —deganiga “Qul ko‘p, sen — yolg‘iz”, - deb javob beradi. Demak, uning sadoqatini ko‘p sinovdan o‘tkazgan. Sartaroshning:

*Sohibqiron, boshingizni sal quyi eging,
Ustaramning tig'i o'tkir, dami ko'p tezkor,
-deganiga Temur:
Sartaroshga bosh egar, ha, jahongirlar ham,
Boshqalarga egilishdan asrasin Xudo! — deydi.*

Amir Temurni o'z ko'zi bilan ko'rgan Ibn Arabshohning "Ajoyib ul-maqdur fi axbori Taymur" asarida tasvirlagan fikrlarini zamondoshi Barbara Brey ham "Ibn Xaldun" nomli maqolasida bildirgan. Odam yuzining jilolanishi botinidagi ezgulikdan, ma'naviyatdan dalolatdir. Bunday fazilatga ega odamning chehrasi ravshan va kishi ruhiyatini tez anglovchi xususiyatga ega bo'ladi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Temur shunday shaxs bo'lgan. A.Oripov dostonida uning bu xususiyatini to'g'ri qayd qiladi:

*Gap yurarmish, go'yo Temur tabassum qilmas,
Go'yo unga xursandchilik, shodlik begona ...
Odamlarning badnafs ...
Odamzodni bir daqiqa bejilov qo'ysang
G'ajib tashlar, yeb bitirar bir-birlarini.*

Bu misralar Temurning saltanat ko'lamini kengaytirib va markazlashgan davlat qurishga muyassar bo'lish sabablarini, shuningdek, uning osoyishtaligini saqlashga erishish asoslarini ko'rsatadi. Sahnadagi voqealar, dialog va monologlar shunday asosga qurilganki, ularning birida Temurning insoniylik fazilati ochilsa, ikkinchisida sarkardalik mahorati, uchinchisida hukmdorlik fazilati, to'rtinchisida katta siyosatdon, vaziyatni oldindan ko'ra biluvchi bilimdon alloma sifatida bo'y ko'rsatadi.

A.Oripovning yutug‘i shundaki, tarixiy voqealar zamiriga bugungi kun masalalarini ham singdirib yuboradi.

Tekshirish uchun savollar:

- 1.Tarixiy dramada badiiy to‘qima qanday rol o‘ynaydi?
- 2.Tarixiy haqiqat she’riy dramada badiiy haqiqatga qanday aylantirilgan?
- 3.Tarixiy dramalarda ayollar obrazi va ularning ruhiyati qanday berilgan?
- 4.Dramalarda tarixiy va to‘qima voqealarga qanday falsafiy tus berilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.Rasulov. Alg‘ul yulduzi – iztirob ramzi, «Yoshlik» jurnali, 2014
- 2.A.Oripov. Tanlangan asarlar. 2-jild. - T.: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 2001.
- 4.Berdiali Imomov. Dramaturgik mahorat sirlari, T., G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 50-bet.
- 5.[1] Turg‘un Fayziyev. Temuriylar shajarasi -T .: Yozuvchi. 1995. 3 4 - 35-betlar.
- 6.[2] Turg‘un Fayziyev. Temuriylar shajarasi. - T.: Yozuvchi, 1995 yil, 21-bet
- 7.Каримов, Ҳакимжон. Истиклол - бахтим, саодатим...: дарслик / Ҳ. Каримов; ЎзР олий ва о‘рта махсус таълим вазирлиги, Низомий номидаги Тошк. Давлат педагогика ун-ти. — Т.:, 2010. — 364 б.
- 8.Hafiz Abdusamatov. Tarix va badiiy talqin. - T.: “G‘. G‘ulom” nashriyoti, 1995.
- 9.Hafiz Abdusamatov. Drama nazariyasi. - T.: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 2000. 10.Tohir Islomov. Tarix va sahna. -T.: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 1998.
- 11.Mustaqillik davri adabiyoti. - T.: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 2006.

12.Badiiyat jilolari. — T., 2006.

13.An'ana va zamonaviylik. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. - T., 2007.

14. Temuriylar shajarasi. 165- 169-betlar.

12-MAVZU: ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK FANTASTIKASI TARIXI VA UNING O‘ZIGA XOSLIGI.

Reja:

1.Istiqlol davri o‘zbek fantastikasining tarixi, fantastikaning turlari.
2.O‘zbek adabiyotida fantastik xususiyatlarning maydonga kelishi
3.Istiqlol davri o‘zbek adabiyotida fantastik hikoyachilik sohasidagi izlanishlar.

4.Fantastik qissalarda ijtimoiy hayot bilan bog‘liq holda genetik masalalar xususida fikr yuritilishi.

5.Fantastika va siyosat.

6.Fantastika janridagi asarlarning badiiyati.

7.Hojakbar Shayxov ijodida fantastik talqin

8.Keyingi yillar fantastikasi va uslubiy izlanishlar.

Hozirgi o‘zbek fantastikasining mavzuni tanlashdan boshlab, qahramonlarning shakl – shamoyilida, hatto sun’iy taqlid natijasida yuzaga kelgan kamchiliklargacha kuzatish mumkinki uning o‘ziga xos xususiyatlardan biri real hayotga yaqinlashganidadir.

Fantastik asarlar xususiyati:

1.Mifologik fantastika; 2.Ilmiy fantastika; 3.Sarguzasht fantastika.

O‘zbek fantastikasining rivojlanishida uning ijtimoiy, maishiy, falsafiy fantastika kabi yangi ko‘rinishlar paydo bo‘la boshladi. Mustaqillik davriga kelib, fantastik adabiyot to‘liq shakllanib, takomillashishda davom etmoqda. Bugungi kunga kelib o‘zbek fantastikasi jahon miqiyosida shuhrat topishga muvaffaq bo‘ldi. Hozirgi o‘zbek adabiyotida badiiy fantastikaning taraqqiyoti Toxir Malikning “Somon yo‘li elchilari”, “Chorrahada qolgan odamlar”, Xojiakbar

Shayxning “Rene jumbog‘i”, “G‘aroyib ko‘lanka”, “Telba dunyo”, “Jodugarning eri”, Mahkam Mahmudovning “Men – men emasman”, “Mangu kuy izlab”, “Teskari ko‘zlar sayyorasi”, “Biz bilmagan dunyo” kabi asarlari bilan belgilanadi. Bu sanoqni yana davom ettirish mumkin, bu qatordan fantast ayol yozuvchilar ham munosib o‘rin egallashdi. Bu asarlar ijtimoiy, falsafiy, siyosiy, ma‘naviy muammolarning o‘rtaga qo‘yilishi bilan e‘tiborga loyiq. Bugungi fantastik adabiyot quyidagi 18 ta mavzuni tashkil etadi: uzoq umr ko‘rish, abadiy yashashlik, regeniratsiya; anabiyos yo letargiya – kelajakka sayohat qilish vositasi sifatida; kelajakda paydo bo‘lmoq; robotlar, androidlar, kiborklar, sun‘iy zakovat; qiyofadoshlar; kelajakka sayohat qilish; o‘zga sayyoraliklar; sintezatorlar, istakni bajo keltiruvchilar; fazoviy sayohatlar; samoviy urushlar; miyani almashtirish; o‘zga sayyoralik mavjudotlar bilan yerda, fazoda muloqotga kirishish; mutantlar, monstrlar; tarixiy ilmiy fantastika; qanotli odamlar; telepatiya; yondosh olam; masofadagi voqelik. Sanab o‘tilgan mavzularning ayrimlarini e‘tibordan soqit qilganda, qolganlarini deyarlik hammasi o‘zbek fantastik adabiyotida ishlangan, mavzu doirasini tashkil etgan. Bunga fantast yozuvchilarimiz. H.Shayxov, M.Mahmudov, M.Xidir, X.Do‘stmuhammedov, Q.Do‘stmuhammedov, R.Obid, O.Mo‘minov, Xonxo‘jayev, A.Fozilov, O.Yusupov, aka-uka Tursunovlar, S.Abdullayeva, M.Yo‘ldosheva, F.Hojiqulova va boshqalar yaratgan fantastik asarlar misolida ko‘rishimiz mumkin. H.Shayxovning fantastik adabiyotdagi xizmatlaridan ayol obrazini olib kirgani edi. U o‘zbek fantastikasida erotik fantastika ko‘rinishiga ham asos soldi, hamda ayol obrazining qorishiq tipini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Fantastik asarlarda eng ko‘p tarqalgan ayol obrazi bu bolani eslatuvchi

obrazdir. Ayol zaif, yordamga muhtoj, chiroyli, ishonuvchan. Fantastik asarlarda yaratilgan bolani eslatuvchi ayollarning ikkinchi xilini erkakka monand ayollar tashkil etadi. Ayollarning navbatdagi turini ayol-qurbon obrazi tashkil etadi. Ular o‘zlaridagi azob-uqubatlarga andarmon bo‘lib yashaydilar. Muhabbatga ham xususiy mulkka ham qaragandek qarashadi. Bu toifadagi ayollar erkaklar bilan bir safda turishni afzal ko‘rishadi. Bu toifadagi ayollarga ayol-ota-ona kiradi. Ular bolalarni himoya qiladilar. O‘zlarida buning uchun zarur kuch ham topadilar. Bular erni er qiladigan toifadagi ayollardir. Bu toifadagi ayollarga fantastik asarlarda ehtiyoj kuchliroq. H.Shayxov ijodiga xos xususiyatlardan yana biri-u mana shu fantastik adabiyot mundarijasida mavjud ayollar obrazining tipini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. ”Jodugarning eri” fantastik qissasidagi firqa rahbari Ayra buning yorqin misoli. U asardagi yetakchi obraz ikki marta gapirishni yoqtirmaydi, gapi qonun bo‘lishi va hech kim uning izmidan chiqmasligi kerak. Xodimlarga zahrini sohib, ularni qo‘rqitish va ranjitishdan zavq oladi. Ishbilarmon, ishi yurishgan, taqvodor, xudojo‘y kishilarni ko‘rgani ko‘zi Yo‘q. Qo‘l ostidagi xodimi bir haydovchini o‘ziga uylantirib oladi. Uni garajga boshliq etib qo‘yadi. Bu ayolning yashindan chaqnoq nigohi yurakka g‘ulg‘ula soladi. U qonxo‘r mahluq misol ustomonlik bilan erining quvvatini so‘rib oladi. Yolg‘on gapirish uning uchun cho‘rt emas: tap tortmay oqni-qora, qorani-oq deyishi mumkin edi. Uning jodugarlik xislatlari ham bor: bexosdan yerga tushib ketayotgan buyumga nigohini qadasa, u havoda muallaq qolib, ohista, sinmasdan yerga tushadi. Asar davomida bu ayolning qo‘lidan boshqa jodugarliklar kelishiga guvoh bo‘lamiz. Shu tariqa H.Shayxov bir ayol timsolida yetti-sakkiz xil toifadagi ayollarning

qorishiq tipidagi Ayra Gabdullina obrazini bera olgan. Bu H.Shayxov ijodidagi ayol obrazini yaratishdagi o'ziga xos tomonlardan biridir. Lekin u yaratgan ba'zi bir ayol obrazida milliylik mezonlari buzilgan. H.Shayxovning "Samo mehvaridagi namoyish" povestidagi ayol obrazi Ketrin bilan bog'liq o'rinlarni jahon adabiyotiga kiritilgan erotik fantastikaning o'zbek fantastik adabiyotidagi ilk namunasidir. O'zbek fantastikasida jahon adabiyotida yoritilmagan mavzular yaratilmoqda. Inson o'lganda ruhi tirik qolishi mavzui-jahon fantastikasida keng tarqalgan mavzudir. Lekin H.Shayxov bu mavzuni davom ettirib, ruhning yana tanaga qaytib, inson tirilishi va hayotga qaytish versiyasini "Farishta tashrifi" kinoqissasida ishlab chiqdi. H.Shayxov o'zbek fantastikasining rivojlanishi va takomillashuviga salmoqli hissa qo'shdi hamda ilmiy, psixologik, ijtimoiy, maishiy fantastika kabi turlarining yuzaga kelishida ham o'ziga xos o'rni bor. Ertak-fantastika uslubi bilan sarguzasht-fantastika uslubini uyg'unlashtirib asarlar yarata olgan. X.To'xtaboyev, M.Mahmudov asarlarida esa Rable va Svift adabiy maktabiga xos hajviy fantastika an'analari yaqqol seziladi. Fantastik asarlardagi milliylik masalasiga kelsak, milliylik ilmiy-fantastik asarlarda fantastikaning boshqa ko'rinishlari-sarguzasht sehrli fantastika kabilarga nisbatan kam namoyon bo'lgan. O'zbek fantastik asarlarida milliylik xarakter yaratishda, an'analar, urf-odatlar tasvirida o'z aksini topgan, chunki makonda milliylik mavjud, voqealar fazoga ko'chsa, milliylikka zarurat qolmaydi. Ya'ni, fantastik asarlarda fantastika real hayot bilan kesishgan nuqtalarda milliylikning ko'rinishlari ko'proq, ilmiy, ilmiy-fantastik asarlarda bo'lsa kam. Fantastik asarlarda milliylikning ko'rinishi va proporsiyasi xususida H.Shayxovning quyidagi fikrini asos sifatida qabul

qilsa bo‘ladi.”O‘tmish haqidagi fantastik asarlarda,- deb yozgan edi u, - milliylik ufurib turishi kerak va shartdir. Ya’ni, bunday holatlarda xalq og‘zaki badiiy ijodi motivi va usullaridan fodalanish, milliy an’analar, urf-odatlarini tasvirlash uchun keng ”maydon” ochiladi. Bugungi kun haqidagi fantastik asarlarda milliylik milliy xarakterini ochishda o‘z aksini topishi kerak. Kelajak haqidagi fantastikada bo‘lsa, milliylikning ko‘rinishlari asar satrlariga singdirilgan bo‘lishi, asar mundarijasi milliylik bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi kerak. Bir o‘rinda ular ikkinchi darajali belgi sifatida, boshqa bir o‘rinda muhim asosiy detal sifatida ishtirok etmog‘i lozim”. Fantastik adabiyot-texnikaviy adabiyot emas. U, avvalo, inson haqidagi burch, or-nomus, vijdon, mehr-muhabbat haqidagi adabiyotdir. Undagi robotlar va yulduzkezar kemalar ham ularning ijodkori bo‘lmish insonning ulug‘vorligiga ko‘lanka tashlashi kerak emas, balki insoniy tuyg‘ularni kuchaytirish va ta’kidlash niyatida fantastik unsur sifatida ishtirok etishi joiz. Har qanday fantaziya zamirida reallik yotadi. Tasavvur sodir bo‘lishi mumkin tuyulgan voqealarning chegarasini kengaytiradi. Kelajak dunyo manzaralarini tasvirlash, kelajak hayot qanday ekanini yoritish mavzui yetakchi o‘rinni egallaydi. Hozirgi zamon fani o‘rganayotgan muammolar va gipotezalar o‘zbek fantastlari oldiga ham kosmik fazoni o‘zlashtirish, oliy sivilizatsiyaning boshqa vakillari bilan aloqa bog‘lash, vaqt va makon sirlarini yengib o‘tish kabi mavzularini qo‘ymoqda. Ana shunday mavzular sirasida robotlarning kelajakdagi ilmiy-texnik vazifalarni bajarishdagi ishtiroki masalasi o‘zbek fantastlarining diqqat e’tiborini tortmoqda. Lekin har qalay, o‘zbek yozuvchilari uchun ham kelajakdagi mashina emas, inson, kelajakdagi texnik taraqqiyot emas, balki ma’naviy kamolot muammosi

eng asosiy mavzu bo'lib qolmoqda. H.Shayxov ijodining ikkinchi pallasida badiiy g'oyaviy, uslubiy diapozoni kengaydi, mistik, siyosiy, ertak fantastika kabi yo'nalishlarda ijod qildi. "Tutash olamlar" romani buning isboti. Romanda oddiy, ziyoli bir oila: o'g'il-Asad, uning xotini Dilbarxon, qizlari Nargiza, Nazira, Nafisa, ota-onasi Bahrom Shayx ota va Muborak buvi. O'g'il o'zining ilmiy ishlari, xotini uy yumushlari bilan band. Oiladagi qizlar g'ayritabiiy kuchga ega, ular bashoratchi, sodir bo'ladigan voqeani oldindan aytib berishga qodir, asarga fantastik motiv, fantastik obrazlar kirib keladi. Romanga fantastiklikning kiritilishi asarga faqat g'aroyiblik baxsh etibgina qolmasdan, balki fantastiklik-mualliflik g'oyasining jarchisi vazifasini ham bajaradi. Asar qahramonlari oila a'zolari, Nargiza, Nazira, Nafisalar bo'lsa, bu vazifani amalga oshirishda vosita vazifasini o'taganlar. Bundan tashqari, oila misolida masalani kengroq yoritish ham ko'zda tutilgan. Ya'ni, oila-bu biz yashayotgan zamin, bu oilada kechayotgan voqealar yon atrofimizda, mamlakatda kechishi mumkin bo'lgan voqealarga ishora, lekin bu-masalaning bir tomoni yozuvchining asl maqsadi romanning "Tutash olamlar"deb nomlanishida o'z aksini topgan. "Tutash olamlar" bu ikki olam-din va fan, fan va ilohiyot masalalari bilan bog'liq muammolar. Muallifni inson tabiati u bilan bog'liq muammolar, inson vafot etishi bilan uning hayoti tugaydimi yoki inson jismi o'ladi, ruhi yashashda davom etadi degan gaplar nechog'lik haqiqatga to'g'ri keladi, arvoh, iblis, ajinalar mavjudmi yoki yo'qmi degan masalalar qiziqtiradi. Ma'lumki, bu muammo adabiyot uchun yangilik emas. Masalan, Balzakning "Sag'ri terisi"("Shagrenivaya koja")asarida har gal qahramonning istagi bajo bo'lganida, sag'ri terisi uning umrini qisqartiradi. H.Shayxovning

romanida bo'lsa, oila a'zosi-Naziraning vujudiga ins-jins kirib olib, uning ixtiyoriga qarshi ishlarni ixtiyor etadi. Yozuvchining bu yo'lni tanlashdan maqsadi romanga fantastiklikning kiritilishi bilan asar mazmuni nimaga ega bo'ldi? Aynan mana shu masala romanning "Ota-bola gurungi" qismida o'z aksini topgan. Ya'ni, yozuvchini o'ylantirgan ikki masaladan biri bilan din, ikki olam muammolari yechimi fantastik versiyada tasvirlangan. Inson vafotidan so'ng u yashashda davom etadimi? Inson jismi bilan ruhiyati o'rtasida qanday munosabatlar bor? Moddiy dunyo bilan ruhiyat o'rtasida qanday munosabatlar mavjud? Arvoh, iblis, jin, ajinalar bor narsami yoki inson xayolidan o'rin olgan fantaziyami? Muallif fikrini band etgan mana shu kabi savollarga asar davomida javob izlaydi. Mavzuga munosabati, qarashlarini romandagi ota obrazi Bahrom Shayx, o'g'il- Asad, Asadning qizlari Nazira, Nafisa, Nargiza obrazlari orqali bildirar ekan, o'z qarashlarini ularga majburan o'tkazmaydi, balki kitobxon hukmiga havola etiladi. Hozirgi o'zbek fantastikasida jahon badiiy fantastlarining asarlaridan qolishmaydigan "yangi to'lqin" dunyoga keldi. Tohir Malik, Hojiakbar Shayxov, Mahkam Mahmudovlardan keyin o'zbek fantastlari safidan joy olgan, yanada yuksak ijodiy marallarni mo'ljal qilgan Rustam Obid, Ozod Mo'minov, Hasan va Husan Tursunovlar, Nazar Eshonqul, Yoqutxon Akram, Muhabbat Yo'ldosheva, Fazilat Hojiqulova kabi bir qator iste'dodli yozuvchilarimiz realistik tasvir bilan badiiy fantastikani sinkretlab ijod qilishmoqdalar. Jamiyatimizning hozirgi va kelgusi hayotidagi ma'naviy-ijtimoiy, ruhiy, axloqiy, falsafiy muammolarini o'ziga xos rang va ohanglarda tasvirlamoqdalar. Majoziy, ko'p ma'noli qatlamlarni ochishda badiiy fantastika yordamga keldi. Ham o'tmish, ham hozirgi

kun haqidagi fantastik asarlarda milliylikni aks ettirish uchun maydon kengaydi. H.Shayxov “Olovdan chiqqan odam” fantastik novellasida butun bir xalqqa xos chizgini tosh otganga ham osh bergan o‘zbek xalqiga xos xislatni qabila boshlig‘i-oqsoqol va asarning bosh qahramoni, fantastik obraz Nurbek obrazi talqinida berishga muvaffaq bo‘lgan. Nurbek ota-onasi, aka-uka, opa-singillari bilan Qipchoq dashtlarida yashaydi. Kunlarning birida u otasi va opa-ukalari bilan qirq qaroqchi dashtiga jiyron oviga chiqadi. Ovga berilib ketib, to‘dasilan ajralib qoladi. Dashtu biyobonni kezib, yaqinlarini topolmagach, qumga bosh qo‘ygancha uyquga ketadi. Qancha uxlaganini bilmaydi, itining akillashi va otining kishnashidan uyg‘onib ketadi. Ularni ikkita bo‘ri burdalamoqda edi. Bu manzara bolani larzaga soldi, u toshga aylanib qolganday edi. U shu alfozdo yana yetti kecha-yu yetti kunduz uxlab qoladi. Bu orada kalxatlaru, yo‘lbarslar, dasht ilonlariyu, jiyronlar, shoqollaru yumronqoziqlar, xullas, bu sahroda bor barcha yirtqich hayvonlaru ilonlar uni hidlab, tishlab, zaharini sochmoqchi bo‘lib ko‘rishadi. Oxiri uni oddiy tosh bo‘lsa kerak deb, yo‘llarida davom etishadi. Yetti kechayu, yetti kunduz deganda bola ko‘zini ochsa, tanasi baliq po‘stlog‘i bilan qoplanganini ko‘radi. Lekin tezda u po‘stlog‘dan forig‘ bo‘lib, onadan tug‘ilganday shir yalang‘och bo‘lib qoladi. Endi uning tanasi o‘zidan allanechuk oltinsimon zarrin shu‘la taratadi. Shu bois ham uni Nurbek deb atay boshladilar. Nurbekda g‘ayrioddiy xislatlar zohir bo‘la boshlaydi. U sovuqqa chidamli, o‘tda yonmas, ko‘zlari kechasi ham kunduzgidek ko‘ra olar, har qanday odam va hayvonning qayerida qanday kasali borligini bila olar edi. Uni dashtda eson –omon topganidan xursand bo‘lgan qabila a‘zolari to‘y – tomosha qilishadi.

Lekin ularning xursandchiligi uzoqqa bormaydi: qabilani mo'g'ullar bosadi. Bosqinchilar qabila a'zolarini qilichdan o'tkazadilar, ayollarni zo'rlaydilar. Shunda Nurbekdagi g'ayrioddiy xislatlar – olovda yonmasligi qo'l keladi. U qabilani mo'g'ul bosqinchilaridan ozod etadi. Asirlikka olingan mo'g'ullarni qabila oqsoqoli ozod etganini ko'rib, ularni ham bir necha fursatda qora qoniga belaydi. Uning botirlarcha ko'rsatgan xatti – harakatidan qabila oqsoqoli xursand bo'lish o'rniga, uni qoralab qabiladan haydaydi. Nurbekning zulmga qarshi zulm ishlatishini qabila oqsoqoli qotillik hisoblaydi. Bu milliyligimizga xos bo'lib, tinchlik tarafdori bo'lgan yozuvchining fantastik versiyasidir. Qabila oqsoqoli zulmga qarshi zulm ishlatmasdan, yovuzlik payini qirqishning boshqa yo'llari borligiga ishonadi. Oqsoqolning nabirasi ham Nurbek bilan birga ketadi. Ikki kishi yolg'iz bo'lmaydi. O'zidan ko'payadi, xalq bo'ladi. Lekin qanday xalq bo'ladi? Qabila oqsoqoli niyat qilgan – tosh otganga ham osh beradigan, g'animga ham to'g'ri yo'l ko'rsata oladigan xalq bo'ladimi yoki zulmga qarshi zulm ishlatuvchi qasoskor bo'ladimi? Kelajakni mana shu savolning javobi belgilaydi. Muallif asarini ota-onasi, aka –ukalari, opa –singillaridan ayrilgan Nurbekning qalbida alam, qasos o'rniga mehr - oqibat, samimiylilik qaror topadi, degan ishonch hissi bilan yakunlaydi. Hozirda fantastik asarlar fantastikaning boshqa alternativ tarix, kiperbank, turborealizim kabi ko'rinishlari hisobiga yashashda davom etmoqda. Alternativ tarix – fantastikaning bu yo'nalishi 90- yillarda yuzaga keldi. Voqea tutash olamda yoki vaqt bo'ylab sayohat tarzida kechadi, sodir bo'ladi. Unda fantastlar tarixdagi bo'lishi mumkin bo'lgan, lekin sodir bo'lmagan voqealarni tasvirlashni maqsad qilishadi. Kiperbank – fantastikaning bu

yoʻnalishi AQShda yuzaga keldi. Unda kelajakni pessimistik ruhda tasvirlash ustun turadi. Insonning kompyuter bilan tutashib ketishiga alohida eʼtibor beriladi. Rus adabiyotida fantastikaning bu yoʻnalishi endi rivojlanmoqda. Turborealizm – fantastikaning bu yoʻnalishi falsafiy – psixologik – intellektual fantastika sifatida baholanadi. **Turborealizmning** oʻziga xos tomonlaridan biri matn ostidagi maʼnodir. Quvonchli tomoni shundaki, oʻzbek fantastlari, xususan, Hojakbar Shayxov ijodida fantastikaning bu yangi yoʻnalishlarining har biriga javob bera oladigan namunalarni topish mumkin. Bu esa, oʻz navbatida, oʻzbek fantastikasi jahon fantastikasi bilan baravar qadam tashlayotganidan dalolatdir.

Fantastika yoki **taxayyulot** (qadimgi yun. phantastike — xayolan tasvirlash sanʼati) — badiiy sanʼat turi. Fantastik realizm va naturalizm yoʻnalishidagi sanʼat, adabiyotlarning aksi. Ayrim oʻrinda fantastik realizm bilan ham qoʻshilib ketadi. Fantastikaning shakli mifologik tushunchalarni, ertaklarni tasvirlashda koʻrinadi. Inson tasavvurida hayron qoldirarli xayoliy obrazlar va hodisalar, toʻqima holatlar, ajoyibotlar olami badiiy asarda voqelikka, hayot haqiqatiga qarama-qarshi qoʻyib tasvirlanadi. Fantastikaning adabiyot, sanʼatning boshqa tur va janrlaridan farqi shuki, uning tasvir sohasi amalda mavjud boʻlgan hayot emas, balki turmush haqidagi umumiy tasavvurdan kelib chiqadigan hayotdir. Shuning uchun hamma narsa va hodisalar jiddiy oʻzgargan, boʻrttirilgan, taajjublantiradigan darajada boʻladi. Fantastikaning maqsad va vazifalari faqat inson orzusini emas, balki kelajakda kutiladigan xatardan ogoh qilish, estetik zavq berish hamdir. Fantastika koʻpincha xalq ogʻzaki ijodida uchraydi. Lof, latifalar va

dostonlarda fantastikani o‘ta bo‘rttirilgan shaklda kuzatish mumkin (“Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Manas” va boshqalar). Gomerning “Illiada» dostoni, M.Servantesning «Don Kixot» asari, F.Rablening «Gargantyua yoki Pantagryuel» hajviy asari, J.Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, A.Dantening “Ilohiy komediya”si, M.Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari”, Gyotening “Faust”, M.Bulgakovning “Ityurak” va boshqa asarlari fantastik yo‘nalishining ajoyib namunalari sanaladi. K.Chukovskiyning ertaklari, A.Kazansevning «Yonuvchi orol», A.Grinning «Alvon yelkanlar» asarlari, X.K.Andersenning ertaklari ham kattalarga va bolalarga mos F. janrida yozilgan. Hozirgi zamon chet el badiiy F.sining namoyandalari sifatida yaponiyalik Kobo Abe, amerikalik Ayzek Azimovni, polshalik Stanislav Lem va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Fantastika nafaqat adabiyotni, balki faylasuflarning yirik ijodiyotini ham tashkil qiladi. Fantastikada obrazlar ko‘p hollarda yaxlit mazmunda bo‘lsa, yana ayrim o‘rinlarda ramziy ma’no kasb etadi. Hozirgi zamon o‘zbek adabiyotida T.Malikning “Hikmat afandining o‘limi”, T.Hobilovning “Oyga safar”, X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, Hojiakbar Shayxovning “Rene jumbog‘i” asarlari F. janrida yaratilgan. F. badiiy adabiyotdan tashqari folklorda, falsafiy utopiyada, kino va teatrda, tasviriy san’atda ham mubolag‘ali bo‘rttirish bilan aks ettiriladi. Syujet qurilmalari ramziy ma’nolarda ifodalanar ekan, muallifning yoki bir davrning dunyoqarashi, turmush tarzi va undagi muammolar mo‘jizali, g‘ayritabiiy shaklda tasvirlanadi.

19—20-asrlarda ilmiy fantastika taraqqiy etdi. Ilmiy fantastikaning asosiy vazifasi — kelajakni bashorat qilib, badiiy ifodalashdan iborat.

Asosiy tasvir usuli — fikriy eksperiment (tajriba). 20-asrda ilmiy fantastikaning ravnaqi jamiyat taraqqiyotida fan va texnikaning tobora oʻsib berayotganligi bilan bogʻliq. Shartli ravishda ijtimoiy utopiya va “antiutopiya” janrlari, falsafiy, “maishiy”, yumoristik, “texnik” janrlar farqlanadi. Ilmiy fantastika umumadabiy va oʻziga xos tasviriy vositalardan foydalanadi.

Ilmiy fantastikaning asoschilari — F.Bekon (16-asr), Berjerak, F.Gadvin (17— 18-asrlar). 19-asrda fransuz fantasti J.Vern shuhrat topdi. Uning “Ajoyib sayohatlar” turkum romanlaridan “Kapitan Grantning bolalari”, “Yer yuzi boʻylab 80 kunlik sayohat”, “Kapitan Gatterasning sarguzashtlari” keng tarqalgan. Ingliz yozuvchisi G. Uells “Zamon mashinasi”, “Koʻzga koʻrinmas odam”, “Dunyolar kurashi” romanlarida ilmiy-fantastik vosita bilan katta ijtimoiy masalalarni oʻrtaga qoʻygan. Sharq xalqlari ogʻzaki va yozma adabiyotida ilmiy fantastika mavzui qad. zamonlardan beri salmoqli oʻrinni egallab kelgan. “Ming bir kecha” turkumiga kirgan hikoyalarda, oʻzbek fantastik ertaklarida ilmiy fantastikaga xos xususiyatlar mavjud. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi “oynai jahonnoma” haqidagi epizodlar, “Saddi Iskandariy”dagi Mallu tilsimiga qarshi kurash bobi ilmiy fantastikaning yaxshi namunalaridir. Hozirgi zamon oʻzbek adabiyotida ilmiy fantastikaga xos yoʻnalish koʻproq hikoya va ocherklarda koʻrinmoqda. Mustabid shoʻro tuzumi va mustamlaka – qaram davlat hayotining fojialari hajviy-yumoristik, (A.Obidjonning “Alamazon va uning piyodalari” va “Yaltiroq tugma” dialogik qissalari) fantastik talqin etila boshladi. A.Obidjon asarlarining bibliografik koʻrsatkichida “Alamazon va uning piyodalari” 1984 yilda rus tilida (“Alamazon i ego pexota”)

60.000 nusxada, 2014 yilda esa o‘zbek tilida 5000 nusxada chop etilgani aniqlashadi. Qissaning bosh qahramoni Alamazon. U toshtaqaliklar shevasida “gurkirab yonayotgan gulxan”ni anglatadi. Alamazon yoshligidanoq kitobga mehr qo‘yib, jahon bolalar adabiyotidagi tengdoshlari Chippolino, Buratino, Tom Soyer, Gek Finni, o‘zbek xalq dostonlaridan Alpomish, Ravshanbek kabi qahramonlarni savodi chiqqandan buyon taniydi. Shuningdek, o‘zbek va jahon mumtoz adabiyoti durdonalaridan bahramandligi ayonlashadi. Alamazon bu kitoblarni shunchaki o‘qish bilan cheklanmay, ulardan ta’sirlanib, do‘sti Eshmat bilan xazina qidirib topish, topganda uni nimalarga sarflash haqida reja tuzadi. Eng avvalo, yaylov etagida o‘n ming kishilik stadion, ko‘p qavatli uy, marmar devorli kattakon choyxona qurish, ko‘chalarga asfalt yotqizib, ko‘priknini yangilash, umuman, qishloqlarda zamonaviy inshootlar barpo etish, hatto butun umri boshlang‘ich sinflarga dars berish bilan o‘tgan Ahmadali otaga atab terak bo‘yi haykal o‘rnatmoqchi bo‘ladi. Sobiq sho‘ro zamonida bu so‘zlarning ishorasi, kinoyaviy mazmuni mafkura tazyiqiga uchragani tayin (rus va qardosh xalqlar bolalar kitobxonligida, ehtimolki, bu so‘zlar ta’sirchanligi asliyatdagidek jaranglamas (yoxud tushirib qoldirilar - B.J.). Qolaversa, o‘zbek xalq dostonlaridan bebahralik, o‘z xazinasiga egalik qilish orzusi, milliy qahramonning gurkirab yonayotgan olovga o‘xshatilishi tamomila yangilangan poetik tafakkur namunasiga dalildir. Qissadagi voqealar ertaklarga xos sayohat, tush ko‘rish, tilsimlanish motivlari yordamida tasvirlanadi. Goh ilmiy-fantastik, goh realistik bo‘yoqlarda badiiy talqin etilgan hikoyalar zaminida hayot haqiqati mavjud. Alamazon tog‘asi professor Og‘abek Turkoniy olib kelgan antiqa dori - uni tatib ko‘rganda

kishi xuddi ertaklardagidek murod maqsadga yetishiga qiziqib qoladi: buni o‘z va o‘rtog‘i Eshmatda sinab ko‘radi. U Jek Londonning “Uch qalb” kitobidagi qahramonlar, ularning g‘ordan topgan behisob xazinalari haqida xayol surib yurganidan, o‘zlarining Jandag‘origa ham “xazina bijib yotgan”iga ishonganidan, dori ta’sirida uxlagach, tushida Zimistonsaroy orqali Yulduzistonga kelib qoladi. U yerda Humo Xartum, Qo‘tirlar sulolasi, Isqirtlar mamlakati va ular boshqargan tuzum hamda odamlari bilan tanishishga muyassar bo‘ladi. Tirtiq, Shiltiq, Qo‘tir Beshinchi, Malika Maston, Idris Ibrohim, Barri Baraka, Fisqiddin Makru Maraz, Isom Ittu Iskabtopar, Hoshim Heziddin Xum nomining ma’nosi kasb-kor va fe’l-atvor bildiruvchi kishilar bilan tanishadi. Ayniqsa, qo‘tirlar sulolasi tugab, Isqirt Birinchining taxtga o‘tirish marosimi shunday bayon qilinadi: - He-he, he-e-e-ey! Eslilaru nodonlar, xafalaru shodonlar, go‘ng hidlagan cho‘ponlar, gul hidlagan juvonlar, eshitmadim demanglaro-o-ov! Isqirt Birinchi padari oliylari mamlakat aholisiga katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, bugundan e’tiboran ularni yuvinish va cho‘milishdek mushkulotdan butunlay ozod qiladilar... qasddan yuvinayotgan yoki cho‘milayotgan paytda qo‘lga tushirilgan baliqpadarlar esa xavfli g‘alayonchi sifatida achigan zindonga tashlanadilar”. Bunda mustabid tuzum qaram xalqqa foydali eng oddiy ishlarni ham ularga yaxshilikday ko‘rsatib taqiqlaydi. Bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari tasnif qilinganda uning ikki yo‘nalishli ekani, bolalar uchun asar syujeti, kattalarga esa g‘oyasi muhimligi ta’kidlanadi. Mazkur asar katta-yu kichik kitobxonga birdek xizmat qila olishi shundan. Qahramonlarning nomlanishi, Isqirt Birinchi yuvinishni yomon ko‘rgani uchun butun mamlakat isqirtlikka yuz tutishi,

unga xizmat qiladigan Dutoriy singari shoirlarning “Yuvilmagan betingiz muncha chiroyli, Mog‘or bosgan etingiz buncha chiroyli, U yoningiz kir erur, bu yoningiz kir...” qabilidagi she‘rlar bitib, irkitlikni ommalashtirishga hissa qo‘shganidan miriqib kulsa, yetuk tafakkurli insonlar bu kinoyalar ostida zil-zimbil dard, yaqin o‘tmishdagi tarixning majoziy tasviri aks etganini yaqqol anglaydi. Shu ma’noda asardagi Yulduziston, Ajdarobod, Yelkantog‘, Tandır, Jandag‘or, Issiqg‘or, Qo‘chqorsoy kabi joy nomlari ham ramziy tamsillardir. Bu so‘zlardagi qo‘shimchalar yoki o‘zak so‘zlarning kinoyaga boyligini idrok qilish uchun yetuk tafakkur zarurligi shundan. Adibning o‘rta asrlar tarixi, sobiq mustabid tuzum davri voqealarini goh xalq dostonlari ohangida, goh hajvga yo‘g‘irib, goh esa bolalarga xos yashirin tilda aks ettirishi bejiz emas. Unda uchragan joy va odamlar nomi biror geografik xarita yoki asarda uchramaydi. Bularning ko‘pchiligi - muallif topilmasi, ammo ular o‘quvchini mushohadaga undaydi. Chunki har bir ifoda va obraz talqinida ramziylik ustuvor. Qahramonlar o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishloq, yurti tarixini bilishi, ulug‘ mutafakkirlar qoldirgan ma’naviy merosdan bahramand bo‘lishni juda-juda xohlaydi, dinini chala-chulpa biladigan, o‘tmishidan xabarsiz, soxta, isqirt dohiylar boshqarishi tufayli nopoklikka yuz tutgan mamlakat qachondir yorug‘likka chiqishiga ishonishadi. Bunda Humo Xartum alohida o‘rnak bo‘ladi. Zotan, Alamazon uyqudan uyg‘onsa ham, g‘ordagi odamlarni Yorug‘ dunyoga boshlab borishga va’da beradi: “-Azizlarim, menga ishoning, men baribir sizlarni yolg‘iz qoldirmayman. Sizlarni, siz bilan birga Yulduzistondagi hamma odamlarni qorong‘i g‘ordan yetaklab chiqaman...”. Asarning bosh g‘oyasi - Yorug‘ dunyoga chiqish. Bu so‘z zamirida nima yotgani

endi barchaga ma'lum. Ammo asar yozilgan vaqtda, chindan ham, o'sha "Qora tuynuk" qachon ochilishi noma'lum edi. Istiqlool tufayli Humo qushi xalq boshiga qo'ndi. Natijada, avlod-ajdodini tanimay ulg'ayayotgan Yulduziston farzandlari Zimistonsaroydan qutulganiga amin bo'lamiz. Yorug' dunyo nafaqat bugungi kunlar, balki keng dunyoga intilish, tanilish timsoli ekan. Shu ma'noda Anvar Obidjonning "Alamazon va uning piyodalari" qissasida intellektual salohiyati yuqori bo'lgan yosh qahramonning vatanparvarlik, yurtparvarlik tuyg'ulari yorqin namoyon bo'lgan. Asarda xalq onaga, mamlakat esa uning yo'rgagidagi go'dakka o'xshatilishida ham hikmat bor. Mamlakat necha asrlik tarixi davomida turli amaldorlar qo'lida har xil kuyga tushsa-da, xalq o'zligida sobit qolib, qadriyatlari, urf-odatlari, ma'naviy merosini butunlay unutib yuborgani yo'q, degan qarash mavjud. Umuman, qissada o'tmish va kelajak, tarix va taqdirlar erk va ozodlik motivlarida o'zaro tutashadi. Humo Xartum, shoh Feruz, Majididdin Ravshaniy, professor Og'abek Turkoniy obrazlari talqinida olis va yaqin tariximizdagi hayot bilan birga kelajakda qilinajak kashfiyotlar uyg'unlashib ketadi. Asar "hazilga o'ch" bolalar uchun lirik va komik maylga sug'orilgan ekan, undagi bosh g'oya esa har bir kitobxonning tafakkuri bilan birga ulg'ayib, anglanib borishiga shubha yo'q. Ozodlik motivi va erkka intilish g'oyasi bolalar adabiyotida yorqin obrazlar va tasvirlarda aks eta boshladi (A.Obidjonning "Dahshatli Meshpolvon" va "Meshpolvon janglari" dilogik ertak-qissa hamda "Oltin yurakli Avtobola" asari). A.Obidjonning "Dahshatli Meshpolvon" ertak-qissasi mustaqillik arafasida yozilgan tom ma'nodagi "ozodlik varaqalari" (M.Sattorov) edi. Asarda vatanparvarlik va mustaqillikka intilish tuyg'usi bolalar obrazi

orqali gavdalanitirilgani diqqatga sazovor. Avvalo, yozuvchi bu - ertak-qissani “Alpomish”, “Ravshanbek” singari xalq dostonlari ohangida yozib, bolalar adabiyotiga shu ruhni olib kirganligi tahsinga loyiq. Meshpolvon portreti yumoristik-fantastik tasvirga ega bo‘lsa ham, ota-onasini bosqinchi dushmanlar olib ketgach, qalbida isyon tuyg‘usining jo‘sh urgani, ularni ozod qilish uchun tish-tirnog‘i bilan “qurollanib”, “askarlari” bilan kurashga otlangani hamda ezgulik yo‘lidagi bu kurashi ertaklarga xos yaxshilik, g‘alaba bilan tugashi, Sepkilshoh yengilib, Qahratoniya do‘sti Oshiqbola qo‘liga o‘tishi, bandilar ozod bo‘lishi kabi voqealarning kulminatsiyasida muallif g‘oyasi teran aks etadi. Binobarin, adibning jahon bolalar adabiyoti, xalqimizning boy og‘zaki ijodi, dostonchilik an‘analaridan keng foydalanib, yumor va taxayyulotga yo‘g‘irilgan, tafakkur yangilanishini o‘zida yaqqol namoyon etadigan obraz va detallar asosida yozilgan qissalarida shakl va mazmun, tafakkur yangiligi zohir. “Dahshatli Meshpolvon”, “Meshpolvonning janglari”; “Alamazon va uning piyodalari”, “Yaltiroq tugma” dilogik qissalari, temirtan - robot bola obrazi namunasi bo‘lgan “Oltin yurakli Avtobola” shu jihatlari bilan ham o‘zbek bolalar adabiyotida yangi voqelik hisoblanadi. Bu asarlardagi o‘ziga xoslik shundaki, ularning qahramoni oddiy bola emas: “dahshatli Meshpolvon”, “g‘aroyib, olovqalb Alamazon” yoki temirtan Avtoboladir. Ular tinib-tinchimasgina emas, ozodlik va haqiqat uchun, o‘z erki va haq-huquqi uchun kurashchuvchan, jasur hamda erkparvar bolalar. Adib shu sababli “Alamazon” turkumidagi qissalarini yosh avlodga, aniqrog‘i, “ona yurtning jasur farzandlariga” bag‘ishlagan. Dilogiya (yun. di - qo‘shma so‘zlarda “ikki”, logos - so‘z, hikoya, rivoyat) kompozitsion jihatdan nisbiy

mustaqillikka ega ikki asardan tashkil topgan asardir. Dilogiya tarkibidagi ikki asarni ijodiy niyatning yaxlitligi, bir-birini davom ettiruvchi umumiy syujet chiziqlari, umumiy personajlarga egalik bir butunga aylantiradi. XIX asrning oxiriga kelib nasr dilogiyasi adabiy-tanqidiy qarashlarda ma'lum o'rin egallaydi va uni nazariy jihatdan o'rganishda quyidagi xususiyatlari ajratib ko'rsatiladi: a) polilog shakllarni yaratish jarayoni, xususan, dilogiya yozuvchining individual ijodi bilan (muallif niyati) bevosita bog'liq; b) dilogiyaning muhim xususiyatlardan biri uning qismlari o'rtasida chiziqli aloqaning mavjudligi; v) dilogiyaning yaxlitligini bitta asarning butunligi bilan tenglashtirish mumkin. Biobarin, o'zbek bolalar adabiyotida ham X.To'xtaboev ("Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi"), A.Obidjon ("Dahshatli Meshpolvon" va "Meshpolvon janglari"; "Alamazon va uning piyodalari" va "Yaltiroq tugma"); E.Malik ("Shaytonvachchaning nayranglari", "Bolalik" va "O'smirlik") kabi adiblarning dilogik roman va qissalarining yaratilishida yuqoridagi kabi xususiyatlar mujassam. Bunda yozuvchining avval boshdayoq dilogiya, trilogiya yozishni rejalashtirgani yoki muallifda keyinchalik badiiy niyat tug'ilganiga qarab ham asarlarni tasniflash mumkin. Aytaylik, D.Defo "Robinzon Kruzo" asarini dengizchining kundaliklari asosidagi dastlab faqat birinchi kitobini yozgan. Asarning juda ommalashib, mashhur bo'lishi noshirlar va muallif uchun keyingi qismini yaratishga zarurat paydo qiladi. Xuddi shunday, o'zbek adabiyotida T.Malikning "Shaytanat" qissasi dastlab bir kitobdangina iborat bo'lib, muallifda uning qolgan qismlarini yozish niyati keyinchalik, aniqrog'i, kitobxonlar qiziqishiga qarab tug'ilgani ta'kidlangan. Ikkinchi jihatdan esa yozuvchi avval boshdanoq asarini ikki

yoki uch qismli shaklda yozishni rejalashtirib, o‘z niyatini amalga oshirishi holati ko‘proq uchraydi. A.Obidjonning turli buyumlar, jonzotlar, o‘simliklar haqida, Vatan va yurt ozodligiga bag‘ishlangan she‘r va doston-qissalari o‘quvchini har jihatdan zukko, ma‘naviy yetuk bo‘lishga unday olishi yurt tarixi va xalqiga e‘tiqodli bo‘lishga da‘vat qiladigan asarlari misolida asoslanadi. Masalan, uning “Oltin yurakli Avtobola” (1988) ertak-qissasi davr nafasini o‘zida yorqin aks ettirgan asarlardan biridir. Ertak-qissa sobiq mustabid tuzum davri bolalar adabiyotining mavjud “qolip”lariga chek qo‘yib, jahon ilmiy-fantastikasi, o‘zbek mumtoz adabiyotida kuzatilgan noan‘anaviy fantastik obraz yaratish, tafakkuri yangilanayotgan zamon ruhini bolalar adabiyotida namoyon bo‘lishiga intilish samarasidir. Ertak-qissa, ertak-doston ham aslida sinkretik janrlar hisoblanadi. Folklorshunos olim O.Safarov birgina ertak janri (shakli) stilizatsiyasi asosida yuzaga kelgan oraliq (sinkretik) janrlarni: nasrda - adabiy ertak, adabiy ertak-qissa, adabiy ertak-roman; poeziyada - she‘riy adabiy ertak; dramaturgiyada – adabiy ertak-drama, adabiy ertak-opera tarzida tasniflab ko‘rsatadi. Shuningdek, olim A.Obidjonning “Dahshatli Meshpolvon” (1989) ertak-qissasini yaratib, janrning yangi voqelik asosidagi jilosini ta‘minlaganini, shunga o‘xshash ko‘pgina asarlar nafaqat folklor syujetlari qurilishida, balki obrazlar xatti-harakatida, nutqida, xilma-xil ifodaviy vositalarda ertaklarga xos fantastik unsurlar, tasviriy vositalar yetakchi tamoyilga aylanganini ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, A.Obidjonning ertak-qissasidagi yetakchi obraz - Avtobola. U oddiy emas, oltin yurakli robot bola. O‘zbek adabiyotida robot obrazini ko‘pgina asarlar, jumladan, fantast adib H.Shayxovning “Olmos jilosi” qissasidagi ham ko‘rish mumkin.

A.Obidjonning Avtobolasi esa ancha mukammallashgan, shu bilan birga, o'zbek bolalar adabiyotidagi ilk robot bola obrazidir. U ayyorlikni mutlaqo bilmaydigan, to'g'riso'z, soddadillik, mehribonlik va pokizalik timsoli. Bu obraz qissaning 4- hikoyasidan boshlab, asosiy qahramonlar - Bekxo'ja, Kamol Kamtariy, Supersur hayotidagi voqealardan yigirma yil o'tgach, muxbirlar tarqatgan yangilik sifatida tilga olinadi. Muxbirning shov-shuvli hodisa haqidagi savoliga professor javobidan bu temirtan fikran barkamol avtoodam emas, balki jamiyat oldidagi burchini hali chuqur his qila olmaydigan kibernetik Avtobola ekani, uning mustaqil fikrlay olish qobiliyati birmuncha chegaralangani, unga muntazam ravishda yo'l-yo'riqlar berib turish joizligi anglashiladi. Oltin eng noyob qimmatbaho, nodir metall, zar, tilla bo'lib, har qanday qimmatbaho yoki aziz narsaga nisbatan ham aytiladi. Har bir bolaning yuragi, chindan ham, dunyodagi eng pokiza, asl tuyg'ularga limmo-lim. Faqat nosog'lom muhitgina ularni qing'ir yo'lga boshlashi mumkin. Bola tabiatan yo'l-yo'riqqa ehtiyojmand bo'lsa-da, "avto" (yunoncha "autos") so'zining "o'zi", "o'zim" ma'nosini anglatishi g'oyasida bolaning mustaqillikka intilishi yotadi. Ayni paytda, uning soatiga 170 kmgacha yugurib, avtomatik boshqarilishi natijasida har qanday topshiriqni bajarishi zohiriy ma'nosidir. A.Obidjon asarda ezgulikka yo'g'rilgan bolalik olamini o'z manfaatlari yo'lida yovuzlikka boshlagan jamiyat munosabatiga zid keltiradi. Qissadagi Avtobola, Pufak momo, Xoldor kabi obrazlar timsolida erk va ozodlik, hurfikrlilik, ma'naviy farovonlik, ezgulik g'oyalari ulug'langan. Pufak momo va uning paxmoq sochli nevarasi eshak minib, ko'chama-ko'cha tomosha ko'rsatib yurishidagi erkinlik har qanday tilla buyumlar-u saroydan afzalligini qafasdagi qush

singari qamab qo'yilgan Avtobola va Xoldor anglab yetadi. O'zlarining tutqun ekanligini Ko'rshapalak va Supersur suhbatidan eshitgan bolalar xo'jayinlaridan ozodlik va erkinliklarini talab qilib, oshkora tahdid boshlaydilar. Bekxo'ja esa "aldagani bola yaxshi" qabilida ish tutadi. Bolalarni tilla buyumlar ko'rgazmasidan oltin dubulg'ani o'g'irlab kelgach, ozodlikka chiqarishga va'da qiladi. Ammo, Avtobola bu topshiriqni bajarishi bilan "o'lim"ga - temir-tersakka aylanishga hukm etiladi. Odamlardan qattiq ranjigan Avtobola "o'lgan"da ham ko'zlari ochiq qolib: "Erkimni himoya qilolmas ekansan, nega meni yaratding?", - degan savolni tinimsiz takrorlayotganga o'xshardi. Ertak-qissada shu tariqa roppa-rosa bir asr ilgari el-yurt boshiga tushgan har xil tamg'alar, yurt ozodligi, erki uchun berilgan yolg'on va'dalar, ezgu-maqсад yo'lida tinimsiz sa'y-harakat qilgan jadidlar qatag'oni, shuningdek, odamzot paydo bo'lganidan buyon yer yuzida davom etib kelayotgan kurashning asl sabablari tamsiliy, falsafiy, badiiy-fantastik tarzda ifodalangan. Shu ma'noda aytish mumkinki, Anvar Obidjon o'zbek bolalar adabiyotida birinchilar qatorida robot bola timsolida o'z tutqunligini anglab yetgan avlod qismatini hikoya qildi. Avtobola temir-tersakka aylanishida ham yozuvchining erksiz va tutqunlikda yashash mumkin emasligi g'oyasini anglash mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI:

- 1.Fantastika nima?
- 2.Mumtoz adabiyotda fantastik talqin?
- 3.O'zbek fantastik adabiyotining vujudga kelish sabablari?
- 4.Fantastik asarlar klassifikatsiyasi?
- 5.Fantastik asar turlari?

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Bashorat Jamilova. Bolalar adabiyotida zamonaviylik [Matn] / O‘quv qo‘llanma B.Jamilova. - Buxoro: “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti, 2023.- 264 b.
- 2.R.Ibrohimova. O‘zbek fantastikasining ilk namunalari.
- 3.R.Ibrohimova. Realizm va fantastika. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2000 y. 6-son. 17-20 betlar
- 4.H.Shayxov. Tutash olamlar. Ikki jahon ovorasi. –T.: “Sharq”, 2001 y.

13-MAVZU: ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK TANQIDCHILIGI

Reja:

1. Istiqlol davri jamiyat ma'naviy taraqqiyotida adabiy tanqidning o'rni
2. So'nggi davr adabiyotidagi ijodiy izlanishlar va adabiy tanqid.
3. Adabiy tanqidda XX asr o'zbek adabiyotini qayta baholash muammolari.
4. O'zbek adabiy tanqidchiligining yetakchi muammolari,
5. Adabiy tanqidda modernizm muammolariga oid bahs-munozaralar va turlicha yondashuv.
6. Adabiy tanqidchilikda mahorat masalasi talqini.
7. Istiqlol davri tanqidchiligida adabiy tur va janrlar talqini
8. Q. Yo'ldoshevning munaqqidlik faoliyati.
9. Munaqqidning "Yoniq so'z" asari tahlili.
10. A. Rasulovning "ILmi g'aribani qo'msab" maqolasi haqida.

Istiqlol millat taraqqiyotida yangi bosqich, tariximizda, turmushning barcha sohalarida yangi sahifa ochgan buyuk ne'mat bo'ldi. Istiqlolga erishilgach yurtimizda ma'naviyat va ma'rifat ishlariga alohida e'tibor berildi va davlat siyosati maqomidagi vazifaga aylantirilgani ijtimoiy-tarixiy zarurat edi. Chunki, jamiyatimizning ertasini belgilaydigan yangi avlodni tarbiyalash kunning eng dolzarb vazifasiga aylandi. Bunday jarayonda adabiyot va san'atning, jumladan, tanqid va adabiyotshunoslikning ham faol ishtiroki zarur edi, negaki, eng dolzarb masalalardan biri o'tmish adabiy merosini ilmiy xolis o'rganish va qayta baholash bo'lib qoldi. Barchamizga ma'lumki, boy va rang-barang adabiy merosimizga sinfiylik nuqtayi nazaridan baho berildi, siyosiy tus

berib ajratildi, chala o'rganildi, zamonga o'ta vulgar moslashtirib talqin qilindi. Buni, hatto butun dunyo tan olgan navoiyshunoslikda ham ko'rish mumkin edi: Navoiy asarlari doim chala nashr etildi, hamd va na'tlar qisqartirildi, talqinlar zamonga moslashtirildi, boy merosimiz to'la taqdim etilmasdan qolaverdi. Bularning bari masalaning o'ta chigal va murakkabligidan dalolat beradi. Istiqlol sharofati bilan mumtoz adabiy merosimizni atroflicha chuqur va ilmiy xolis o'rganishga to'la haqli bo'ldik. Jumladan, «Qur'oni Karim»ning o'zbek tilida chop etilishi, Imom Buxoriy, Imom Termiziyni hadis ilmiga bag'ishlangan asarlarining e'lon qilingani mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim ahamiyatga molik bo'ldi. Vaqtli nashrlarda N.Komilov, I.Haqqulov, S.Rafiddinov kabi olimlarning tasavvuf ta'limoti asoslaridan bahs etuvchi maqolalari muntazam berib borildi, kitoblar chop qilindi. Ilgari «diniy-klerikal» yoki «saroy adabiyoti» tamg'alari bilan o'rganilmay va ommalashtirilmay kelgan Rabg'uziy, Yassaviy, So'fi Olloyor, Huvaydo, Feruz, Amiriy kabi ijodkorlarning asarlari nashr etildi, ular haqida qator maqolalar yozildi. Ta'kidlash lozimki, adabiyot tarixiga oid bu ishlarning ommaviy-ma'rifiy xarakterda bo'lishini davrning o'zi taqozo etgan bo'lib, ayni shu xususiyati tufayligina ularni mohiyatan adabiy tanqidiy asarlar sanash mumkindir.

Istiqlol yillarida XX asr boshlaridagi adabiy jarayon, jadidchilik harakati va jadid adabiyoti mohiyatini o'rganishga e'tibor yanada kuchaydi. Agar «oshkoralik» yillarida jadid ijodkorlarning «sho'ro voqeligini qabul qildi, uning afzalligini anglashga keldi» qabilida talqin qilishga majbur bo'lingan bo'lsa, endilikda ularning asarlarini boricha talqin qilish imkoniyati yuzaga keldi. Mazkur masalani o'rganishda

O.Sharafiddinov, N.Karimov, B.Qosimov, Sh.Turdiyev, H.Boltaboyev singari olimlar qatori shu yillarda ularning yoniga kirgan M.Qarshiboyev, Z.Eshonova, D.Quronov, I.Gʻaniyev, B.Karimov, U.Sultonov kabi oʻnlab yosh tadqiqotchilar qizgʻin ish olib bordilar. Qatagʻon qilingan ijodkorlarning asarlarini izlab topish, nashrga tayyorlash va qayta eʻlon qilish borasida koʻp ishlar amalga oshirildi. Matbuotda jadid maʼrifatchilarning istiqlol yillarida ham dolzarbligini Yoʻqotmagan, ehtimol, qaytadan dolzarblik kasb etgan maqolalari, asarlari muntazam eʻlon qilib borildi. Professor O.Sharafiddinov rahbarligida Choʻlponning «Adabiyot nadir?» nomli maqolalar toʻplami, uch jildlik «Asarlar»i nashrga tayyorlandi va chop etildi. Bu borada yangi tashkil qilingan «Maʼnaviyat» nashriyoti, ayniqsa, katta ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, «Istiqlol qahramonlari» seriyasida Behbudiyning ikki jildlik (B.Qosimov nashrga tayyorlagan), A.Avloniyning ikki jildlik(B.Qosimov nashrga tayyorlagan), Fitratning uch jildlik (H.Boltaboyev nashrga tayyorlagan) saylanmalari chop qilindi. Mazkur seriyani tayyorlagan B.Qosimov, U.Dolimov, S.Ahmedov, O.Toʻlaboyev, M.Tojiboyeva kabi adabiyotshunoslarning fidokorona mehnati tufayli bugungi oʻquvchi Sidqiy Xondayliqiy, Ajziy, Kamiy, Ibrat, Soʻfizoda, Yu.Saryomiy kabi ijodkorlar haqida maʼlumotga ega boʻldi, ularning asarlari bilan tanishdi. Adabiyotshunos N.Karimov jadid adabiyoti namoyandalari, qatagʻon yillarining dahshatlari haqida hujjatli maʼlumotlar beruvchi oʻnlab maqolalar eʻlon qildi. «Shahidlar xotirasi» respublika xayriya jamgʻarmasining taʼsis etilishi bu yoʻldagi ishlarni yanada keng koʻlamda olib borish imkonini yaratdi.

1994 yilda A.Qodiriy tavalludining 100 yilligi nishonlandi. Tanqid va adabiyotshunoslik mazkur sanani munosib kutib oldi: vaqtli matbuotda adib hayoti va ijodi to'g'risida yangi ma'lumotlar beruvchi, asarlarini yangicha talqin qiluvchi qator maqolalar e'lon qilindi. «Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi» kollektiv monografiyasi, U.Normatovning «Qodiriy bog'i», M.Qo'shjonovning «Qodiriy — erksizlik qurboni», «O'zbekning o'zligi» kabi asarlari qodiriyshunoslikda yangi bosqich bo'ldi. 1997 yilda Cho'lponning 100 yilligi respublika miqyosida keng nishonlandi. Adabiyotshunosligimizda adib ijodini o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar qilindi, cho'lponshunoslik sohasi shakllandi. O.Sharafiddinovning «Cho'lponni anglash», N.Karimovning «Istiqlolni uyg'otgan shoir», D.Quronovning «Cho'lpon: hayoti va ijodiy merosi», B.Ro'zimuhammadning «Cho'lpon — tong yulduzi demak» singari risolalari to'yga munosib to'yona bo'ldi. Keyingi yillarda yaratilgan N.Karimovning «Cho'lpon» ma'rifiy romani, D.Quronovning «Istiqlol dardi(Cho'lponning ijtimoiy siyosiy qarashlari tadriji)» hamda «Cho'lpon nasri poetikasi» nomli monografiyalari bu boradagi jiddiy tadqiqotlardan bo'ldi. Istiqlol yillarida XX asr boshidagi adabiy jarayon, jadid adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan o'nlab ilmiy tadqiqotlar⁶ yozilgani ham bu mavzuning nechog'li dolzarb turganini yana bir karra ko'rsatadi.

⁶ G'aniyev I. Abdurauf Fitratning tarixiy fojia yaratish mahorati.- KDA.- T.,1992; Quronov D. «Kecha va kunduz» romanida xarakterlar psixologizmi».- KDA.-T.,1992; Tojiboyev R. XX asr boshlari o'zbek adabiy tanqidi tarixidan.- KDA.-T.,1993; Sultonov U. Cho'lponning adabiy-estetik qarashlari.-KDA.-T.,1995; Karimov B. Vadud Mahmudning 20-yillar adabiy tanqidchiligidagi o'rni.-KDA.-T.,1995; Umrzoqov G'. G'ozi Yunusning ijodiy yo'li.- KDA.- T.,1996; Boltaboyev H. XX asr o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi.-DDA.-T.,1996; Quronov D. Cho'lpon poetikasi(nasriy asarlari asosida).- DDA.- T.,1998; G'aniyev I. Fitrat dramalari poetikasi.- DDA.-T.,1998; Jo'raqulov U. Fitratning tadqiqotchilik mahorati.-KDA.-T.,1998; Usmonov O. G'ulom Zafariyning ijodiy yo'li.-KDA.-T.,1999 va b.

Istiqlolning dastlabki yillarida o‘zbek sho‘ro adabiyotining katta avlodi vakillarini «maddohlik»da, xalq boshiga beadam kulfatlar keltirgan tuzumga yugurdaklik qilganlikda ayblash, ularning merosini nigilistik inkor qilish kayfiyati paydo bo‘ldi. Sho‘ro adiblarini va adabiyotshunosligini tanqid qilish holatlari kuzatildi. Masalan, yosh adabiyotshunos A.Yoqub sho‘ro adiblarini va adabiyotshunoslikning bor yo‘q xizmati «akademik uslub bilan tanishtishi», xolos deb bir yoqlama baho berdi. Tanqidchi «vulgar sotsiologizm» va «sotsiologik metod» orasiga tenglik alomatini qo‘yish bilan xato fikrlaydi.

Mazkur masalaga bag‘ishlangan U.Normatovning «Adabiy jarayondagi g‘aroyib robitalar» nomli maqolasi masalaga ilmiy asosda yondashgan jiddiy chiqishlardan biri bo‘ldi. Munaqqid «xolis, sog‘lom, yuksak ma‘rifatli, adabiyotning so‘z san‘ati ekanini aslo nazardan soqit etmaydigan teran ilmiy sotsiologik tadqiqot usuliga bugungi adabiyotshunoslikda talab va ehtiyoj nihoyatda katta», «XX asr o‘zbek adabiyotini bu usulni chetlab o‘tib baholab bo‘lmaydi», deb uzil-kesil qarorga keldi. U.Normatov sho‘ro davridagi o‘zbek adabiyotida «shaxs va millat erki, sha‘ni, milliy ozodlik, istiqlol g‘oyalari 30-40-yillar adabiyotida ham mavjud»ligini, binobarin, adabiy avlodlar orasida ziddiyatlar bilan birga vorisiylik har vaqt mavjudligini yoritib berdi. Munaqqid XX asr adabiyotini qaytadan ilmiy asosda o‘rganish zarurligini ta’kidladi.

H.Abdusamatovning «Yangi zamon, yangi adabiyot» nomli maqolasida sotsialistik realizmga xos nuqtalarni e’tirof etgani holda, uni tamomila inkor qilish, «soxta metod» deya bir yoqlama baholashlashni qoralab, garchi XX asr o‘zbek adabiyoti, ulkan yo‘qotishlarga qaramay,

adabiyotimizda yuksalish davri bo'lganini ta'kidladi. H.Abdusamatov maqolasida adabiyot mafkuradan, siyosatdan holi bo'lolmaydi, degan fikrni ilgari surib, «sof san'at» talabiga zid ko'pgina to'g'ri va jo'yali mulohazalar bildirgani holda, fikrlash tarzida yana eskicha yondashgani yaqqol ko'zga tashlandi.

Adabiyotda «sof san'at»ni ko'rish istagi bilan biryoqlamalikka borib, adabiyotning ijtimoiy tabiati tamomila inkor qilinishining oldini olish maqsadida B.Sarimsoqov «Adabiyotning ijtimoiy tabiati»⁷ nomli maqolasida badiiy adabiyotning mazkur belgilovchi xususiyatini nazariy jihatda asoslab berdi. D.Quronov va H.Usmonovlarning «Ideal va badiiy yaxlitlik»⁸ nomli maqolalarida adabiy jarayondagi bahs-munozaralarning omillarini «mohiyatan g'oyaviy asosdagi ziddiyatlardir» degan xulosaga kelindi va «ijodiy o'qish» masalasi o'rtaga tashlandi. Mualliflar adabiyotning ijtimoiyligi «insonning inson uchun yaratgan predmeti» shaklida yashashi bilan belgilanishini asoslab ko'rsatdilar hamda ushbu masalaning ijod tabiati bilan bog'liq holda tushuntirishga harakat qilishdi, adabiy merosni qayta baholashda yana eskicha yondashuvdan ehtiyot bo'lish zarurligi haqida xulosalarga kelishdi.

Sho'ro davri adabiyotining nodir namunalarini yerga urish S.Melining «Mehr sehri»⁹ maqolasida ham aks etti. Munaqqid A.Qahhorning «O'g'ri» hikoyasi yuksak badiiyatdan yiroq, chunki

⁷ O'zbek tili va adabiyoti.- 1995, №

² Tafakkur.- 1996, № 4.

¹ O'zbekiston adabiyoti va san'ati.- 1995, 23 iyun.

² Vatan.- 1995, 21-28 iyul

qahramon fojeasiga achinish, mehr-shafqat yo‘q, insonga mehrsiz yozilgani, degan fikrni oldinga surdi. S.Meli fikricha, «Noinsoniy G‘oya yozuvchiga nima yozish va qanday yozishni buyurib turganida yozuvchi buyruqni so‘zsiz va sidqidildan bajarganda «O‘g‘ri»ga o‘xshash asarlar dunyoga keladi». Hikoya o‘sha g‘oya ko‘rsatmasi bilan yozilgani uchun ham uni «o‘qib, kitobxon badiiy zavq tuymaydi. G‘oyaning o‘qtalغان ko‘rsatkich barmog‘i o‘quvchi g‘ashiga tegadi, xolos», deb hisobladi. D.Quronovning «O‘g‘ri»ning himoyasiga ikki og‘iz so‘z»¹⁰ nomli maqolasi S.Meli maqolasiga javob tarzida yozildi va hikoya boshqacha talqin qilindi. S.Melining yozuvchi qahramoniga mehrsiz, degan fikrini inkor qilib, buni tasvir prinsipi bilan bog‘liq deb tushuntirdi va qatag‘on davri fojealari aks ettirilgan, «Adabiyotimizda inson, xalq taqdiriga kuyinib yozilgan «O‘g‘ri» darajasidagi asarlar kam topiladi» tarzida S.Meli xulosalariga butkul zid xulosa chiqardi. Bahsga N.Xudoyberganov : «S.Meli «O‘g‘ri» va boshqa shunga o‘xshash asarlarning kommunistik mafkurani tasdiqlashga qaratilganini ta’kidlaganida qisman haq. Nega to‘liq emas, qisman? Chunki, Abdulla Qahhor haqiqiy san’atkor sifatida hikoyaga inkor ruhini ham singdirgan»¹¹, deb yozdi. N.Xudoyberganov D.Quronov fikrlarini yoqlagani holda xolislikka intilgan bo‘lib, «uning «O‘g‘ri» va Abdulla Qahhorning boshqa asarlari hukmron mafkuradan holi, deganday mulohazasiga qo‘shilib bo‘lmasligi»ni ham ta’kidlab o‘tdi. D.Quronov bahs qizig‘ida oz bo‘lsa-da biryoqlamalikka yo‘l qo‘yganini ko‘rsatib o‘tgan. Istiqlol davri adabiy tanqidchiligida modernizm masalasidagi

¹¹ O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.- 1995, 10 noyabr.

bahs-munozaralar ham ancha ko‘paydi. Adabiy tanqid yoshlarning «moderncha» izlanishlarga turlicha munosabatda bo‘ldi. Jumladan, S.Melining «Asl adabiyot — ezgulikka xizmat»¹² nomli maqolasida modernizm eskirgani, uning «G‘arb hodisasi sifatida o‘zbek ma’naviy muhitida joy topolmasligi keskin qilib aytili. P.Qodirov ham modernizm ma’naviy jihatdan jamiyatimiz talablariga, o‘zbek kitobxoni ehtiyojlariga to‘g‘ri kelmasligini ta’kidladi¹³. Adib maqolasida e’tiborga molik muhim bir nuqta bor: u modernizm va postmodernizm o‘rtasida katta farq mavjudligini, «postmodernistlar mumtoz realizmga qarshi turishdan voz kechganlari», ular «realizm yo‘liga qaytayotganday ko‘rinishi»ni ta’kidladi.

Istiqlol yillarida «Tafakkur» va «Jahon adabiyoti» jurnallarining ta’sis etilgani jamiyat madaniy-ma’naviy hayotida muhim hodisa bo‘ldi. «Tafakkur» jurnali adabiyotimiz tarixi, tasavvuf ta’limoti, sharq falsafasiga oid materiallarni, adabiy tanqidiy maqolalarni muntazam chop etib bordi. «Jahon adabiyoti» jurnali esa o‘quvchilarni chet el adabiyotining nodir namunalari bilangina emas, xorij adabiyotshunoslarining adabiy tanqidiy asarlari bilan ham tanishtirib bordi.

Hozirda o‘zbek tanqidchiligida sho‘ro davri adabiy merosiga munosabatning sog‘lomlashuvi, merosga yangicha qarashlar adabiyotimizning va jamiyatimizning yutug‘idir. U.Normatovning «Qahhorni anglash mashaqqati», B.Nazarovning «G‘afur G‘ulom olami» singari kitoblari, I.Haqqulning A.Qahhor, S.Melining G‘.G‘ulom,

¹² O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.- 2000, 18 avgust

¹³ O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.- 2004, 26 mart

D.Quronovning H.Olimjon, U.Hamdammovning Oybek she'riyati haqidagi maqolalarida merosga hurmat bilan munosabatda bo'lish, asarlari botinidagi ma'nolarni ochishga intilish kuzatiladi.

Istiqlolning dastlabki yillarida tanqidchilikda biroz sustlashishlar kuzatildi. Buning qator obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. Jumladan, o'tish davri sharoitida ko'plab gazeta va jurnallar juda tang ahvolda qoldi. «Sharq yulduzi», «Yoshlik», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» kabi adabiy janrlarning tiraji keskin tushib ketdi, nashr hajmi, davomiyligi qisqardiki, natijada adabiy tanqidiy asarlarni chop etish imkoniyatini keskin kamaytirdi.

XXI asrga o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligi o'zining oldingi asrdagi kamchiliklaridan, asosan, forig' bo'lgan holda qadam qo'ydi. Tanqidchilгимiz oldida ulkan, jumladan, so'z san'atining jamiyatda yo'qotgan mavqeyini imkon qadar tiklashdek og'ir vazifalar turgani ma'lum. Ishonamizki, tanqidda o'z so'zini aytgan va aytishga intilayotgan munaqqidlarni o'z safida birlashtirgan o'zbek tanqidchiligi bu vazifalarning uddasidan chiqa oladi.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshevning ilmiy-adabiy qarashlari o'ziga xosligi, ular markazida faqat badiiy asar turishi, domla badiiy matndan kelib chiqibgina xulosa chiqarishi, ilmiy-pedagogik qarashlarida o'quvchi va o'qituvchi orasidagi munosabatni yangilash zarurligi, bu munosabatni yangilashda badiiy adabiyot tengsiz ko'makchi ekaniga e'tibor qaratishi haqida so'z yuritdi. Olimning ilmiy asarlari orasidan, ayniqsa, "Yoniq so'z" ("Yangi asr avlodi" 2006) kitobi alohida e'tirofга loyiq.

Asar 546 sahifadan iborat bo'lib, otaxon yozuvchimiz Odil

Yoqubovning “Yoniq so‘z yog‘dusi” nomli so‘zboshisi bilan ochiladi. Odil Yoqubov kitob muallifini “O‘ziga xos ifoda tarziga ega tanqidchi” sifatida baholaydi.

Darhaqiqat, “Yoniq so‘z” asari kitobxonni badiiy asar bilan ishlashning turli, yangi usullari bilan tanishtiradi. Uning alohida qiymatli jihatlari quyidagi omillarda ko‘rinadi:

- tarkibiy tuzilishi maqsadga muvofiq (maqolalar o‘rinli tanlangan va joylashtirilish tartibida tizimlilik bor);
- maqolalarning nomlanishi original va ular mavzuga ko‘ra umumlashtirilib, bo‘limlarga ajratilgan;
- muallifning muayyan asarni baholashda tayangan tamoyillari va badiiy qarashlari har bir maqolada to‘la namoyon bo‘lgan;
- taniqli adiblar ijodi yaxlit bir estetik hodisa sifatida tahlil etilgan;
- badiiy ijodning betakror qirralari teran tadqiq qilingan;
- olimning xulosalari ilmiy-adabiy qonuniyatlarga tayanib asoslangan.

“Yoniq so‘z” tarkibiy tuzilishi jihatidan “Anglash yo‘li”, “Ko‘rkamlik chechaklari”, “Chizgilar”, “Yo‘lda yo‘ldoshlar” singari bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. Q.Yo‘ldoshev ushbu asarida yurtimizning taniqli shoir va yozuvchilari ijodiga xolisona baho berib, tanqidchilik sohasini yanada boyitib berdi.

Yuqoridagi fikrlarimizning isboti sifatida Abdug‘afur Rasulovning “Ilmi g‘aribani qo‘msab” maqolasini to‘laligicha keltirishni lozim topdik.

Abdug‘afur Rasulov badiiy asarga ilmiy yondashib baho berishning go‘zal namunasini ko‘rsatib, qanday asarni nodir asarlar sirasiga kiritish

tamoyillarini o‘zining “Ilmi g‘aribani qo‘msab” maqolasida yaqqol isbotlab bergan:

“...Yuqorida aytilgan fikr-mulohazalardan tabiiy ravishda Qozoqboy Yo‘ldoshning “Yoniq so‘z” asari so‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligida yaratilgan eng baquvvat fundamental tadqiqot, degan xulosa kelib chiqadi. Olim mustaqillik davri o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligining yetuk avlodiga mansub olimdir.

Xullas, “Yoniq so‘z” muallifning samimiyatga to‘la jo‘shqin qalbi amri bilan bitilgandir. Zotan, chinakam adabiy tanqid bu haqiqat uchun, badiiy ijodning gavhari bo‘lgan badiiyat uchun kurash maydonidir.

Sho‘ro davrida sotsialistik realizm, adabiyotning xalqchilligi, partiyaviyligi, kommunistik adabiyotning ideali, qahramoni haqida ming-minglab asarlar yozildi, chop etildi. Oxir-oqibat xulosa nima bo‘ldi — sarob bo‘ldi. Sho‘ro adabiyotida so‘z qadrsizlandi, so‘z o‘zligidan yiroqlashdi. Mumtoz adabiyotda har bir so‘z yetti o‘lchab, bir qo‘llanilgan. Bitta so‘z tarkibi, ma‘nosi bilan bog‘liq janrlar bo‘lgan. San‘atkorlar kam so‘z ishlatib, ko‘p ma‘noni anglatishni burch — san‘at, deb anglaganlar. Qolaversa, iymonli odam so‘zning muqaddas ekanligini yurak-yurakdan his etgan, so‘zni uvol qilish gunohidan qo‘rqqan. Ahli san‘at ko‘p so‘z ma‘niga yuk ekanligini his etgan. Humoyun Mirzo so‘z bisyori beo‘rin ishlatilgan asarni qat-qat kiyim kiyib olgan odamga qiyoslaydi; so‘zlarning ko‘p va o‘rinsizligi ma‘ni odimini susaytiradi:

Suxanro poya gar e‘zoz naboshad,

Tarzi xil‘atash iyjoz boshad.

So 'z san'atining yorqin siymolaridan sanalmish Fuzuliy quyidagi baytda o 'zining go 'zallikni anglash e'tiqodini ifodalagan deyish mumkin:

Gar cho 'q istarsan, Fuzuliy, izzating, oz et so 'zi,

Kim ch qo 'q o 'lmoqdan qilibdir cho 'q azizi xor so 'z.

Abdulla Avloniy ko 'pso 'zlilik yolg'onga, soxtalikka moyillik ekanligiga ishora qiladi:

Misi chiqqay ko 'p bo 'lsa, bir kun.

Ko 'paygan so 'zning bo 'lg'ay to 'g'risi oz,

Shakarning ko 'pidan ozi bo 'lur soz.

Kezi keldi, asosiy masalaga o'tishdan oldin, yana bir kuzatishimni aytib o'tmoqchiman. Badiiy asar ham jonli odamga o'xshaydi. Asarlar «sersuv» bo'lganidek, ba'zi odamlar ham ezma bo'ladilar. Yozuvchlar asar orqali aytar so'zi notayin bo'lsa, ko'p yozishga, kitobxonni so'z uyumiga «ko'mib» tashlashga intiladi. Ba'zi odamlar esa, savodsizligini yashirish uchun patira-putur gapirib tashlayveradilar. Misollarni Abdulla Qahhor asarlaridan keltirmoqchimiz. Abdulla Qahhor o'z qahramonlarining «to'q » va «puch»ligini so'zga munosabatiga qarab belgilagan. Turobjonning («Anor») xotini nazarida, eri turmush qurishganidan buyon g'uldirab kelgan. Bugun u uch so'zni aniq, ravshan aytdi: «Jigarlaring ezilib ketsin». Boqijon Baqoyev («Adabiyot muallimi») — g'irt savodsiz adabiyotchi. U o'z kasbini tinmay gapirishda, tinglovchisini holdan toydirib tashlashda deb anglaydi. Mana, Boqijon Baqoyev ma'ruzasini tinglash «baxti»ga muyassar bo'lgan Hamidaning holati: «... guvillab turgan boshida shundan boshqa hech narsa yo'q edi: praktikum, minimum, maksimum, Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping...» A. Qahhor Soraxonning onasi

siyratini bitta soʻz bilan yarq ettirib ochadi: «Bulbuligoʻyo» («Sarob»). Saidiy Bulbuligoʻyo kelayotganini eshitsa, ichidan titroq tutadigan boʻlib qolgan. Arslonbek Qalandarovning («Sinchalak») ham oʻz Bulbuligoʻyosi bor. Ammo Arslonbek Saidiy emas, oʻz Bulbuligoʻyosini xonaga tortish bilan birga Saidaga ham nimalarnidir imo-ishora qilayotgandek boʻladi: « — Aflotunning qizi boʻlsangiz ham gapni tonnalab olingu, grammlab soting. Gapingiz gapga oʻxshamaydi, ogʻzingiz gapdan boʻshamaydi!..» Abdulla Qahhorning shapaloqdek-shapaloqdek hikoyalari — oʻtmish haqidagi asarlariga doir koʻplab tadqiqotlar yaratilgan. Boqijon Baqoyev («Adabiyot muallimi»), Bulbuligoʻyo («Sarob»), Huriniso («Sinchalak») haqida juda koʻp gapirish mumkin. Nega? Abdulla Qahhor bu qahramonlar feʼl-atvoridagi asosiy nuqta — “jon”ni bexato topgan. Aslida, ilmi gʻariba shu... Mumtoz adabiyotshunosligimizda ilmi gʻariba, gʻariba ilmi-xususida talaygina maʼlumotlar berilgan. Gʻarib- (gʻariba) — ajoyib, taajjublanarli, hayron qoladigan narsa. Ilmi gʻariba talqin fani bilan bevosita bogʻliq- Ilmi gʻariba fanning teran nuqtalapini. ich-ichidagi maʼnilarini anglash sanʼatidir... Gʻariba ilmi mavjud fanlarni sinchiklab oʻrganish orqali kashfiyot darajasida xulosa chiqarishgacha yetish, ajoyibot nuqtasi qadar koʻtarilishdir. Alisher Navoiy «Xamsat ul-mutahayyirin» asarida Abdurahmon Jomiyning ilmiy uquvi nihoyatda kuchliligi haqida toʻxtab: «Va gʻaribdurkim, zohir ulumining takmili vaqtida necha ish alargʻa muyassar boʻlibturkim, bu ummatda akobir va sohib kamollardan hech qaysiga voqeʻ boʻlgʻoni zohir emas», degan xulosaga keladi. Alisher Navoiy «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida Muso alayhissalomning yaqin qarindoshi Qorun haqida yozadi: «Va

Muso alayhissalomning yaqin qarobatidur. Va Muso alayhissalom aning tarbiyatidan mubolag‘a qilur edi. Va ulumi g‘ariba va fununi ajibakim, fayzi olihidin zamirig‘a munaqqosh erdi, aning fahmi yetkoncha anga ta‘lim qilur erdi». Abdurauf Fitratning «Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘an munozarasi» asarida Buxoro madrasalarining talabalari o‘qishning to‘rtinchi — yettinchi yillarida «Mulla Jomiy»ni — «Sharhi Jomiy»ni («Favoyid uzziyoiya», «Al-marfu‘ot», «Al-majrurot», «Al-mansubot», «Al-mabniyyot») asarlari sharhi o‘qitilganligi xususida yoziladi. Demak, Jomiy asarlaridagi mantiqning kuchliligi — ilmi g‘ariba darajasiga ko‘tarilganligi rasman tan olingan edi. Ilmi g‘ariba haqida Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» asarida ham ma‘lumotlar mavjud. Olimlar rahnamosi Asomiddin Ibrohim haqidagi ma‘lumot diqqatga sazovordir: «Ko‘pgina ilm sohalari bo‘yicha yaxshi tasniflari bor. Ayniqsa, g‘ariba fanida iqtidori kuchli edi. Insho yozganda ko‘p ma‘nolarni mu‘jaz va lo‘nda kalomda bayon etib, siqiq, hajm mazmunida katta va ko‘p fikrlarni anglatardi. Hazrat Ubaydulloxon peshindan keyin arabiy tilda bir ruboiy aytib yuborgan ekan, mullo esa namozshomgacha dovur vaqt ichida shu ruboiy xususida bir arabcha risola tasnif qilishga ulgurganlar. Mazkur ruboiyning har bir misrasi bobida olti yuz ellik ma‘no aytganlar». Mazkur asarda Asomiddin Ibrohimning shogirdi Mavlono Husayn Turkistoni haqida mana bu ma‘lumot berilgan: «Ilmlar ikir-chikirini shu darajada o‘zlashtirganki, bu sohalarning ko‘pida mahorat bilan ish olib borardi... G‘ariba fanida fasohatomez nutqi va balog‘atangez kalomi bilan ko‘p gap tanobini tortib, farovon ma‘noli fikrlar inshosini oz jumlalarda oydin, ravon bayon qilardiki,

dunyo kezuvcchi aql isbotlash kemasi bilan tasavvur dengizida ketidan qanchalik ergashmasin, uni sharhlovchi soʻz topa olmasdi, aniqrogʻi, isbotlanmas masalalar turkumidan hisoblanardi». XX asrda, shoʻro adabiyotshunosligi va tanqidchiligida ilmi gʻaribaning paydo boʻlmaganligi sabablarini oʻylayman. Birinchidan, gʻariba fani haqiqiy sanʼat asarlari talqinida paydo boʻladi. Shoʻro adabiyotida siyosat, mafkura, targʻibot tashviqot qorishib ketdi. Qolaversa, shoʻro adabiyotining «xalqchilligi» talabi badiiy adabiyotni oʻta joʻnlashtirib, odmilashtirib yubordi. Koʻp oʻrinlarda badiiy adabiyot jurnalistikaga aylanayozdi. Shoʻro hukumati, kommunistik firqa qanday masalani qoʻymasin, badiiy adabiyot hamisha «labbay» deb otilib chiqdi. Shoʻro respublikalarida milliy mustaqillik uchun kurash paydo boʻldimi, adabiyotda bosmachilarga qarshi kurash mavzusi keng ishlana boshlandi. Qishloq xoʻjaligini yoppasiga jamoalashtirish harakati boshlandimi, adabiyotda «Ochilgan qoʻriq» monand romanlar, «Muraviya mamlakati» monand dostonlar koʻpayib ketdi. Adabiy tanqid badiiy adabiyotga nisbatanda mafkuralashdi, siyosiylashdi. U badiiy adabiyot sohasida firqaning koʻzi, qulogʻi, ovozigʻa aylandi. Adabiy tanqidning siyosiy xushyorligi qatli omu qatagʻon, taʻqiblarga sabab boʻldi. Shoʻro yozuvchilari yuksak minbarlardan turib qalb amriga koʻra yozajaklarini vaʼda qildilar. Qalblari esa, bus-butun partiyaga baxshida ekanligini qoʻshib qoʻydilar. Qalb amri bilan yozish — yurak qoni bilan bitishdir. «Yurak-qoni bilan yozgan odam uzun yozolmaydi», — deydi Asqad Muxtor «Tundaliklarida. Chin dildan gapirayotgan, aytayotgan gaplari masʼuliyatini sezgan odam ham uzoq, ravon gapira olmaydi. «Abdulla Qodiriy... sirtdan qaraganda bosiq, kamgap koʻrinar, chunki u

har bir soʻzni taroziga solib koʻrar, ogʻziga kelgan har bir soʻzni aytavermas, sekin va gapi xuddi oʻziga xalal berayotgandek yoqinqiramay gap boshlardi», — deb yozadi Oybek «Adabiyot, tarix, zamonaviylik» maqolasida. XX asrda ilmi gʻaribaga manba boʻladigan asarlarni Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Fitrat, Oybek, Odil yoqubov, Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin singari isteʼdodli ijodkorlar yaratdilar. Togʻay Murodning qissalari va romani gʻariba fani uchun bebaho material boʻldi. Afsuski, asrimizning 80—90-yillarigacha mashhur asarlarning sanʼatkorona sir-asrorlari haqida maqola, tadqiqotlar kam yaratildi. Avvalo, shoʻro adabiy siyosati ilmi gʻariba yoʻlidagi bosh toʻsiq boʻldi. Qolaversa, tanqidchilarda mahorat masalalarini yoritish, asar goʻzalliklari xususida fikr yuritishdan koʻra zamonasozlik tuygʻusi — asarning dolzarbligi, mafkuraga monandligi haqida gapirish kuchaydi. Muhimi, badiiy adabiyotda boʻlmasin, sanʼat asarlari xususida bitilgan tadqiqotlarda boʻlmasin, goʻzallik tuygʻusiga eʼtibor susaydi. Badiiy adabiyot, u haqida bitilgan asarlarda goʻzallik, nazokat tuygʻusini tarbiyalash asosiy gap ekanligi unutildi. Goʻzallik tuygʻusi deganda, avvalo, maʼnoning teranligi, fikrlashga undash yetakchilik qiladi. Alisher Navoiy asarlaridagi har bir ramz, har bir ifoda, har bir qiyos zaminida katta maʼno-mazmun yashiringan. Kitobxon buyuk sanʼatkor asarlaridagi maʼnoni anglagani sayin goʻzallik olamiga kirib borayotganligini, ruhiy-maʼnaviy jihatdan boyib borayotganligini his etadi. Mohir sanʼatkor bir ishora, bir bayt orqali tarixning katta odimini, oʻn yilliklar tajribasini bera oladi. Gʻariba fani tarix haqiqatini — qisqa

satrlar zamiridagi ma'noni yoritib berishi bilan g'aroyib, go'zaldir.
Masalan, Abdulla Oripovning:

Labda tabassumu ko'zda yosh bilan

Senga intilaman buyuk nabiram...

Erkin Vohidovning:

Sen hi1ol, yulduz, salib.

Tavrot, Zaburdan yuksalib,

Boymisan yoki g'arib,

Komron o'zing, yakson o'zing...

Rauf Parfining:

Parchin-parchin bo'ldi yodim sirlari,

Simlar — ko'zlarimga mil tortgan chizg'u

singari misralari g'ariba fani uchun boy manbadir. Tadqiqotchi shoir ruhiga sinchkov nazar tashlab, tarix haqiqati — fojialarini aks ettirishi mumkin. G'ariba ilmida san'atkor va tadqiqotchining o'zaro munosabati diqqatni tortadi. San'atkor aytmoqchi bo'lgan fikrini nozik yashira olsa, katta ma'noning biron qirrasiga ishora qilish bilan cheklansa, fikrni lo'nda aytsa-yu, his-tuyg'uni jilovlay olsa yoxud asarni davom ettirish imkonini yaratsa, g'ariba fani uchun maydon yaratiladi. Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanida 3 qator — misradan iborat bo'lim bor. Mana shu uch satr zaminidagi his-tuyg'uni alohida kitob qilib yozish mumkin. Yozuvchi his-tuyg'ular olamida jo'sh urishni g'ariba fani ustasiga qoldirgan. Mana o'sha «quruq» xabar — misralar:

Kuydi-kuydi— ayolimning tani kuydi.

Kuydi-kuydi — meni bag'rim kuydi.

Kuydi-kuydi — bolalarimning sho‘ri kuydi.

G‘ariba maqola yozuvchi tani kuygan ayolning rohat-farog‘atsiz o‘tgan umrini o‘ylab kuyadi; umr bo‘yi inson sha‘nini oyoq osti qiluvchi mehnatdan boshqasini bilmagan, yolg‘iz quvonchi, dardkashi, g‘amgusori ayolidan ayrilgan Dehqonqul holatiga kuyadi; shu uch misra haqida yozar ekan, bolaligi bolalarcha o‘tmagan, endi shum yetimlik azobiga duchor bo‘layotganlar taqdiriga kuyadi. Shu uch kuydiruvchi misra haqida yozuvchi odam «Osmon yiroq, yer qattiq» maqolini epigraf qilib olsa yanglishmasligini sezadi. Ilmi g‘ariba imkoniyatlari cheksiz. Shoir borki, shamol o‘yini, nur rangi, dengiz mavji (Iosif Brodskiy singari) orqali tuyg‘ularini ifodalaydi; shoir borki, yuragidagi og‘riqlarni — malomat toshida ochilgan gullarni (Rauf Parfi singari) tasvirlaydi; shoir borki, yuragini ochgani sayin namakob to‘la kosa lopillab goh u yon, goh bu yon borib turishini anglaydi. G‘ariba ilmida qalam suruvchi ijodkor ruhidagi holatlarni, go‘zallikdan go‘zallik yaratayotganini unutmagan holda, qog‘ozga tushirishi joiz. Ilmi g‘aribada badiiy asar muallifi va tadqiqot yaratuvchi aro munosabatning eng nozik ko‘rinishi mavjud. San‘atkor yozuvchi ham, olim-tadqiqotchi ham iste‘dod sohibi. Ammo san‘atkor iste‘dodi bilan olim uquvi — bilimi aro farq bor. San‘atkor — yozuvchi aksariyat hollarda g‘ayri shuuriy holatda, savqi tabiiy ravishda ijod qiladi. Yaratuvchi ijodkor ruhiyat olamidagi o‘zgarish, holat- o‘sislarni tasvirlaydi. Tadqiqotchi-olim, san‘atkordan farqli o‘laroq, mantiq kuchi bilan ish ko‘radi. Uning faoliyatida aql, ziyraklik, voqea-hodisa mohiyatiga teran kira olish muhimdir. G‘ariba ilmida shuuriylikning cho‘qqisi bilan mantiqning teranligi birlashadi. Badiiy asar tirik tan misoli hamisha o‘sib- o‘zgarib

borganiday, olim tadqiqotchi ham doimo uning yangi qirralarini kashf etaveradi. Mumtoz adabiyotda Bedil, Nadoiy, Fuzuliy asarlari yuzlab talqinlarga imkon berganini bilamiz. XX asr oxiriga kelib o'zbek adabiyotida jahon adabiyotidan o'rganish, uning yetuk tomonlarini ijodiy davom ettirish prinsipi kuchaydi. Bu hol g'ariba ilmi taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar ochishi tabiiy. Asrimizning 90-yillarida Omon Muxtor, Tog'ay Murod, Tohir Malik, Murod Muhammad Do'st singari adiblarning o'ziga xos asarlari — roman, qissa, hikoyalari paydo bo'ldi. Bu asarlarda nasrning nazm tomon siljib borishi — ruhiyat olamini aks ettirishi, qiyos, ramzlarning noziklashuvi, moddiy tushunchalar tuyg'usini yengib, ruhiy-ma'naviy tasavvurlar olamidan muhim o'rin egallashi singari belgilar sezilmoqda. Badiiy asarlardagi izlanish, yangiliklar ilmi g'ariba — talqin fanida ham aks etishi tabiiydir. Ilmi g'ariba talqin fanining hamisha navqiron, yangiliklarga boy, muhimi, go'zallik bilan yo'g'rilgan tarmog'idir".

Nazorat savollari:

1. Istiqlol yillarida tanqidchilikdagi o'zgarishlar haqida fikrlashing.
2. Mavzuga oid manbalarni qiyosiy o'rganib chiqing.
3. Tayyorgarlik uchun berilgan qo'shimcha material asosida zamonaviy o'zbek nasrining yetakchi tendensiyalari va ularga munaqqidlarning munosabati xususida o'ylab ko'ring.
4. Keltirilgan mashg'ulot rejasi asosida axborot matnini grafik organayzerlar orqali ifodalang.
5. Munaqqidlar asarlari bibliografiyasini tuzing.
6. Munaqqid faoliyatiga bag'ishlangan qo'shimcha materialni diqqat bilan o'qib chiqing va eng muhim jihatlarini belgilang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуғафур Расулов. Бадийлик — безавол янгилик: Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. — Т.: «Шарк», 2007. — 336 б.
2. Абдуғафур Расулов, Илми ғарибани қўмсаб. — Т.: “Маънавият”, 1998. — 64 б.
3. Бахтиёр Назаров, Абдуғафур Расулов, Шоира Ахмедова, Қурдош Қахрамонов, Ўзбек адабий танқиди тарихи. Дарслик. - Тошкент: Tafakkur qanoti, 2012 - 396 Б.

14-MAVZU: ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK PUBLITSISTIKASI.

Reja:

1. Jamiyat ma’naviy taraqqiyotida publitsistikaning o‘rni.
2. Bugungi o‘zbek publitsistikasida yoritilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy muammolar.
3. Bugungi o‘zbek adabiy publitsistikasining yetakchi muammolari.
4. Istiqlol davri o‘zbek publitsistikasida yoritilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy muammolar

Istiqlol davri o‘zbek publitsistikasining diqqat markazida zamon va zamondoshimiz hayoti, intilish kurashlari bilan bog‘liq dolzarb ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hamda maishiy muammolar ko‘ndalang turdi. Bu davr publitsistikasida bozor iqtisodiga o‘tish masalalari bilan bog‘liq muammolarni yoritish; xalqimiz hayotidagina emas, balki butun jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish yo‘lidagi kamchiliklarni, «soyalarni» fosh qilish; ekologiya masalalarini dadil ko‘tarib chiqish; jamiyatning ma’naviy hayotini sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq qator muammolarni tahlil qilish; insonning ruhiy, jismoniy va ma’naviy sog‘lomligi uchun kurash ruhini ifodalash; diniy oqimlarga munosabat masalasini teran tahlil qilish yetakchilik qiladi. Publitsistika ([lotincha](#): publicus - ijtimoiy) — davrning ijtimoiy-siyosiy va boshqa dolzarb masalalariga bag‘ishlangan adabiy ijod turi. Publitsistikaning vazifasi ijtimoiy fikr uyg‘otish va uni shakllantirish, ma’lum maqsadga yo‘naltirish, hujjatli fakt ma’lumotlar asosida voqelik manzarasini yaratishdan iborat. Hozirgi zamon ijtimoiy hayoti, unga aloqador o‘tmish va kelajak faktlari Publitsistikaning predmetidir. Hayotda ijtimoiy faoliyat, ong qarashlarning salmog‘i ortgan sari publitsistning, ya’ni

ijodkorning voqelikka faol aralashuvi, fikrni bevosita oshkora, dangal ifodalash tamoyili ham oshdi. Publitsistika fan, san'at, adabiyot asarlari tarkibiga tobora ko'proq kirib bormoqda. Publitsistik roman, pyesa, kino asarlari paydo bo'lmoqda.

Voqelik faktlarini mantiqiy va obrazli umumlashtirib ifodalovchi maqola va boshqa yirik asarlargina emas, balki matbuot janrlarining hammasi ham publitsistikaga kiradi. Publitsistika mavzu xususiyatlari jihatidan falsafiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, adabiy, tanqidiy; uslub jihatidan bahs-munozarali, tashviqot-targ'ibot, tanqidiy-tahliliy, hajviy ko'rinishlarga ega. Publitsistika janr jihatidan voqeiy-informatsion (xabar, reportaj, hisobot), tahliliy (maqola), badiiy-publitsistik (ocherk, felyeton, pamflet, yozuvchi maqolasi) turlarga bo'linadi. Publitsistika hayot faktlarini chuqur tahlil va tadqiq etish, ya'ni ijtimoiy-publitsistik tadqiqot orqali voqelikni kashf etadi. Shu jihatdan u ijtimoiy fanga yaqinlashadi. Publitsistika ilmiy-nazariy xususiyatlarga ega bo'lishi, u yoki bu fan masalalarini publitsistik maqola tarzida talqin va tashviq etishi mumkin. Publitsistikaning shakli, ichki tuzilishi mantiqiy tafakkur va obrazlilikning o'zaro birikuvidan iborat. Publitsistika janrida obraz o'ziga xos me'yorda qo'llanadi. Publitsist shaxsiyati shoir shaxsiyati singari o'zining boy ichki dunyosi, nuqtayi nazari bilan namoyon bo'ladi. Milliy matbuotimizdagi publitsistikaning tarixiy ildizlariga nazar soladigan bo'lsak, xalqimiz madaniyati tarixida bugungi til bilan atalgan — publitsistika, uni ro'yobga chiqarish vositalari matbuot yaratilishidan ancha ilgari paydo bo'lganligiga e'tibor qaratish kerak. Turkiy xalqlar yodgorligi "Qobusnoma", Nizomiy Aruziy Samarqandiyning "Nodir hikoyatlar" asarlarining mantiqiy tafakkur usuli ijtimoiy, axloqiy pafosi

va boshqa xususiyatlari jihatidan o'zbek publitsistikasining nodir namunalaridir. Bundan tashqari, ko'pgina tarixiy asarlarda ham publitsistik unsurlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Munshaot", "Mahbub ul-qulub" asarlarini shular qatorida sanaymiz. Sayid Hasan Ardasher, Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Mahmud, Husayn Boyqaro va boshqalar to'g'risidagi xotiralari aynan portret ocherki janri xususiyatlariga mos bo'lib, nafaqat, ularning ijodi, faoliyati, balki xarakteristikasi to'g'risida ma'lumot beradi. "Boburnoma" asarida esa badiiy publitsistikaning safarnoma, portret, reportaj va boshqa janrlariga xos bo'limlarni ko'ramiz. Samarqand, Andijon tasvirlari o'sha davrdagi shahar qiyofasini yaratadi, xalqining hayotini ko'z o'ngimizga keltiradi. XIX—XX asr boshlarida yozilgan Muqimiyning "Sayohatnoma"si yo'l ocherkiga xos namuna. Vodiyning ko'pgina qishloqlari ta'rifini o'ynoqi satrlar bilan aholisi ruhini shuurimizga joylaydi. XX asr boshlarida "Taraqqiy", "Oyina", "Xurshid" kabi gazeta jurnallarda chop etilgan Fitrat, Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadidlar ijodida publitsistik janrlarda yozilgan asarlar ko'plab uchraydi.

90-yillardan so'ng o'zbek milliy jurnalistikasida ham o'ziga xos o'zgarishlar kuzatildi. An'anaviy sharhlash jurnalistikasi o'rniga yangiliklar jurnalistikasi paydo bo'ldi. Natijada publitsistik janrlar axborot janrlariga ko'proq o'rin bera boshladi. Publitsistika keyingi yillarda yuqori bosqichga ko'tarildi. Ozod Sharofiddinov, O'tkir Hoshimov, Ibrohim G'afurov, Naim Karimov, Xurshid Do'stmuhammad, Erkin A'zam, Sultonmurod Olim va boshqa

o‘zlarining dolzarb publitsistik maqolalari bilan o‘zbek publitsistikasiga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Publitsistikaning yozma va og‘zaki shakllaridan tashqari grafik-tasvir (plakat, karikatura va boshqalar), fotokinematografik (hujjatli kino), teatr-dramatik (agitbrigada va boshqalar) shakllari ham bor. Is’hoqxon to‘ra Ibrat faoliyat doirasi keng shoir va olim, noshir va publitsist, pedagog va sayyoh, milliy uyg‘onish davrining mashhur islohotchisi sifatida butun hayotini Vatan va millat manfaatlariga, uning istiqboliga bag‘ishladi. Shu bois, uning boy madaniy-ma’rifiy, ilmiy-badiiy merosi nafaqat mamlakatimizda, hatto yaqin va uzoq xorijda ham keng o‘rganilmoqda. Keyingi yillarda Ibratning “Mezon uz-zamon” (“Zamon tarozusi”) ma’rifiy asarining yapon va o‘zbek professorlari Xisao Komatsu va Baxtiyor Bobojonov tomonidan hamkorlikda Toshkent va Tokioda nashr etilishi, shoir she’rlarining salmoqli so‘zboshi bilan Turkiyada chop etilgani ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek badiiy publitsistikasi jangovar, hozirjavob janr sifatida qayta oyoqqa turdi, yangi demokratik jamiyat qurilishining faol ishtirokchisiga, yillar davomida bir o‘zanga tushib qolgan fikr mudroqligiga barham berdi, jamiyat hayotida boshlanayotgan yangi jarayonlarning tolmas targ‘ibotchisiga aylandi, bahs-mushohada, hissiyotli muhokama jo‘shqinligini yuzaga keltirdi. 2020 yil 25-yanvardan chiqa boshlagan “Yangi O‘zbekiston” gazetasi yurtimizning turli jabhalarida faoliyat yuritayotgan yurtdoshlarimiz hayotini bor bo‘yicha yoritib bormoqda. Ayniqsa, istiqlol tufayli yurtimizga islom nuri tom ma’noda qaytdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi kunda Muborak haj safariga borib kelayotgan yurtdoshlarimiz shukronasi

gazeta sahifalarida o‘z aksini topmoqda. “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2024 yil 1-fevraldagi sonida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Norqobil Jalilovning **“Ziyorat va ziyofat chegarasi qayerda?”** mavzusidagi maqolasi e‘lon qilindi. Maqolada xalqimizning jonkuyar shoir va olimlari suhbatga tortilib, ularning fikrlari bilan muammoli masalalar yechimi tahlil qilingan. Ushbu maqolada parcha keltirib o‘tishni lozim topdik. ... **“Alloh uchun Haj va Umrani tugal ado eting”**. Ya’ni Alloh taolo Haj va Umrani ado qiluvchilarga: *“Haj va Umranning shartlarini to‘kis ado etinglar. Ularni ado etish asnosida zohiriy va botiniy nuqsonlarga yo‘l qo‘ymanglar”*, deya buyurgan. Umra so‘zi lug‘atda *“ziyosat qilish”* ma’nosini anglatadi. Istilohda esa *“maxsus shartlar bilan Baytullohni ziyosat qilish”* Umra deyiladi. *Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vassallam Umra qiluvchilar ham hojilar singari Alloh taoloning “mehmoni” bo‘lishdek sharafiga ega bo‘lishlarini xabar berganlar. Ulamolar: “Umra qilgan kishining yaxshi holatga o‘zgarishi, qilgan umrasining maqbul bo‘lgani alomatidir”, deganlar.*

Obiddin Mahmudov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi:—
O‘tgan yilning mart oyida menga ham Umra ziyoratiga borish nasib etdi. Butun vujudimda qalban tozarish, ruhan poklanish, fitratan pokizalikni his etish... Hamma-hammasi birgina mana shu muqaddas ziyosat tufayli sodir bo‘ldi. Ka’batullohga ilk nigoh tushgandagi nihoyasiz hayajon, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning muborak ravzalaridagi yuksaklikka o‘rlagan ruhiy holat, tavof jarayonidagi betakror kechinmalar, “sa’y” paytidagi mislsiz kuch-g‘ayrat... Xo‘sh, bularning qay birini aytib berayin sizga? Yo‘q, bugun men bu go‘zal safar haqida

emas, aksincha, bu boradagi ayrim kuzatuvlarimni aytmoqchiman. Bilasiz, Umra ziyorati dastlab Madinai munavvaradan boshlanadi. Istaysizmi-yo‘qmi, u yerda odamlarning bajarayotgan amallari, xatti-harakatlariga ko‘zingiz tushadi. To‘g‘risiyam shuda, bu yerga kelishdan asosiy maqsad – ibodat, ruhiy poklanish, bilib-bilmay qilgan gunohlar uchun tavba-tazarrular bilan mashg‘ul bo‘lish. Ayonki, kattaroq bir toifa ziyoratchilar shunday tabarruk joyga kelmoq uchun yillar davomida tayyorgarlik ko‘rgan. Buni ularning yurish-turishi, kiyinishidan darrov sezish mumkin. O‘ychan, ko‘zlari to‘la yosh, tillari mudom Qur‘on tilovati, zikr, duo, istig‘fordan bo‘shamaydi. Ming afsuski, sholi kurmaksiz bo‘lmaganidek, ziyoratda aynan o‘zimizning vatandoshlarimiz tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan ba‘zi bir noxush holatlardan ko‘z yumolmaysan kishi. Tan olaylik axir, bizning davlatimiz tomonidan boshqalar havas qilsa arzigulik ibratli qulayliklar, shart-sharoitlar yaratilgan. Lekin ayrim noxush holatlar ko‘ngilni xira qiladi. Masalan, ovqatlanish mahalida navbat yo joy talashishlar, ovozini balandlatib baqir-chaqir qilishlar, nafsli ustunlik qilib ortiqcha olingan taomlarning isrof bo‘lishi, masjidga emas, arzonroq do‘konga borish haqidagi o‘zaro gap-so‘zlar, aytilgan vaqtdan kechikish, eng kerakli hujjatlarni xonasida unutib qoldirish, bemalolxo‘jalik, bo‘lar-bo‘lmas askiyalar aytib, xoxolab kulishlardan ensasi qotadi boshqalarning. Besh mahallik farz amallarimizni umuman keraksiz tomoshalarga andarmon bo‘lib, mehmonxonada o‘qib qo‘ya qoladiganlar ham uchrab turardi. Yoki kechki ovqatni tanovvul qilgunicha shom vaqti ham kirib qolishi va xuftonni bir amallab, Haramda o‘qib kelib, yana kechki sayr bahonasida do‘kon aylanishlar... Bu kabi ovoragarchiliklar kerakmi o‘zi, degan

savolni o'rtaga tashlash lozim deb o'ylayman. Eng qizig'i, boshqa o'lkalardan kelgan ziyoratchilar Haramdan yoki Masjidi Nabaviyadan ketmasdan, hatto o'sha joyda uxlamay tong ottirganlarini ham ko'rdik. Bu ulug' ziyorat, ibodat, duo, tavba-tazarru! Shunday manzillarga yana kelish nasib etadimi-yo'qmi, u yog'i Allohga ayon. Har bir daqiqa g'animatku axir! Afsuski, biz bilan borgan ayrim vatandoshlarimiz kun bo'yi ibodatlar bir yoqda qolib, "selfi" tushish yo nuqul tanish-bilishlari bilan "videogurung" qilish bilan mashg'ul bo'lganiga ne deysiz? Maqtanishning ham chek-chegarasi bor-ku! Bunisi holva, muqaddas joyda turib uydagilariga necha kishilik dasturxon yozish, mahallasiga kiraverishdan to darvozasigacha gilam solishni, oyoqlari ostiga qo'y so'yishni, hamma qarindoshu tanish-begonalarga taklifnoma tarqatishni qayta-qayta tayinlashlar va hokazo... Nega keyingi paytda bunchalar g'ofil bo'lib boryapmiz? Bu to'qlikka sho'xlik deganimasmi? Bu kabi noshukrliklar davlatimiz tomonidan yaratilayotgan qulayliklar, imtiyozlarni suiste'mol qilishdan boshqa narsa emas. Yana bir sharmandali tomoni, ijtimoiy tarmoqlarda ayrim ziyoratchilarning muqaddas ziyoratni ko'z-ko'z qilishi, turli o'g'irligu dunyoning arzimashlash-lushi deb, boshqalar oldida bir-birini kamsitishi... Afsuski bunday noxush holatlardan ham ko'z yumolmaymiz. Bu esa, o'z navbatida, islom dunyosida alohida mavqe va obro'-e'tiborga ega bo'lib borayotgan mamlakatimiz sha'niga dog' tushirmasligiga kim kafolat bera oladi? Afsuski, hech kim!..

* * * **Savol:** "Haj yoki Umra ziyoratiga borganlar o'z xonadonlariga kelgan mehmonlarga turli xil hadyalar beradi (tasbeh, joynamoz va hokazo). Lekin hammamiz bilamiz, aksar sovg'alar,

menimcha zam-zam suvidan tashqari o‘zimizning bozorlardan sotib olinadi. Eskidan qolgan odat shunday, nimadir ulashmasangiz xafa bo‘lishlari ham mumkin-da. Qanday yo‘l tutilsa to‘g‘ri bo‘ladi?”

Javob: *“Hojilar hadya berishga majbur emaslar. Ulardan hadya umid qilish ham noto‘g‘ri. Bu ishlarni to‘xtatish kerak. Haj yoki Umraga borganlarning o‘zlari shunday ishlarni ommalashtirib, bo‘lajak ziyoratchilarga mashaqqat qilib qo‘yishdi”. (“Zikr ahlidan so‘rang” hay’atidan)*

Lola O‘roqova, adiba:

– *O‘tgan yil kuz oylarida davlat tomonidan berilgan yo‘llanma bilan 12 kunlik Umra ziyoratiga yangam bilan birga borib keldik. Juda go‘zal safar bo‘ldi. Qaytib kelgach, katta marosim uyushtirmadik. O‘zim uydagilarimdan iltimos qildim. Dabdaba kerakmas, odamlar gapirmasin, shuncha yil ma‘naviyat sohasida ishlayapman, kattaroq dasturxon ham yozmaylik, keldi-ketdiniyam ko‘paytirmaylik, dedim. Faqat qarindosh-urug‘lar kelishdi. Keyin ishga chiqib ketdim. Eshitgan tanish-bilishlarim hayron bo‘ldi, nega bir og‘iz aytmadingiz, deb. Fikrimcha, bunday ulug‘ ziyoratga borayotgan inson, eng avvalo, o‘zini ma‘nan, ruhan tayyorlashi shart. Moddiy imkoniyat keyingi masala. Chunki bu oddiy safar emas, uning huzuri bilan birga mashaqqatlari ham bor, sabr-iroda kerak*

.Alisher Nazar, shoir, noshir:

– *Umraga boraman deb yo‘lga chiqqan odam safar mashaqqatlariga sabri chidamasa bormagani ma‘qul. Kutilmaganda samolyot kechikishi, mehmonxonada joy yetishmay qolishi, avtobus vaqtida kelmay qolishi tabiiy hol... Shuni darrov videoga olib e‘lon qilish*

kerakmi? Qaysi firma shunaqa bo‘lishini xohlaydi? Nima, sizda qasdi bormi uning? “Yo‘l azobi – go‘r azobi” degani shu! Uncha-muncha qiyinchiliklarga chidaysiz-da. Yaqinda bittasi internetga chiqib olib “Ikki kundan beri Madinada sarsonmiz, qaytish biletimizning vaqti o‘zgartirilibdi. Bu nimasi?” deb olib borgan firmaning go‘riga g‘isht qalab yotibdi. Mo‘min odam Madinada sarson bo‘ladimi? Boradigan joyingiz qayerdaligini bilmaysizmi? Bir soatgina bo‘lsa ham o‘sha muqaddas joyda bo‘lish g‘animatmasmi? Umra ibodat. Har bir ibodatning mashaqqati bo‘ladi. Bu yo‘lda sarflangan har bir narsaning (quvvatingiz, vaqtingiz, mablag‘ingiz) o‘ziga xos ajri bor. Hadeb bergan pulingizni pesh qilavermang! Aslida safar mashaqqatini bo‘yniga olgan odam yo‘lga chiqishi kerak. Umruga borish Dubayga borib sayohat qilishdan farq qiladi. Gap shundaki, ayrim odamlarning ziyoratga borib “sarson bo‘ldik”, “ko‘chada qoldik”, “qiynalib ketdik” deb ayuhannos solishlari ba’zi niyati buzuvchi toifalarga qo‘l kelyapti. “Mana umrachilarning ahvoli, bu ishlarni to‘xtatish kerak!” deb darrov do‘mbirasini qo‘lga olishyapti. Shu kerakmi sizga?”

Maqolamizni “Ziyorat va ziyofat chegarasi qayerda?”, deb bejiz nomlamadik. Bu ikki qutb oralig‘ida INSON degan ulug‘ xilqat turibdi. Iymon, Vijdon, Insof degan muqaddas tushunchalar sizni biz uchun qanchalar qadrlil, qimmatli bo‘lsa, ZIYORAT odobi ham shunchalik aziz va mukarramdir. Har qanday tadbir-u marosim ham el-ulus bilan bamaslahat bajarilsa, ortiqcha dabdaba-yu as‘asa, hasham, isrofgarchilik, xo‘jako‘rsin amallarga yo‘l qo‘yilmaydi. Haddimizni bilaylik, old-ortimizga bir qarab qo‘yaylik endi. “Ziyoratingiz qabul bo‘lsin!” deyish qayda-yu, “Obbo, essiz shuncha isrofgarchilik,

***riyokorlik kerakmidi, buncha dabdaba Xudogayam yoqmaydi-ku”
deyish qayda?!. “ Norqobil JALILOV, O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan jurnalist***

Yana bir muhim jihati, to‘qsoninchi yillarning birinchi yarmida nafaqat ijodkor ziyolilar, oddiy kasb egalari, maktab o‘qituvchilari, sanoat, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot sohasi xodimlari, ko‘p bolali onalar ham qo‘llariga qalam oldilar. Matbuot ular uchun erkin mushohada minbariga aylandi, fikr almashish, boshqalarni ham eshitish, qiyoslash, xulosa chiqarish imkoniyati paydo bo‘ldi. Tahririyatlarga yo‘llanayotgan maktublarning aksariyatida mualliflarning shaxsiy talablari emas, jamiyat rivoji, millat taqdiri bilan bog‘liq kuyunchak mulohazalar ustivorlik qilardi.(1)Yoqubjon Xo‘jamberdiyev, Murod Abdullayev, Jumaniyoz Meliqulov, Karim Bahriyev, Abdunabi Haydarov singari qator ijodkorlar o‘zlarining o‘tkir publitsistik ruhdagi maqolalari bilan jamiyatimiz ravnaqiga to‘siq bo‘layotgan illatlarni yo‘qotishga qaratilgan fikr-mulohazalarini ilgari surganliklarini kuzatish mumkin. Xususan, jurnalist M.Abdullayev o‘zining o‘tkir problematik maqolalari bilan o‘zbek publitsistikasiga xos grajdanlik ruhini yanada chuqurlashtirishga erishayotir. Jurnalist Jumaniyoz Meliqulov o‘zining «Importlashayotgan ong yoxud globallashayotgan dunyo muammolari» nomli maqolasida respublikamizga xilma-xil vositalar orqali dunyo madaniyatining kirib kelayotganligini yoritgan. Muallif ilg‘or ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar, g‘oyalar va qarashlar bilan birga jamiyatimizga milliy zamindan uzoq bo‘lgan zararli axloq «eksport» qilinayotganligidan kuyunib fikr yuritadi. Xilma-xil televizion seriallar yoki adabiyotlar orqali millatimizga yot bo‘lgan axloqiy qarashlarning keng

yoyilayotganligi tashvishlanarli holdir. Bugungi kunda O‘zbekistonni o‘ziga xos va o‘ziga mos taraqqiyot yo‘lidan dadil bormog‘i uchun g‘arazli eksportlardan millat ongu tafakkurini isloh qilish lozimligi, har bir inson qalbining ezguliklarga yo‘g‘rilishida yuzaki taqlid emas, qalbning islohga yuz tutishi muhim ekanligi ro‘y-rost yoritilgan. Bunday maqolalar bugungi o‘zbek publitsistikasining taraqqiyot tamoyillarini belgilab berdi, deyishgan xaqlimiz. Publitsistika janri ham barcha adabiy janrlar qatori hayotimizni rang-barang jihatlardan tadqiq etib, taraqqiyotimizga yo‘l ochuvchi salmoqli fikr-mulohazalarni ilgari surayotganligi bilan diqqatga sazovor.

Serqirra ijodkor *O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi: Obiddin Mahmudovning “Biz bir bo‘lsak - yagona xalqmiz, birlashsak - Vatanmiz” shiori ostidagi maqolasi havola qilinadi.*

HAMJIHATLIK MAMLAKATNI OBOD QILADI

Ma’naviyat bizga tiriklikning mazmun va maqsadini tushuntiradigan, xatti-harakatlarimizni go‘zal axloq bilan boyitib, o‘zimizdan ham buyukroq tuyg‘u bilan bog‘laydigan botiniy kuch desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ma’nan yetuk, hushyor insongina millatning buguni va ertasi haqida fikr yuritadi, qayg‘uradi, tafakkur qiladi. Kelajak avlodning yanada baxtli, omadli hayot kechirishi, yaxshi bilim olishiga hissa qo‘shishga harakat qiladi. Hozirgi globallashuv davrida ommaviy madaniyat niqobi ostida kirib kelayotgan turli odat va yot g‘oyalar nafaqat yoshlar, balki kattalar ongini ham zaharlamog‘da. Bunga asosiy sabab kishilar ongida ma’naviy bo‘shliq mavjudligi

Hech kimga sir emas, dunyodagi geosiyosiy vaziyat tobora chigallashib boryapti. Virtual olamda madaniyatsizlik, axloqsizlik kabi illatlar

muntazam targʻib qilinmoqda. Buzgʻunchi gʻoyalar va maʼnaviy tahdidlar kuchayib, koʻpgina axborot vositalari gʻarazli niyatlarni targʻib va tashviq etmoqdalar. Bu esa, oʻz navbatida, davlatlar va millatlarning xavfsizligiga, insonlarning ongu tafakkuriga, dunyoqarashiga oʻz taʼsirini oʻtkazmoqda. Mana shunday murakkab sharoitda jonajon yurtimizda tinchlik va xotirjamlikni saqlash uchun birinchi navbatda Oʻzbekiston xalqining maʼnaviy birdamligi, hamjihatligi yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

HUSHYORLIK – DAVR TALABI

Donishmanddan soʻrashibdi: -Yigit yigitdan nimasi bilan farq qiladi? - Hushyorligi bilan, - deya javob beribdi donishmand. Haqiqatan ham, hushyorlik, sergaklik odamzotga xos boʻlgan fazilatlardandir. Shuning barobarida, maʼnaviy tanazzulning bosh omili sifatida ayni paytda dunyoning ayrim burchaklarida amalga oshirilayotgan xunrezlik, nizo-nifoqlarga nisbatan joʻyali fikr bildirish, oʻz munosabatini aks ettirish maʼnaviy sergaklikni, yanayam toʻliqroq ifodalasak, ijtimoiy-maʼnaviy birdamlik, bir yoqadan bosh chiqarishdek sharqona donishmandlikni talab etadi. Demak, bu ishlarning boshida hushyorlik bilan bir qatorda, jamiyatning ham maʼnan birlashishi – ijtimoiy yakdilligi turibdi. Maʼlumki, hozirda mamlakatimiz boʻylab ezgu tashabbuskor – “Biz bir boʻlsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz” gʻoyasi ostida “Maʼnaviyat marafoni” qizgʻin davom etmoqda. Unda peshqadam ziyolilar, taniqli yozuvchi va shoirlar, fidoyi maʼrifat targʻibotchilari, madaniyat va sanʼat vakillari xalq orasida boʻlishib, ular bilan samimiy suhbatlar qurishmoqda, oʻz fikrlari bilan oʻrtoqlashmoqda. Jumladan, yaqinda poytaxtimizning Adiblar xiyobonida “Maʼnaviyat marafoni”ga

bag'ishlangan matbuot brifingida Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, senator Minhojiddin Hojimatov bunday ma'naviy tadbirlarda har birimizning munosib hissamiz bo'lishi, shaxsiy mas'uliyatimiz, go'zal odob-axloqimiz bilan namuna bo'lishimiz zarurligini bot-bot ta'kidladi. Sharqona qadriyatlarga alohida e'tibor qaratish, bunda oila tarbiyasi muhim o'rin tutishi xususida ma'rifat targ'ibotchilar guruhining faoli, mohir moderator, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Jamila Shermuhamedova atroflicha fikr yuritdi. Tajribali pedagog, professor Muhammadjon Quranov esa o'z chiqishida yuqoridagi g'oyaning mazmun-mohiyati va uni xalq orasida yoyishda ma'rifatchilarning o'zlari bu so'z zamiridagi ezgu fikrlarni qalbidan o'tkazishi kerakligi haqida to'xtaldi. Ushbu ma'rifatparvar yurtdoshlarimning hurfikrlarini eshitarkanman, o'zim uchun xulosaga keldim. Demak, har birimiz o'z o'rnimiz, maqomimiz, vakolatimiz, egallab turgan lavozimimiz darajasida qo'ldan kelguncha ma'naviy yetuklik borasida jon kuydirishimiz lozim bo'ladi. Ta'kidlash joizki, Iqtisodiyot va moliya vazirligida ham ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda tadbirlar davom etmoqda. Jumladan, yaqinda xodimlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish, ular orasida kitob mutolaasiga mehr uyg'otishga qaratilgan navbatdagi "Kitob savdolari" yarmarkasi tashkil etildi. Unda xodimlar o'ziga yoqqan, sevib o'qiydigan asarlar bilan tanishdilar, oilasiga, jamoasiga qimmatli bilim manbai bo'lgan kitoblardan sovg'a qilishdi. Shu bilan birga xodimlarning ham ma'nan, ham jismonan sog'lom bo'lishiga e'tiborni kuchaytirish maqsadida "Sport – sog'liq garovi" shiori ostida sport musobaqalari o'tkazildi. Ayniqsa, arqon tortish, futbol, stol tennisi va yugurish bo'yicha o'zaro bellashuvlar

qizg'in tus oldi. Shuningdek, "Kasbim – faxrim" mavzusiga bag'ishlangan tadbirda yoshlarni o'z kasbiga sadoqatli bo'lish va tanlagan sohasini sevishga chaqirib, mehnat qilgan inson hech qachon e'tibordan chetda qolmasligi ustoz va murabbiylar tomonidan ta'kidlandi. "Xushmuomalalik – inson ziynati" mavzusida qilingan ma'ruzada go'zal odob, xushmuomalalik, ustoz-shogird an'analari haqida videolavha namoyish etildi va u barchaga manzur bo'ldi. Shuni aytish kerakki, "Ma'naviyat marafoni" doirasidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar vazirlikning hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarida qizg'in davom etmoqda.

GO'ZAL ODOB – POKIZA QALB IFODASI

So'radilar: Amallarning qay biri afzalroq?

Javob berildi: Chiroyli xulq. Insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, ahil va inoqlikning ziyoda bo'lishi, avvalo, go'zal axloqqa borib taqaladi. Chunki inson ilmga qancha muhtoj bo'lsa, go'zal xulqqa ham shuncha muhtoj. Zero, ilm va go'zal xulq insonni kamolotga yetkazuvchi ikki qanotdir. Aynan go'zal odob, ibratli axloqqa asoslangan tarbiyagina insonni inson darajasiga ko'taradi, uni ziynatlaydi, komillik sari eltadi. Zero, umr insonning har kungi ma'nan yuksalishidir. Shu o'rinda mutafakkir bobomiz Abu Muso al-Xorazmiyning insonni inson darajasida ushlab turuvchi oliy va mangu qadriyat haqidagi fikrlari ahamiyatlidir. U zotning fikricha, agar inson go'zal axloq egasi bo'lsa, u birga tengdir, ya'ni axloqli inson = 1. Buning ustiga u xushsurat bo'lsa, birning yoniga nol raqami qo'shiladi va natija 10 ni hosil qiladi. Boz ustiga u badavlat bo'lsa, hosil bo'lgan songa yana bitta nol qo'shiladi, ya'ni 100. Agar uning naslu nasabi toza ham bo'lsa, ushbu songa yana bir nol qo'shiladi

va hosil bo'lgan natija 1000 ni tashkil etadi. Biroq ushbu sondan axloqni ifoda etuvchi bir (1) tushib qolsa, bilingki, insonning qiymati yo'qoladi. Yaxshi muomala va samimiy munosabat qalblarga sevinch bag'ishlaydi. Ezgulikka to'la qalblar faqat yaxshilik istaydi. Kitoblarda aytilishicha, hatto bir kishining ikkinchi bir kishi qalbiga sevinch taqdim etishi gunohlari kechirilishiga sabab bo'larkan. Bejiz, hazrat Alisher Navoiy bobomiz "Kimki bir ko'ngli g'aribning xotirin shod aylagay, Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay", demaganlar. Zero, mehr-shafqat, samimiy munosabat, yaxshi muomala ahillik, o'zaro totuvlik, do'stlik manbaidir. Ha, Abu Ali ibn Sino bobomiz ta'kidlaganlaridek, "inson har doim navqiron, bardam bo'lishi uchun boshqa odamlarni ranjitmasligi, dilini vayron qilmasligi hamda o'zi go'zal muomalali bo'lmog'i lozim". Aslidayam shunday: mehr-muhabbat, o'zaro ehtirom, halol luqma, yetim va muhtojlar holidan xabar olish, ota-ona, keksalarni qadrlash, ustoz, rahbarlarni hurmat qilish milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismidir. Oramizda ana shunday fidoyi, o'z kasbining jonkuyari, yurish-turishi ibratli bo'lgan ko'plab hamkasblarimiz bor. Bunday go'zal axloq sohiblari ko'rkam xislatlar chashmasi hisoblanib, ularning qalbida hamisha mehr va ibrat bulog'i qaynab turadi. Shunday ekan, ish jarayonida, o'zaro munosabatlarda chiroyli xulqlarimizni to'la namoyon etish, arzimas gina-kudrat o'tgan bo'lsa, unutish, kechirimli bo'lish lozim ekan. Shunda hayotimiz yanada fayzli, turmushimiz farovon bo'ladi, mamlakatimiz ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan gullab-yashnaydi. Obiddin MAHMUDOV, Iqtisodiyot va moliya vazirining maslahatchisi. Bugun taraqqiyot pillapoyasidan ildamlab borayotgan yurtimizning har jabhasi paydar-pay qalamga olinsa, o'nlab

boburnomalar, yuzlab sayohatnomalar yaratishga arzigulik manbalar mavjud. Masalan, mustaqillik sharofati bilan aholisining turmush tarzi tubdan farovonlashgan Samarqand, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Urganch kabi shaharlar, butunlay qiyofasi yangilanayotgan azim Shahrisabz yoki boshqa shahar va qishloqlardagi bunyodkorlik ishlarining o‘zi bir olam mavzu.

Zamon shitobiga nazar solar ekansan, chinakam publitsistikaning davri kelganiga amin bo‘lasan. “Xo‘sh chinakam publitsistika o‘zi nima? Uning vazifasi nimalardan iborat? Chinakam publitsistik asarlar yaratish qiyinmi?” degan savollar qarshisida xayol surib qolasan kishi. Shunday ekan, kelajak avlodlarning bunday maqolalarni kuzatib adabiy muhitni to‘g‘ri baholash va ularning rivojida nimalarga e‘tibor qaratish kerakligini tushunib xulosalar chiqarishini hisobga olib, matbuotda tahliliy materiallarga ko‘proq o‘rin berish davr talabi ekanini anglaysan.

Publitsistika (lot: “ijtimoiy”) lug‘aviy ma’nosidan ham ko‘rinib turibdiki, davrning ijtimoiy, siyosiy va boshqa dolzarb masalalariga bag‘ishlangan adabiy ijod turidir. Unda publitsist biron bir voqea yoki mavjud muammo yuzasidan aniq fikrini aytadi. O‘z uslubida mahoratini ishga solib, mushtariylarning hissiyotiga ta’sir etadi, yoki ongini qitiqlab, mavzu borasida bosh qotirishga chorlaydi. Uning asosiy vazifasi ijtimoiy hayotimizdagi voqea-hodisalarga nisbatan jamoatchilikda fikr uyg‘otish tasavvurni yuzaga chiqarishdir. Bir qaraganda publitsistika taroziga ham o‘xshaydi — uning bir pallasida badiiy adabiyot ikkinchisida jurnalistika turadi. Badiiy publitsistik janrlar — ocherk, esse, feleton pamfletlarda badiiy adabiyot unsurlari ko‘zga tashlanadi. Ularda Obrazlilikka asoslanib, o‘xshatish, mubolag‘a, sifatlash kabi badiiy vositalardan

foydalaniladi. Tahliliy maqola, siyosiy sharhlarda fakt, dalil, tahlil kabi jurnalistik nuqtai nazar ko‘proq namoyon bo‘ladi. Ammo ikki holatda ham badiiy adabiyot yoki jurnalistik qarashlardan butunlay yiroqlashilmaydi, ana shu jihati bilan bunday ijod namunalarini adabiyot va jurnalistikani bog‘lab turuvchi oltin ko‘prikka qiyoslashadi.

Biroz bo‘lsa-da, tarixga murojaat qilganimizning boisi shuki, biz o‘sha davrdagi ijtimoiy voqelik haqida fikr yuritganimizda, avvalo o‘sha asarlarda keltirilgan manbaalarga asoslanamiz. Sohoni yaxshi bilgan ustozlar, xususan, jurnalistika sohasida o‘zining ilmiy qarashlari bilan nom qozongan Ochil Tog‘ayev ta’rificha publitsistik asarlarning asosiy vazifasi o‘sha davr ijtimoiy hayotidagi voqeliklar, muammolar, kamchiliklar to‘g‘risida jamoatchilik fikrini uyg‘otish, ularni maqsadli yo‘naltirish, deya ta’kidlaganlar. Shu fikrga qo‘shimcha qilib bunday maqolalar ijtimoiy hayotimiz haqida kelajak avlod uchun eng yaxshi tarixiy manba hamdir deyish mumkin.

Demakki, mana shunday publitsistik asarlargina bugungi kundagi ijtimoiy hayotimiz, siyosiy-iqtisodiy ahvolimiz haqida avlodlarga to‘laqonli tushuncha berishi mumkin.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, keng qamrovli ilm, fan-texnika yutuqlari, obodonchilik, ta’lim, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tizimdagi o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirgan badiiy, tahliliy, publitsistik maqolalar ko‘proq berilsa, bundan OAV obro‘si ham, saviyasi ham ortgan bo‘lardi.

Jurnalistikani baland-past tog‘ tizmalariga, publitsistikani eng baland cho‘qqiga qiyoslashadi. Shunday ekan, nafaqat bugungi hayotimizda kelajakda ham bunday maqolalar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Bir kun kelib orqaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, chuvalashib qolgan o‘rgimchak

to‘ri yoki zamondan olislab ketgan zangori ekran emas, garchi yillar shamoli sarg‘aytirgan bo‘lsa-da, davrning tafti sezilib turgan matbuotning sahifalarigina ko‘zga tashlanadi. Ularda aks etgan publitsistik asarlar bugungi ijtimoiy hayotimiz, erishilgan yutuqlar, yuzaga chiqqan kamchiliklar, xalqimiz ruhi, mamlakatimiz shukuhi to‘g‘risida kelajak avlodlarga so‘zlab beradi. Shu sababli, xalq dardi, quvonchi, o‘y-fikrlarini ifoda etgan asarlar yozish chin ijodkorning jamiyat va kelajak oldidagi burchi, vazifasidir. Zero, “chin asarlar makon va zamon tanlamaydi”.

NAZORAT SAVOLLARI:

- 1.O‘zbek publitsistikasi qachon yuzaga kelgan?
- 2.Butungi kun publitsistikada qanday masalalar yoritilmoqda?
- 3.Inson va jamiyatning iqtisodiy hamda ma’naviy kamolotida bugungi publitsistikaning o‘rni qanday?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ahmadjon Meliboyev. Badiiy publitsistikada davr ruhi (2011). *“jahon adabiyoti” jurnali, 2011 yil, 4-son.*
- 2.Obiddin Mahmudov. *Hamjihatlik mamlakatni obod qiladi (2020).*
“O‘zbekiston ovazi” gazetasi, 2023- yil 15-март, № 45
- 3.Norqobil Jalilov. “Ziyorat va ziyofat chegarasi qayerda? “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2024 yil 01.02.
- 2.Saydi Umirov. badiiy publitsistika (2012 yil tahlili) “Sharq yulduzi” jurnali, 2013 yil, 3-son.

15-MAVZU: ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTI

Reja:

1.Zamonaviy bolalar adabiyotida xarakter, konflikt va ruhiy kechinma.

2.Davr bolalar she’riyatining yetakchi xususiyatlari.

3.Adabiy jarayon va badiiy tafakkurdagi evrilishlar.

4.Bolalar she’riyatining ma’rifiy, ijtimoiy-estetik xususiyatlari.

Istiqlol davri o‘zbek bolalar adabiyotidagi yangilanish jarayonlari, yetakchi taraqqiyot tamoyillari va badiiy tafakkur hamda ijodiy uslubdagi poetik izlanishlar yoshlarning badiiy-estetik didini tarbiyalash va hayotdagi o‘z yo‘llarini topib ketish nuqtayi nazaridan ham o‘ta muhim. Ma’lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar fan va texnika, sport va intellektual salohiyat, kreativ tafakkur va ijtimoiy-madaniy muloqot sohalarida dunyo miqyosida o‘z tengdoshlari orasida raqobatlasha oladigan shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan. Yoshlarning kommunikativ vaziyatlarda uchraydigan muammolarining namoyon bo‘lishi, ularda adekvat muloqot ko‘nikmalarining pastligi, muloqot uchun to‘siqlarni yengish qobiliyati yetishmasligi o‘quvchilar orasidagi shaxslararo munosabat orqali ijtimoiy hayot faolligiga ham salbiy ta’sir etish ehtimoli yuqori. Shiddat bilan zamon o‘zgarayotgan ekan, bunday sharoitda har bir millat ahlining ijtimoiylashgan va dunyo bilan integratsiyalashgan holda o‘z qiyofasini saqlab qolishiga erishish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyot millatning o‘zligini, etnik-estetik xotirasini, ma’naviy-axloqiy qirralarini mujassam etadi. Shu bois jamiyat ma’naviyatining yuksalishida badiiy adabiyotning beqiyos o‘rni

bor. O'zligini tanigan, o'zining milliy qiyofasini tashkil etgan aqliy, axloqiy, ruhoniyl belgilardan xabardor shaxs tashqi ta'sirlar natijasida qiyofasini yo'qotib qo'ymaydi. Shuning uchun ham adabiyotning barcha yo'nalishlari shaxsdagi milliy o'zlikni saqlab qolishga qaratilishi kerak. Mustaqillik arafasi va istiqlol yillarida ijtimoiy-siyosiy va adabiy hayotda kecha boshlagan o'zgarish va yangilanishlar bolalar tarbiyasi va kamolotida ham yangicha estetik prinsiplarni yuzaga keltiruvchi va shakllantiruvchi asosiy omillarga aylandi. Mumtoz adabiy namunalarimizning an'anaviy ijodiy jarayonlariga qaytib ish ko'rmoqqa keng imkoniyatlar ochildi. Pand – nasihat ruhidagi didaktik asarlar bugun har qachongidan ham muhimdir. Shu o'rinda o'zining ma'naviy – axloqiy qarashlari bilan ko'pchilikning ko'nglidan joy egallab ulgurgan yurtodoshimiz Mahmudov Obiddin Abbosovich tomonidan yaratilgan "Odobnoma", "Farzandnoma", "Pandnoma", "Ibratnoma", "G'aroyibotnoma", "Dilnoma", "Saodatnoma" ruknida yozilgan "Farzandnoma" falsafiy-didaktik asari o'tkir mushohadakorligi va samimiy pand-nasihatlari bilan o'z kitobxonlari qalbiga yetib borgani ko'pchilikka ma'lum.

Avvalo, ushbu nodir asarga yurtimizning yetuk olim va olimalari tomonidan bildirilgan xolis va samimiy, purma'no fikrlarni aziz kitobxonga tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

«FARZANDNOMA» – FAZILATLAR KO‘ZGUSI

...agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ilm-u hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas.

Shavkat MIRZIYOYEV

“Biz, sharqliklar, ota-ona, ustoz hurmatini qadrlaydigan xalqimiz. Ularning purma’no so‘zlariga, hayotiy xulosalariga quloq tutamiz, unga amal qilishga intilamiz. Chunki hikmat, ibratli so‘z kishining zihnini charxlaydi, nuqsonlarini bilish va undan qutulishga undaydi. Ana shu nodir «ozuqa» tufayli inson botinan poklanib, ma’nan yuksalib boradi. Azaldan ota-bobolarimiz, komil ustozlar tarbiyada ushbu uslubdan judayam ehtiyotkorona va mohirona foydalanishgan. Ular farzand, shogird kamoli yo‘lida ko‘p mingyillik tajribadan kelib chiqib, turli tarbiyaviy vosita va bilimlar orqali tafakkur bulog‘i bilan to‘yintirilgan sharqona hayot maktabini yaratishgan. Bu amaliy tajriba maskani dunyo tamadduniga Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Al-Hakim at-Termiziy, Mahmud az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Aziziddin Nasafiy, Abu Mansur Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiydek yetuk allomalar-u ma’rifat ahlini, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Temur Malik kabi mard va jasur sohibqiron-u sarkardalarni, noyob aql sohiblarini yetkazib berdi.

Qadimgi mutafakkirlarimiz turmush kechmishlari, muqaddas kitoblar, hadislardagi ibratomuz fikrlardan hosil bo‘lgan saboqlarni jamlab,

«Qutadg‘u bilig», «Qissasi Rabg‘uziy», «Qobusnoma», «Pandnoma», «Futuvvatnoma», «Odobnoma», «Bo‘ston» va «Guliston», «Bahoriston», «Otalar so‘zi», «Ey, farzand», «Zarbulmasal», «Hayrat ul-abror», «Axloqi muhsiniy» va yaqin o‘tmishimizda «Qizlar daftariga», «Tolibnoma», «Saodatnoma» singari qator axloqiy-falsafiy kitoblar bitishgan.

Mazkur yo‘nalishdagi savobli, sharaflı ishlar bugun ham izchil davom etmoqda. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch», «Go‘zal odob – farzand iqboli», «Sog‘lom bola», «Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...», «Farzandlar – jannat rayhonlari», «Otamdan qolgan o‘gitlar», «Farzandingiz aqlli, sog‘lom va oqibatli bo‘lsin desangiz...», «Talaba qizimga maktublar», «O‘g‘limga maktublar» kabi asarlar shular jumlasidandir.

Muhtaram kitobxon! Mana, yana bir ma’rifiy «Farzandnoma» asari qo‘lingizga yetib turibdi. Asar yetti fasldan iborat. Birinchi fasl – «Odobnoma»da insondagi yetti fazilat va noqislik, Oqil ota, Dono ustoz va Qobil farzand savol-javoblari, chin do‘stning xislatlari to‘g‘risidagi mavzular kishini beixtiyor tafakkur qilishga, o‘zining qusur-u kamchiliklarini kamaytirib, fazilat bilan boyitishga undaydi.

«Farzandnoma» deb nomlangan faslida hayotimiz davomchilari bo‘lgan zurriyotlarga, shuningdek, yosh ota-onalarga o‘gitlar maktublar ko‘rinishida bo‘lib, ularda tarbiyaning qanchalik muhim va dolzarbligi ta’sirchan tarzda ochib berilgan.

Ma’lumki, hikmat – insoniyatning noyob topilmasi, donishmandlikning dur-u gavhari. Unda baxtiyorlik, o‘y-kechinma, armon, orzu-umid tuyg‘ularini, turmush saboqlarini o‘zida jam etgan

ganj-u xazina yashirin. Shu ma'noda, «Pandnoma» faslida odamzod faoliyatining tirgaklari bo'lmish ota-ona va ustozlarning tarbiya bobidagi mazmundor fikrlari keltirilgan.

«Ibratnoma» faslida muallif tomonidan o'zining katta bobosi va momosi bilan g'oyibona suhbatlari, mehribon qiblagoh-u muhtarama volidasi bilan savol-javoblari, hayot, tarbiya to'g'risida yosh-u kattani birdek o'ylashga majburlaydigan fikrlar o'rtaga tashlanadi. «G'aroyibotnoma»da farzand tarbiyasiga nisbatan hafsalasizligi, befarqligi oqibatida vijdonan qiynalayotgan ayrim yurtdoshlarimiz hayotidan lavhalar, ba'zi noqobil farzand bilan bog'liq voqealar, mitti hikoyalar berilgan. «Dilnoma» fasli inson qalbining tadqiqiga, uning go'zal va betakror siyratiga bag'ishlanib, botiniy olamiga «sayr» qilinadi.

«Saodatnoma» faslida esa, ota-ona duosini olgan qobil farzand xislatlari, dono va zukko yosh avlodning ertangi nurafshon hayoti latofat bilan bayon qilinadi.

Yurakdan bitilgan asar doimo kitobxonning ko'ngil mulkiga aylanadi. Shu jihatdan olib qaralganda, «FARZANDNOMA» asari siz-u bizga ezgulikdan saboq berish barobarida, yaxshilik va saxovat inson umrining bezagi ekanini eslatib qo'yadi. Ishonamizki, bu asar el-yurtning baxtli kelajagiga hissa qo'shishga ahd qilgan, ham botinan, ham zohiran komillikka intilgan insonlarning kitob javonidan munosib joy oladi.

Muhammadjon QURONOV, pedagogika fanlari doktori, professor

ODAMZOD HAYOTINING MAZMUNI

«...tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq lozim ekan. «Tarbiyani kim qilur? Qaydan qilinur?» degan savol keladur. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi – bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi – bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir, degan javobni bersak».

Abdulla Avloniy, «Turkiy guliston yoxud axloq»

Farzand tarbiyasi! Qanchalik mukammal, sinoatga to‘la, insoniy muomala-munosabatlar umumlashgan ushbu kalomda. Odamzod yaratilib, ongli hayot kechira boshlabdiki, bu masala nihoyatda dolzarb va o‘ta nozik mavzu bo‘lib kelmoqda.

Ha, yaxshi farzand – ota-onaning bebaho mulki, qalb gavhari, muborak siri va ulkan kashfiyoti. Uning kamolidan ota-onaning ko‘ngli nurafshon bo‘ladi, hayoti zavq-shavqqa to‘ladi. Bu sharafiga ega bo‘lganlar hurmat va izzat tojini kiyadilar, dunyo donishmandlariga aylanadilar. Aksincha, noqobil farzandning nojo‘ya xatti-harakatidan ota-onaning qaddi bukiladi, dili ozor chekadi, tarbiyada yo‘l qo‘ygan xatosi oqibatida pushaymonlik dardiga giriftor bo‘ladi. Alaloqibat, tirikligidayoq ularning hayoti do‘zaxga aylanadi.

Muallif Obiddin Mahmudovning «Farzandnoma» asarida komil farzand kamolotida ota-ona tarbiyasi, ustoz o‘giti, oilaviy muhitning qanday ahamiyat kasb etishi qisqa va lo‘nda ibora, voqealar orqali sodda tilda yoritishga harakat qilingan. Kichik hikoyalar, masallarda turli vaziyatlar, ota-onaning ichki kechinmalari tasvir va tahlil qilinib, tegishli xulosalar chiqarilgan.

Xo'sh, ushbu asarning paydo bo'lishiga qanday omillar sabab bo'ldi ekan?

Ma'lumki, hayot umumbashariy tezkor yangilanishlar girdobida shiddat bilan o'zgarmoqda. «Ommaviy madaniyat» deb atalmish g'ayriinsoniy tushuncha, tamoyil, dunyoqarashlar kun, soat, daqiqa sayin zurriyotlarimiz ong-u shuurini egallamoqda. Bunday sharoitda farzand tarbiyasining dolzarbligi ortsa ortdiki, kamaygan emas. Zotan, turli axborot xurujlari, qadriyatimizga yot, nomaqbul ta'limotlardan yoshlarimiz tafakkurini muhofaza etish, shu bilan birga, ularda mavjud ma'naviy bo'shliqni sharqona tarbiyaning nodir va nozik jihatlari bilan zamonaviy uslubda boyitish lozimligini davrning o'zi taqozo etmoqda. ...Bu masalaning bir tomoni.

Ikkinchi jihat shuki, real turmushimizda ota-bola, aka-uka, opa-singillarning mol-dunyo, orzu-havas bilan bog'liq munosabatlarida ro'y berayotgan turli noxush hodisalar ham, o'z navbatida, ular o'rtasidagi Mehr ko'prigini mustahkamlash zaruriyatini tug'dirmoqda.

Va yana bir og'riqli nuqta – odob-axloq, ruhiyatni chiniqtirish, mas'ullik masalalari. Bugun hayotimiz farovonlashib, tobora ravnaq topib bormoqda. Bu qadar tezkor iqtisodiy taraqqiyot o'z-o'zidan jamiyatning ma'naviy yuksalishi bilan uzviy bog'liq. Zotan, ma'naviyat taraqqiyotning ikkinchi qanoti bo'lib, bunda yosh avlodning ma'naviy barkamolligi, uning ichki olamini boyitish, ruhiy tomonlarini chiniqtirish, mehnatsevar va jasoratli etib tarbiyalash oldimizda turgan ustuvor vazifalardan sanaladi. «Farzandnoma» asarida ushbular haqida atroflicha, sharqona nozikta'b va vazminlik bilan mushohada yuritiladi.

Darhaqiqat, kishining baxtsizligi – uning tarbiyasizligida. Tarbiyasiz kishi sharm-u hayosizdir. Hayosizda esa e'tiqod sust, xiyonatkorlikka moyillik tuyg'usi kuchli bo'ladi. Bunday inson mohiyatan «yalang'och» bo'lib, aynan go'zal odob, ibratli axloqqa asoslangan ta'lim-tarbiya uni «kiyintiradi», zeb beradi, yuksaltiradi, komillik sari eltadi.

Mazkur kitob odamzodning ana shunday nozik torlariga ta'sir etib, biz – ota-onalarni umr mazmuni haqida, o'zimiz to'g'rimizda, zurriyotlarimiz barkamolligi yo'lida yanada chuqurroq o'ylashga undaydi, ular tarbiyasida beparvo bo'lmaslikka chaqiradi.

Umuman, hayot ne'mati odamzodga insondek yashashi uchun ato etilgan. Uning mohiyati siz-u biz uchun esa, shu ota yurt, ona zaminning har hovuch tuprog'ini gavhar bilib, har qarichini ko'z qorachig'idek asray oladigan, jannatmonand O'zbekistonimizning har tomonlama yuksalishiga xizmat qiladigan oqil, qobil, komil zurriyotlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Shayx Abdulaziz MANSUROV, islomshunos olim

IXLOS QALAMI – NODIR ASAR ASOSI

Toki inson chin e'tiqod kamari ila ixlos qalamini yurak siyohiga botirib, ming ranj yukini zimmasiga olib, yakuni xayrli bo'lishini dildan istab, oppoq qog'ozga ziyrak ong va nozik ta'b birla so'z lashkarini saf torttirmas ekan, foydali, sevib o'qiladigan asarlar dunyoga kelmaydi. O'quvchi e'tiboriga va e'tirofiga sazovor bo'lmaydi, nodir kitoblar javonidan o'rin olmaydi...

«Farzandnoma» kitobini, ochig'ini aytsam, katta hayajon va qoniqish bilan o'qib chiqdim. Unda keltirilgan hikmatlar, mag'zi to'liq mitti

hikoyalar, ibratli savol-javoblar bola tarbiyasida har qanday kishini jiddiy o'ylashga, bu borada o'z-o'zini isloh qilishga undaydi.

Muallif asarida murg'ak qalb sohiblari – farzand-u zurriyotlarimiz, yosh avlodning beg'ubor va samimiy istak-xohishlari, ezgu fikrlariga quloq tutadi, ularni eshitadi, «o'qiydi», uqadi va, o'z navbatida, ular ongiga salmoqli fikrlar ham tashlab ko'radi.

Asarning yana bir e'tiborli jihati shundaki, u barcha yosh toifasidagilar uchun tushunarli tilda yozilganidir. Xoh maktab o'quvchisi yoki talaba bo'lsin, xoh ota-ona, ustoz-murabbiy yoxud mahalla oqsoqoli bo'lsin, aytish mumkinki, mutolaa jarayonida o'ziga «tegishli» bo'lgan hikmat va ibratni topa oladi...

Muhimi, ulug' niyat, pokiza dil, yuksak did bilan yozilgan, milliy qadriyatlarimiz umuminsoniylik tamoyillari bilan uyg'unlashtirilgan bunday asarlar hozir bizga havodek zarur. Chunki ular dunyoda qamrovi tobora kengayib borayotgan «ommaviy madaniyat» deya atalmish buzg'unchi dunyoqarashlardan farzandlarimiz ong-u tafakkurini asrashda, bunday yot unsurlarga qarshi munosib kurashishda ham ma'naviy, ham g'oyaviy qurol bo'lib xizmat qiladi.

**Suyima G'ANIYEVA, filologiya fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Qahramoni.**

Asarda qobil farzand tarbiyasidagi adab, bilim, qanoat, sharm-hayo, xushxulqlik, jismonan baquvvat bo'lish va tirishqoqlik, mas'ullik kabi yetti fazilat atroflicha yoritilib berilgan bo'lsa, g'azab, qo'rquv, toshbag'irlik, yolg'onchilik va lafzsizlik, noshukurlik, yalqovlik va baxillik singari yetti noqislik haqida ham alohida yoritilgan.

Odamzodning borligi va borlig'i **DONO, OQIL VA QOBIL kabi fazilatlar**da to'raligicha namoyon bo'ladi. Adib bu qarashlarni mumtoz adabiyotimiz sarchashmalaridan suv ichgan ustoz va shogird suhbatida savol-javob tarzida berishga muvaffaq bo'lganligining o'ziyoq uning yuksak iste'dodidan darak beradi.

Dunyoda eng shirin narsa...

Dono suhbatni ajoyib bir hikoyadan boshladi.

Hikoya: Mahallada bir yuz yigirma yoshga kirgan nuroniy oqsoqol bor edi. Bir kuni odamlar ul tabarruk zotdan uzoq umr ko'rishining sirini so'rashdi:

– Avvalo, ota-onam, ustozlarim va yaxshi insonlar duolari ijobati, qolaversa, hayotimda qilgan yaxshi ishlarim natijasi va, albatta, sog'lig'imga e'tibor berib, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanganim hamda kelajakka qattiq umid bog'lab yashaganim tufaylidir, – deb javob berdi mo'ysafid.

Undan yana so'rashdi: – Dunyoda shirin narsa nima?

U javob berdi: – Dunyoda jon shirin. O'z joning o'zingga shirin. Chunki u halovat istagan paytda kishining ko'ziga hech narsa ko'rinmaydi... Shuningdek, inson faqat o'ziga eng aziz bo'lgan zot uchun o'z jonidan voz kechadi.

Mo'ysafiddan yana so'rashdi: – Insondan nima qoladi?

Javob berdi: – Ko'ngil qoladi, bolalarim, ko'ngil qoladi. Odamlar bu olamga birin-ketin kelishadi va oshini oshab, umrini yashab bo'lganidan keyin, xuddi avvalgidek, navbatma-navbat qaytmas dunyoga ravona bo'lishadi. Kishilarda aynan shu ko'ngil tufayli hali hayot bo'lganlari vafot etganlarni yorqin taassurotlar bilan yodga olishadi, ularning

hayotidagi ajoyib xotiralardan so‘ylashadi, ezgu ishlarini zurriyotlari-yu boshqalarga ibrat qilib ko‘rsatishadi...

Mo‘ysafiddan yana so‘rashdi: – Insonda nimalar mukammal emas?

Javob berdi: – Uning fe‘l-atvori, azm-u qarori, ko‘ngil xotirjamligi, hayotning baxtli kunlari-yu sinovlariga bo‘lgan munosabati, o‘y-xayollari.

–Buning boisi nedur?

–Buning sababi shuki, faqat odamzodgina ongini yuksaltirish qobiliyatiga ega. Kishi umri davomida ilm, tarbiya olib, hayotning «past-baland»ini ko‘rib borgan sayin, uning tafakkuri takomillashib, qalbi go‘zallashib, o‘zi esa odamiylik fazilatlariga ega bo‘lib boraveradi. Ushbular alaloqibat, insonda dunyoqarashining o‘zgarishiga, qalbidagi his-tuyg‘ularining turli darajada yuksalishiga zamin yaratadi.

Mo‘ysafidni yana savolga tutishdi: – Qalb nidosi bilan ichki ehtiroslar o‘rtasida qanday tafovut mavjud?

Javob berdi: – Birinchisi – kishini mushohada etishga chorlaydi, ikkinchisi – shoshqaloqlikka...

Yana savol berishdi: – Hayot sinovlarini yengib o‘tishda insonga nimalar kuch-quvvat, matonat bag‘ishlaydi?

Javob berdi: – Umidvorlik, e‘tiqodning mustahkamligi, metin iroda hamda xayrli yumushlar...

– Buning boisi nedur?

– Buning sababi shuki, ertangi kunga bo‘lgan umid tuyg‘usi kishini zavq-shavq bilan yashashga chorlaydi, e‘tiqodning mustahkamligi uni sobitqadam etadi, ezgu maqsad yo‘lidagi metin iroda esa hayot

sinovlariga bardoshli bo‘lishga undab, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi. Shuningdek, xayrli ishlarining samarasini ko‘rish istagi ham ushbu sinovli yo‘llarni bosib o‘tishda insonga o‘ziga xos kuch – madad baxsh etadi.

O‘zaro savol va javoblar

So‘radi: – Ikki insonning o‘zlariga bogliq bo‘lmagan holda bir-birlariga talpinishi nimadan darak beradi?

Javob berdi: – Bir-birlariga atalgan do‘stona tilaklarini tezroq oshkor etishga intiqligidan...

— —

So‘radi: – Inson hayotda ko‘pincha nimadan toliqadi?

Javob berdi: – Uning dard-u tashvishini yoki baxt-u xursandchiligini eshitadigan samimiy va sodiq do‘st yo‘qligidan...

— —

So‘radi: – Tiyrak ko‘z nimani anglatadi?

Javob berdi: – Masala mohiyatiga adolat va burch nigohi bilan boqmoqlikni.

— —

Suhbat shu yerga yetganda quyoshning taftli nuri ufq ortiga yashirindi. Navbatdagi kun tugab, kech kirdi. Suhbat yakunida Oqil Qobilga quyidagi xotima nasihatni qildi:

«Me’yorni bil va uning chegarasidan chiqma», degan o‘gitni eshitgan bo‘lsang, o‘shanga og‘ishmay amal qil, kam bo‘lmaysan...

Ota-bobolarimiz o‘z mulohazalarini hikoyat va rivoyatlar bilan bezab asoslaganlari singari O.Mahmudov ham barcha qarashlarini hayotiy hikoyalar bilan mukammallashtirib borgan. Zero, har qanday shaxsning

shakllanishida badiiy asar o'qishning beqiyos o'rni bor. Negaki badiiy asardagi qahramonlarning holat-u kayfiyatlari, iztirob-u quvonchlari, haq-u nohaqliklari bilan tanishish va tuyish orqali kishida odamiylik sifatlari qaror topadi. Odam o'zini o'zga bilan solishtira bilganda, o'zini boshqaning o'rniga qo'ya olgandagina chinakam odamga aylanadi. Bunda shaxsning ijtimoiylashuvi yuz beradi. Badiiy asar va uning qahramonlari taqdiri bilan tanishish orqali odam o'ziga yoqimli bo'lgan narsaning o'zgaga ham ma'qul bo'lishini, o'ziga yoqmaydigan tutum o'zgaga ham yoqmasligini bilib olsa, tuyib yetsa, unda odamiylik sifatlari tarkib topa boradi. Masalan, halol luqma hikmati quyidagi mitti voqeada o'z aksini topgan:

Bir dona o'rik hikmati

Bir kuni ishdan qaytayotib, shundoq ko'chamiz yuzida joylashgan «Dala do'koni»da o'rik sotilayotganiga ko'zim tushdi. O'rik endigina chiqqan paytlari edi. Yangilikdan farzandlarimni xursand qilish maqsadida do'kon yoniga yaqinlashdim. Bir dona o'rikni olib yarmini tishlarkanman, narxini so'radim, rosa mazali ekan. Afsuski, aytilgan narxdagi pul yonimda yo'q edi. Ololmaganimga afsus qilib, xayolan yo'limda davom etdim. Bir mahal qo'limda o'rikning qolgan yarmi borligini ko'rdim va uni sotuvchining roziligisiz olganim yodimga tushdi. Ich-ichimdan pushaymon bo'la boshladim. O'rta yo'lda biroz ikkilanib turdim-da, so'ng birdaniga ortimga qaytmoqchi bo'lib o'girildim. Shu payt qo'shnimizning qizi Lolaxon bilan to'qnashib ketdim va qo'limdagi yarmi yeyilmagan o'rik yerga tushdi. Endi ortga qaytish foydasiz edi...

Uyga kelib ham negadir kayfiyatim bo'lmadi. Buning ustiga tuni bilan oshqozonim og'rib, ko'nglim aynib, bezovtalanib chiqdim. Tuppa-tuzuk

odamning dabdurustdan bunday og‘rishi menga tushunarsiz edi. Lekin bunga sabab, o‘sha roziliksiz olingan o‘rik ekanini qalban sezib turardim.

Ertasiga ham odatdagidek ishdan qaytarkanman, nigohim yana o‘sha dona-dona qilib chiroyli tarzda terilgan, saralangan o‘rikka tushdi. Sotuvchining oldiga bordim-da, o‘rikdan ikki kilo tortishini va kechagi bir dona o‘rik uchun rozi bo‘lishini so‘radim. Sotuvchi: «Roziman, yodimdan ko‘tarilib ham ketgan edi», deya jilmaydi va qo‘shimcha qildi: «Qaniydi, boshqalar ham sizdek vijdonli, luqmasiga e‘tiborli bo‘lsa...»

Sotuvchi bilan suhbatdan so‘ng kayfiyatim ko‘tarilib, ruhiyatim yengillashdi. To‘g‘ri ish qilganimni o‘ylab, mamnun holda yo‘limda davom etarkanman, tanish ovozni eshitib to‘xtadim. Shundoqqina yonimda Lolaxon salom berib, jilmaygancha turardi. Sotib olgan o‘rikdan bir nechtasini unga uzatdim va o‘zim ham bir donasini og‘zimga soldim. O‘rikning ta‘mi kechagiga nisbatan boshqacha totli edi. Farzandlarimning xursand bo‘lishini ko‘z oldimga keltirib, uyim tomon oshiqdim...

Bayt: *Halol yeb, to‘g‘ri yurgan hecham kam bo‘lmas,*

Haromdan biron kimsa yutganin dunyo bilmas.

Har qanday shaxsning shakllanishida badiiy asar o‘qishning beqiyos o‘rni bor. Negaki badiiy asardagi qahramonlarning holat-u kayfiyatlari, iztirob-u quvonchlari, haq-u nohaqliklari bilan tanishish va tuyish orqali kishida odamiylik sifatleri qaror topadi. Odam o‘zini o‘zga bilan solishtira bilganda, o‘zini boshqaning o‘rniga qo‘ya olgandagina chinakam odamga aylanadi. Shundagina shaxs ijtimoiylashuvi sodir bo‘ladi. Badiiy asar va uning qahramonlari taqdiri bilan tanishish orqali odam o‘ziga yoqimli bo‘lgan narsaning o‘zgaga ham ma’qul bo‘lishini,

o‘ziga yoqmaydigan tutum o‘zgaga ham yoqmasligini bilib olsa, tuysa, unda odamiylik sifatleri tarkib topa boradi. Istiqlolga erishgach, o‘zbek bolalar adabiyotidagi yangilanish iste’dodli ijodkorlarning faolligi bilan tadrijiy ravishda o‘sib bordi. Davr bolalar she’riyati ko‘plab yosh iste’dodlar, jumladan, T.Adashboev, Q.O‘tayev, Anvar Obidjon, A.Ko‘chimov, H.Imonberdiyev, Rustam Nazar, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar, Z.Isomiddinovlarni yetishtirib berdi. Ular o‘zbek bolalar she’riyatining shakliy va mazmun mundariyasi, obrazlar olamini yangilashga erishdilar. Yangilangan poetik tafakkur asosida o‘zbek bolalar she’riyati va nasrining eng sara namunalari jamlanib, ikki jildli “O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi” chop etilgani o‘ziga xos hodisa bo‘ldi. Istiqlol davri yangi bolalar adabiyotining maydonga kelishiga 80-yillarning ikkinchi yarmi katta ta’sir ko‘rsatgani bejiz emas. Ayni shu davrda bolalar adabiyoti tom ma’nodagi haqiqatga tik boqadigan adabiyotga aylandi, yosh avlodni erksevarlik tuyg‘ulari ruhida tarbiyalashda ilk qadamlarini qo‘ydi. Bu ishga badiiy so‘z qudrati bilan hissa qo‘shib kelayotgan iste’dodli yozuvchilarning yangi avlodi yetishib chiqqanligi e’tirofga sazovor. Nafaqat Anvar Obidjon, T.Adashboyev, Miraziz A’zam, R.Tolipov, S.Barnoyev singari professional adib va shoirlarning o‘zgacha talqin hamda yo‘nalishdagi ijod namunalari balki Q.O‘tayev, H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab, Rustam Nazar, Vali Ahmadjon, S.Inoyatov, Qo‘zi Ismoil, Zafar Isomiddin, Erpo‘lat Baxt kabi ijodkorlarning bolalar adabiyotiga “yangi havo” olib kirishlari bilan e’tibor qozondi. Rasmiy senzura tazyiqidan, “yuqori”dan beriladigan “buyurtma” va “yo‘l-yo‘riq”lardan xalos bo‘lgan ijodkorlar bolalar she’riyatini mavzusiga ko‘ra turli-tuman,

mazmuniga ko‘ra har jihatdan teran va shaklan rang-barang, usluban serjilo asarlar bilan boyitish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Jumladan, R.Barakayevning “Jonajonim she’riyat” risolasida “...istibdod zanjirlari ostida ezilgan, qorni to‘q bo‘lsa-da, qadri yo‘q, boshi egiklar timsoli” sifatida talqin etilgan qo‘y ramziy obrazi xususidagi fikr-mulohazalar bildirilgan. Ko‘rinadiki, o‘zbek bolalar she’riyatida bo‘y ko‘rsata boshlagan o‘zgarish va yangilanishlar olimlarning shu tariqa munosabatlari, bahs-munozaralari asosida ijtimoiy-estetik tafakkurga aylana borgan. Ayni shu jarayonni nazarda tutib adabiyotshunos Q.Qahramonov shunday yozadi: “Bu davrga kelib bolalar adabiyotiga faqat ma’rifiy-tashviqiy tushuncha sifatida emas, balki badiiy-estetik hodisa, deb qarash yetakchilik qila boshladi. Natijada bu davrda bolalar adabiyoti namunalarida badiiy mukammallikka intilish, obrazlilik alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda lirizm, fikrchanlik, majozilik kabi xususiyatlar yetakchi tamoyillarga aylana boshladi”. Har qanday davrda ham bolalar she’riyati o‘zining soddaligi, ta’sirchanligi, mavzularning rang-barangligi, ifodaning tushunarlilik, tasvirning jozibadorligi bilan kattalar adabiyotidan farqlanib turadi. Vatan, millat, tabiat, maktab, hayvonot olami, narsa-buyumlar, o‘quv qurollari bilan bog‘liq mavzular ko‘pchilik bolalar shoirlari ijodida yetakchilik qiladi. O‘tgan asrning 80- yillarida bolalar adabiyotiga dadil kirib kelgan H.Imomberdiyev, N.Dushayev, Z.Isomiddinov, S.Inoyatov, Rustam Nazar, K.Turdiyeva, M.Qodirov, Dilshod Rajab, Vali Bobomurod, Orif To‘xtash, Qo‘zi Ismoil, Erpo‘lat Baxt, N.Ostonov kabi ijodkorlar esa istiqlool sharofati tufayli erkin ijodiy muhit imkoniyatlaridan samarali foydalanib, sertuyg‘u, mushohadaga boy asarlar yarata boshladilar. Ular

ijodida yangicha yondashuvlarga asoslangan shakliy rang-baranglikdan tashqari, bolani favqulodda o'ylantirib, hayot haqida, ijtimoiy munosabatlar borasida fikrlashga majbur etadigan teran mazmun singdirilganini ham ko'rish mumkin.

Bolalar adabiyotida ham o'tgan asrning so'nggi choragi va istiqlol yillarida yaratilgan ayrim asarlarga nisbatan polifonik atamasini qo'llashimiz mumkin. Bu badiiy tafakkurdagi evrilishlar ta'sirida noan'anaviy qahramonlar, obrazlar, talqinlarning serqirraligi, bir asarning o'zida turli yoshdagi va tafakkurdagi personajlar galeriyasi, yuzaga kelgan muammolarga munosabat xilma-xilligi kuzatila boshlangani bilan bog'liq. Masalan, T.Malikning "Alvido, bolalik!", X.To'xtaboyevning "Mungli ko'zlar" asarlarida o'smirlar qalbidagi ichki g'alayonlar, jamiyatdagi illatlar, fojialar ildizi, turli mansab va kasbdagi insonlar fe'l-atvori; shu bilan birga ularning har biriga xos mustaqil ovozlari-ohanglari monofonik tasvirdan ko'ra polifonik tasvirga yaqinligi anglashiladi. Ta'kidlash joizki, aynan bolalar adabiyotida, ko'pincha, bir asarning o'zida o'ndan ortiq turlicha taqdir egalari va ularning har biriga xos hayot falsafasi, qarama-qarshi qutbdagi shaxslar tafakkuri, fojialar ichidagi qahramonning mustaqil pozitsiyasi ko'rinmas edi. Ya'ni asarning boshidan oxirigacha birgina g'oya - konfliktsizlik, bir xil - silliq hayot tarzi, aniqrog'i, muallif hal qilar edi. Binobarin, mustaqillik arafasida yaratilgan yuqoridagi asarlarda qahramonlarining erkinligi yaqqol seziladi. Ularning har biri o'z aql-idrokiga qarab gavdalanadi; muallif har bir obrazga ularning nigohi bilan yondashadi. Umuman aytganda, bunday talqin va ifoda uchun ijtimoiy hayotning, badiiy tafakkurning o'zgarishi sabab bo'ldi. Aynan yangilanish davridagi

muammolar, fikrlar g'alayoni bolalar adabiyoti uchun ham polifonik tasvir usuliga aylandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. An'anaviy va zamonaviy bolalar adabiyoti qanday farq qiladi?
2. O'zbek bolalar qissalarining yangi tamoyillari va yo'nalishi haqida tushunchalaringiz qanday ?
3. Hikoyalarning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini nimalarda namoyon bo'ladi?
- 7 Bolalar hikoyalari sizningcha qanday bo'lmog'i kerak?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bashorat Jamilova. Bolalar adabiyotida zamonaviylik [Matn] / O'quv qo'llanma. - Buxoro: "BUKHARA HAMD PRINT" n, 2023.- 264 b.
2. Obiddin Mahmudov. Farzandnoma: adabiy-badiiy nashr. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi 2020. – 352 b.
2. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: "Sharofat-fayz", 2022. - 320 b.
3. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
4. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetic tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
5. To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T., 2019.

Tayanch tushunchalar:

Totalitar - zo‘ravonlik bilan xarakterlanadigan, demokratik ozodlik va shaxs erkinligini bostirishga qaratilgan tuzum, rejim.

Mohiyat — tub, eng muhim ma’no, ichki mazmun, mag‘iz.

Oqim — ma’lum bir yo‘nalish jarayoni; ijtimoiy faoliyat, ilm-fan, nazariya sohasidagi yo‘nalish, qarash.

Milliylik — adabiyotning milliy xususiyatini va o‘zi mansub bo‘lgan millatning ruhini ifodalash.

Milliy g‘oya - inson va jamiyat hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui.

Milliy mafkura — muayyan ijtimoiy g‘uruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o‘zida mujassam etadigan g‘oyalar tizimi.

Kechinma— kishining ruhiy holatiga ta’sir qiladigan his-tuyg‘ular, o‘y-xayollar.

Obrazlilik — voqelikni ijodkorning dunyoqarashi, ideali nuqtayi nazaridan aks ettirishning umumiy prinsipi.

Metafora — badiiy ko‘chish turi, qisqa o‘xshatish.

Metonomiya — badiiy ko‘chish turi, narsani boshqacha nomlash.

Vaqt - obyektiv borliqda yuz berib turuvchi voqea, hodisa va shu kabilarning qancha davom etishinn bildiradigan bo‘lagi.

Makon - voqea va hodisalarning ro‘y beradigan o‘rni, joy.

Badiiy kontekst- badiiy asarning tugal ma’no anglatuvchi parchasi.

Iymon — ishonch, e’tiqod; ko‘ngilda ishonish va tilda iqror qilish; halol; vijdonli; ruhiy holatning asosi.

E'tiqod — qattiq ishonch; mahkam ushlangan maslak; dunyoqarash.

Isyon — milliy, huquqiy, insoniy manfaatlarni himoya qilib ko'tarilgan qo'zg'alon; galayon, tugyon; Xudoning amrini bajarishdan bosh tortish.

G'oya - biror ish-harakat haqidagi fikr, o'y, niyat, maqsad; dunyoqarashning asosi, muhim prinsipi.

Plyuralizm - olamning asosida ko'p narsalar yotishi haqidagi goyalarni ilgari suruvchi ta'limot; fikrlar xilma-xilligi va qarashlarni rang-barangligi.

G'oya - inson tafakkuri mahsuli.

Badiiy tafakkur — ijodkorning hayot, jamiyat, kunlik turmush, inson xususidagi individual o'y-fikrlari, mulohazalarini badiiy asar voqeapari qahramoni xatti-harakati, faoliyati orqali ifodalanishi.

Epizod — nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan asar voqeasi; badiiy asarning bo'linmaydigan eng kichik qismi; asar syujetining uzviy xalqasi, asosiy tarkibiy qismi; yordamchi syujet chizig'ida uchraydigan xarakterlarning ayrim qirralarini yoritishga xizmat qiladigan qism.

Ruh - takomillashtiruvchi sof bir qudratdir. U parchalanmaydi, a'zolarga bo'laklanmaydi, uni qism qilib ajratish mumkin emas (Shayx Aziziddin Nasafiy. Zubat ul-haqqoyiq. "Tafakkur" jurnali, 1997 yil 5-son)

Ruhiyat—birovni saodatga yetkazish uchun o'zini fido qilmoqlik. Komillik-birovni saodatda ko'rib, o'zini saodatli etmoqlik.

Xatti-harakat - nazariya bilan amaliyotning mujassami (Aristotel).

Badiiy to'qima - hayotiy faktlarni o'z maqsadiga muvofiq saralash va uni ijodiy xayol tufayli yaxlit holga keltirish.

Yordamchi obrazlar - badiiy asar asosiy obrazlarini to'ldiruvchi, ularning xarakteridagi biror xususiyatini yorqinroq ochib berish uchun xizmat qiladigan ikkinchi darajali obrazlar.

Publitsistika - ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlar: publitsistik maqolalar, ocherk, pamflet, murojaatnoma, felyeton va hokazolar,

Pamflet - biror ijtimoiy tuzum voqyeli yoki siyosiy partiya faoliyati, programmasi, kamchiligi ustidan o'tkir hajv orqali kuluvchi kichik satirik adabiy asar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуғафур Расулов. Бадиийлик — безавол янгилик: Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. — Т.: «Шарк», 2007. — 336 б.
2. Абдуғафур Расулов, Илми ғарибани кўмсаб. — Т.: «Маънавият», 1998. — 64 б.
3. Бахтиёр Назаров, Абдуғафур Расулов, Шоира Ахмедова, Курдош Қахрамонов, Ўзбек адабий танқиди тарихи. Дарслик. - Тошкент: Tafakkur qanoti, 2012 - 396 Б.
4. Bashorat Jamilova. Bolalar adabiyotida zamonaviylik [Matn] / O‘quv qo‘llanma. - Buxoro: “BUKHARA HAMD PRINT” n, 2023.- 264 b.
5. Каримов, Ҳакимжон. Истиклол - бахтим, саодатим...: дарслик /. — Т.: Yangi nashr, 2010. — 364 б.
6. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. —Т., “Ma’naviyat”, 2000. -112 bet.
7. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. Adabiy-tanqidiy maqola va risolalar. —Т., “Akademnashr”, 2013. -336 bet.
8. N. Davurboyeva, “Jajman”ning Jilvalari// Yoshlik, 1991-yil, №5-son, 43-bet.
9. Do‘smuhammad X. Nazarning umidbaxsh kemalari. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. Qissalar va hikoyalar. —Т., “Yangi asr avlodi”, 2004. -212 bet.
10. Eshonqul N. Shamolni tutib bo‘lmaydi. Qissa va hikoyalar. —Т., 2005. -204 bet.
11. Ulug‘bek Hamdam. Vatan haqida qo‘shiq. —Т., “Akademnashr”, 2014. -544 bet

- 12.Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: “Sharofat-fayz”, 2022. - 320 b.
- 13.Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
- 10.Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
- 14.To‘xtayeva N. Istiqlol davri o‘zbek bolalar she’riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T., 2019.
- 15.Obiddin Mahmudov. Farzandnoma: adabiy-badiiy nashr. T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiiy uyi 2020. – 352 b.
- 16.R.Ibrohimova. O‘zbek fantastikasining ilk namunalari.
- 17.R.Ibrohimova. Realizm va fantastika. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2000 y. 6-son. 17-20 betlar
- 18.H.Shayxov. Tutash olamlar. Ikki jahon ovorasi. –T.: “Sharq”, 2001 y
- 19.N. Rahimjonov. O‘zbek adabiyotida poema. - T.: Fan, 1986.
- 20.Rahimjonov N., Quvvatova D., O‘roqova N. Zamonaviy doston xrestomatiyasi. /– T.: ... 2021. – 562 b.
- 21.Ulug‘bek Hamdamov. Badiiy tafakkur tadriji. — T.: Yangi asr avlodi, 2002.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
1-mavzu: Istiqlol davri sheʼriyatining taraqqiyot tamoyillari	7
2-mavzu: Bugungi oʻzbek sheʼriyatining oʻziga xos tamoyillari	35
3-mavzu: Istiqlol davri oʻzbek dostonlari poetik tafakkurining oʻziga xosligi.....	61
4-mavzu: Hozirgi oʻzbek poemalari(dostonlari) tabiati	92
5-mavzu: Istiqlol davri oʻzbek hikoyachiligining badiiy va uslubiy oʻziga xos xususiyatlari.....	118
6- mavzu: Bugungi oʻzbek hikoyachiligi: ularning oʻziga xos yoʻnalishlari.	136
7-mavzu: Istiqlol davri oʻzbek qissalariga xos qahramon yaratish tamoyillari	169
8- mavzu: Hozirgi oʻzbek qissachiligi.	184
9-mavzu: Istiqlol davri oʻzbek romanlarining badiiy talqini.	195
10-mavzu: Bugungi oʻzbek romanida davr, tarix, zamon masalalari.	229
11-mavzu: Bugungi oʻzbek dramaturgiyasi. Kechagi kun dramaturgiyasidan bugunning farqi.‘	239
12-mavzu: Istiqlol davri oʻzbek fantastikasi tarixi va uning oʻziga xosligi.....	262
13-mavzu: Istiqlol davri oʻzbek tanqidchiligi	284
14-mavzu: Istiqlol davri oʻzbek publitsistikasi.	304
15-mavzu: Istiqlol davri oʻzbek bolalar adabiyoti	322
Tayanch tushunchalar:	340
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:	343

RAYXON RASULOVA BAXRITDINOVNA

**ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTINING YETAKCHI
TAMOYILLARI
O‘quv qo‘llanma**

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	G. Samigova

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й
Bichimi 60x84¹/₁₆. “Cambria” garniturası, kegli 16.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,5. Adadi
100 dona. Buyurtma № 2198

Zebo prints MCHJda chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,
22-harbiy shaharcha
Tel.raqam: +998 94 673 66 56
+998 97 017 01 01

QAYDLAR UCHUN

